



# ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI

2

O'QITUVCHILAR UCHUN  
METODIK QO'LLANMA

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
nashrga tavsiya etgan*

*Yangi nashr*



UDK 37.091.33:811.512.133(072)

KBK 74.268.0

81.20'zb

*Tuzuvchilar:*

**Iroda Azimova**  
**Klaraxon Mavlonova**  
**Sa'dullo Qur'onov**  
**Shokir Tursun**  
**Nilufar Hakimova**  
**Husnora Baxtiyorova**

*Xalqaro ekspert:*

**Lannuzzi Susan**

*Taqrizchilar:*

**S. Tajbenova** – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti.*

**N. Nurmatova** – *Toshkent shahridagi 273-maktab o'qituvchisi.*

**N. Paxritdinova** – *Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi 67-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.*

Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b.

*Respublika maqsadli kitob jamg'armasi  
mablag'lari hisobidan chop etildi.*

*Original maket va dizayn konsepsiyasi  
Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlandi.*



## M U N D A R I J A

Kirish.....	4
Darslikdagi belgilar izohi.....	5
O'quvchilarni baholash yuzasidan tavsiyalar.....	8
O'zbekiston – mening vatanim! Vatanparvarlik nima?.....	10
Katta bo'lsam, nobel mukofotini olaman!.....	15
Maktabim – ikkinchi uyim.....	19
Tug'ilgan kuning bilan!.....	24
Mening mahallam .....	28
Qishda uxlaydigan hayvonlar .....	33
Yer ostida nima bor?.....	37
Sayohatchi qushlar.....	43
Bakteriya va mikroblar .....	46
Foydali nonushta .....	51
Tanamizni o'rganamiz.....	57
Hunar – hunardan unar .....	61
Kasblar .....	65
Katta bo'lsam, kim bo'laman?.....	70
Quvnoq ferma.....	73
Vaqtning qadri.....	79
Robot ixtiro qilaman.....	83
G'aroyib ixtirolar.....	88
Quyosh – quvvat manbai.....	91
Shaxsiy kutubxona .....	96
So'zni topib ishlating.....	99
Samarqand – tarix beshigi.....	103
Yozuvni kim ixtiro qilgan .....	107
Mo'yqalam mo'jizasi .....	111
Bolalar qo'shiqlari .....	116
Yo'l qoidasi – umr foydasi.....	120
Navbatda turishni bilasizmi?.....	124

## KIRISH

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o'qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda quyidagi tamoyillarga tayaniladi:

1. Ta'lim berishda kommunikativ yondashuv, ya'ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek, integrativ, faoliyatga yo'naltirilgan, ongillik, kashfiyotchilik, farqli va tanqidiy yondashuvlar e'tiborda bo'lishi lozim.

2. Tilni amaliyotda qo'llash, ya'ni matnni o'qish orqali ham grammatika, ham uning qo'llanishini o'rgatishga asoslaniladi.

3. Grammatik savodxonlik doirasida o'quvchining so'z boyligini oshirish, so'zlarning ma'no nozikliklari, farq va o'xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so'zlarni bog'lab gap, gaplardan esa matn tuza olish, birikmalardagi ma'noviy va grammatik, matndagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatish, o'zgaralar fikrini to'g'ri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatini to'g'ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va malakasini o'stirishga e'tibor qaratiladi.

4. O'qish savodxonligi doirasida o'quvchida to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o'quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish; o'qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; har qanday uslubdagi matnni o'qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasini oshirish nazarda tutiladi.

4. Barcha uslubdagi turli sohalarga oid matnlar bilan tanishish barobarida mashq va topshiriqlar orqali fanlararo integratsiya amalga oshiriladi.

5. O'quvchining o'qib, eshitib tushunish, og'zaki va yozma nutq malakasini umumiy holda rivojlantirish maqsadida ularning har biriga alohida e'tibor qaratiladi.

6. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, tilning ifoda imkoniyatlarini tushunishi va his eta olishi, "so'zni hazm qila olish" imkoniyatlari e'tiborga olinadi.

7. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy tafakkuri, fikrlash doirasi shakllantirib boriladi.

8. Yozma nutq bilan bog'liq beriladigan topshiriqlarda yozish strategiyalari taqdim etiladi. (Odatda bolaning bog'lanishli nutqini o'stirish, matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirish maqsadida savollar, rasmlar yoki kuzatuvlar asosida matn tuzish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar berib boriladi, ammo bu jarayonda qanday qilib yozish masalasi e'tibordan chetda qoladi. "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida ushbu jihatlarga e'tibor qaratilgan: noto'liq matnni to'ldirish, berilgan namuna asosida yozish, taqdim etilgan tanlovlar asosida yozish; savollarga ketma-ketlikda javob yozish; syujetli rasmlar asosida matn yozish kabi).

9. Har bir mashg'ulot tilni o'zlashtirishning tabiiy laboratoriyasi sifatida tashkil etiladi.

Mazkur metodik qo'llanmada ona tili va o'qish savodxonligi fanidan o'tilayotgan nutqiy mavzular doirasida qanday malaka talablari qo'yilgani, bunda qaysi jihatlarga e'tibor berish lozimligi, rejada ajratilgan soatlarga muvofiq darslarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar, darslikdagi mashq, topshiriqlarning bajarilish yechimi hamda matn, rasm, chizmalar ustida ishlashga oid metodik ko'rsatmalar berilgan.

Mashq daftarida darslikda ishora qilingan, maxsus belgi bilan ajratilgan topshiriqlar bajarib boriladi. O'quvchilar daftarga yozishlari, chizishlari, bo'sh o'rinlarni to'ldirishlari, o'qib va tinglab tushunish, matn tuzish bilan bog'liq topshiriqlarni bajarishlari hamda rasmlarni bo'yashlari mumkin.



## DARSLIKDAGI BELGILAR IZOHI



**O'qish** belgisi darslikda berilgan matnни o'qishga ishora qiladi.



**Savollarga javob berish** belgisi darsda savol-javob, bahs-munozaralar vaqti kelganidan xabar beradi.



**Mashq daftariga yozish** belgisi o'quvchi daftarida ishlanadigan mashqlar oldidan berilgan.



**Audiomatni tinglash** belgisi kelgan o'rinlarda o'quvchilarga shu mavzuda berilgan audiomatni eshittiriladi.



**Qoida bilan tanishish** – qoidalar oldidan berilgan belgi.



**Qiziqarli mashg'ulot** belgisi bilan berilgan topshiriq rasm chizish, bo'yash, yasash yoki loyiha tuzishga doir qiziqarli mashg'ulot bo'lishi mumkin.



**Partadosh bilan bajarish** o'quvchi o'z partadoshi bilan birgalikda bajaradigan mashq va topshiriqlarni anglatadi.



**Rasmga e'tibor berish** belgisi rasmi topshiriqlar oldidan beriladi.



**Quvnoq musobaqa** sinfda musobaqa uyushtirish nazarda tutilgan topshiriqlar oldidan berilgan.



**Topshiriqni bajarish** belgisi mustasno holatlarda qo'llangan topshiriqlarni nazarda tutadi.

Mazkur metodik qo'llanmada darslarni rejada ajratilgan soatlarga muvofiq tashkil etish bo'yicha tavsiyalar, darslikdagi mashq, topshiriqlarning yechimi hamda matn, rasm, chizmalar ustida ishlashga oid metodik ko'rsatmalar berilgan.

## 2-SINF O'QUVCHISIGA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANIDAN QO'YILADIGAN MALAKA TALABLARI

Og'zaki nutq
OTO'S.2.ON.1 suhbat jarayonida ikkinchi sinf darajasiga mos mavzular yuzasidan adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda ravon so'zlay oladi
OTO'S.2.ON.2 kichiklar, tengdoshlari hamda kattalar bilan suhbat hamda muhokama jarayonida muloqot odobiga (bir-birini hurmat qilish, so'zga chiqishni istashini hurmat bilan so'rash, mavzu yoki matn yuzasidan navbat bilan gapirish) rioya qiladi va fikrini bildira oladi
OTO'S.2.ON.3 suhbat yoki muhokama jarayonida boshqalarning fikriga munosabat bildiradi, munosabatini asoslab bera oladi
OTO'S.2.ON.4 suhbat yoki muhokama jarayonida ma'lumot yoki mulohazani aniqlashtirish uchun savollar bera oladi
OTO'S.2.ON.5 sinf darajasiga mos she'rlarni yoddan, ifodali hamda ravon aytib bera oladi



OTO'S.2.ON.6	sinf darajasiga mos mavzu hamda holatlarda rasm, shaxs, narsa va hodisalarni tasvirlab bera oladi
OTO'S.2.ON.7	sinf darajasiga mos matnlarni o'qib / tinglab bo'lgach, uning asosiy mazmunini aytib bera oladi
OTO'S.2.ON.8	sinf dasturidagi avvaldan berilgan mavzu yuzasidan bilimlariga tayangan holda kichik taqdimot o'tkaza oladi
OTO'S.2.ON.9	shaxsiy qiziqishlari haqida tayyorgarliksiz, tartibli so'zlaydi, o'z nutqini detallar bilan to'ldira oladi
<b>Tinglab tushunish</b>	
OTO'S.2.TT.1	ikkinchi sinf darajasiga mos matnlarda voqea-hodisa, shaxs, narsa, joy yoki g'oya haqidagi ma'lumotlar so'zlovchi tomonidan ochiq ifodalanganda savollarga javob bera oladi
OTO'S.1.TT.2	dialog yoki suhbat jarayonida so'zlovchining o'z g'arabini anglay oladi
OTO'S.2.TT.3	so'zlovchi nutqidagi ohangga tayanib so'roq, darak, buyruq hamda his-hayajon gaplarni farqlay oladi;
OTO'S.2.TT.4	sinf darajasiga mos badiiy yoki informativ matnni tinglagach uning asosiy mazmunini, voqealar ketma-ketligi va g'oyasini aytib bera oladi
OTO'S.2.TT.5	sinf darajasiga mos badiiy yoki informativ matnni tinglash jarayonida voqea-hodisa sodir bo'layotgan makon hamda zamon haqida taxmin qila oladi, taxminlarini asoslab bera oladi
OTO'S.2.TT.6	so'zlovchining uch bosqichli ko'rsatmalarini tushunadi va ularga amal qila oladi
OTO'S.2.TT.7	sinf darajasidagi og'zaki, media, reklama, badiiy hamda informativ matn haqida o'z fikrini bildiradi va asoslab bera oladi
<b>O'qib tushunish</b>	
OTO'S.2.O'T.1	harflar hamda tovushlarni o'zaro moslashtirib o'qiy oladi
OTO'S.2.O'T.2	alohida yoki matn tarkibida kelgan sinf darajasiga mos so'zlar hamda birikmalarni (tanish, notanish) to'g'ri o'qiy oladi
OTO'S.2.O'T.3	sinf darajasiga mos badiiy hamda informativ matnlarni ravon hamda ifodali o'qiy oladi
OTO'S.2.O'T.4	sinf darajasiga mos matndagi notanish so'zlar ma'nosini aniqlash uchun lug'atdan (darslik oxiridagi yoki bolalar uchun chiqarilgan boshqa) foydalana oladi
OTO'S.2.O'T.5	sinf darajasiga mos badiiy hamda informativ matnlarda ochiq ifodalangan ma'lumotlar (qahramonlar, faktlar, detallar)dan savol berilganda javob beradi hamda javobini asoslay oladi
OTO'S.2.O'T.6	sinf darajasiga mos qo'llanma, retsept, xarita, mahsulot yorlig'ida keltirilgan ko'p bosqichli ko'rsatmalarga amal qila oladi
OTO'S.2.O'T.7	sinf darajasiga mos badiiy hamda informativ matnlardagi voqealar ketma-ketligini to'g'ri belgilay oladi
OTO'S.1.O'T.8	kun tartibi aks etgan jadvalni tushuna oladi
OTO'S.2.O'T.9	taqvimdan foydalanib tug'ilgan kun, bayramlar hamda ma'lum sanalarni belgilay oladi
OTO'S.2.O'T.10	sinf darajasiga mos matn hamda tasvirlarni o'zaro moslashtiradi
OTO'S.2.O'T.11	matnning ma'lum qismini o'qib, keyinchalik sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqealar hamda ularning natijalarini taxmin qiladi, matnni mantiqan davom ettira oladi



OTO'S.2.O'T.12 sinf darajasiga mos badiiy hamda informativ matnlarda nazarda tutilgan mavzu, maqsad, asosiy g'oyani aniqlaydi va javoblarini asoslab bera oladi
OTO'S.2.O'T.13 sinf darajasiga mos badiiy matndagi bosh qahramonlarni aniqlay oladi
OTO'S.2.O'T.14 she'riy asarning syujetini, voqealar ketma-ketligini tushunadi, qayta aytib bera oladi
OTO'S.2.O'T.15 onlayn media, reklama hamda sinf darajasiga mos badiiy va informativ matnda muallif nazarda tutgan maqsad, matn mohiyatini aniqlaydi, javoblarini matnga tayangan holda asoslab bera oladi
<b>Yozma nutq</b>
OTO'S.2.YN.1 asosiy husnixat qoidalariga amal qilgan holda yoza oladi
OTO'S.2.YN.2 fikir ifodalashda nutq ohangi va kontekstga mos nuqta, vergul, so'roq hamda undov belgilarini qo'llay oladi
OTO'S.2.YN.3 tinish belgilari hamda imlo qoidalariga amal qilgan holda 30–40 ta so'zdan iborat diktant yoza oladi
OTO'S.2.YN.4 o'zining hamda oila a'zolarining shaxsiy ma'lumotlarini (ismi, familiyasi, manzili, telefon raqamini) yoza oladi
OTO'S.2.YN.5 berilgan rasm, matn (audiomatn) asosida shaxs, narsa yoki ma'lum voqea-hodisani tasvirlab, 2–3 ta o'zaro mustaqil gap tuza oladi
OTO'S.2.YN.6 turli maqsadlarda (tasvirlash, savol-javob, hikoya qilish, xat, tabriknoma) matn tuzib yoza oladi
OTO'S.2.YN.7 berilgan rasm, matn (audiomatn) asosida shaxs, narsa yoki ma'lum voqea-hodisani tasvirlab, sarlavha qo'yib 4–5 ta gapdan iborat matn tuzib yoza oladi
OTO'S.2.YN.8 sinf darajasiga mos matnlarni rasm, jadval va shu kabilar bilan boyita oladi
<b>Lingvistik ko'nikmalar</b>
OTO'S.2.LK.1 tovushlarni taniydi, ularni harflarga moslashtira oladi, tovushlarni qo'shib so'z hosil qila oladi, tovushlar joylashuvini o'zgartirib yoki tovushni olib tashlab yangi so'z hosil qila oladi
OTO'S.2.LK.2 bo'g'inlarni taniydi, ularni qo'shib so'zlarni talaffuz qila oladi, bo'g'inlarni birlashtirib, joylashuvini o'zgartirib yoki bo'g'inni olib tashlab yangi so'z hosil qila oladi
OTO'S.2.LK.3 sinf darajasiga mos badiiy matnlarda qofiyadosh so'zlarni taniydi va ayta oladi
OTO'S.2.LK.4 sinf darajasiga mos og'zaki va yozma matnlardagi so'z birikmasi, notanish so'z, iboralarning ma'nosini berilgan kalit so'zlar orqali aniqlaydi, ularni og'zaki va yozma nutqida samarali qo'llaydi
OTO'S.2.LK.5 sinf darajasiga mos og'zaki va yozma matnda berilgan ishora so'zlar asosida fanlar kesimida so'z va atamalar (notanish so'z, sinonim, antonim, so'z shakllari kabilar) ning ma'nosini aniqlaydi, atamalarni to'g'ri talaffuz qiladi, ularni og'zaki va yozma nutqida samarali qo'llay oladi
OTO'S.2.LK.6 gaplardagi birinchi so'zlar hamda ismlarni bosh harf bilan yoza oladi
OTO'S.2.LK.7 sinf darajasiga mos sodda gaplarning egasi, kesimi, aniqlovchisini farqlay oladi
OTO'S.1.LK.8 sinf darajasiga mos matnlarda gaplarning darak, buyruq, so'roq hamda his-hayajon ohangida ekanini aniqlaydi, og'zaki va yozma nutqida to'g'ri qo'llay oladi
OTO'S.2.LK.9 sinf darajasiga mos matn hamda so'zlarda bo'g'in ko'chirish qoidalarini amalda qo'llay oladi

OTO'S.2.LK.10

sinf darajasiga mos matnlarda ot, sifat, fe'llarni aniqlaydi hamda ularni og'zaki va yozma nutqida samarali qo'llay oladi

OTO'S.2.LK.11

asosiy husnixat, imlo, bo'g'in ko'chirish hamda tinish belgilari qoidalariga amal qilgan holda ikkinchi sinf darajasiga mos, o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan gaplar hamda kichik matnlar tuzib yoza oladi

## Qo'shimcha izohlar

**I. Milliy o'quv dasturi (MO'D)dagi malaka talablari bilan mosligi.** Bunda har bir dars mohiyatidan kelib chiqqan holda jadval ko'rinishida malaka talablar ajratib berilgan. Jadvalda quyidagi qisqartmalardan foydalanilgan:

OTO'S – ona tili va o'qish savodxonligi.

ON – og'zaki nutq.

YN – yozma nutq.

LK – lingvistik kompetensiya.

**II. Har bir nutqiy mavzu boshida uning maqsadi berilgan.**

**III. Har bir darsning boshida darsning maqsadi berilgan.**

**IV. Dars jarayoni.**

Kirishda mavzuga o'quvchini olib kirish uchun yo'riqnoma berilgan bo'lib, buni qat'iy xulosa sifatida qabul qilish kerak emas, ya'ni bu tavsiyaviy xarakterga ega.

Asosiy qismda mavzu mohiyatini ochishga qaratilgan darslikda hamda qo'shimcha beriladigan savollar, mashq va topshiriqlar ustida ishlashga oid metodik tavsiyalar berilgan.

Yakuniy qismda yozma mashqni bajarish yo'riqnomasi keltirilgan.

8

# O'QUVCHILARNI BAHOLASH YUZASIDAN TAVSIYALAR

## 1. Baholash turlari

**Shakllantiruvchi** – o'quvchilar kutilgan natijaga erishgan yoki erishmaganini kuzatish.

**Xulosalovchi** – o'quvchilarning kutilgan natijaga qanchalik darajada erishganligini xulosalash.

## 2. Xulosalovchi baholash

Ta'lim jarayonining ma'lum bir muhim bosqichida (masalan, modul yoki fan oxiri, semestr yoki chorak, o'quv yili oxiri, ta'limning bir bosqichi nihoyasi yoki ta'limning keyingi bosqichiga o'tishdan oldin) o'quvchining ta'limiy maqsadlarga qay darajada erishganligini o'lchash jarayoni.

Xulosalovchi baholash deganda yakuniy imtihonlar, bitiruv yoki qabul imtihonlari, standartlashtirilgan testlarni tushunamiz.

## 3. Shakllantiruvchi baholash

### 3.1. Shakllantiruvchi baholashning asosiy maqsadlari:

– muntazam ravishda sinfda o'quvchini baholab borish orqali u qaysi bilim, ko'nikma, malaka yoki kompetensiyalarni yaxshi o'zlashtirayotgani yoki o'zlashtirmayotgani, nimalar ustida ishlashi kerakligi haqida ma'lumot beriladi;

– biror mavzu oxirida nazorat ishi olish orqali o'qituvchi o'quvchilarning shu mavzuni qay darajada o'zlashtirganliklari, qanday xatolarga yo'l qo'yayotganlari haqida ma'lumot olishi va zarur bo'lsa, o'tilgan mavzuga yana qaytishi mumkin;

– o'qituvchi o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasini aniqlash maqsadida test o'tkazishi va olingan ma'lumotlar asosida keyingi qadamlarni rejalashtirishi yoki o'quvchilarni guruhlariga ajratishi mumkin.

Shakllantiruvchi baholash – kuzatish vositasi, xulosalovchi baholash esa aniq baho bilan tugaydigan jarayondir. Bu ikki baholashning farqini tushunish uchun biz umumta'lim maktablaridagi baholashga bo'lgan munosa-





batimizni o'zgartirishimiz lozim. Testga yoki baholashga klassik yondashuv shundayki, baho o'quv jarayonini yakunlash (o'quv jarayoni deyliganda biror bilim, ko'nikma, mala-

kani o'rganish jarayoni nazarda tutilmoqda) vositasi deb qaraymiz. Bu mantiqni biroz o'zgartirish vaqti yetdi, chunki o'rganish yakunlab bo'lmas jarayon hisoblanadi.

### 3.2. Shakllantiruvchi baholash usullari

#### Savol-javob

#### Ochiq va yopiq savollar

<b>Ochiq savollar:</b>	masalan, o'quvchini erkin gapirishga undaydigan munozara: Ayting-chi, ... ....ga munosabatingiz qanday?
<b>Yopiq savollar:</b>	masalan, qisqa va aniq javoblarni talab qiluvchi savollar: "Karima" so'zi nima uchun bosh harf bilan yozilgan? "Kitob" so'zida nechta bo'g'in bor? Fotima qayerga borishni istaydi?

#### Kuzatish

O'quvchilar bir narsani turlicha usullar bilan o'zlashtiradilar. Kimdir ko'rganda o'zlashtirsa, kimdir eshitganda yaxshiroq tushunadi. Bu esa o'qituvchidan bir vaqtning o'zida turli usullarni qo'llash va o'quvchilarni baholashda ham bunga e'tibor qaratishni talab etadi.

O'quvchilarning o'zlashtirishiga **ko'rish, eshitish, o'ylash, his qilish** ta'sir qiladi. Bularni metodik tilga tarjima qilsak, quyidagicha bo'ladi: **amaliy faoliyat, tadqiqot, muammoni yechish, o'yinlar, rolga kirishish.**

O'qituvchi aynan shular orqali o'quvchining o'zlashtirgani yoki o'zlashtirmaganini

aniqlashga urinishi kerak. Sizga taqdim etilgan darslik bilan bu ishni amalga oshirish ancha qulay, ushbu darslikdagi mashq va topshiriqlar shakllantiruvchi baholash talablariga to'laqonli javob beradi.

#### Fikr-mulohaza

Shakllantiruvchi baholash bu shunchaki o'quvchini tekshirish emas, balki unga fikr-mulohaza bildirish hamdir. Ya'ni o'quvchining aniqlangan kamchiliklarini qanday tuzatishi kerakligi haqida o'qituvchidan oladigan fikr-mulohazasi ham shakllantiruvchi baholashning ajralmas qismi hisoblanadi.

Fikr-mulohazalar samarali va samarasiz ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular quyidagicha aks etadi:

Samarali	Samarasiz
O'quvchining rivojlanishiga qaratilgan.	Noaniqliklar mavjud.
Kamchiliklarni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerakligini o'z ichiga olgan.	O'ta umumiy.
Yozma, og'zaki yoki vizual shaklda ifodalangan.	O'quvchining shaxsiy xususiyatlariga asoslangan.
Ijoiylik ruhida ifodalangan.	Mukofot, rag'bat sifatida ishlatilgan.
Tez-tez va o'z vaqtida (kamchilik aniqlangan zahoti) berilgan.	
Xoslangan aniq shaklda (mavhum bo'lmagan) ifodalangan.	
Hukm chiqarilmagan, faqat mavjud vaziyat tavsiflangan.	
O'quvchining shaxsiy xususiyatlariga emas, faoliyatiga qaratilgan.	

Quyida o'qituvchining samarali va samarasiz fikr-mulohazasiga namuna keltirilgan:

Samarali fikr-mulohaza	Nimasi bilan samarali?
Bosh harflarning qo'llanishi bilan bog'liq jami 4 ta xato bor. Kitobning 28-betini oching va bosh harflar imlosiga oid qoidalarni takrorlab oling.	Kamchiliklarni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerakligini o'z ichiga olgan.



Nutqingiz juda tez edi, shuning uchun har bir so'zni sekin va ravon talaffuz qilib, har bir jumla orasida pauza qiling.	Xoslangan aniq shaklda (mavhum bo'lmagan) ifodalangan.
Maftuna, tuzgan matningizda sifatdoshlardan juda yaxshi foydalangansiz, keyingi safar KFSQLarni qo'llashda e'tiborli bo'ling.	O'quvchining rivojlanishiga qaratilgan.
Muhammad, muammoga yondashuvingiz to'g'ri, bu muammoni hal qilishda 3 ta to'g'ri qadamni amalga oshirgansiz.	O'quvchining xatti-harakatlari kutilgan natija bilan qiyoslab berilgan.

Samarasiz fikr-mulohaza	Nimasi bilan samarasiz?
Sinfdagi boshqa o'quvchilarga nisbatan yaxshi bajargansiz.	O'ta umumiy. O'quvchi aynan nimasiga ko'ra yaxshi bajarganini, aynan qaysi nuqtalar yaxshi deya baholanayotganini, keyingi harakatlari qanday bo'lishi kerakligini anglolmaydi.
Qoniqarsiz yoki yaxshi bajarilmagan.	Noaniq. O'quvchi xatolari nimada ekanini, ularni bartaraf etishi uchun nimalar qilishi kerakligini anglolmaydi.
Juda yaxshi javob berdingiz, qoyil!	Noaniq. O'quvchi qaysi harakati to'g'riligi va uni davom ettirish o'rinli ekanini aniq bilmaydi.
Siz juda yaxshi o'quvchisiz, sizdan nihoyatda mamnunman!	O'ta umumiy. O'quvchining qaysi xatti-harakatiga bunday xulosa berilayotgani ochiq aytilmagan.
Siz juda yaxshi gapirdingiz.	O'ta umumiy. O'quvchining javobi qanday xususiyatlarga ega ekanligi aytib o'tilmagan.

10

## O'ZBEKISTON – MENING VATANIM! VATANPARVARLIK NIMA?

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning vatanparvarlik bilan bog'liq ta-savvurlarini kengaytirish, ularning mazkur mavzu doirasida ishlatiladigan so'z, so'z birikmalari va gaplarni to'g'ri tushunish va to'g'ri qo'llashiga erishish.

1-soat

### DARS JARAYONI

Kirish

*Ayting-chi, siz Vatan deganda nimani tu-shunasiz?*

1-BO'LIM
VATANPARVARLIK NIMA?

📖 Rasmlarga qarang. Vatanparvarlikni nimalarda ko'r-yapsiz?







- ① Siz o'zingizni vatanparvar deb hisoblaysizmi? Nima uchun?
- ② Qaysi ishlar Vatan uchun foydali bo'lgan deb o'ylaysiz?
- ③ Qanday ishlar vatanparvarlik hisoblanmaydi?

📖 1.  "O'zbekiston" deganda xayolingizga qaysi so'z-lar kelyapti? Ularni bo'g'inga ajratib yozing.

**Namuna:** Va-tan, ...

O'zbekiston tarkibidagi respublika va 12 ta viloyat nomini yozing.

5



## Asosiy qism

### Topshiriq. Rasmlarga qarang. Vatandarparvarlikni nimalarda ko'ryapsiz?

Har bir rasm diqqat bilan kuzatiladi hamda savol-javobga o'tiladi.

#### 1. Siz o'zingizni vatanparvar deb hisoblaysizmi? Nima uchun?

Berilayotgan javoblarning aniq va qisqaligiga, bir-birini takrorlamasligiga e'tibor qaratiladi.

#### 2. Qaysi ishlaringiz Vatan uchun foydali bo'lgan deb o'ylaysiz?

Javoblarda o'quvchining Vatan uchun foydali deb baholagan ishlari haqida gapirish ko'zda tutiladi.

#### 3. Qanday ishlar vatanparvarlik hisoblanmaydi?

Bu savolga javob berishda kichik guruhlarda ishlash ham mumkin. Buning uchun kichik guruh a'zolari vatanparvarlik deb hisoblanmaydigan ishlarni qog'ozga yozib, taqdimot shaklida javob berishlari mumkin.

Bolalarning erkin, ijodiy fikrlashlariga, so'zlash jarayonida ularning adabiy talaffuzlariga ham jiddiy e'tibor qaratiladi, fikrlarini bo'lmagan holda o'qituvchi o'zi uchun gapirayotgan o'quvchining nutqidagi kamchiliklarni qayd etib boradi. Alohida yondashuv orqali daralar davomida ushbu kamchiliklar bartaraf etib boriladi.

#### Yozma mashq

**1-mashq. "O'zbekiston" deganda xayolingizga qaysi so'zlar kelyapti? Ularni bo'g'inga ajratib yozing.**

#### **Namuna: Va-tan.**

O'quvchi mashq daftariga mavzuga aloqador bo'lgan, xayoliga kelgan so'zlarni bo'g'inga ajratib yozadi. Masalan, yashab turgan shahri, qishlog'i, mahallasi nomi, ota-onasining ismi va hokazo. O'quvchi mavzuga aloqador bo'lmagan so'zni yozgan bo'lsa, buning xato ekanini aytishdan oldin sababi so'ralishi lozim.

**2-mashqda** O'zbekiston tarkibidagi respublika – Qoraqalpog'iston hamda 12 ta viloyatning nomi yozilishi so'ralgan bo'lib, o'quvchilar ushbu so'zlarni bosh harflar imlosiga rioya qilgan holda yozadilar. Bunda xaritadan foydalanish ham mumkin.

## 2-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

O'qituvchi o'quvchilar bilan o'tilgan dars mavzusiga bog'liq qisqa savol-javob o'tkazishi mumkin.

#### Asosiy qism

Tashkiliy qismdan so'ng o'quvchilarga quyidagi audiomatn eshittiriladi (imkoni bo'lmaganda, o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi):

### OSHXONAMIZ RAMZI

O'zbekiston oshxonasi deganda kishining xayoliga birinchi bo'lib tandir keladi. Chunki tandir uyimizning to'rida savlat to'kib turadi-da. Uni bemalol o'zbek milliy oshxonasi-ning ramzi deyish mumkin.

Tandirda non, somsa va tandir kabob kabi mazali taomlar tayyorlanadi. Bolalar tandirda qolgan cho'g'ga jo'xori, kartoshka va tuxum ko'mib pishirib yeyishlari ham mumkin. Ba'zan yopilgan nonlarning orqasi chiqmay tandir ichida qolib ketadi. Tandır sovigandan so'ng bu qarsildoq nonni tanovul qilish ham juda yoqimli.

Ilgari qiz bolaning uyiga kelgan sovchilar to'g'ri tandir boshiga borgan ekan. Chunki xonadonning qay darajada saranjom ekanini tandirga qarab bilish mumkin bo'lgan.

Tandirning qachon ixtiro qilingani nomal'um. Har holda, u eng qadimgi oshxona anjomlaridan biri. Qadimgi odamlar tandirdan nafaqat taom pishirishda, balki uylarni isitishda ham foydalanishgan.

Tandır maxsus tuproqdan yasaladi. Tandır yasaladigan loyga albatta tuya yoki echkingning juni aralashtiriladi. Shundagina u o'n yillar davomida yuqori haroratga dosh bera oladi. Tandır asosan turli bo'ladi. Birinchisi – xonadonlar uchun kichik tandir. Ikkinchisi – katta professional tandir. Professional tandirlar juda qimmat turadi va ularni yasaydigan us-



talar ham kam uchraydi.

Hozir dunyoning istalgan burchagida o'zbek tandirini uchratish mumkin. Qizig'i, bu tandirlarning barchasi O'zbekistonda yasaladi. Gap shundaki, mahoratli ustalar ulkan tandirni arra bilan bo'laklab samolyot orqali xorijga yuborishadi. Manzilga yetib borgan bo'laklar maxsus yelim bilan birlashtiriladi. Qarabsizki, tandir tayyor! Endi bu joyning aholisi ham o'zbekning betakror nonidan tatib ko'rishi mumkin.

#### **Tandir boshida turadigan anjomlar**

Kosov – tandirga olov yoqayotganda o'tinni qalab turish uchun ishlatiladigan uzun tayoq.

Rapida – non yopuvchi moslama.

Savat – non solinadigan idish.

#### **“Jajji akademik” jurnalidan**

Audiomatn eshittirilgandan so'ng darslikdagi rasmi topshiriq ustida ishlanadi. Bunda o'quvchilar rapida, kosov va savat tasvirlangan rasmlarni aniqlashlari kerak. Shundan so'ng ushbu so'zlarni izohlari bilan moslashtirib o'qishlari so'raladi.

Keyingi topshiriqda o'quvchilar darslikda berilgan 3 ta variantdan birini tanlashlari lozim. To'g'ri javob: “Tandir o'zbek milliy oshxonasining ramzi ekanini tushuntirish”.

#### **Yozma mashq**

##### **1. Quyidagi gaplarni harakatni bildiruvchi so'zlar bilan to'ldiring.**

O'quvchilar harakatni ifodalovchi so'zlarni mazmunga mos ravishda qo'yib chiqishlari kerak. *Tayyorlanadi, foydalanishgan, turadi, uchraydi* so'zlari bilan matnni to'ldirishadi.

##### **2. Ushbu gaplar tarkibida ajratilgan so'zlarni ular ifodalagan ma'noga ko'ra savatchalarga joylang.**

Bu mashqda o'quvchilar ajratib ko'rsatilgan so'zlarga to'g'ri savol bergan holda ularni savatchaga joylashlari kerak. Maqsad bolada so'zlarga to'g'ri savol bera olish malakasini rivojlantirishdan iborat.

##### **3. Matn bilan bog'liq ma'lumotlar qay darajada esingizda qolganini sinab ko'rish uchun quyidagi jadvalni to'ldiring.**

Ushbu mashqda eshitganlari asosida ochiq ifodalangan ma'lumotlarni anglaganlik darajalari nazoratdan o'tkaziladi. Bo'sh o'rinlarni to'ldirish uchun bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, matnni qayta o'qib

eshittirish mumkin.

#### **4. Dunyoning istalgan burchagiga tandirni olib borish uchun nimalar qilish kerakligini yozing.**

O'quvchilar matndan tushungan ma'lumotlari asosida 3 ta gapdan iborat fikr yozishlari kerak. Bunda tinish belgilari va bosh harflar imlosiga rioya etishlari lozim.

3-soat

## **DARS JARAYONI**

### **Kirish**

Tashkiliy qismdan so'ng o'qituvchi dars jarayonida “Chumolining jasorati” matni bilan tanishilishini e'lon qiladi. O'quvchilardan jasorat nima ekani haqida so'raladi. Bu savol matnga kirib borish vazifasini bajaradi.

### **Asosiy qism**

Matn o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi, o'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda matnni kuzatib borishadi. Keyin o'quvchilar matnni ichdan o'qishadi. Mazmun o'qituvchining o'qib berishidan so'ng tushunarli bo'ladi, ichdan o'qish ham tezroq amalga oshadi.

Matn o'qib bo'lingach, quyidagi savollar ustida ishlanadi:

#### **1. O'tloq ahli nima uchun birlashdi?**

Asosiy e'tibor chumolining o'tloq ahliga qattiq ta'sir etgan gaplariga qaratiladi: *“To'g'ri aytasiz, bir zarra suv yong'inni o'chirmaydi. Lekin men urinib ko'rmoqchiman. Chunki bu o'tloq – mening vatanim. Uni asrash uchun menda zarradek imkoniyat bo'lsa, shu imkoniyatdan foydalanaman”.*

#### **2. Ayting-chi, ushbu hikoyadagi chumoliga o'xshash odamlar hayotda ham uchraydimi? Ular o'z yurtlarini qanday asrashadi?**

Ushbu savolga javob berish barobarida kichik bir harakat bilan ham o'z yurtini asray oladigan odamlar haqida gapirishlari, Vatan yo'lida jonini qurbon qilgan insonlar haqida fikr bildirishlari mumkin.

#### **3. Sizda Vatanni asrash uchun zarradek bo'lsa ham imkoniyat bormi? Misol keltiring.**



O'quvchilardan kundalik hayotda Vatanni qanday qilib asrashlari so'raladi. Har bir javob qo'llab-quvvatlanadi.

#### 4. Fidoyilik deganda nimani tushunasiz? Hikoyadagi qaysi qahramonlar fidoyilik qilishdi?

O'quvchilar fidoyilik nimalarda ko'rinishi, hikoyadagi jonzotlarning qanday qilib o'tloqni asrashga harakat qilganliklariga e'tibor berishadi.

Shundan so'ng darslikdagi 3 ta rasmdan qaysi biri o'tloq ekanini topishlari so'raladi. Rasmlarda dasht, sahro va o'tloq tasvirlangan. Qaysi jihatiga ko'ra tanlangani izohlashi lozim.

### 4-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

Dars jarayonida "Chumolining vatani" matni ustida ishlanishi e'lon qilinadi.

### Asosiy qism

"Chumolining vatani" matni o'quvchilar tomonidan navbatma-navbat o'qib chiqiladi (Matnni har bir o'quvchi o'qib chiqishi lozim).

Shundan so'ng topshiriqlar ustida ishlanaadi. Darslikdagi 3 ta topshiriq og'zaki shaklda bajariladi.

#### 1. Berilgan so'zlarni ma'nosi bilan moslab o'qing.

Matnda ayrim so'zlar ajratib ko'rsatilgan bo'lib, o'quvchilar mos keluvchi izohni topib o'qishlari kerak. Har bir bola ushbu topshiriq ustida mustaqil izlanishi lozim.

Bu topshiriq matnda uchragan, o'quvchi uchun ma'nosi tushunarsiz bo'lgan so'zlarni o'zlashtirishga xizmat qiladi.

2. "Bir yoqadan bosh chiqarib" iborasini izohlang. Dastlab iboraning izohi o'quvchilardan so'raladi, so'ng o'qituvchi tomondan javoblar umumlashtirib mustahkamlanadi.

#### 3. Nima deb o'ylaysiz, muallif ushbu matnni nima maqsadda yaratgan?

Bunda har bir javob o'qib chiqiladi, so'ng tanlanadi. To'g'ri javob – E. O'quvchi boshqa variantlarni tanlaganida buning sababi so'ra-

ladi hamda har bir javob izohlanadi.

#### 3. Berilgan maqollarning qaysilari "Chumolining jasorati" hikoyasi g'oyasiga mos? Tanlovingizni izohlang.

Darslikda 6 ta maqol berilgan bo'lib, ular bilan tanishib chiqiladi hamda hikoyaga mos maqollar aniqlanadi. Nima uchun mos kelishi izohlanadi.

#### Yozma mashq

#### 1. Ushbu matn uchun qanday sarlavha mos keladi deb o'ylaysiz, tanlagan sarlavhangizni yozing.

Matnga eng chiroyli tanlangan sarlavhalar xattaxtada o'qituvchi tomonidan yozib borilishi mumkin.

#### 2. Berilgan matn quyidagi qismlardan iborat, ular qay tartibda joylashishi lozim? Raqamlar bilan ketma-ketligini belgilang.

Matn qismlari bilan sarlavhalarni moslashtirish eng muhim ko'nikmalardan sanaladi. Bu topshiriqda o'quvchilar quyidagi ketma-ketlikni hosil qilishlari kerak:

1. O'rmonga o't ketishi.
2. O'tloq – mening vatanim.
3. Harakatda barakat.

#### 3. Matn tarkibidan jonzotlarning nomlarini alohida ajratib yozing.

O'quvchilar matndan quyidagi so'zlarni topib yozishlari lozim:

*Qo'y-qo'zilar, kakliklar, tipratikanlar, toshbaqalar, hasharotlar, chumoli.*

#### 4. Matnning xulosa qismi berilgan gapni aniqlang va uni ko'chirib yozing.

O'quvchilar quyidagi gaplarni yozishadi:  
*Xullas, barcha jonzotlar bir yoqadan bosh chiqarib olovga suv sepishganida xuddi osmondan yomg'ir yog'gandek bo'libdi. Shu tariqa yong'in o'chirilibdi.*

Matnning xulosasini aniqlash eng muhim ko'nikmalardan biridir. Mazkur topshiriq ushbu ko'nikmani rivojlantirishga xizmat qiladi.

3- va 4-darslar davomida "Chumolining jasorati" matni ustida tizimli ish olib boriladi. Bunda matnni ifodali o'qish, o'qish savodxonligi, so'z ma'nolari bilan ishlash, ibora va maqollar ustida ishlash hamda yozma savodxonlik ko'nikmalari o'qituvchining diqqat-e'tiborida bo'lishi lozim.



## 5-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

Mavzuga olib kirish uchun quyidagi matn-  
oldi savol bilan o'quvchilarga murojaat qilina-  
di: "Jarchi haqida eshitganmisiz? U nima qi-  
ladi?" Chunki she'r "Mahallamiz jarchisi" deb  
nomlanadi.

#### Asosiy qism

She'r muallifi bilan tanishtiriladi (Anvar  
Obidjon she'rlari bilan 1-sinfda ham tani-  
shishgan). O'quvchilardan olingan javoblar  
umumlashtiriladi hamda she'r navbatma-nav-  
bat ifodali o'qiladi.

Ushbu savollar asosida she'r mohiyati  
ochiladi. O'quvchilardan yakka tartibda nav-  
batma-navbat javoblar eshitaladi.

#### 1. Hakka nima uchun shaqilladi? Shaqil- lash nima?

Savolga javob berish jarayonida o'quv-  
chilardan hakka haqida nimalarni bilishlari,  
u nima uchun shaqillagani, shaqillash nima  
ekani, she'rning qaysi misrasida bu haqda  
aytilgani so'raladi.

#### 2. Hakka kimga qanday ish qilishni bu- yurdi?

Osh pishirish, choy damlash, dasturxon  
yozish va non yopish, bog'dan mevalarni  
uzish, idish-tovoqlarni yuvish, hovlini supu-  
rish, yo'lakka suv sepish vazifalari kimlarga  
tegishli ekanini aniqlashadi.

#### 3. Hakkaning "Mehmon kelgan uyda – to'y" degan fikriga qo'shilasizmi? Nima uchun?

#### 4. Uyingizga mehmon kelganida oila a'zolaringiz qanday ishlarni bajarishadi? Siz-chi?

3–4-savollarda berilgan fikr izohlanishi,  
o'quvchining oilasidagi mehmon kutish odati  
bilan bog'lanishi mumkin.

#### 5. She'rga yana qanday sarlavha qo'y- gan bo'lardingiz?

5-savolda she'rga sarlavha qo'yish top-  
shirig'i berilgan bo'lib, eng chiroyli sarlavhalar  
xattaxtada yozib borilishi mumkin.

Shundan so'ng she'rdagi qofiyadosh so'z-  
larni topish vazifasi beriladi. Qofiyadosh-  
lik nima asosida yuzaga kelayotgani bilan

bog'liq savollar berilishi mumkin.

Shundan so'ng rasm bilan voqelik o'rtasi-  
dagi bog'liqlikni topish maqsadida she'r mat-  
nidagi ketma-ketlik asosida rasmlar tartiblab  
chiqiladi: **F, D, A, B.**

#### Yozma mashq

Keyingi topshiriqda she'r matnidan olin-  
gan gaplarning to'g'ri yoki xato yozilgani  
aniqlanadi va to'g'ri yozilgan gaplar ko'chirib  
olinishi mumkin.

#### She'r matnidan olingan gaplarning to'g'ri yoki xato yozilganini aniqlang.

Uy-hovlini supurib. Uy xovlini supurib.	Uy-hovlini supurib. Uy-hovlini sipirib.
Shoxda shaqillar Hakka. Shohda shaqillar Hakka.	Shoxda shaqillar Xakka. Shoxta shaqillar Hakka
Yo'lakga suv sepib qo'y. Yo'lakka suv sepib qo'y	Yo'lakka suv sepip qo'y. Yo'lakka suv sepib qoy.

#### "Mahallamiz jarchisi" she'ridan bitta xabar, bitta so'roq hamda bitta buyruq mazmunidagi gapni ko'chiring. Tinish bel- gilarini to'g'ri qo'ying.

O'quvchilar bu topshiriqni ham mustaqil  
bajarishadi. Maqsad darak, so'roq va buyruq  
gaplar va ularda qo'llangan tinish belgilari bi-  
lan amaliy jihatdan tanishishdir. O'quvchilar  
quyidagi tartibda vazifani bajarishlari mum-  
kin:

*Shoxda shaqillar Hakka.*

*Bog'da yana nima bor?*

*Yo'lakka suv sepib qo'y.*

## 6-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

O'qituvchi mavzu doirasida ijodiy mash-  
g'ulot o'tkazilishini e'lon qiladi hamda kerakli  
jihozlarni tayyorlaydi.

#### Asosiy qism

Siz Vatanni qanday tasvirlaysiz? Vatani-  
miz manzaralarini chizing. Nimalarni tasvirla-  
ganingiz haqida gapirib bering.

O'quvchilar erkin holda Vatan manzarala-  
rini chizishlari kerak. To'g'ri, hamma o'quv-  
chida rasm chizish qobiliyati har xil bo'ladi.  
Asosiy maqsad ularga nutqiy mavzu doirasi-  
da egallagan bilim hamda ko'nikmalarini ifo-



dalashga imkoniyat berishdir. O'quvchi nima uchun ushbu tasvirni chizganini tushuntirib berish jarayonida maqsadli harakat qilish, ijodiy tafakkurni namoyon qila olish hamda og'zaki nutq malakasini egallash sari yo'naltiriladi.

Har bir o'quvchining ishiga alohida e'tibor qaratilishi, izohlar diqqat bilan tinglanishi lozim.

## KATTA BO'LSAM, NOBEL MUKOFOTINI OLAMAN!

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** rasm asosida ilm va olimlik mavzusida suhbat tashkil qilish. O'zlashma so'zlar imlosi, mavzuga oid maqollarni sharhlashni o'rgatish. Audiomatn ustida ishlash. Matnning xulosasini aniqlash, g'oyasini ayta olish ko'nikmasini shakllantirish. She'riy matndagi ohangdosh so'zlarni aniqlashni o'rgatish. Mavzu doirasida hikoya yozish ko'nikmasini shakllantirish.

### 1-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, olimlar qanday ishlar bilan shug'ullanadi?*

### Asosiy qism

**1-topshiriq. Rasmlarga qarang. Olimlar nima ish qilayotganini ayting.**

Darslikda turli soha olimlarining ish jarayoni bilan bog'liq 3 xil rasm berilgan. O'quvchining diqqatini rasmlarga qaratgan holda rasmlarning har biriga alohida to'xtalish lozim.

Agar biror tasvirni o'quvchi yetarlicha ochib berolmasa, o'qituvchi uni ochishga xizmat qiladigan qo'shimcha savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Masalan, "Birinchi rasmda nimani ko'ryapsiz? Undagi detallarni sanang. So'ng ularni bog'lagan holda "Bu qanday olim bo'lishi mumkin?", "U nima qilyapti?", "Uni kim deb ataymiz" deb so'rash mumkin.

**1-BO'LIM KATTA BO'LSAM, NOBEL MUKOFOTINI OLAMAN!**

Rasmlarga qarang. Olimlarning nima ish qilayotganini ayting.

- Olimlar yana qanday ishlar bilan shug'ullanishadi?
- Nima deb o'ylaysiz, olimlar bo'lmasa, dunyo qanday bo'lar edi?
- Sizingcha, O'zbekistonda yaxshi olimlar ko'paysa, qanday o'zgarishlar ro'y beradi?
- Siz ham olim bo'lib, O'zbekistonni yanada rivojlantirishni istaysizmi? Nima uchun?
- Qaysi sohaning yetuk mutaxassisi, olimi bo'lishni xohlaysiz? Nima uchun?

**1. Maqollarni yozing. Ma'nosini tushuntiring.**

Bilmaganini so'rab o'rgangan – olim, Orlanib so'ramagan – o'ziga zolim.	Ilmsiz bir yashar, Ilmi ming yashar.
----------------------------------------------------------------------------	-----------------------------------------

Bilagi zo'r birni yiqar, Bilimi zo'r – mingni.	Ilmi uy – charog'on, Ilmsiz uy – zimiston.
---------------------------------------------------	-----------------------------------------------

12

O'quvchilar javobini tinglagach, 12-sahifa-dagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

**Eslatma:** har bir savolni 5–6 o'quvchiga bering. Savolning va javobning takror bo'lib qolishi ahamiyatsiz, bunda o'quvchilarni darsga jalb qilish hamda har birining nutqini nazorat qilish va o'stirish muhim.

Ushbu savollarga o'quvchilarning javoblari har xil bo'lishi mumkin. O'quvchilar hayotiy kuzatishlari orqali hamda tafakkur qilib javob berishlari lozim. Bu jarayonda o'quvchining fikrini dalillar bilan aniq yetkazib bera olishi hamda og'zaki nutqi tekshiriladi.

Bu savol-javoblardan bosh maqsad bolada ilm o'rganishga bo'lgan rag'batni kuchaytirish, olimlarning yurt ravnaqi yo'lidagi ulkan hissasini ko'rsatib berish.



## Yozma mashq

### 2-topshiriq. Maqollarni yozing. Ma'nosini tushuntiring.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Buning uchun avval o'quvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qilish lozim: **"Maqol deb nimaga aytiladi?"**

Berilgan savol yuzasidan o'quvchilardan javob olingach, ularning fikriga qo'shimcha qilgan holda o'quvchiga maqol haqida izoh beriladi:

**Maqol** – \_\_\_\_\_ .

So'ng darslikda keltirilgan maqollar baland ovozda ifodali qilib o'qib beriladi. Shundan keyin o'quvchilarning har biriga mustaqil ravishda maqollarni mashq daftarlariga ko'chirib yozish topshiriladi.

O'quvchilar maqollarni yozib bo'lgach, har bir o'quvchidan yozgan maqolini o'qib, mazmunini tushuntirib berishi so'raladi. Javoblarga o'qituvchi munosabat bildirib boradi.

## 2-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, Nobel mukofoti qanday paydo bo'lgan?*

**Eslatma:** o'qituvchi taqdim qilingan audiolarni ovoz kuchaytirgich orqali qo'yib eshittirishi lozim. Lekin turli xil texnik sabablar bilan buning imkoni bo'lmaganda o'qituvchining o'zi adabiy til normalariga amal qilgan holda, ravon va yetarlicha baland ovozda matnlarni o'qib berishi ham mumkin.

### Asosiy qism

#### 1-topshiriq. "Nobel mukofoti" audiomatnini tinglang.

##### Audiomatn

#### Nobel mukofoti

Alfred Nobel 350 dan ortiq harbiy qurollar ixtiro qiladi. Lekin yillar o'tib, ixtirochi qilgan ishlaridan afsuslanadi. Chunki uning yovuz qurollari minglab odamlarning hayotiga zo-

min bo'lgandi. Aytishlaricha, olim odamlar uni kechirishi uchun Nobel mukofotini o'ylab topgan.

Nobel mukofoti har yili fizika, kimyo, fiziologiya va tibbiyot, adabiyot, tinchlik sohalari-da buyuk ishlar qilgan odamlarga topshiriladi. Ilk Nobel mukofoti 1901-yili Anri Dyunan va Frederik Passi ismli odamlarga topshirilgan. Nobelni qo'lga kiritgan odamga medal, diplom va ko'p miqdorda pul beriladi.

Hozir Nobel fondi mablag'lari 300 million AQSH dollariga yaqinlashib qolgan. Agar bu mukofotni qo'lga kiritsangiz, 1 100 000 AQSH dollariga ega bo'lasiz.

Mukofotni qo'lga kiritish uchun Nobel qo'mitasiga o'zingiz murojaat etmaysiz. Balki ishlaringizga yuqori baho bergan dunyoga mashhur olimlar, davlat arboblari xat yozi-shadi. Har yili mukofot qo'mitasiga minglab nomzodlar haqida murojaatlar kelib tushadi. Avvaliga 300 ta nomzod saralab olinadi va ularning ismi sir saqlanadi.

Oktyabr oyida esa barcha yo'nalish g'oliblari aniqlanadi. 10-dekabrda Shvetsiya hamda Norvegiya davlatlarida tantanali taqdirlash marosimi bo'lib o'tadi.

#### 1-topshiriq. Quyidagi so'zlar qanday talaffuz qilinadi?

Ushbu topshiriqni o'quvchiga bajartirishdan avval darslikda berilgan quyidagi so'zlar baland ovozda ifodali o'qib beriladi hamda xattaxtada yozib ko'rsatiladi: **Nobel, Shvetsiya, dollar, fond, diplom.**

So'ng berilgan so'zlar har bir o'quvchiga ketma-ketlikda o'qitiladi.

## Yozma mashq

### 1-topshiriq. Nobel mukofoti qaysi sohalarda bo'yicha beriladi?

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bu savolning javobi audiomatnda aks etgan, o'quvchidan aniq javob talab qiladi.

**Javob:** fizika, kimyo, fiziologiya va tibbiyot, adabiyot.

### 2-topshiriq. Matn asosida berilgan ma'lumotlar ketma-ketligini aniqlang.

Mashq daftarida audiomatndan olingan ma'lumotlar tartib bilan berilgan. O'quvchilar mutaqil ravishda bajarishlari lozim.

Ushbu mashqni bajarish ketma-ketligi:

1. *Ma'lumotlarni ovoz chiqarmay o'qish.*





2. Audiomatni yodga olgan holda ma'lumotlarni tartiblash.

3. Tartiblangan ma'lumotlarni jadvalga tushurish (ma'lumotlar oldida berilgan harflarni jadvaldagi bo'sh o'ringa tartib bilan yozish).

**Javob:**

1	2	3	4	5
E	B	A	D	F

**3-topshiriq. Berilgan gaplardagi bo'sh o'rinlarni to'ldiring.**

Mazkur topshiriqda audiomatndan olingan, ayrim so'zlari tushirib qoldirilgan parcha keltirilgan hamda parcha so'ngida qo'yish uchun so'zlar berilgan. O'quvchilar tushirib qoldirilgan so'zlarni matn mazmuniga moslab kerakli o'ringa qo'yishlari lozim.

**Eslatma:** berilgan so'zlarning ikkitasi ortiqcha. Bu jarayonda o'quvchilar audiomatni yodga olib ishlashlari talab etiladi.

**Javob:**

Nobel yaratgan yovuz qurollar minglab odamlarning hayotiga zomin bo'lgandi.

Mukofotni qo'lga kiritishingiz uchun Nobel qo'mitasiga ishlaringizga yuqori baho bergan dunyoga mashhur olimlar, davlat arboblari xat yozishi kerak.

Nobel mukofoti bilan taqdirlash marosimi har yili 10-dekabrda Shvetsiya hamda Norvegiya poytaxtlarida tantanal ravishda bo'lib o'tadi.

**4-topshiriq. Alfred Nobelning o'z nomidagi mukofotni o'ylab topishdan maqsadi nima edi?**

Mazkur topshiriqni bajarishda o'quvchilar "Nobel mukofoti" matnini yodga olib, Alfred Nobelning o'z nomidagi mukofotni nima maqsadda o'ylab topganini yozishlari lozim.

**Javob:**

Alfred Nobel 350 dan ortiq harbiy qurollar ixtiro qiladi. Lekin yillar o'tib ixtirochi qilgan ishlaridan afsuslanadi. Chunki uning yovuz qurollari minglab odamlarning hayotiga zomin bo'lgandi. Aytishlaricha, olim odamlar uni kechirishi uchun Nobel mukofotini o'ylab topgan.

**Eslatma:** o'quvchidan javobda keltirilgan ma'lumotlarni aynan yozib berishi talab qilinmaydi. O'quvchi ushbu ma'lumotni tushungan holda mazmun chiqarib yozib berishi lozim.

**5-topshiriq. Har bir gapda xato yozilgan**

**2 tadan so'z bor. Ularni aniqlang.**

Mazkur audiomatndan keltirilgan ma'lumotlar tarkibida xato yozilgan so'zlar mavjud. O'quvchilar xato yozilgan so'zlarni topib belgilashlari zarur.

**Eslatma:** o'quvchilar mashq daftarida berilgan ma'lumotlarni o'qib, xato yozilgan so'zning ostiga chizishlari kerak. Xato deb belgilagan so'zlarining to'g'ri variantini aytib berishlari lozim.

**Javob:** Lekin yillar **o'tip, ixtirochi** qilgan ishlaridan afsuslanadi. Aytishlaricha, olim odamlar uni kechirishi uchun Nobel mukofotini **o'ylab topkan. Mukofotni** qo'lga kiritish uchun Nobel qo'mitasiga o'zingiz **murojat** etmaysiz.

O'quvchilar berilgan topshiriqlarni bajarib bo'lgach, audiomatni qayta eshittirib, har bir topshiriqni tekshirib, javoblar izohlab beriladi.

3-soat

## DARS JARAYONI

Kirish

Ayting-chi, qanday soha olimlarini bilasiz?

Asosiy qism

**1-topshiriq. Soha mutaxassislarini nomi toping.**

Darslikda turli soha mutaxassislarining rasmlari berilgan. Rasmlarning har biriga alohida to'xtalish lozim. Bolalarga rasmlarni ko'rsatgan holda quyidagi savollar beriladi:

- Ayting-chi, rasmda kimlarni ko'ryapsiz?
- Birinchi rasmda qaysi olim tasvirlangan?

U nima qilyapti?

- Ikkinchi rasmdagi kishi qaysi soha mutaxassisi deb o'ylaysiz? Uning orqasida qanday bino joylashgan? U yerda u nima ishlar bilan shug'ullanadi?

- Uchinchi rasmdagi bola nega chizmalar chizyapti? U kim?

- To'rtinchi rasmdagi kishi nima qilyapti?

Uning qo'lidagi qanday asbob?

- Beshinchi rasmdagi bola kim? Nega uning oldida magnit, elektron soatlar bor?

- Bu rasmdagi kim? U xattaxtada nimalarni ko'rsatyapti?

O'quvchilar javob berib bo'lgach, rasm os-



tida yozilgan soha nomlarini o'qib berib, bu nomlar qaysi rasmga mos tushishini so'rash lozim. O'quvchilar berilgan so'zlarni rasmga moslab ko'rsatishlari kerak.

**Javob:**

- 1-rasm: kimyogar.
- 2-rasm: iqtisodchi.
- 3-rasm: me'mor.
- 4-rasm: biolog.
- 5-rasm: fizik.
- 6-rasm: matematik.

**Yozma mashq**

**2-topshiriq. Olim va mutaxassislar nimalar bilan shug'ullanishi haqida yozing.**

Mazkur topshiriqni yuqoridagi savol-javoblarga bog'lagan holda bajarish lozim. Mashqni yozishga berishdan oldin har bir o'quvchiga mashq daftaridagi rasm va soha mutaxassislari ko'rsatiladi. Ajratilgan joyga ushbu soha mutaxassislari nima ish bilan shug'ullanishini yozish kerakligi tushuntiriladi.

O'quvchilar berilgan topshiriqni bajarib bo'lgach, javoblar tekshirilib, munosabat bildiriladi.

**4-soat**

**DARS JARAYONI**

**Asosiy qism**

*Ayting-chi, siz ham "Nobel" mukofoti olishni xohlaysizmi? Qanday qilib olasiz?*

**O'qib tushunish.**

O'quvchilar darslikda berilgan "Nobel olaman" matnini o'qishlari lozim. Bunda o'quvchilar bir yoki ikki gapdan o'qigan holda matnni o'qib chiqishadi. Bir o'quvchi o'qiyotgan vaqtda qolgan hamma matnni kuzatib turishi kerak.

*"Kuzatib turing, men istagan o'quvchidan davom ettirishni so'rayman"* deb ogohlantirish samara beradi.

Matn 2–3 marta qayta o'qib bo'lingach, matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Ushbu savollarning javobi matnda aks etgan, o'quvchilar matnda o'sha o'rinni topib, aytib berishlari, munosabat bildirishlari hamda tafakkur qilib, og'zaki ifodalab berishlari lozim. Bu jarayonda o'quvchining o'qib tu-

shunish malakasi shakllantiriladi.

**5-soat**

**DARS JARAYONI**

**Kirish**

*Ayting-chi, Nobel mukofoti olishingiz uchun nima ishlar qilishingiz lozim?*

**Asosiy qism**

**1-topshiriq. Nobel mukofotini qo'lga kiritish bosqichlarini ayting.**

Audiomatn qayta eshittiriladi. O'quvchilarning diqqatini darslikka qaratgan holda berilgan shakllar va ular ichidagi raqamlar tushuntiriladi. Ya'ni bu shakl fikrni tartiblab ifodalash vositasi bo'lib, o'quvchilar Nobel mukofoti olish bosqichlarini *birinchidan, ikkinchidan* deb tartiblab aytib berishlari kerak.

**Yozma mashq**

**2-topshiriq.**

**Berilgan ma'lumotlarni matn asosida to'ldiring.**

Mazkur topshiriq "Nobel" matnidan olingan. Ushbu matndagi ma'lumotlarga tayangan holda bo'sh o'rinlarni to'ldirishlari lozim.

**Javob:**

- *Hikoya qahramonining ismi: Muhammad.*
- *Familiyasi: Haydarov.*
- *Nechanchi sinf o'quvchisi?: 2-sinf.*
- *Nimalarga qiziqadi?: tabiatdagi g'aroyib narsalarga.*
- *Sevimli fanlari: tabiiy fanlar.*
- *Tanlagan kasbi: astronom.*

**3-topshiriq. Ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.**

Mazkur topshiriq "Nobel olaman" matnidan olingan. Ushbu matndagi ma'lumotlarga tayangan holda berilgan fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini belgilashlari lozim.

**Javob:** *to'g'ri, noto'g'ri, to'g'ri, noto'g'ri, to'g'ri, noto'g'ri*

**4-topshiriq. To'g'ri yozilgan gaplarni aniqlang.**

Mazkur topshiriq "Nobel olaman" matnidan olingan. Ushbu matndan keltirilgan ma'lumotlar ikki xil variantda berilgan bo'lib, ularning birida xato yozilgan so'zlar mavjud. O'quv-



chilar to'g'ri yozilgan so'zlar qatnashgan gapni topib belgilashlari lozim.

**Javob:**

1. Men tabiatdagi g'aroyib narsalarga qiziqaman.
2. Katta bo'lsam, astronom bo'laman.
3. Men yasagan kemada fazogirlar Oy va Marsga uchishadi.
4. Men Nobel mukofotini olgan birinchi o'zbekistonlik bo'lishim mumkin.

O'quvchilar berilgan topshiriqlarni bajarib bo'lgach, har bir topshiriqni tekshirib, javoblar izohlab beriladi.

6-soat

## DARS JARAYONI

Kirish

Asosiy qism

**Topshiriq.** "Katta bo'lsam, Nobel olaman" nomli hikoya yozing. Hikoyangizda

**quyidagi savollarga javob bo'lsin:**

- Qaysi soha olimi bo'lasiz?
- Nobel mukofotini olish uchun qaysi fanlarni chuqurroq o'rganasiz?
- Qanday ixtirolar, yangiliklar qilasiz?
- Sizning ixtirolaringiz O'zbekistonga qanday foyda keltiradi?

O'quvchilarga matn yozishni boshlashdan avval yuqorida keltirilgan savol o'qib beriladi.

O'quvchi yozgan matnida so'ralgan savollarga javoblar bo'lishi kerakligini anglashi lozim. O'qituvchi savollar asosida o'quvchilarning matn yaratishini nazorat qilishi hamda har bir o'quvchining mustaqil ravishda yozishini kuzatishi kerak.

*Eslatma: o'quvchilarning savollarga tartib bilan javob yozib qo'ymasliklarini kuzatib boring. Ushbu savollar asosida bog'lanishli nutq – matn yaratishlari lozim. Mazkur savollar o'quvchiga yo'llanma berish uchungina berilganini hisobga oling.*

Mashqni bajarib bo'lishgach, matn mazmuni, o'ziga xosligi, imlosi, gaplarning tuzilishi, o'quvchining so'z qo'llash malakasi tekshirilib baholanadi.

19

## MAKTABIM – IKKINCHI UYIM

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning maktab, ta'lim haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. Matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish. Narsa nomlarini so'roq berish orqali ajratish, narsa nomlariga qo'shiladigan ko'plik qo'shimchasidan foydalanishni o'rgatish. Maktab bilan bog'liq audiomatn bilan tanishish. So'zlar tarkibida kelayotgan nutq tovushlari, ularni unli va undoshga ajratish. Matn tarkibidagi xabar ma'nosini ifodalovchi gaplarni ajratish, ularning imlosi hamda -dosh qo'shimchasi bilan so'z yasashini o'rgatish. Mavzu bilan bog'liq vaziyatlar aks etgan rasm asosida 3 yoki undan ortiq gapdan iborat ijodiy matn yozish.

1-soat

## DARS JARAYONI

Kirish

*Ayting-chi, qanday joyni maktab deb ataymiz?*

Asosiy qism

**1-topshiriq.** Rasmdagi narsalarni maktab bilan nima bog'lab turadi? Aytib bering.

Darslikda turli xil narsalarning rasmi berilgan. O'quvchining diqqatini rasmlarga qaratgan holda rasmdagi narsa nomlari birma-bir so'raladi.

O'quvchilar ularning nomlarini aytib bergach, bu narsalarni nima bog'lab turgani, maktabga qanday aloqasi borligi so'raladi. Bundan asosiy maqsad – o'quvchining og'zaki nutqini baholash, maktab bilan bog'liq narsa nomlarini o'rgatish hamda maktab haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.



**2-BO'LIM MAKTABIM – IKKINCHI UYIM**

Rasmdagi narsalarni maktab bilan nima bog'lab turadi? Aytib bering.

Rasmda berilgan narsalarning birini tanlang.  
 U bilan bog'liq biror qiziqarli voqeani so'zlab bering.  
 So'zlab beradigan voqeangiz hech kimnikiga o'xshamasligi, juda ham ajoyib bo'lishi kerak.

16

So'ng rasm ostidagi topshiriq sharti tushuntiriladi.

- Rasmda berilgan narsalarning birini tanlang.
- U bilan bog'liq biror qiziqarli voqeani so'zlab bering.
- So'zlab beradigan voqeangiz hech kimnikiga o'xshamasligi, juda ham ajoyib bo'lishi kerak.

O'quvchilardan navbatma-navbat so'rab chiqiladi. Ya'ni o'quvchilar rasmdagi bitta narsani tanlab, nomini aytib, u bilan bog'liq bo'lib o'tgan qiziq voqeani so'zlab berishi lozim.

**Eslatma:** savol va javobning takror bo'lib qolishi ahamiyatsiz, bunda o'quvchilarni darsga jalb etish hamda har birining nutqini nazorat qilish va o'stirish muhim.

### Yozma mashq

**2-topshiriq. Uch guruhga bo'lining. Quyidagi jadvalni xattaxtada to'ldiring.**

Mazkur topshiriq xattaxtada bajariladi. O'quvchilar uch guruhga bo'linadi hamda ularga topshiriq sharti tushuntiriladi:

**1-guruh.** O'quv qurollari.

**2-guruh.** Maktab va sinfdagi jihozlar.

**3-guruh.** Maktabda kimlar ishlashi va o'qishini yozishlari lozim.

O'quvchilarga jamoa bo'lib ishlashi uchun sharoit yaratiladi. Avval o'quvchilar o'zaro ke-lishib oladilar. So'ng bir vaqtning o'zida 3 ta guruhdan bittadan o'quvchi chiqib, xattaxta-ga bittadan so'z yozadi. Keyin guruhlardan boshqa bir a'zo chiqib, xattaxtaga yozishni davom ettiradi. Bunda o'quvchining guruh bilan ishlashi, berilgan mavzuga mos so'zni topib yozishi tekshiriladi.

## 2-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Aytinch, maktab sizga nima beradi?*

#### Asosiy qism

**1-topshiriq. "Maktab" audiomatnini tinglang.**

**Eslatma:** o'qituvchi taqdim qilingan audiomatn ovoz kuchaytirgich orqali qo'yib eshittirishi lozim. Lekin turli xil texnik sabablar bilan buning imkoni bo'lmaganda o'qituvchining o'zi adabiy til normalariga amal qilgan holda, ravon va yetarlicha baland ovozda matnlarni o'qib berishi ham mumkin.

#### Audiomatn

#### Maktab

Shunday bilimlar borki, ularni egallamasdan turmush kechirishning deyarli imkoni yo'q. Masalan, o'qish va yozishni, oddiy hisob-kitobni bilmaydigan odamni ko'z oldingizga keltirib ko'ring-chi. Bunday odam hozir siz-u biz yashayotgan dunyoda bema-lol yashab keta oladimi? Albatta, yo'q! Chunki bunday bilimlar hayotning poydevori, har qanday kasbning kaliti hisoblanadi. O'qish va yozishni bilmagan odam hatto ko'chada adashmay yura olmaydi.

Shu sababli maktabda o'qish har bir bola uchun majburiydir. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yozib qo'yilgan.

Yurtimizda qadim zamonlardan buyon maktablar faoliyat yuritib keladi. Tarixda mak-



tablar *maktabxona*, *qorixona* deb atalgan. Bunday maktablarda bolalar faqat o'qish va yozishni o'rganishgan. Ta'limning yuqori bosqichi esa madrasalarda davom etgan.

Hozirgi ko'rinishdagi maktablar bundan 150 yillar ilgari Is'hoqxon Ibrat, Abdulla Avloniy kabi ziyoli bobolarimiz tomonidan ochilgan. Bugun yurtimizda o'n mingtaga yaqin maktab faoliyat yuritib keladi.

### **Audiomatn eshittirilgach, darslikning 44-sahifasidagi savollar beriladi.**

Bu savollar orqali o'quvchilarning eshitib tushunish ko'nikmasi tekshiriladi. Savollarining javobi audiomatnda berilgan. O'quvchilar savolni o'qib, eshitgan audiomatlarini mulohaza qilib javob berishi hamda maktabdagi kuzatishlari asosida tafakkur qilib aytib bera olishi lozim.

#### **Yozma mashq**

### **2-topshiriq. Berilgan qaysi so'zlarga partadosh so'zidagi -dosh qo'shimchasini qo'shish mumkin? Aniqlab yozing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Darslikda so'zlar berilgan. O'quvchilar, *-dosh* qo'shimchasi qo'shish mumkin bo'lgan so'zlarni topib yozishlari lozim. Mashqni bajarishdan avval o'quvchilarga savol bilan murojaat qilinadi: *"Partadosh nima degani? Nega aynan shunday deb ataymiz?"*.

O'quvchilar javob berib bo'lgach, so'zlarni yozishlari aytiladi. Har bir o'quvchiga yozgan so'zlari o'qitiladi.

O'quvchilarning xatolari bo'lsa, tuzatilib, *-dosh* qo'shimchasi orqali yangi so'z yasash mumkinligi haqida ma'lumot beriladi.

#### **Yozma mashq**

### **2-topshiriq. Berilgan so'zlardan mosini qo'yib, matnni to'ldiring.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda matn berilgan bo'lib, ayrim so'zlari tushirib qoldirilgan hamda bo'sh o'rinlarni to'ldirish uchun kerakli so'zlar berilgan. O'quvchilar bu so'zlardan matn mazmuniga mos keladiganini topib yozishlari shart.

O'quvchilarning imlosi, gapni mantiqan to'g'ri shakllantirishi tekshiriladi.

#### **3-soat**

## **DARS JARAYONI**

### **Kirish**

*Ayting-chi, siz ham darsga kech qolganmiz? Nima sababdan?*

### **Asosiy qism**

#### **O'qib tushunish.**

O'quvchilar darslikda berilgan "Shippak" matnini o'qishlari lozim. Bunda o'quvchilar bir yoki ikki gapdan o'qigan holda matnni o'qib chiqishadi. Bir o'quvchi o'qiyotgan vaqtda qolgan hamma matnni kuzatib turishi talab qilinadi.

*"Kuzatib turing, men istagan o'quvchidan davom ettirishni so'rayman"* deb ogohlantirish samara beradi.

Matn 2–3 marta qayta o'qib bo'lingach, 19-sahifadagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Berilgan savollarning javobi matnda aks etgan. O'quvchilar savollarga matn mazmunidan kelib chiqib javob berishlari lozim. Bunda asosiy maqsad o'quvchining o'qib tushunish malakasini shakllantirish. O'quvchilar matnga munosabat bildira olishi, so'zlarni o'zaro bog'lab, mazmun chiqara olishi hamda matn mazmunini yaxlit tushunishi nazarda tutiladi.

O'quvchilar savollarga javob berib bo'lgach, ularning javoblariga munosabat bildiriladi.

#### **Yozma mashq**

### **1-topshiriq. So'zlarni izohi bilan moslashtiring.**

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda ikki ustunda alohida so'zlar berilgan. O'quvchilar birinchi ustundagi so'zlarni ikkinchi ustundagi ma'nosi yaqin so'zlarga moslashtirishlari lozim. Bu topshiriqni bajarishda o'quvchilar "Shippak" matnidan foydalanishlari mumkin.

### **2-topshiriq. Matndan xabar mazmunidagi 3 ta gapni aniqlab yozing.**

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi. "Shippak" matnida xabarni, buyruqni, so'roqni ifodalovchi so'zlar berilgan. O'quvchilar matn tarkibidagi gaplarni o'zaro farqlab, xabar mazmunidagi gapni ajratib yozishlari lozim.

O'quvchilarning imlosi, gap mazmunini to'g'ri tushunishi tekshiriladi.



## 4-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Ayting-chi, "Shippak" matnidan qanday xulosa chiqardingiz?*

#### Asosiy qism

##### O'qib tushunish.

O'quvchilar darslikda berilgan "Shippak" matnining 2-qismini o'qishlari kerak. Bunda o'quvchilar bir yoki ikki gapdan o'qigan holda matnni o'qib chiqishadi.

Matn 2–3 marta qayta o'qib bo'lingach, savollar bilan suhbat boshlanadi.

##### 1. Mashinani maktab darvozasining naq tumshug'ida to'xtatish qanday bo'ladi?

Bu savolga javob berishda o'quvchi matnda qo'llangan ushbu gap birligi qanday ma'noda ishlatilgani, nima mazmunni anglatishini aytib berishi lozim.

##### 2. "Rustam aka mashinasiga gaz berdi". Bu holatni siz qanday tasvirlagan bo'lar edingiz?

O'quvchilar matnda aks etgan ushbu ifodani tushunishlari hamda bu holatni o'zlari boshqacha tasvirlab aytib berishi kerak.

##### 3. Firdavs etigi yo'qligini bilganida qanday ahvolga tushdi? Uning yuz ifodasini o'xshatib bering.

Bu savolning javobi matnda aks etgan. O'quvchilar matndagi gaplarni o'zaro bog'lab, Firdavsning holatini tushunishlari hamda yuz ifodasini o'xshatib berishlari lozim.

##### 4. Ayting-chi, Firdavs uyqudan vaqtili turganida hikoya qanday o'zgarar edi? So'zlab bering.

Bu savolga o'quvchilarning javobi turlicha bo'lishi mumkin. O'quvchilar matn mazmuniga o'zgartirish kiritib, qayta hikoya to'qib aytib berishlari lozim.

O'quvchilar savollarga javob berib bo'lgach, ularning javoblariga munosabat bildiriladi.

##### Yozma mashq

##### 1-topshiriq. Jadvaldagi so'roqlarga mos keluvchi so'zlarni hikoyadan topib yozing.

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda jadval keltirilgan bo'lib, uch ustunga

bo'lingan va har biriga so'roq so'zlar berilgan. O'quvchilar "Shippak" matnidan so'roqlarga javob bo'ladigan so'zlarni topib yozishlari lozim.

Bu jarayonda o'quvchi matn bilan ishlaydi. Matn tarkibidagi so'zlarga so'roq beradi hamda so'roqqa javob bo'ladigan so'zlarni aniqlab, ularni jadvalning mos ustuniga yozadi.

## 5-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Ayting-chi, maktabimiz haqida qanday fikrdasiz? Uning sizga yoqadigan yoki unchalik yoqmaydigan jihatlari bormi?*

#### Asosiy qism

##### She'rni o'qish.

Darslikda berilgan "Maktabim" she'ri hamda muallifi tanishtiriladi. O'quvchilarga she'rni mustaqil, ovoz chiqarmay o'qishlari aytiladi.

She'rni o'qib bo'lishgach, o'qituvchi bir marta baland ovozda o'qib eshittiradi.

So'ng 22-sahifadagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Berilgan savollarning javobi she'r matnida aks etgan. O'quvchilar savollarga she'r matni mazmunidan kelib chiqib javob berishlari lozim. Bunda asosiy maqsad o'quvchining o'qib tushunish malakasini shakllantirish. O'quvchilar she'r matniga munosabat bildiradi olishi, so'zlarni o'zaro bog'lab mazmun chiqara olishi hamda matn mazmunida qo'llangan o'xshatishlarni tushunib aytib berishi lozim.

##### Yozma mashq

##### 1-topshiriq. Berilgan so'zlarni she'rda gi kabi chiroyli ta'riflab gaplar tuzing.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Darslikda so'zlar berilgan bo'lib, o'quvchilar ushbu so'zlarni chiroyli ta'riflab, namunadagidek yozishlari lozim. Bunda "Maktabim" she'ri matnidan foydalanishlari mumkin.

Bu topshiriq orqali o'quvchining so'zlar ma'nosini yaxshi tushunishi hamda so'z mazmuniga mos tasvirni topish ko'nikmasi shakllantiriladi.

## 6-soat



## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, siz maktabga qanday kiyinib borasiz?*

### Asosiy qism

**Rasmlarda qanday holatlarni ko'ryapsiz? Ular haqida gapirib bering.**

Darslikda maktabdagi holatlar bilan bog'liq rasmlar ikki ustunda berilgan. O'quvchilarga rasmlarni kuzatib chiqish aytiladi. So'ng rasmdagi holatlar haqida suhbat o'tkaziladi. Har bir o'quvchi rasmdagi holatlarni gapirib berishi lozim. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning rasmlarni o'zaro taqqoslay olishi, rasmdagi holatlarni tasvirlab berishi hamda holatlarni baholay olishiga qaratiladi.

Shundan so'ng 23-sahifadagi savollar beriladi.

Ushbu savollar o'quvchining erkin fikrlab javob berishiga yo'naltirilgan. Ulardan aniq bitta javob talab qilinmaydi. Javoblar turli xil bo'lishi mumkin, asosiy e'tibor o'quvchi tasavvurlarini og'zaki ifodalab berishiga qaratiladi.

### Yozma mashq

**Maktabda eng ko'p qo'llaydigan so'z va gaplaringizni yozing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar maktab hududida eng ko'p foydalanadigan so'z va gaplarini yozishlari lozim. Bunda mashq daftarida muloqot jarayonlari alohida ajratib ko'rsatilgan bo'lib, o'quvchidan har biriga mos tushadigan gaplarni yozish talab etiladi. Masalan, uchrashganda: *Assalomu alaykum, salomatmisiz?* kabi.

### 7-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, bizning maktabimizda ham muammolar, kamchiliklar bormi?*

### Asosiy qism

**Maktabingizdagi muammolarni yozing.**

Darslikda o'quv jarayoni bilan bog'liq uchta rasm berilgan. Rasmlarning har biriga sarlavha hamda unga oid bo'lgan so'zlar keltirilgan. O'quvchilar ushbu rasmlarni kuzatib, so'zlarini o'qib chiqishi lozim.

O'quvchilar berilgan rasm va ma'lumotlar bilan tanishgandan so'ng, matn yozishlari kerak. O'quvchilar o'zlari istagan sarlavhadagi rasm asosida matn yozishi mumkin. O'qituvchi matn yozishda o'quvchilarga yordam berishi, maktabni tanqid qilishda o'quvchining fikrlarini cheklamasligi shart.

Bu jarayonda o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, muammolarni ko'ra olishi, o'z fikrini aniq ifodalab berishi tekshirilib, baholanadi.

Mashq bajarilgach, har bir o'quvchi yozganlarini o'qib berishi ozim. Gap tuzishdagi xato va kamchiliklar izohlanadi. Eng yaxshi yozilgan matn egalari rag'batlantiriladi.

### 8-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, direktor kim? U maktabda qanday vazifa bajaradi?*

### Asosiy qism

**Tasavvur qiling, sizni maktabga direktor qilib tayinlashdi. Xo'sh, endi qanday yo'l tutasiz? Maktabingiz yaxshi bo'lishi uchun nima ishlar qilasiz? Bu haqida tartib bilan yozing.**

Bu topshiriq daftarda bajariladi. O'quvchilarning har birini maktab deriktori lavozimiga tayinlang. Ulardan "Bugundan boshlab maktab deriktori etib saylandingiz, xo'sh, endi nimalarni amalga oshirasiz?" deb so'rang. O'quvchilarga oldingi soatdagi o'z tanqidiy fikrlarini eslatib. Ya'ni o'quvchilar shunchaki tanqid qilishning o'zi bilan ish bitib qolmasligini, muammoga amaliy yechim izlash kerakligini tushunib yetishlari zarur.

O'quvchilarga fikrlarini tartiblashda *birin-*



chidan, ikkinchidan kabi so'zlardan foydalanaib yozish mumkinligini ayting. Buni misollar bilan tushuntirib bering.

Mashq bajarilgach, har bir o'quvchi yoz-

ganlarini o'qib berishi zarur. Gap tuzishdagi xato va kamchiliklar izohlanadi. Eng yaxshi yozilgan matn egalari rag'batlantiriladi.

## TUG'ILGAN KUNING BILAN!

**Ushbu mavzudagi bo'limning maqsadi:** nutq turli maqsadlarda qo'llanishidagi farqlar haqida bolaning tasavvurlarini rivojlantirish. Tug'ilgan kun kabi marosimlar munosabati bilan ishlatiladigan so'z, so'z birikmalari va gaplarni to'g'ri tushinishi va to'g'ri qo'llashiga erishish.

**2-BO'LIM TUG'ILGAN KUNING BILAN!**

**Rasmlarga qarab savollarga javob bering.**

- ① Rasmlarda nimalar tasvirlangan?
- ② Tug'ilgan kun qanday kun?
- ③ Bu kunda nimalar sovg'a qilishadi?
- ④ Sizing tug'ilgan kuningiz qachon?
- ⑤ Sizga nima sovg'a qilishlarini istaysiz?

**1. Daftardagi mashqlarni bajaring.**

**SHARIKNING TUG'ILGAN KUNI**

**1-qism**

Kuz yaqinlashib qolgan edi. Barglar sarg'ayib, suvlar sovib, chug'urchuqlar "majlis" o'tkaza boshlagandi. Shunday kunlarning birida Sharik:  
– Mening tug'ilgan kunim qachon? – deb qoldi.

27

### 1-soat

Darsning tashkiliy qismidan so'ng bolalarga "Bugungi mavzuyimiz "Tug'ilgan kuning bilan!" deb nomlanadi" deb aytiladi. Shu joyda mavzuni xattaxtaga yozish yoki proyektor-da (yoki smartbordda) yozilganini ko'rsatish maqsadga muvofiq. So'ng bolalarga "Ushbu gapni biz qachon ishlatamiz?" deb savol berish va bolalarning javobini olgach, kitobni ochib, rasmlarga qarashni so'rash kerak.

**Rasmlarga qarab savollarga javob bering.**

Rasmlarning har biriga alohida to'xtalish

lozim. Bolalarga rasmlar haqida quyidagi savollarni berish kerak:

1. Bu nima?
2. Bu narsaning hodisaning tug'ilgan kunga nima aloqasi bor?
3. Sizingcha, shu yaxshi sovg'ami?
4. Siz tug'ilgan kuningizda shu narsani sovg'a sifatida olsangiz, xursand bo'larmidingiz?

5. Oxirgi rasm uchun "Rasmda qanday voqea tasvirlangan?" (bola tushinishi uchun soddaroq tarzda "Rasmda nima bo'lyapti?" deb so'rash ham mumkin) deb savol beriladi.

6. Bolalarning rasmda tug'ilgan kun tasvirlanganini ifodalagan javoblaridan keyin: "Tug'ilgan kun ekanligini qanday bildingiz? Rasmdagi qaysi bola yoki qizning tug'ilgan kuni bo'lyapti deb o'ylaysiz?" kabi savollar beriladi.

Shundan keyin darslikdagi rasm ostida berilgan savollarga o'tish mumkin.

2-savolga tug'ilgan kuning asosiy belgisi inson tug'ilgan sana va oy ekanligi, u bilan insonning necha yoshligi hisoblanishini aytish lozim. Boladan aniq javob kutiladi. Aniq javob chiqmagan holatda, bolani aniq javobga olib boruvchi qo'shimcha savollar beriladi. Aytaylik, bola "yaxshi kun" deb javob berdi. Shunda bolani aniqroq javobga yo'naltirish uchun o'qituvchi "Tug'ilgan kuning boshqa kunlardan farqi nima?" deb so'rashi mumkin.

Uchinchi savolni berganda bolalar sovg'a va sovg'a uchun berilgan narsa o'rtasidagi farqni tushuna olyaptimi, yo'qmi – diqqat qilish kerak. Agar bola bu savolga: "Sovg'a beriladi" deb javob qaytarsa, "O'sha sovg'a qanaqa narsa bo'ladi?" degan qo'shimcha savol berish kerak.

To'rtinchi savolga javobni sinfdagi barcha o'quvchi bilmasligi mumkin. Shuning uchun o'qituvchida ularga yordam berish uchun o'quvchilarning tug'ilgan kunlari yozilgan sinf ro'yxati bo'lishi maqsadga muvofiq.





Beshinchi savolni berishdan – maqsad bolani o'z xohish-istaklarini erkin bayon qilishga o'rgatish. Agar bolaning javoblarida o'tanasining yoki boshqa kattalarning yoki bola yashayotgan shart-sharoitning ta'sirida shakllangan xohish-istak aks etsa (masalan, uyimizga eshik kerak, qishga etik kerak, onamga ro'mol, otamga mashina kabi), bolaga "Shu narsani bor deb tasavvur qil. U bo'lsa, nimani xohlarding?" degan savol berish bilan uni aniqroq javobga yo'naltirish mumkin.

Og'zaki savol-javoblardan so'ng daftardagi mashq bajarilishi lozim.

### Daftardagi mashqlarni bajaring. Savollarga javob yozing.

Mashqni yozishga berishdan oldin har bir o'quvchi savollarni tushunganligiga ishonch hosil qilish kerak. Xususan, birinchi savolda ikkita narsa so'ralyapti: oy va kun. Namuna sifatida biror o'quvchidan avval og'zaki javob olib, keyin uni xattaxtaga chiqarib yozdirish mumkin.

Savolga qisqa javob berilishi nazarda tutilgan: *noyabrning o'ninчисida* yoki *o'ninchi noyabrda* kabi. Birinchi shaklda (*noyabrning o'ninчисida*) berilishi kutiladi, lekin qaysidir bola ikkinchi shaklda javob yozib qo'yan bo'lsa, xato hisoblanmaydi.

Ikkinchi savolga sovg'a sifatida olinadigan buyum nomi yozilishi kutiladi. Har bir o'quvchi o'zi mustaqil javob yozishiga diqqat qilish, agar o'quvchi yozmoqchi bo'lgan so'zining qanday yozilishini bilmasa, unga yordam berish zarur.

Uchinchi savolga beriladigan javobda shaxs otini ifodalovchi so'zlarning yozilishi va ularning vergul bilan ajratilishi kutiladi. Agar bola javobda ismlarni yozsa, ularning bosh harf bilan yozilishini eslatib o'tish maqsadga muvofiq.

To'rtinchi savolga bitta buyumning nomini yozish bilan javob berish yetarli. Agar bola nima uchun ekanligini aytishni xohlasa, uni og'zaki eshitish mumkin.

Bir soatlik dars davomida nimalar o'tilganini bolalardan qisqacha so'rab olish, ularning javoblarini to'ldirish bilan darsga xulosa yasali.

Bolalarga "Bugun darsda nimalar haqida gaplashdik? Nimalarni bilib oldik?" kabi umumiy savollar bilan birga darsda kuzatilgan

qandaydir tafsilotni aks ettiruvchi savol ham berilishi mumkin.

Har darsning oxirida keyingi soatda nima qilinishi haqida aytish muhim: "Keyingi darsda sizlar bilan Sharik degan kuchukchanning tug'ilgan kuni haqidagi matni o'qiyamiz".

### 2-soat

"Sharikning tug'ilgan kuni" degan ertakning birinchi qismi bilan tanishamiz" deb aytib, xattaxtaga matnning sarlavhasi yoziladi: Sharikning tug'ilgan kuni. Bolalarga quyidagi savollar beriladi:

1. Sharik bu qanday ism?
2. Ertak nima haqida deb o'ylaysiz?
3. Sizning uyingizda it bormi?
4. Uning ismi nima?
5. Siz uning tug'ilgan kuni qachonligini bilasizmi?

So'ng bevosita kitobni ochib, bolalarning e'tiborini matn va undagi rasmlarga qaratish lozim. Bolalarning ichida bu ertak qahramonlari ishtirokidagi multfilmni ko'rganlar bo'lishi mumkin. Shuning uchun, albatta, "Bu rasmdagi qahramonlar qatnashgan multfilmni ko'rganmisiz?", "Rasmdagi boshqa qahramonlarning ismini bilasizmi?" kabi savollarni berish kerak. O'qiladigan ertak ular ko'rgan multfilmidagi qahramonlar haqida ekanligini aytish lozim.

Endi matni tinish belgilariga rioya qilgan holda, qahramonlarning dialoglarini ohangdan farqlash mumkin bo'ladigan shaklda o'qib berish kerak. O'qituvchi matni o'qishi davomida bolalar matni kuzatib turadilar. O'qituvchi matni o'qib bergach, bolalarga avval qismlarga bo'lib, keyin rollarga bo'lib o'qitish mumkin.

Matn yana bir marta rollarga bo'lib o'qiladi. Bunda avval bolalar ichidan kim muallifning gaplarini, kim Sharikning gaplarini, kim Matroskinning va kim Fyodor amakining gaplarini o'qishi belgilab olinadi. Keyin matn tagidagi savollarga o'tiladi.

Birinchi savolga javob: yoz fasli edi. Matnda "Kuz yaqinlashib qolgan edi" hamda "Hozir avgust tugayapti" gaplari bu javob uchun asos bo'ladi.

O'quvchi to'g'ri javob berganda ham, noto'g'ri javob berganda ham, matndagi qaysi gapga asoslanganligi haqida bolaga qo'shim-



cha savol beriladi:

– Sen buni matndagi qaysi gapdan bilib olding?

Qolgan savollarga matn asosida javob kutiladi.

### 3-soat

#### “Sharikning tug‘ilgan kuni” hikoyasining 2-qismini eshiting.

Audiomatn qo‘yib beriladi yoki o‘qituvchi tomonidan 2–3 marta o‘qib eshittiriladi.

#### Sharikning tug‘ilgan kuni

2-qism

– Men unga burgaga qarshi bo‘yinbog‘ sovg‘a qilaman, – dedi Matroskin. – Ham chiroyli, ham foydali!

– Ham haqoratli, – deb e‘tiroz bildirdi Fyodor amaki. – Hamma shu zahoti Sharik burgalab ketganini bilib qoladi.

– Shu ham sir bo‘ldi-yu, – tortishdi mushuk. – Sharikning burgasi borligini kim bilmaskan?

– Balki kimlardir bilar, lekin shunday bo‘yinbog‘i bo‘lsa, hamma “Sharikning burgasini eplab bo‘lmay qolibdi” deb o‘ylaydi.

– Unda faqat kechasi taqsin!

– Faqat kechasi taqiladigan sovg‘aning unga keragi yo‘q! – dedi qat‘iy Fyodor amaki.

Ular endi nima sovg‘a qilishni Sharikning o‘zidan bilib olmoqchi bo‘lishdi. Matroskin bir kuni gap orasida so‘radi:

– Sharik, aytaylik, sen ko‘p pul topib olding. Uni nima qilarding?

– Fyodor amakiga ko‘ylak, senga esa, Matroskin, sut uchun separator<sup>1</sup> olib berardim.

Shundan keyin Matroskin Fyodor amakiga:

– Fyodor amaki, kel, unga pul sovg‘a qilib qo‘ya qolaylik, – dedi.

–Yo‘q, – rozi bo‘lmadi Fyodor amaki, – bunaqada biz Sharikka emas, o‘zimizga sovg‘a qilayotgan bo‘lib chiqamiz. Undan ko‘ra, sen uning tug‘ilgan kuniga go‘shtli pirog pishir. Ustiga shamning o‘rniga suyak tiqamiz. Zo‘r bo‘ladi!

#### Rasmlarga qarab Matroskin va Fyodor amaki Sharikka nima sovg‘a qilmoqchi bo‘lishgani haqida gapirib bering.

Darslikning 29-betidagi topshiriqda bolalar matndan tushunganlarini mustahkamlaydi.

Darslikning 29-betidagi savollarning aksariyati bolani fikrlashga undaydi. 1-savolda bola itning burgasi ko‘pligidan atrofda gilaridan uyalishi, birovga bildirmaslikka harakat qilishi, burgaga qarshi bo‘yinbog‘ esa buni hammaga bildirib qo‘yishi, shu sababli Sharik xafa bo‘lishini tushunishi nazarda tutiladi. 2-savolda Matroskinning shu yo‘l bilan Sharik o‘zi nima olishni xohlashini bilib olmoqchi bo‘lganini tushunish kutiladi. 4-savolda Sharik ko‘p puli bo‘lsa Matroskinga separator olib berishini aytgani uchun Matroskin Sharikka pul sovg‘a qilishni xohlagani, ya‘ni ko‘proq o‘zini o‘ylaganini tushunish maqsad qilingan.

### 4-soat

Bu darsda to‘liq mashq daftari bilan ishlanadi.

#### Jadvalning ikki ustunidagi gaplarni solishtiring.

Bu mashqda *bilmoq* – *bilib qolmoq*; *olmoq-olib bermoq*; *bilmoq* – *bilib olmoq* so‘zlaridagi ma‘no farqi, ya‘ni ko‘makchi fe‘l yordamida o‘zgargan ma‘noni anglash maqsad qilingan. Mashq og‘zaki bajariladi. Bitta o‘quvchi yonma-yon berilgan ikkita gapni o‘qiydi. Ikkovining mazmuni so‘raladi: birinchi gapda nima deyilgan? Ikkinchisida-chi? Bola o‘zi tushuntirib berishi kerak. O‘qituvchi yo‘naltirib turadi.

Keyingi mashq avvalgi mashqning mantiqiy davomidir.

Bu mashqni bolalar mustaqil bajarishi maqsadga muvofiq.

Mashqning javobi: *Matroskin Sharikning burgasi borligini biladi.*

*Sharik burgaga qarshi bo‘yinbog‘ taqsa, hamma uning burgalaganini bilib qoladi.*

*Matroskin Sharikdan ko‘p puli bo‘lsa, nima qilishini so‘radi. Matroskin Sharikning ko‘p puli bo‘lsa, u do‘stlariga sovg‘a harid qilishini bilib oldi.*

**Partadoshingiz bilan ishleng. Tasavvur qiling, siz ham Sharikning tug‘ilgan kuniga taklif etilgansiz. Unga nima sovg‘a qilasiz? Buni yoningizdagi o‘rtog‘ingizga aytib bering. Uning ham Sharikka nima sovg‘a qilmoqchiligini eshiting. Eshitganingiz asosida savollarga javob yozing.**

Bu topshiriqning og‘zaki va yozma qismlari

<sup>1</sup> Separator nimaligini o‘qituvchi audioni to‘xtatib, qisqa tushuntirib ketadi.



uchun darsning qolgan qismidan kelib chiqib bolalarga vaqt belgilab berish kerak. Avval bolalar o'zaro birga ishlaydi. Shundan keyin 2–3 boladan daftarda berilgan savollarga javobni eshitish kerak. So'ng hamma daftardagi savollarga o'z javobini yozadi.

### 5-soat

Darslikning 30-betidagi matn avval o'qituvchi tomonidan, keyin o'quvchilar tomonidan (bo'lib-bo'lib) 3–4 marta o'qiladi. So'ngra darslikning 31-betidagi savollarga javob beriladi.

### 6-soat

Darslikning 31-betida berilgan she'r avval o'qituvchi tomonidan, keyin o'quvchilar tomonidan ifodali qilib o'qiladi. She'rning har qatoridagi bo'g'inlar sonini sanash va qofiyalarni topish bolaning she'r haqidagi tasavvurlarini o'stiradi. Keyin mashq daftardagi topshiriq bajariladi.

#### She'rga asoslanib rasmdagi bolalar-ni ismini yozing.

She'rning mazmuniga ko'ra qaysi bola qanday sovg'a berganidan kelib chiqib, rasm ostiga bolalarning ismi yoziladi. Buni butun sinf birgalikda avval og'zaki topadi, keyin ismlarni bir o'quvchi xattaxtaga va qolganlar o'z daftariga yozadi.

Keyin 32-betdagi she'r mazmuni bo'yicha berilgan savollarga o'quvchilardan javob olinadi.


### 7-soat

#### Tabriknomalarni o'qing.

Darslikning 32-betdagi tabriknomalar avval o'qituvchi, keyin o'quvchilar tomonidan bir

necha marta o'qib chiqiladi.

So'ng 33-betdagi savollarga o'tiladi. Savollarning javobi quyidagi sxemada aks etgan. O'quvchilarga shu asosda tushuntirish mumkin.



Bu mashqda o'quvchi berilgan so'zlar ichidan o'ziga yoqqanlarini tanlab olib, chiziq bilan birlashtirib chiqadi. Bo'sh o'rinlarga kimni tabriklamoqchi bo'lsa, o'shanning ismini, pastga o'zinikini yozib qo'yadi. Mazkur dars oxirida keyingi darsda ijodiy ish qilish aytiladi, bunga zarur bo'lgan rangli qog'oz, yelim, qaychi, oq qog'oz, rangli qalam olib kelish kerakligi ta'kidlanadi.

### 8-soat

#### Yaqin o'rtog'ingizning tug'ilgan kunida sovg'a qilish uchun tabrik xati tayyorlang. Uni rasmlar yoki applikatsiyalar bilan bezating.

Bu dars bolaning mavzu davomida o'zlashtirganlarini amalda ijodiy yondashib qo'llay olishiga qaratilgan. Imkon qadar bolalarning mustaqil ishlashiga erishish kerak.

## MENING MAHALLAM

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning mahalla bilan bog'liq tasavvurlarini kengaytirish, ularning mazkur mavzu doirasida ishlatiladigan so'z, so'z birikmalari va gaplarni to'g'ri tushunish va to'g'ri qo'l-lashiga erishish.

holda berish lozim. Bunda bir savol takror kelishi va rasmdagi tasvir qayta so'ralishi mumkin. O'quvchilarning fikri har xilligini inobatga olgan holda har bir o'quvchining javobini tinglash va og'zaki nutqida yo'l qo'ygan xatolarni qayd etib borish kerak. Kamchiliklar ustida alohida ish olib borish, o'quvchilar so'zlayotganida nutqini bo'l-maslik kerak.

**2-BO'LIM** **MENING MAHALLAM**

Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.



1. Aytinch-chi, bu rasmlarda qayer tasvirlangan?
2. Sizingcha, bu rasmlarni nima bog'lab turibdi?
3. Rasmdagi qaysi joy sizga yoqdi? Nima uchun?
4. Berilgan rasmlardan qaysi biri siz yashab turgan joyga o'xshayapti?

1. Sizingcha, qo'shnichilikda qanday qoidalar bor? Misollar yozing.

**Namuna:** Kasal bo'lsa, xabar olinadi.

2. Mahalla bilan bog'liq so'zlarni topib yozing.

35

1-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Mahalla deganda nimani tasavvur qilasiz?*

#### Asosiy qism

**Topshiriq. Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.**

Mazkur savollarga iloji boricha ko'proq o'quvchidan javob olinishi kerak. Agar biror savolga berilgan javobda o'quvchining fikri yetarlicha ochib berilmasa, o'qituvchi uni ochishga xizmat qiladigan qo'shimcha savollar berishi lozim.

**Eslatma:** Savollarni rasmga bog'lagan

#### 1. Aytinch-chi, bu rasmlarda qayer tasvirlangan?

Bolalar rasmlarda qayer tasvirlanganini aytishi, ya'ni **ko'cha, mahalla, choyxona, bolalar maydonchasi** deb javob berishi mumkin.

#### 2. Sizingcha, bu rasmlarni nima bog'lab turibdi?

Ushbu savolga o'quvchidan aniq javob berish kutiladi. Agar o'quvchi aniq javob bera olmasa, uni aniqroq javobga yo'naltirish uchun o'qituvchi *"Bu bolalar nima uchun birga o'ynayapti?"* deb so'rashi mumkin.

#### 3. Rasmdagi qaysi joy sizga yoqdi? Nima uchun?

Odatda aksariyat bolalar o'zlari yashaydigan mahallaga o'xshash rasmni tanlashadi. Boshqa bolalar shahar yoki qishloqda yashashi yoki boshqa sabablar bilan ma'lum bir rasmni tanlashadi. Muhimi – og'zaki tarzda buni ifodalab berishlariga erishish.

#### 4. Berilgan rasmlardan qaysi biri siz yashab turgan joyga o'xshayapti?

O'quvchilar yashab turgan joyiga aynan o'xshamas ham, qaysidir jihatlar bilan qisman o'xshab ketadigan mahalla tasvirini aniqlashi va izohlab berishi lozim.

#### Yozma mashq

Og'zaki savol-javoblardan so'ng quyidagi mashq bajarilishi kerak.

#### Sizingcha, qo'shnichilikda qanday qoidalar bor? Misollar yozing.

Berilgan savol yuzasidan o'quvchilardan javob olingach, ularning fikriga qo'shimcha qilgan holda namunada keltirilgan gapni o'qib berish lozim: **"Kasal bo'lsa, xabar olinadi"**. Bir vaqtning o'zida keltirilgan namunani xat-taxtaga yozish ham maqsadga muvofiq.



Shundan so'ng o'quvchilarning har biri berilgan namuna asosida mustaqil ravishda bitadan gap yozishi kerakligi aytiladi.

Mashqni yozishga berishdan oldin har bir o'quvchi savollarni tushunganligiga ishonch hosil qilish lozim. Buning uchun avval o'quvchilarga savol bilan murojaat qilish kerak: **“Mahalla deganda ko'z oldingizga nimalar keladi?”** O'quvchilardan javob olingach, ularning har biriga mustaqil ravishda mahalla bilan bog'liq so'zlarni yozish topshirig'i beriladi.

**Javob:** qo'shni, ko'cha, mahalladosh, hashar, hovli...

## 2-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi o'quvchilar bilan o'tilgan dars mavzusi bilan bog'liq qisqa savol-javob o'tkazishi mumkin. Audiomatni eshitish jarayoniga tayyorlash lozim.

#### Asosiy qism

O'quvchilarga quyidagi audiomatn eshittiriladi (imkoni bo'lmaganda o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi):

**Topshiriq. “Hashar elga yarashar” matnini tinglang.**

Bizning mahalla ahli juda inoq. Mahalladoshlarimiz yolg'iz, bemor kishilarning ahvolidan xabar olishni, qiynalganlarga yordam qo'lini cho'zishni o'z burchlari deb biladilar. Kimdir uy qurmoqchi yoki to'y qilmoqchi bo'lsa, hamma maslahatga yig'iladi, har kim qo'lidan kelgancha yordam beradi.

Menga, ayniqsa, har yili Mustaqillik va Navro'z bayramlarida o'tkaziladigan hasharlar yoqadi. Shu kuni barvaqt turib, dadam bilan mahallaga chiqamiz. Mahalladoshlar bilan bir oila a'zolaridek qo'lni qo'lga berib mehnat qilamiz: ko'chalarni, ariq-zovurlarni tozalaymiz, ko'chat ekamiz, daraxtlarga shakl berib, oqlaymiz. Keyin mahalla ahli dasturxon atrofida jamuljam bo'ladi. Hamma topganini o'rtaga qo'yib, ko'pchilik bilan birga baham ko'radi.

Hashar – ko'ngilli tadbir. Unga har kim o'z

hissamni qo'shsam deydi. Hashar tugagach, ko'cha va xonadonlarimizning sarishtaligini ko'rib, ko'nglimiz tog'dek ko'tariladi.

4-sinf “*Odobnoma*” darsligidan olindi.

Audiomatn eshittirilgach, quyidagi savollar ustida ishlanadi.

Mahalla ahli deganda kimlar nazarda tutiladi?
Mahallada kimlarning ahvolidan xabar olinar ekan? Nima uchun?
Hashar nima? U qaysi bayramlardan oldin o'tkaziladi? Hasharda nimalar qilinir ekan?
“Hashar ko'ngilli tadbir” deganda nimani tushundingiz?
Sizning mahallangizda ham hashar bo'lib turadimi?

#### 1. Mahalla ahli deganda kimlar nazarda tutiladi?

Birinchi savolga javob berayotganda o'quvchi “*Mahalla ahli*” birikmasini tushunmasligi mumkin, siz bu jarayonda “*Mahallangda kimlar yashaydi?*”, “*Ular senga kim bo'ladi?*” kabi savollar bilan o'quvchini aniq javobga yo'naltirishingiz va ularning bergan javoblarini to'ldirib “*Mahalla ahli*” birikmasini tushuntirib berishingiz kerak.

#### 2. Mahallada kimlarning ahvolidan xabar olinar ekan? Nima uchun?

#### 3. Hashar nima? U qaysi bayramlardan oldin o'tkaziladi? Hasharda nimalar qilinir ekan?

Keyingi savollarga o'quvchi tinglagan audiomatnini yodga olishi va shu asosida javob berishi kerak. Bu jarayonda o'quvchilarning javoblari orqali ularning tinglab tushunish malakalarini tekshirib, og'zaki nutqda yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini tuzatib, baholab borishi lozim.

#### 4. “Hashar – ko'ngilli tadbir” deganda nimani tushundingiz?

#### 5. Sizning mahallangizda ham hashar bo'lib turadimi?

Ushbu savollarga javob berish jarayonida o'quvchilarning mavzu doirasidagi munosabatlari aniqlanishiga e'tibor berish kerak. Yo'naltiruvchi savollar shu maqsadda berilishiga erishish lozim.

#### Yozma mashq

**O'quvchilarni 3 guruhga bo'ling. Keyingi gapda guruhlarning vazifalarini almashtiring.**



1-guruhga 1-shaklda berilgan so'zni o'qiting.	Qiynalganlarga yordam qo'lini cho'zishni o'z burchlari deb biladilar.
2-guruhga 2-shaklda berilgan so'zni o'qiting.	Qiynalganlarga yordam berishni o'z burchlari deb biladilar.
3-guruhdan 1- va 2- shaklda- gi gaplar maz- munidagi farqni so'rang.	Qiynalganlarga yordam qo'lini cho'zishni o'z burchlari deb biladilar. ↓ Qiynalganlarga yordam berishni o'z burchlari deb biladilar.

O'quvchilarning javoblaridagi xato va kamchiliklarini tuzatib borish lozim.

### Xato yozilgan gaplarni aniqlang.

O'quvchilar mashq shartini tushunganiga ishonch hosil qilingach, mashqni bajarishga kirishiladi. O'quvchilar mashqni bajarib bo'lganlaridan so'ng, javoblar tekshiriladi.

Javoblarni tekshirish davomida o'quvchilardan javoblarni izohlab berish so'raladi. Ya'ni nima uchun o'quvchi ikkala gapdan birini to'g'ri deb oldi va birini xato deb hisobladi? Xato deb bilgan gapida qaysi o'rinlarda xato borligini aytib bera olishi kerak.

## 3-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

1. Qo'shni kim?
2. Kimlarni qo'shni deymiz?

Bu savollarga bolalardan javob olingach, **"Kimni qo'shni deymiz?"** matnini ovoz chiqarmay, ichlarida o'qish aytiladi. Har bir o'quvchi matnni mustaqil ravishda o'qiyotgani nazorat qilib boriladi.

### Asosiy qism

Bolalar matnni o'qib bo'lgach, quyidagi savollar beriladi.

#### 1. Kimlarni qo'shni deymiz?

O'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar o'z tasavvurlari va matnda aytilgan ma'lumotlar asosida javob beradilar.

#### 2. Temurning bobosi aytgan fikrga qo'shilasizmi? Nima uchun?

O'quvchi matnda berilgan vaziyatga nisbatan o'z munosabatini tushuntirib beradi. O'z fikrlarini asoslashga harakat qiladi.

#### 3. Mahalladoshlar bilan ahil bo'lish uchun nima qilish kerak?

#### 4. Mahallangizdagi odamlarga qanday yaxshilik qilishingiz mumkin?

Ushbu savollarga javob berish jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutqi, fikr ifodalashda so'z tanlash mahorati kuzatiladi.

#### Partadoshingiz bilan biringiz bobo, biringiz bola bo'lib dialogni qayta o'qing. So'zlarni aniq va to'g'ri talaffuz qiling.

Ushbu topshiriqni bajartirishdan avval o'quvchilarga "Kimni qo'shni deymiz?" matnidagi rollar bo'lib beriladi.

O'quvchilarning har biri o'z partadoshlari bilan rolga kirishib suhbatni o'qib berishlari kerak.

### Yozma mashq

#### Mahalladagi qo'shnilaringiz bir-biri bilan uchrashib qolganda eng ko'p qanday so'z yoki gaplarni ishlatadi? Yodingizda qolganlarini yozing.

Mashqni yozishga berishdan oldin har bir o'quvchi mashq shartini tushunganligiga ishonch hosil qilish lozim. Buning uchun avval o'quvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qilish kerak:

1. Qo'shnilaringizni ko'rganingizda birinchi navbatda nima deysiz?
2. Qo'shningiz uyingizga kelganda qanday taklif qilasisiz?

Berilgan savol yuzasidan o'quvchilardan javob olingach, ularning fikriga qo'shimcha qilgan holda namunada keltirilgan gapni o'qib berish lozim: **"Assalomu alaykum"**. Bir vaqtning o'zida keltirilgan namunani xattaxtaga ham yozish maqsadga muvofiq.

Endi o'quvchilarning har biridan mashq daftarlariga berilgan namunani mustaqil ravishda davom ettirib so'z yozishlari so'raladi.

**Eslatma:** bu mashq orqali o'quvchining lug'at boyligi hamda yozma savodxonligi tekshiriladi. O'quvchilar mashqni bajarib bo'lganlaridan so'ng, ularga yozgan so'zlarini ketma-ketlikda o'qitish lozim. Bolalar so'zlarni o'qiyotganida ular yozgan so'z-



*larning imlosi tekshiriladi, xato va kamchiliklari bartaraf etiladi.*

#### 4-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Mahallangiz qanday nomlanadi?*

#### Asosiy qism

Ushbu savolga o'quvchilardan javob olib bo'lingach, ikki ustunda berilgan matnlar bilan tanishtiriladi. Shu bilan birga, ikki ustunda berilgan matnlarni qog'ozga chiqarilgan variantda xattaxtaga ilib qo'yish yoki proyektorda (yoki smartbordda) yozilgan matnni ko'rsatish maqsadga muvofiq.

O'quvchilar matnni mustaqil ravishda o'qishlarini nazorat qilish lozim. Matnni o'qib bo'lganlaridan so'ng, bolalarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi.

**1. Sizningcha, qaysi ustundagi matn to'g'ri? Nima uchun?**

Birinchi savol o'quvchidan aniq javobni talab qiladi. Ya'ni o'quvchi ikki ustundagi matnni taqqoslab, qay biri to'g'ri ekanligini aytib berishi va aynan nima uchun shu matnni to'g'ri deb olganini izohlab berishi lozim.

**2. Matnlardagi qaysi so'zlar almashgan?**

Ikkinchi savolni birinchi savolning davomi sifatida berib, matnlarda qaysi so'zlar almashib kelganligini o'quvchidan so'rash kerak.

**3. Qayer?, qayerda? so'roqlariga qaysi so'zlar javob bo'lyapti?**

Uchinchi savolda o'quvchi matnga qaytib, *qayer?, qayerda?* so'roqlariga javob bo'luvchi so'zlarni topib berishi zarur.

**4. Joy nomlari qanday yozilishi kerak?**

To'rtinchi savolni berishdan avval o'quvchidan matndagi *Sariosiyo, Abu Rayhon Beruniy, Xo'jamurod baxshi* so'zlari nima uchun bosh harf bilan yozilganini so'rashingiz lozim.

O'quvchilardan javob olib bo'lgach, joy nomlari doim bosh harf bilan yozilishi tushuntiriladi.

**Yozma mashq**

**Takror ishlatiladigan so'zlarni boshqa-**

**sigalarni almashtirib, gaplarni ko'chiring.**

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi. Ishga kirishishdan oldin mashq daftarida berilgan gaplarni baland ovozda ifodali qilib o'qib berish maqsadga muvofiq.

#### 5-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Mahalla siz uchun nima?*

#### Asosiy qism

O'quvchilar she'rni mustaqil ravishda o'qishlarini nazorat qilinadi. She'r o'qib bo'lingandan so'ng, quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin.

**1. Qo'shnilar qahramonga nima deb tanbeh berishar ekan?**

**2. Ayting-chi, qo'shnilar nimaga betob bo'lgan bola holidan xabar olishdi?**

**3. She'rdagi qahramonning "Mahallang - ota-onang" degan fikriga qo'shilasizmi? Nima uchun?**

**4. Sizningcha, she'rning bosh qahramoni kim? U qanday bola?**

Mazkur savollarga iloji boricha ko'proq o'quvchidan javob olinishi kerak. Savollarga o'quvchilar she'r matni asosida mustaqil fikrlab javob berishlari lozim. O'qituvchi ushbu jarayonda o'quvchilarning og'zaki nutqini tekshirib, ular bergan javoblarni to'ldirib borishi shart.

**Yozma mashq**

**She'rdagi qahramon kasallikdan tuzalgach, mahallada o'zini qanday tutgan deb o'ylaysiz? She'rni davom ettiring.**

Mashqni bajarishga kirishishdan oldin har bir o'quvchi mashq shartini tushunganligiga ishonch hosil qilib olinadi. Buning uchun o'quvchilardan she'rning mazmunini so'rash mumkin.

O'quvchilarning javoblari tinglangach, ularni mulohazaga tortuvchi savollar beriladi. Masalan, "Qahramonimiz betob bo'lganida kimlar holidan xabar oldi?", "Qo'shnilar qah-



ramonimizga nima deyishdi?”, “Aytinchi, qahramonimiz tuzalgach, mahallada o'zini qanday tutadi?”.

Har bir o'quvchining mustaqil fikrlari tinglanadi, ular bergan javoblar asosida suhbat tashkillashtiriladi.

## 6-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng ayrim o'quvchilardan “**Mahalla – ota-ona**” she'rini yoddan aytib berish so'raladi. Bu jarayonda ketma-ketlikni buzmaganda har bir o'quvchiga she'rning bir qatorini aytirish mumkin.

O'quvchilar she'rni aytishlari davomida ularning og'zaki nutqi tekshirib boriladi, xato va kamchiliklari tuzatib borilishi maqsadga muvofiq.

#### Asosiy qism

##### Yozma mashq

**She'rdagi ajratilgan so'zlarni izohi bilan moslab ko'chiring.**

Ushbu mashqni bajarishdan avval o'quvchilarga “Mahalla – ota-ona” she'rida ajratib ko'rsatilgan so'zlar o'qitiladi. So'ng darslikda berilgan izohlarni xattaxtaga yozib qo'yish yoki proyektor (yoki smartbord)da ko'rsatish mumkin. Berilgan izohlarni ko'rsatgan holda baland ovozda ifodali qilib o'qib berish maqsadga muvofiq.

So'ng o'quvchilardan she'rda ajratib ko'rsatilgan so'zlar berilgan izohlardan qaysi biriga mos kelishini so'rash lozim. O'quvchilardan javoblar olib bo'lingach, o'qituvchi javobni izohlab xattaxtaga yozib ko'rsatishi va qolgan izohlarga mos so'zlarni she'rda ajratib ko'rsatilgan so'zlardan topib, moslab yozishi maqsadga muvofiq.

##### Javob:

- ta'na – xato va kamchilikni aytmoq;
- dilim vayron – qattiq xafa bo'lib;
- barobar – bir vaqtda, teng;
- somon – sarg'aygan;
- tansiq – kam tayyorlanadigan;

- chog' – xursand;
- soz – yaxshi.

**Audiomatni tinglang. Joy nomlarini to'g'ri belgilang.**

Ushbu mashqni bajarishdan avval o'quvchilarning e'tibori darslikda berilgan mahalladagi binolarning joylashuvi bilan bog'liq xaritaga qaratiladi.

O'quvchilar bilan suhbat olib borilgach, raqamlab berilgan joy nomlari navbatma-navbat o'qitiladi hamda mashq daftaridagi xarita ko'rsatiladi. Audiomatni eshitish davomida aylana ichida qoldirilgan bo'sh o'rinlarga raqamlardagi qaysi joy nomi to'g'ri kelsa, shu joy nomining raqami yoziladi.

##### Audiomatn

Sizni o'z mahallam bilan tanishtiraman. Mahallamizning boshi shu chinor daraxtidan boshlanadi. Uning yonida bekat bor. Bekatning orqa tarafida oziq-ovqat do'koni, uning yonida dorixona joylashgan. Dorixona qarshisida Sobir akaning sataroshxonalar bor. Sataroshxonaning o'ng tarafida o'yinchoqlar do'koni, chap tarafida esa bolalar bog'chasi qurilgan. Bolalar bog'chasining orqa tarafida to'rt qavatli uylar bo'lib, uning o'rtasida sport maydonchasi bor.

**Eslatma:** audiomatni eshittirishga imkoniyat bo'lmasa, matnни baland ovozda ifodali qilib o'qib berish mumkin.

## 7-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

1. Mahallangiz qanday nomlanadi? Nega shunday nomlashgan?
2. Mahallangiz qayerda joylashgan?
3. Mahallangizda qanday binolar bor?

#### Asosiy qism

##### Yozma mashq

**O'zingiz yashayotgan mahalla haqida matn tuzing. Quyidagi rejalardan foydalanishingiz mumkin.**

Ushbu yozma mashqni bajarishlaridan ol-





din o'quvchilarning diqqat e'tibori darslikda berilgan rejalarga qaratiladi. Ularni izohlash bilan bog'liq suhbat tashkillashtiriladi. Shu vaqt davomida rejalarni xattaxtaga yozish yoki proyektorda (yoki smartbordda) ko'rsatib izohlash maqsadga muvofiq.

**1-reja** asosida matn yaratayotgan o'quvchi matniga "Bu – mening mahallam" deb sarlavha qo'yishi va matnida mahallasining nomi, qayerda joylashganligi, undagi ko'cha va binolarning joylashish tartibini tasvirlab yozib berishi kerak.

**2-reja** asosida matn yaratayotgan o'quv-

chidan matniga "Mahallam tarixi" deb sarlavha qo'yishi va matnida mahallasining nomi, bu nomning kelib chiqishi, mahallasida yashaydigan insonlar, mahalla ahli o'rtasidagi urf-odatlarini tasvirlab yozib berishi zarur.

**3-reja** asosida matn yaratayotgan o'quvchi esa matniga "Mahalladosh o'rtoqlarim" deb sarlavha qo'yishi va matnida mahallasidagi o'rtoqlari, ularning xarakterlari, mahallada ular bilan vaqtni qanday o'tkazishini tasvirlab berishi lozim.

## QISHDA UXLAYDIGAN HAYVONLAR

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning hayvonot olami haqidagi tasvurlarini kengaytirish. Hayvonlarning sifatlarini bildiruvchi so'zlar ma'nosi hamda hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar imlosini o'rgatish. Matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish. Bo'g'in ko'chirish qoidalarini takrorlash. Bir unli tovushdan iborat bo'g'inlar, bir unli tovush va bir undosh tovushdan iborat bo'g'inlar, bir unli tovush va bir necha undosh tovushdan iborat bo'g'inlarga ajratishni o'rgatish.

"Qizil kitob"ga kiritilgan noyob hayvonlardan biri haqida namuna asosida hikoya yozish.

1-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Ayting-chi, ayrim hayvonlar nega qish faslida uyquga ketadi?*

#### Asosiy qism

**3-BO'LIM QISHDA UXLAYDIGAN HAYVONLAR**

Rasmga qarang. Savollarga javob bering.

- 1 Qaysi hayvonlarni ko'ryapsiz? Ularga ta'rif bering.
- 2 Qaysi hayvonlar qishda uxlaydi?
- 3 Nima deb o'ylaysiz, ular nega uyquga ketadi?
- 4 Qishda uxlamaydigan hayvonlar nimalar bilan oziqlanadi?
- 5 Sizga qaysi hayvon ko'proq yoqadi?

1. Qishda uxlaydigan hayvonlarning nomini bo'g'iniga ajratib ko'chiring.

**Namuna:** yum-ron-qo-ziq.

"Qo'ng'ir ayiq" audiomatnini tinglang.

43

#### 1-topshiriq. Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.

Darslikda turli xil hayvonlarning rasmi berilgan. O'quvchining diqqatini rasmlarga qaratgan holda rasm ostida keltirilgan savollar asosida suhbat tashkil qilinadi.

**Eslatma:** har bir savolni 5–6 o'quvchiga bering. Savolning va javobning takror bo'lib qolishi ahamiyatsiz, bunda o'quvchilarni darsga jalb etish hamda har birining nutqini nazorat qilish va o'stirish muhimligi nazarda tutiladi.



### 1. Qaysi hayvonlarni ko'ryapsiz? Ular- ga ta'rif bering?

O'quvchilardan kutiladigan javob turlicha bo'lishi mumkin, asosan ularning lug'at boy-  
ligi tekshiriladi. O'quvchilar yetarlicha javob  
bera olmasa, o'qituvchi tomonidan rasmdagi  
hayvonlar qanday nomlanishi aytib o'tiladi.

### 2. Qaysi hayvonlar qishda uxlaydi?

Bu savolga o'quvchilar rasmni kuzatgan  
holda javob berishlari lozim. Rasmda qishda  
uxlaydigan hayvonlar uyalarida uyquga ket-  
gan holda tasvirlangan.

### 3. Nima deb o'ylaysiz, ular nega uyquga ketadi?

O'quvchilar kuzatishlari asosida tafakkur  
qilib javob berishlari lozim. Agar savolga to'liq  
javob berishmasa, o'qituvchi izoh berib o'tadi.

### 4. Qishda uxlamaydigan hayvonlar ni- malar bilan oziqlanadi?

O'quvchilar dastlab qishda uxlamaydigan  
hayvonlarni rasmdan topib, nomlarini aytib,  
so'ng ularning nima bilan oziqlanishini (tax-  
minan) aytib berishlari kerak.

### 5. Sizga qaysi hayvon ko'proq yoqadi?

Bu savolga o'quvchilar o'z qiziqishlari aso-  
sida javob beradi. Ular o'zlari yoqtirgan hay-  
vonlarining nomini va ularni qay darajada ku-  
zatishlarini aytib berishi lozim.

### Yozma mashq

#### 2-topshiriq. Qishda uxlaydigan hay- vonlarning nomini bo'g'inga ajratib ko'- chiring.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajarila-  
di. O'quvchilar darslikda berilgan rasm ham-  
da o'tkazilgan savol-javob asosida qishda ux-  
laydigan hayvonlarni topib, nomlarini bo'g'in-  
ga ajratib ko'chirishi lozim.

Bo'g'inlarga ajratib yozish uchun darslikda  
namuna berilgan.

### 2-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, ayiq haqida nimalarni bilasiz?*

### Asosiy qism

#### 1-topshiriq. "Qo'ng'ir ayiq" audiomat-

### nini tinglang.

#### Audiomatn

#### Qo'ng'ir ayiq

Ko'pchilik bolalar O'zbekistonning tog'li  
hududlarida bahaybat ayiqlar yashashini bil-  
masa kerak. Chunki ular ayiqlarni faqatgina  
sirkda yoki hayvonot bog'ida ko'rishgan-da.

Yuz yillar oldin yurtimizning hamma joyida,  
hatto Toshkent yaqinida ham qo'ng'ir ayiqlar-  
ni uchratish mumkin edi. Afsuski, hozir ular  
faqat Turkiston, Zarafshon va Hisor tog'larida  
yashashadi. O'rmonlar kamayib ketishi sa-  
babli ayiqlar ham qirilib ketmoqda.

Qo'ng'ir ayiqning bo'yi bir yarim metr, og'ir-  
ligi esa 300 kg keladi. Ular tog'dagi archazor-  
larda yashaydi. Ayiqlar yemish tanlamaydi.  
Turli mevalar, piyozlar, ba'zan baliq va ha-  
sharotlar bilan oziqlanishadi. Ammo och qolib  
ketsa, qo'y, tovuq kabi uy hayvonlariga ham  
hujum qilishi mumkin.

Qo'ng'ir ayiq mart oyidan oktyabr oyiga-  
cha ov qilib, qornini yaxshilab to'ydirib oladi.  
Qishni esa uyasida uxlab o'tkazadi. Lekin ur-  
g'ochi ayiqlar qishda bolalashi ham mumkin.  
Ayiqchalar odatda yanvar-fevral oylarida tu-  
g'ilib, bahor kelgunicha tashqariga chiqmay-  
di.

Mutaxassislarning hisobiga ko'ra, O'zbe-  
kiston hududida 600 ga yaqin qo'ng'ir ayiq  
bor. Bu ayiqlar maxsus davlat qo'riqxonalarida  
yashaydi. Ularni ovlash qat'iyon taqiqlan-  
gan.

Audiomatn eshittirilgach, darslikning  
44-sahifasidagi savollar beriladi.

Bu savollar orqali o'quvchilarning eshitib  
tushunish ko'nikmasi tekshiriladi. Savollar-  
ning javobi audiomatnda berilgan. O'quv-  
chilar savolni o'qib, eshitgan audiomatlarini  
mulohaza qilib javob berishi lozim.

### Yozma mashq

#### 2-topshiriq. Nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni to'ldi- ring.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajari-  
ladi. Bunda 4 ta gap berilgan bo'lib, undagi  
ayrim so'zlar tushirib qoldirilgan. O'quvchilar  
gapni o'qib, kerakli so'zlar qatoridan maz-  
munga mos keladigan so'zni yozishi lozim.

O'quvchilarning imlosi, gapni mantiqan



to'g'ri shakllantirishi tekshiriladi.

### 3-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, qish faslida tabiatda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?*

### Asosiy qism

#### O'qib tushunish.

O'quvchilar darslikda berilgan "Qish ro'moli" matnini o'qishlari lozim.

Matn 2–3 marta qayta o'qib bo'lingach, 45–46-sahifadagi savollar asosida suhbat boshlanadi.

Berilgan savollarga o'quvchilar matn hamda o'z kuzatishlari asosida javob berishlari lozim. Asosiy e'tibor o'quvchining o'z fikrini asosli qilib ifodalab berishiga qaratiladi. Masalan, ikkinchi savolda "Hikoya aytib bera-yotgan bola o'g'il bolami yoki qiz bola?" deb so'ralgan. O'quvchi "o'g'il bola yoki qiz bola" deb javob berish bilan birga, o'z taxminini matndan kuzatgan holatlar asosida isbotlashga harakat qilishi lozim. Biroq bu savolga aniq javob yo'q ekanini o'zingiz yodda tuting.

O'quvchilar savollarga javob berib bo'lgach, ularning javoblariga munosabat bildiriladi.

### 4-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, "Qish ro'moli" hikoyasida tabiat qanday tasvirlangan?*

### Asosiy qism

#### Yozma mashq

**2-topshiriq. "Qish ro'moli" hikoyasida-gi ajratib ko'rsatilgan qismlarni izohi bilan yozing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda "Qish ro'moli" hikoyasida qo'llangan tasviriy ifodalar ajratib berilgan. O'quvchilar tasvirlarni o'qib, ularning ma'nosini yozishlari

lozim. Qanday yozishlari haqida tasavvurga ega bo'lishlari uchun namuna keltirilgan. Bu jarayonda o'quvchi matn bilan qayta ishlashi mumkin.

#### Namuna:

***Kuzgi xazonlar yerning ko'rpasiga aylangan*** – kuz faslida daraxt barglari to'kiladi. Yerga qalin to'kilgan xazonlar xuddi ko'rpaga o'xshaydi.

O'quvchilarning imlosi, gapni mantiqan to'g'ri shakllantirishi tekshiriladi.

**2-topshiriq. Matn asosida berilgan fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda o'quvchilar "Qish ro'moli" matnida berilgan ma'lumotlar asosida keltirilgan gaplarni to'g'ri yoki noto'g'riga ajratadilar. Bunda gaplarning qarshisiga *to'g'ri va noto'g'ri* deb yozilgan, o'quvchilar shulardan birini belgilashlari lozim.

Berilgan ma'lumotlar matnda aks etgan, o'quvchi matn bilan ishlashi mumkin.

**Javob:** *noto'g'ri, to'g'ri, noto'g'ri, noto'g'ri, noto'g'ri.*

Mashqlar bajarib bo'lingach, xatolar ustida ishlanadi. Nima uchun xato yoki to'g'ri ekanligi o'quvchilardan so'raladi, zarurat sezilsa, o'qituvchi tomonidan izohlab beriladi.

### 5-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, hayvonlarning qanday uxlashini kuzatganmisiz?*

### Asosiy qism

#### She'rni o'qish.

Darslikda berilgan "Kim qanday uxlaydi?" she'ri hamda muallifi tanishtiriladi. O'quvchilarga she'rni ovoz chiqarmay mustaqil o'qishlari aytiladi.

She'rni o'qib bo'lishgach, o'qituvchi bir marta baland ovozda o'qib eshittiradi.

So'ng quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:



### 1. She'rdan uxlashni ifodalaydigan so'zlarni aniqlang.

Ushbu savolga o'quvchilar tafakkur qilib javob berishlari kerak. Ya'ni she'r matni mazmunidan olgan xulosalari asosida uxlashni ifodalovchi so'zlarni aniqlab aytishlari lozim. Bunda asosan o'quvchining lug'at boyligi tekshiriladi.

O'quvchilar javob berib bo'lgach, o'qituvchi tomonidan uxlashni ifodalaydigan so'zlar aytib, izohlab beriladi.

#### Yozma mashq

**1-topshiriq. Ko'rshapalak, musicha, qurtlar, it, ayiqpolvon, mushuk, qushlar qanday holatda uxlashini she'rdan aniqlab, yozing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda mashq daftarida she'r matnida uchraydigan hayvonlarning nomi berilgan. O'quvchilar she'r matni bilan ishlab, hayvonlarning qanday holatda uxlashlarini aniqlab yozishlari lozim.

Bu topshiriq orqali o'quvchining she'r matni bilan ishlash ko'nikmasi shakllantiriladi.

ichlarida o'qishlari lozim.

So'ng maqollarga oid savollar asosida suhbat o'tkaziladi.

**1. Ayting-chi, bu maqollarning odamlar hayoti bilan qanday o'xshashligi bor?**

**2. Qanday odamni arslon yoki tulkiga qiyoslash mumkin?**

**3. Siz ham shu kabi maqollarni bilasizmi?**

Ushbu savollarga o'quvchilar maqol mazmunidan kelib chiqib javob berishlari kerak. Bu jarayonda maqollar xattaxtada yozib qo'yiladi hamda har birining ma'nosi so'raladi. O'quvchi maqollardagi o'xshatish, qiyoslashlar orqali maqol mazmunini ochib berishi lozim. Bunda o'quvchi maqol mazmuni hamda multfilmlarda kuzatgan hayvonlari haqidagi tushunchalari orqali javob berishi nazarda tutilgan.

#### Og'zaki suhbat.

**Hayvonlarning nomi bildirgan qo'shimcha ma'nolarni bilib oling.**

Ushbu topshiriq og'zaki hamda yozma tarzda bajariladi. Darslikda berilgan rasmi ma'lumotni o'quvchilar ichlarida ovoz chiqarmay o'qishlari aytiladi. O'quvchilar ma'lumotlar bilan tanishib bo'lgach, xattaxtada hayvonlarning nomlari yoziladi. Har bir o'quvchidan hayvonlarning ta'rifi so'raladi.

Bu topshiriqdan asosiy maqsad – o'quvchilarning hayvonlar nomi va ularning ertaklarda, rivoyatlarda uchraydigan xos sifatleri bilan bog'liq tasavvurlarini kengaytirish va sifatlarga qanday so'roq berilishini o'rgatish.

#### Yozma mashq

**Hayvonlarni tasvirlab namunadagidek gaplar tuzing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar yuqorida tanishgan ma'lumotlariga asoslanib, hayvonlarga xos sifatlardan foydalangan holda namunadagidek gap tuzishlari lozim.

**Namuna:** o'rmonda qo'rqmas sher yashagan ekan.

O'quvchilarning imlosi, gapni mantiqan to'g'ri shakllantirishi tekshiriladi.

## 6-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Ayting-chi, qaysi hayvon kechasi uxlamaydi? Nima uchun?*

#### Asosiy qism

**“Kim qanday uxlaydi?” she'ridagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarni izohlang.**

Bunda o'quvchilar she'r matnidan ajratib ko'rsatilgan so'zlarni topib aytadilar. So'zlar xattaxtaga yoziladi hamda o'quvchilardan so'zlarning ma'nosi so'raladi.

O'quvchilar javobi eshiltgach, har bir so'zning ma'nosi o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

#### Og'zaki suhbat.

**Maqollarni o'qing. Ma'nosini tushuntiring.**

Darslikda maqollar keltirilgan. O'quvchilar mustaqil ravishda maqollarni ovoz chiqarmay



## 7-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Ayting-chi, "Qizil kitob" haqida eshitganmiz? U qanday kitob?*

#### Asosiy qism

**Yozma mashq "Qizil kitob"ga kiritilgan noyob hayvonlar bilan tanishing. Ulardan biri haqida hikoya yozing.**

Darslikda "Qizil kitob"ga kiritilgan hayvonlarning rasmi hamda ular bilan bog'liq ma'lumotlar berilgan. Dastlab o'quvchilar bilan "Qi-

zil kitob" haqida qisqa suhbat uyushtiriladi. So'ng qizil kitobga kiritilgan ushbu hayvonlar tanishtiriladi. Ular haqidagi ma'lumotlar o'qib beriladi.

O'quvchilarga tanlov imkoniyati berilgan. Ular uchta hayvondan birini tanlaydi hamda u haqidagi ma'lumotlardan foydalanib hikoya yozishi lozim.

Topshiriq mashq daftarida bajariladi.

O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lgach, bir nechta o'quvchiga yozgani o'qitiriladi, xato va kamchiliklari to'g'rilanadi. Eng yaxshi tanlangan sarlavha va mazmunli matn yozgan o'quvchi rag'batlantiriladi.

## YER OSTIDA NIMA BOR?

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning tabiat ne'matlari, yerosti boyliklari bilan bog'liq tasavvurlarini kengaytirish, ularning mazkur mavzu doirasida ishlatiladigan so'z, so'z birikmalari va gaplarni to'g'ri tushunish va to'g'ri qo'llashiga erishish. Og'zaki va yozma nutq, tinglab tushunish va o'qib tushunishga oid nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish.

## 1-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Yer ostida nimalar bor deb o'ylaysiz?*

#### Asosiy qism

**Topshiriq. Rasmda nimalarni ko'ryapsiz? Ular qanday rangda ekanini ayting.**

**3-BO'LIM YER OSTIDA NIMA BOR?**

 Rasmda nimalarni ko'ryapsiz? Ular qanday rangda ekanini ayting.



1. Tabiiy qazilma boyliklarni berilgan so'zlar bilan moslang.

2. O'zingiz yaxshi bilgan qazilmaning xususiyati haqida gap tuzing.

 Ma'lumotlarni tinglang.



51

#### 1. Rasmda nimalar tasvirlangan?

O'quvchilar rasmda tasvirlangan narsalarning nomlarini aytadi, shu bilan birgalikda ushbu narsalar qanday so'roqqa javob bo'lishi mumkinligi haqida so'raladi. Shu o'rinda o'qituvchi narsa nomlari "nima?" so'rog'iga javob bo'lishi haqidagi qoidani eslatadi.

**Narsa nomlarini bildiruvchi so'zlar**

“nima?” so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

## 2. Rasmda tasvirlangan narsalar qanday rangda?

O‘quvchilarning javoblarini tinglash davomida o‘qituvchi yozuv taxtasiga quyidagi jadvalni chizib qo‘yadi. O‘quvchilar rasmda tasvirlangan narsalarning nomini aytish jarayonida birinchi ustunni, ularning rangini aytish jarayonida esa ikkinchi ustunni to‘ldirib boradi. Ustunning eng so‘nggi qismiga xulosa sifatida o‘quvchilardan ushbu so‘zlarga so‘roq berish va ular nimalarni ifodalayotgani haqida so‘raladi. Ushbu fikrlar umumlashtirilib, xulosa sifatida eng so‘nggi qator to‘ldiriladi.

Nima?	Qanday?
Narsa nomi	Narsalarning belgisi (rang-tusi)

O‘qituvchi o‘quvchilarning javoblarini tinglar ekan, ular orasida **kulrang, tillarang, kumushrang, olovrang** singari javoblar borligiga ahamiyat qaratadi, ushbu ranglarning nomlari qanday qilib shunday atala boshlagani yuzasidan suhbat quradi. Rang-tusni bildiruvchi sifatlarning qo‘llanishi, gazning rangini bildiruvchi sifat – “zangori” so‘zining qachon, nimalarga nisbatan qo‘llanishi haqida ma’lumot beradi.

“Zangori” so‘zi sariq va yashil rangning qo‘shilishidan hosil bo‘ladigan, yashil-havorang, och yashil, moviy ranglarga nisbatan qo‘llanadi.

**Masalan,** zangori olov, zangori ekran, zangori duxoba, zangori kema.

### Yozma mashq

#### 1.1. Tabiiy qazilma boyliklarni berilgan so‘zlar bilan moslang.

Marmar, gaz, alyuminiy, ohaktosh, ko‘mir, oltin, neft, kumush.

Ushbu mashqni bajarish jarayonida o‘qituvchi yozilishi qiyin bo‘lgan ayrim so‘zlarning imlosiga alohida e’tibor qaratadi, ularning qanday talaffuz qilinishi va imlosini esda saqlab qolish uchun ularni talaffuz ettirish va yozuv taxtasida eshitib yozishni mashq qildirish mumkin.

#### 1.2. O‘zingiz yaxshi bilgan qazilmaning xususiyati yoki undan qanday maqsadda foydalanishimiz haqida gaplar tuzing:

### Kumushdan turli taqinchoqlar yasaladi.

Gap tuzib yozishga qiyinalayotgan o‘quvchilarni kuzatib, ular bilan og‘zaki suhbat quradi, ba’zi o‘quvchilarning yozma topshiriqlarini og‘zaki o‘qib eshittiradi, ularning imlosi, tinish belgilarining qo‘llanishi va uslubiga ahamiyat qaratadi. Bir necha nafar o‘quvchi ishtirokida ushbu mashqni yozuv taxtasida ham bajarish mumkin.

## 2-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

O‘quvchilarning diqqatini darslikda berilgan rasimga qaratiladi. O‘quvchilarni faollashtirish uchun quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Ushbu rasmda nima tasvirlangan?
2. Siz uni qayerlarda ko‘rgansiz?
3. Hozir biz tinglashimiz kerak bo‘lgan matn nima haqida deb o‘ylaysiz?

### Asosiy qism

**Ruda** – tarkibida metall mavjud bo‘lgan xomashyo.

**Zaxira** – kelajakda foydalanish uchun saqlab qo‘yiladigan narsa.

### ENG KATTA OLTIN KONI

Dunyodagi eng katta oltin koni O‘zbekistonda joylashganidan xabaringiz bormi? Muruntov oltin konining uzunligi 3500 metr, eni 2700 metr, chuqurligi esa 565 metrga teng. Bu aql bovar qilmas katta chuqurlik, uni hatto koinotda turib ham ko‘rish mumkin!

Muruntov koni Navoiy viloyatidagi Qizilqum cho‘li hududida joylashgan. Muruntov tog‘ tizmalari ostida hali qazib olinmagan 32 ming tonna oltin bor. Olimlarning hisob-kitobiga ko‘ra, bu zaxira 2130-yilga qadar tugamas ekan. Chunki biz hali mavjud oltinning yuzdan birini ham qazib olganimizcha yo‘q!

Muruntov koni 1958-yilda aniqlangan, 1969-yil 21-iyulda esa birinchi Muruntov quyma oltini ishlab chiqarildi. Shundan beri O‘zbekiston oltini dunyoda mashhur.

Hozirgi kunda konda 60 mingdan ortiq



odam ishlaydi. Yerni kavlasa, tayyor oltin chiqadi deb o'ylaysizmi? Yo'q, bunday emas. Konchilar har kuni minglab tonna tog' rudasini qayta ishlab, uning tarkibidagi oltinni ajratib olishadi. Buning uchun korxonada dunyodagi eng zamonaviy qurilmalar bilan jihozlangan.

1. Dunyodagi eng katta oltin koni qaysi?

2. Bu konni qayerdan ko'rish mumkin? Siz bunga ishonasizmi?

3. Bu kon qayerda joylashgan?

4. Tog' rudasi qanday bo'ladi?

5. Oltin qanday qazib olinar ekan?

6. Sizningcha, oltin zaxirasi nima?

7. Zamonaviy qurilmalar qanday bo'ladi?

8. Sizningcha, oltin nima uchun qazib olinadi?

Audiomatni tinglab bo'lingach, yuqoridagi savollar yordamida o'quvchilarga murojaat qilinadi. O'quvchilar birin-ketin xotiralarida saqlanib qolgan ma'lumotlar asosida savollarga javob berishga harakat qiladilar. O'qituvchi ushbu jarayonda berilayotgan javoblarning aniqligiga, ularning asosli ekanligiga e'tibor qaratadi. Matn haqidagi savol-javobdan so'ng o'qituvchi yana bir bor darslikda berilgan rasmga o'quvchilarning e'tiborini qaratadi. Ushbu rasm tinglangan audiomat bilan qanday bog'liqligi haqida ma'lumot beradi. 7-savolni ushbu rasm yordamida izohlab o'tadi.

**Jadvalni to'ldiring.** Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida o'qituvchi o'quvchilar bilan oltin haqida savol-javob asosida suhbat o'tkazadi, ushbu jadvalni to'ldirish uchun asos bo'ladigan savollarni berib, ularni yo'naltiradi. Jadvalni to'ldirish jarayonida so'zlarning imlosi, joy nomlarining imlosi haqidagi qoidalarni eslatadi. Ayrim o'quvchilar bilan ushbu mashqni yozuv taxtasida bajaradi.

OLTIN		
1.	Rangi	Sariq, qizg'ish
2.	Xususiyati	Qimmatbaho, yumshoq, eziluvchan metall
4.	Nimalar tayyorlandi?	Taqinchoqlar, medallar, ko'krak nishonlari, tibbiyotda ham foydalaniladi.

5.	O'zbekistondagi eng katta oltin koni	Muruntov oltin koni
----	--------------------------------------	---------------------

3-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

O'qituvchi quyidagi faollashtiruvchi savollar bilan murojaat qiladi:

1. Oltin qora rangda bo'lishi mumkinmi?
2. Nima deb o'ylaysiz, qora oltin deganda nima nazarda tutilyapti?
3. Darslikda berilgan rasmlarga diqqat qiling hamda bugun nima haqida suhbatlashishimizni aniqlashga harakat qiling.

### Asosiy qism

O'quvchilarning javoblarini tinglab bo'lgach, o'qituvchi "Hozir o'qiladigan matnda biz aynan mana shunday savollarga birgalikda javob berishga urinamiz" deb o'quvchilarni matnni o'qishga tayyorlaydi. Matnni ravon va ifodali o'qish kerakligini eslatadi. Shundan so'ng darslikda berilgan matn o'quvchilar tomonidan qismlarga bo'lingan holda o'qib chiqiladi. O'qish jarayonida o'qituvchi olinma so'zlar (**mashina, samolyot, pasta**)ning talaffuziga va imlosiga e'tibor qaratib borishi kerak.

O'qituvchi matnni bir necha marta o'qish orqali 10–12 nafar o'quvchiga o'qish imkonini berishi lozim. Bunda yuqorida aytilgan so'zlarning talaffuziga e'tiborni qaratib, ularni to'g'rilab borish juda muhim sanaladi.

O'qituvchi berilayotgan javoblarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bir o'quvchining javobidan so'ng emas, balki bir necha nafar o'quvchining javobini tinglagandan so'ng aytishi kerak. Shunda har bir o'quvchi o'zining fikrini aytishga harakat qiladi. Aniq javoblar matnning qaysi qismida ifodalanganligini so'rash berilgan javoblarni aniqlashtirib olish hamda asosli javob berishga o'rganish uchun yordam beradi.

Ushbu topshiriqdan so'ng daftardagi topshiriqni bajarish so'raladi.

### Topshiriq. Matn qismlariga mos sarlavhalarni tanlang.

Ushbu topshiriqni bajarish uchun o'qituvchi darslikda berilgan matn qismlarini diqqat bilan qayta o'qishni va berilgan sarlavhalardan qaysi biri ushbu qismlarga mos kelishi mumkinligini aniqlashni so'raydi. Qaysi sarlavha mos kelsa, shu sarlavha to'g'risiga matn qismiga tegishli bo'lgan harfni yozib qo'yish kerakligini tushuntiradi. Shuningdek, ushbu topshiriqni bajarish jarayonida sarlavhalar qanday tanlanishi, ular tugallangan fikrlardan iborat bo'lishi lozimligini va tanlangan sarlavhalar matn mazmuni bilan mos kelishi kerakligini aytib o'tadi. Xususan, "Samolyotlar uchmay qo'ysa", "Loy va tosh aralashmasi" singari sarlavhalar nima uchun matn qismlariga mos kelmasligini og'zaki savol-javob orqali tahlil qiladi va o'quvchilarga xulosalar chiqarishda yordam beradi.

A. G'alati suyuqlik.

B. Neftdan olinadigan mahsulotlar.

D. Neft qanday olinadi?

E. O'zbekiston – neft qazib oluvchi davlatlardan biri.

40

4-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

Ushbu darsda oldingi darsda berilgan matn ustida ish olib boriladi. Darsning tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi o'quvchilardan o'tgan darsda qanday matn bilan tanishilganini, uning mazmuni nima haqida ekanligini so'raydi, shu orqali o'tilgan mavzuni o'quvchilarning yodiga soladi.

### Asosiy qism

**Topshiriq.** "Qora oltin" matni asosida neftdan olinadigan mahsulotlar nomini yozing.

Ushbu topshiriqni bajarish uchun o'quvchi matnda berilgan ma'lumotlar bilan rasmda ko'rsatilgan tasvirlarni o'zaro bog'lay olishi lozim. O'qituvchi avval matnning qaysi qismida ushbu ma'lumotlar berilganligiga e'tibor qaratish kerakligini, shundan so'ng rasmda nimalar tasvirlanganligini aniqlashni va ularni nomlab chiqishni so'raydi. O'qituvchi

o'quvchilarning javoblariga asoslangan holda rasmda tasvirlangan nomlarni birma-bir yozuv taxtasiga yozib boradi. Barcha mahsulotlarning nomi aniqlangach, ushbu savollar bilan murojaat qilinadi.

1. Ushbu so'zlar nimalarni bildiradi?

2. Ular qanday so'roqqa javob bo'ladi?

53-sahifadagi matnning "B" qismidan berilgan narsa nomlariga oid so'zlar aniqlanadi.

Ushbu topshiriq bajarib bo'lingach, daftar uchun berilgan topshiriq bajariladi.

### Topshiriq. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

Ushbu topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilarning o'qib tushunish malakasi shakllantiriladi.

#### 4.1. Quyidagi ma'lumotlar matnning qaysi qismiga oid ekanligini aniqlang.

Topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchi matn qismlariga oid bo'lgan ma'lumotlarni bir-biridan ajratadi, xatboshilarning ajratilishiga e'tibor qaratadi.

#### 4.2. Quyida berilgan narsalarning qaysilari neftdan olinadi? Ularni bo'yang.

O'quvchilarning matnni qay darajada tushunganliklari aniqlanadi. Shu o'rinda o'qituvchi noto'g'ri javoblarni izohlashni o'quvchilardan so'raydi. Masalan, nima uchun "qog'oz"ni belgilamadingiz? Qog'oz nimadan olinadi? Shu kabi savollarni berish orqali o'quvchilar o'z javoblarini asoslashga o'rgatib boriladi.

#### 4.3. Quyida berilgan gaplarning bo'sh o'rinlarini to'ldiring. O'zingiz qo'ygan so'zning so'rog'ini aniqlang.

Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilarning mulohaza qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. Berilgan gapning mazmuniga asoslangan holda ularni to'ldirish mumkinligi tushuntiriladi. Shuningdek, qo'yilgan so'zlarning so'rog'ini aniqlash davomida o'quvchilarning so'zlarga so'roq berish orqali ularni turkumlarga ajratish malakasi rivojlantirib boriladi.

Ushbu topshiriqlar bajarib bo'lingach, o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini darslikda berilgan she'rga qaratadi.

**Topshiriq.** Ayting-chi, geolog kim?

She'rni o'qishdan oldin o'quvchilarga "Geolog kim?" deya murojaat qilinadi. O'quvchilarning javoblari tinglangach, she'r ifodali o'qiladi.

She'r uchun berilgan savollarga javob to-





pishda o'quvchilarning e'tibori she'rdagi ayrim so'zlar ko'chma ma'noda qo'llanganligiga qaratiladi va bundan ko'zlangan asosiy maqsadni soddaroq ko'rinishda tushuntirish talab etiladi. Ba'zi so'zlar izohlanadi.

**Izm** – biror ishni bajarish uchun ixtiyor, erk, ijozat, ruxsat.

**Topshiriq.** Quyidagi rasmlarning she'r matni bilan aloqadorligini aniqlang. She'rdan shu satrlarni toping va qayta o'qing.

Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilar she'r misralarining mazmuniga mos keladigan rasmlarni o'zaro bog'laydilar, o'z javoblarini tushuntirib beradilar.

**Yozma topshiriq.** She'r asosida jadvaldagi qismlarni moslashtiring.

Berilgan jadvaldagi so'zlarning izohi she'r mazmuniga asoslangan holda aniqlanadi va moslashtiriladi.

## 5-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

O'qituvchi tashkiliy qismni o'tkazib bo'lganidan so'ng, bugungi darsda xarita bilan ishlashlarini aytadi. Berilgan xaritada nimalar tasvirlanganligini yaxshilab kuzatish topshirig'ini beradi. Barcha o'quvchilar xaritani diqqat bilan kuzatadilar.

#### Asosiy qism

**Topshiriq.** Xarita bilan tanishing.

Ushbu topshiriqni bajarishda o'quvchilarga quyidagi mazmundagi savollar beriladi:

1. Ushbu xarita qaysi davlatga tegishli?
2. Xarita nima uchun turli rangli qismlardan iborat?
3. Xaritadagi 1 dan 13 gacha bo'lgan raqamlar nimalarni ifodalaydi?
4. Xaritaning o'ng burchagidagi shakllar nimalarni ifodalashi bilan tanishing.
5. Xaritaning 3 (5, 6, 8 va h.) raqamli qismida qanday yerosti boyluklari mavjudligi haqida ma'lumot bering.

6. Eng ko'p oltin (kumush, tabiiy gaz....) konlari qaysi hududda joylashgan?

Shundan so'ng daftardagi topshiriq bajariladi.

**Topshiriq.** Xaritadan foydalanib viloyatlarda qanday konlar borligini yozing.

O'quvchilar viloyatlarda qanday konlar borligini daftarga xarita yordamida yozadilar, bunda rasmda tasvirlangan belgilar nima-ni ifodalashi, ular ramziy belgi ekanligi tushuntiriladi. Viloyatlarni ajratish uchun turli xil ranglar yordam berishi eslatiladi. Yozma topshiriqni bajarish jarayonida joy nomlarining imlosi yodga solinadi. O'quvchilarning yozma ishlari o'qituvchi tomonidan kuzatib turiladi, ba'zi o'rinlarda o'quvchilarga yordam beriladi.

## 6-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

O'qituvchi tashkiliy qismni o'tkazgach, oldingi mavzular yuzasidan qisqa savol-javob tarzida suhbat quradi. Shundan so'ng o'quvchilar bilan darslikda berilgan topshiriqni bajarishni boshlaydi.

#### Asosiy qism

**Topshiriq.** Ayting-chi, yer ostida foydali qazilmalardan tashqari yana nima bor? Ma'lumotlar bilan tanishing.

Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilar o'zlari mulohaza qilib yer ostida foydali qazilmalardan tashqari yana nimalar borligi haqida gapirib beradilar, o'z fikrlarini asoslashga harakat qiladilar. Javob berish imkoniyati 10–12 nafar o'quvchiga berilishi kerak.

Berilgan savollar asosida suhbat quriladi, o'quvchilar o'zlari uchratgan hayotiy voqealar asosida ushbu fikrlarga izoh beradi. O'qituvchi o'quvchilar e'tiborini darslikdagi rasmga qaratadi va yer ostidan suvni chiqarib olish yo'llari va undan foydalanish haqida tushuntirib o'tadi.

Daftardagi yozma topshiriqni bajarish uchun o'quvchilar avval darslikda rasm asosida berilgan suhbat bilan tanishadilar. Suhbat nima haqida ketayotganligi to'g'risida ma'lumot beriladi. Shundan so'ng sahrodagi bolalarga suvni yetkazish bo'yicha suhbat quriladi.



1. Nima deb o'ylaysiz, sahro qanday joy?
2. U yerda ham insonlar yashay oladimi?
3. Sahrodagi bolalarning qorni nima uchun to'ymayapti deb o'ylaysiz?
4. Suv ularga qanday yordam bera oladi?
5. Sahrodagi bolalarga suvni yetkazish uchun qanday takliflar bera olasiz?

### 7-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'qituvchi bugungi dars biroz noan'anaviyroq tarzda bo'lib o'tishini tushuntiradi. Bugungi darsda sahrodagi bolalar uchun suv yetkazish loyihasini ishlab chiqish kerakligi haqida ma'lumot beradi. Loyiha qanday tayyorlanishi, unda nimalar ifodalanishini tushuntiradi. Loyihada uni tayyorlashdan maqsad, ya'ni kim uchun yoki nima uchun tayyorlanayotganligi, ushbu g'oya uchun nimalar kerakligi, ulardan qanday foydalanish va natija haqida yozish zarurligi tushuntiriladi. O'qituvchi boshqa mavzuga oid biror loyihani oldindan tayyorlab namuna sifatida ko'rsatishi ham mumkin.

### Asosiy qism

**Topshiriq.** Berilgan ma'lumotlar yordami-da sahro bolalariga yordam berish uchun takliflaringizni yozing.

O'qituvchi ushbu takliflarni yozish jarayonida o'quvchilarga o'z takliflarini qanday amalga oshirish mumkinligi haqida ko'rsatmalar berib boradi. Xattaxtaga quyidagilarni yozib qo'yishi mumkin:

- suvni yetkazish bo'yicha mening taklifim;
- uni amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan narsalar;
- uni qanday amalga oshiraman?

O'quvchilar tomonidan tayyorlangan loyihalar namoyish etiladi, buning uchun o'quvchi xattaxtaning yoniga chiqarilishi kerak. O'z loyihasini tushuntirib berish jarayonida loyihaning ayrim o'rinlarini, to'liq ochib berilmagan joylarini og'zaki izohlashni so'rash mumkin. Shu tariqa qolgan o'quvchilar ham o'z loyihalarini namoyish etadilar.

### 8-soat (mustahkamlash)

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'qituvchi bugungi dars mustahkamlash darsi ekanligini aytadi va darslikda berilgan topshiriqqa o'quvchilar e'tiborini qaratadi.

### Asosiy qism

**Topshiriq.** Ushbu qazilma boyliklardan nimalar tayyorlanadi? Ularning nomini yozing.

Ushbu topshiriqni bajarish uchun o'tilgan darslarda olingan bilimlar o'quvchilarning esiga solinadi. Topshiriqni uch guruhga bo'linib bajarish ham mumkin. Har bir guruhdan bir nafardan vakil xattaxta yoniga chiqib, "Klaster" metodidan foydalanadi. Qazilma boyliklardan olinadigan narsa nomlarini guruh ishtirokchilarining yordami bilan yozadi. Shu o'rinda o'qituvchi narsa nomlari bilan bog'liq qoidani eslatadi, shu mavzu bilan bog'liq bilimlarni mustahkamlaydi.

**Topshiriq.** Ayting-chi, geolog kim? U haqida yozing.

Topshiriqni bajarish jarayonida o'qituvchi shaxsni bildirgan so'zlar, ularning so'roqlari haqida ham ma'lumot berib o'tadi.

Savollarga javob beriladi.

1. U qayerda ishlaydi?
2. Nima bilan shug'ullanadi?
3. Qanday ish qurollaridan foydalanadi?

**Topshiriq.** Berilgan ma'lumotlar asosida foydali qazilmalardan oqilona foydalanish haqida o'z tavsiyalaringizni yozing.

Topshiriqni bajarishda o'quvchilar fikrlarini quyidagi ma'lumotlar asosida izchil yozishlari kerakligi tushuntiriladi.

*Ma'lumotlar bilan tanishing.*

- Yer ostida qazilma boyliklar mavjud.
- Qazilma boyliklarning ko'plab turlari bor.
- Qazilma boyliklardan hayotimiz uchun zarur bo'lgan mahsulotlar tayyorlanadi.
- Foydali qazilmalarni kelajak avlodga ham yetkazish lozim.



## SAYOHATCHI QUSHLAR

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** bola har yili guvoh bo'ladigan hodisa – qushlarning qishlagani ketishi haqida ma'lumot berish vositasida bola dunyo tomonlarining nomlari, qushlarning hayot tarzini tasvirlovchi lisoniy birliklarni o'zlashtirishiga erishish.

**Rasmlarga qarab qushlarning nomini yozing.**

Yozma bajarishdan oldin uni og'zaki bajarib olish kerak. Rasmlarda qaysi qush aks etgani bolalardan so'rab chiqiladi. Keyin har kim o'zi daftarga yozadi.

### 2-soat

#### Audiomatni tinglang.

Audiomatn qo'yib eshittiriladi yoki o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi. Bolalar matnни 2–3 marta tinglaydilar.

### SAYOHATCHI QUSHLAR

O'lkamizdagi qushlar kuz faslida uchib ketishini ko'p kuzatgansiz. Ammo ular qayoqqa ketishiga hech qiziqib ko'rganmisiz?! Buni qarangi, qushlar haqiqiy jahongashta ekan. Ular har yili Afrika, Yevropa va Rossiya tomonlarga uchib borib, yana bizni sog'inib qaytib kelishadi.

Faslga qarab boshqa joylarga uchib ketadigan qushlar *ko'chib yuruvchi qushlar* deb ataladi. Qaldirg'och, bulbul, zarg'aldoq, laylak, yovvoyi o'rdak, g'oz va oqqush kabi qushlar yurtimizda qishlay olmaydi. Masalan, qaldirg'och faqat hasharotlar bilan oziqlanadi. Lekin kunlar soviy boshlaganida hasharotlar ham g'oyib bo'ladi. Shunda bu qushlar ozuqa ilinjida issiq o'lkalarga uchib ketadi. Yoz oxirlab, kuz yaqinlashganida qaldirg'ochlar ketishga hozirlanadi. Chunki ular boradigan manzil juda uzoqda – ertaroq harakat qilishmasa bo'lmaydi. Qaldirg'ochlar Afrika va Yaqin Sharq mamlakatlariga qarab uchishadi. Taxminan 2 oyga cho'ziladigan safar davomida ular bir necha marta to'xtab, kuch yig'adi va yana yo'lida davom etadi.

Yovvoyi o'rdak, g'oz va oqqush kabi qushlar esa qish kirib kelganidagina ketishga hozirlanadi. Chunki qishda ular yashaydigan va oziqlanadigan suv havzalari muz bilan qoplanadi-da. Bu qushlar Janubiy Yevropa va Osiyoning unchalik sovuq bo'lmagan hududlariga uchib ketadi.

Qushlar boradigan manzilini tug'ma instinkt yordamida topib boradi. Bu esa ular

**3-BO'LIM SAYOHATCHI QUSHLAR**

Rasmlarga qarab savollarga javob bering.

- 1 Rasmlarda qanday qushlar tasvirlangan?
- 2 Ular nima qilyapti?
- 3 Ularni yilning barcha faslida ham ko'ramizmi?
- 4 Qaldirg'och qachon keladi? Ungacha u qayerda bo'ladi?
- 5 Qushlar qachon boshqa o'lkalarga uchib ketadi? Nima uchun?

1. Daftardagi mashqni bajaring.

60

### Asosiy qism

#### 1-soat

Darsning tashkiliy qismidan so'ng, bugungi darsda yangi mavzu boshlanishi va u qushlar haqida bo'lishi aytiladi. Bolalarga "Qanaqa qushlarni ko'p ko'rasiz?", "Ular qanaqa qushlar?", "Qushlar hayoti haqida nimalarni bilasiz?", "Qushlar boshqa jonzotlardan nimasi bilan farq qiladi?" kabi savollar beriladi. Keyin mavzu xattaxtaga yoziladi: "Sayohatchi qushlar".

Darslikning 60-betidagi rasmlarga diqqat qaratiladi. Har bir rasmda qaysi qush tasvirlangani so'raladi. Keyin darslikda berilgan savollarga o'tiladi. Bu savollarga bola o'z kuzatishlariga tayanib javob berishiga e'tibor qaratiladi.

Keyin daftardagi mashqqa o'tiladi.



yo'lni aqli bilan emas, balki ichki sezgilariga qarab aniqlaydi deganidir.

Audiomatndan so'ng darslikdagi mashq bajariladi.

**Markazdagi gaplarni o'qing. Savollarga javob bering.**

Buni qarangi, qushlar haqiqiy jahongash-ta ekan. Ular har yili Afrika, Yevropa va Rossiya tomonlarga uchib borib, yana bizni sog'inib qaytib kelishadi.

Berilgan matn 2–3 bolaga o'qitiladi. Keyin savollarga o'tiladi.

Nima uchun qushlar haqiqiy jahongashta? Rossiya haqida eshitganmisiz?

Afrika qanday joy?

Qushlar rostdan ham bizni sog'inishadimi?

Shundan so'ng audiomatni tushunish bo'yicha berilgan savollarga javob qaytariladi:

1. Qanday qushlar ko'chib yuruvchi qushlar deb ataladi?
2. Nima uchun qaldirg'ochlar kuzda uchib ketishadi?
3. Nima uchun laylak va g'ozlar qish kelganda uchib ketishadi?

44

### 3-soat

Oldingi darsda qushlar dunyoning turli tomonlariga uchib ketishini bildik. Bugungi darsda dunyo tomonlari haqida bilib olamiz.

**Ma'lumotni o'qing.**

Darslikning 62-betidagi matn avval o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi. Keyin 3–4 ta o'quvchiga ham o'qitiladi. So'ng savollarga o'tiladi:


1. Dunyoning nechta tomoni bor?
2. Ular nima deb ataladi?
3. Quyosh qaysi tomondan chiqadi?
4. Quyosh qaysi tomonga botadi?
5. Qaysi tomon sovuqroq?
6. Qaysi tomon issiqroq?

Berilgan matn fakt bo'lganligi uchun savollarga matn asosida aniq javob berilishi kerak.

**Moslashtiring.**

Bu mashq ham yuqorida o'qilgan ma'lumotlarni yanada mustahkamlashga qaratilgan. Unda dunyo tomonlarini ular haqidagi ma'lumotlar bilan moslashtirish kerak.

Mashqning javobi:



Shundan so'ng ertalab quyosh dars o'tilayotgan sinf xonasiga nisbatan qaysi tomondan chiqishini o'qituvchi aytadi. Uning qarama-qarshi tomoni, ya'ni quyosh botadigan taraf qaysi ekanligi bolalar bilan birga topiladi. Sharqqa qarab turganda qaysi tomon shimol, qaysi tomon janub bo'lishi aniqlanadi.

### 4-soat

**“Sayohatchi qurbaqa” multfilmini tomosha qiling.**

Multfilming sifatli versiyasi RTM tomonidan taqdim qilinadi. Agar nimadir bo'lib, u versiya yetib bormasa, youtube tarmog'idagi manzili: [https://www.youtube.com/watch?v=Rm-Mt\\_I0iWJM](https://www.youtube.com/watch?v=Rm-Mt_I0iWJM). Multfilm 9:52 minutigacha ko'riladi. Multfilm tomoshasidan so'ng darslikning 63-betidagi savollarga javob olinadi:

1. Multfilmda qaysi fasl tasvirlangan?
2. Siz buni qanday bildingiz? (Mazkur savolga javob berishda multfilmda tasvirlangan barglarning to'kilishi, yomg'ir, qushlarning janubga uchib ketishi kabilardan kuz fasli ekanligini bilib olish mumkinligini bola ayta olishi kerak).
3. Multfilmdagi voqeada kimlar ishtirok etyapti?
4. Asosiy qahramon kim? (Qurbaqa – asosiy qahramon).
5. Qurbaqa nima uchun janubga borishni xohladi?
6. O'rdaklar bilan birga uchish uchun u qanday usul o'ylab topdi?
7. U nima uchun janubga yeta olmadi?
8. Siz bu voqeadan nimani bilib oldingiz? (Bu savolga javoban bolaning erkin fikrini bilish muhim. Kashfiyotchilikka rag'batlantirish kerak. Qurbaqa garchi yiqilib tushgan bo'lsa ham, u hech bir qurbaqa qilmagan ishni qildi – osmonga uchdi).

**Darsda o'tilganlar asosida janub haqidagi qaysi fikrlar to'g'riligini belgilang.**

Bu mashqda multfilm asosida berilgan



ma'lumotlarning to'g'ri-noto'g'riligi topilishi kerak. Mashqni mustaqil yoki har bir gapni alohida o'quvchiga o'qitib, sinf bilan birgalikda ham bajarish mumkin.

### 5-soat

#### **Qurbaqa va o'rdak o'rtasidagi suhbatni o'qing.**

Suhbat avval o'qituvchi tomonidan ifodali qilib, obrazga kirib, o'qib eshittiriladi. Keyin o'quvchilar tomonidan rollarga bo'lib 2–3 marta o'qiladi.

Keyin savollarga javob beriladi: 1. Qurbaqa o'rdakka gapirishdan oldin nima uchun uzr so'radi? (Bu savoldan maqsad – birov gaplashib turganda chetdan kelib, ularga gapirishda uzr so'ralishini bolaga tushuntirish.)

2. Qurbaqa nima uchun “menga qanot bo'ladigan fikr” deb aytdi? (Bu savolda qurbaqaning o'rdaklar bilan birga uchishiga yordam bergani uchun fikr qanotga o'xshatilayotganini tushuntirish nazarda tutilgan.)

3. Qurbaqaning fikri nima uchun kashfiyot hisoblanadi? (Kashfiyot – undan avval birov qo'llab ko'rmagan va biror muammoni hal qila oladigan vosita ekanligi tushuntiriladi).

#### **Ma'nosi o'xshashlarini birlashtiring.**

Daftardagi mashqda *ulkan, bor bo'lganda-chi, parvoz qilish* kabi ifodalarning ma'nosini bolaga singdirish maqsad qilingan.

### 6-soat

Bu darsda Quddus Muhammadiyning “Qanotli do'stlar” she'ri o'qib o'rganiladi. She'rni o'qishdan oldin darslikning 65–66-betida berilgan rasmlarda qanday qushlar tasvirlanganini gaplashish kerak. Qushlarning nomini bolalardan so'rab, ular qayerda yashashi, nima bilan oziqlanishi kabi ma'lumotlarga to'xtalish zarur.

#### **She'rni o'qing. Undagi qushlar nomini yozing.**

She'r avval o'qituvchi tomonidan, keyin o'quvchilar tomonidan bir necha marta ifodali qilib o'qiladi.

O'qib bo'lgach, qushlarning nomini bolalar o'zlarining mashq daftarlariga yozishlari kerak.

#### **Rasmdagi musiqa asboblarning nomi-**

#### **ni she'rdan toping.**

Darslikda rasmi berilgan musiqa asboblarning nomi nima ekanligini avval so'rab, keyin she'rda qayerda kelganini topish aytiladi.

#### **Nima deb o'ylaysiz, shoir bu cholg'u asboblarni nega aynan u yoki bu qushni tasvirlashda ishlatgan?**

Bu savoldan maqsad qushning sayrash usuli bilan musiqa asboblarning tovushidagi o'xshashlikni bolaga anglatish.

*Bog'da konsert boshlanar:*

*dirijyor laylak,*

*Tumshug'i qo'sh nog'ora,*

*chalar sho'x tak-tak.*

*Bulbul bilan qaldirg'och*

*oldi jo'r nayin.*

*Ku-ku-kulab musicha*

*tortdi surnayin.*

Laylakning tumshug'ini takillatishi nog'oraning tovushiga, qaldirg'och va bulbulning sayrashini nayning tovushiga, musichaniki surnayning tovushiga o'xshatilgan.

### 7-soat

#### **So'zlarning ohangdoshini yozing.**

Mashqda she'rda uchragan qofiyadosh so'zlar yoziladi.

Mashqning javobi:

*yiroqdan – yoqdan*

*qadrdon – mehribon*

*qarqunoq – ko'zlari munchoq*

*qanot – samolyot*

*tak-tak – laylak*

*shox tashlab – irg'ishlab*

*surnayin – jo'r nayin*

*g'oz – dorboz*

*“pup-pup” – to'p-to'p*

Keyin darslikning 67-betidagi laylak haqidagi kichik matn o'qiladi va savollarga javob beriladi.

#### **O'zingiz yoqtirgan qush rasmini chizing. Chizgan qushingiz ko'rinishini tasvirlab bering.**

Bolalarga yordam sifatida sinfda turli qushlar tasvirlangan plakat yoki qushlarning alohida rasmlari ko'rinadigan qilib osib qo'yilishi zarur. Rasm chizib bo'lingach, har bir bola o'zi chizgan qushning ko'rinishini aytilib beradi.



### 8-soat

#### Uyingizda qaldirg'ochlarni ko'p kuzatganmisiz? Ular haqida nimalarni bilasiz?

Darslikning 67-betidagi rasmlar asosida qaldirg'ochlarning hayot tarzi haqida so'raladi. Bunda mashq daftarining 42-betida berilgan savollardan ham foydalanish mumkin.

Bolalarni matn yozishdan oldin mavzu

bo'yicha gapirtirib, yozishga to'la tayyor holga keltirish kerak. Darsning kamida yarmi og'zaki gaplashishga ajratilishi zarur.

#### Qaldirg'ochlar haqida matn yozing. Ushbu savollardan foydalaning.

Bola yozib bergan matnda eng kamida darslikdagi savollarga javob bo'lishi kerak.

## BAKTERIYA VA MIKROBLAR

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning bakteriya va mikroblar haqidagi tasvurlarini kengaytirish. Bakteriya va mikroblar doirasida leksik boyligini o'stirish. O harfi ayrim so'zlarda o' tarzida talaffuz qilinishi hamda mavzuga oid o'zlashma so'zlar bilan tanishtirish. Fikrni dailash uchun gaplarni o'zaro bog'lashga xizmat qiluvchi *chunki* va *shuning uchun* birliklarini qo'llash, matnga sarlavha qo'yish, uch bosqichli ko'rsatmalarni tushunish, audiomatndagi voqealarni vizual tasvirlar bilan moslashtira olish, ma'lum tartib-qoidalarni og'zaki va yozma nutq sifatida taqdim qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. O'zlashma so'zlar talaffuzi hamda muallif kimligi, uni qanday aniqlash mumkinligi haqidagi dastlabki nazariy ma'lumotni berish.

Savollarni bir necha kishidan so'rash talab etiladi.

**4-BO'LIM BAKTERIYA VA MIKROBLAR**

Nega qo'llarimizni sovunlab yuvishimiz kerak?  
 Idishlarni yuvmasdan ishlatsa, nima bo'ladi?  
 Nega odamlar tibbiy niqob taqadilar?

Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.

1. Bakteriyalar qayerlarda yashashi mumkin?  
 2. Bakteriyalarni ko'z bilan ko'rish mumkinmi?  
 3. Bakteriyalarni ko'ra olishimiz uchun bizda nima bo'lishi kerak?

1. Mos so'zlar bilan davom ettiring: *yuvilmagan qo'l*....

69

### 1-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'quvchilar bo'lim hamda yangi mavzu nomi bilan tanishtiriladi. Mavzuga kirishib olish uchun o'quvchilar bilan og'zaki suhbat, muhokama o'tkaziladi. Muhokamada quyidagi savollar o'quvchilarga navbati bilan beriladi:

- Nega qo'llarimizni sovunlab yuvishimiz kerak?
- Idishlarni yuvmasdan ishlatsa nima bo'ladi?
- Nega odamlar tibbiy niqob taqadilar?

**DIQQAT!** 3-savolda o'quvchilarning "COVID-19 virusi sabab" deya javob berish ehtimoli juda yuqori. Bu ham to'g'ri javob, ammo o'quvchilarga "Aslida, virus sabab emas, virus yuqishining oldini olish uchun tibbiy niqobni gripp bo'lganda ham taqish kerak, shunda kasalingiz boshqalarga yuqmaydi" deb to'g'ri ma'lumotni tushuntirish lozim.

### Asosiy qism

Rasmlarga qarang. Savollarga javob



### bering.

Ushbu topshiriqda o'quvchilar rasmlarga qarab bakteriya va mikroblarning qanday joylarda yashashi, ularni qanday ko'rish mumkinligi, nima qilsa ulardan saqlanish mumkinligi haqidagi tasavvurlarga ega bo'ladilar hamda quyidagi savollarga javob beradilar:

### Bakteriyalar qayerlarda yashashi mumkin?

O'qituvchi ushbu savolning javobi rasmlarda yashirin ekanini yana bir marta ta'kidlaydi. Qo'shimcha ravishda "Qaysi rasmlarda bakteriyalar yashaydigan joylar tasvirlangan?" deb so'rash ham mumkin. Bu o'quvchilarga rasm hamda voqelikni moslashtirish uchun yordam bo'ladi.

### Bakteriyalarni ko'z bilan ko'rish mumkinmi?

O'quvchilar ikkinchi qatordagi rasmlar orqali uni ko'z bilan ko'rib bo'lmasligi haqida xulosaga kelishlari lozim. Umuman olganda, o'quvchilarda bakteriya, mikroblar va viruslarni ko'z bilan ko'rib bo'lmasligi haqida tasavvur mavjud bo'ladi.

### Bakteriyalarni ko'ra olishimiz uchun bizda nima bo'lishi kerak?

O'qituvchi o'quvchilarni yanada qiziqtirish uchun "Ko'zimiz yaxshi ko'rish kerakmi yoki lupamiz bo'lishi kerakmi? Rasmdagi bola mikroblarni nima bilan ko'ryapti? Qani, kim uning nomini biladi?" kabi savollar bilan murojaat qilishi mumkin.

**Eslatma:** har bir savolni 5–6 o'quvchiga bering. Savolning va javobning takror bo'lib qolishi ahamiyatsiz, bunda o'quvchilarni darsga jalb etish hamda har birining nutqini nazorat qilish va o'stirish muhimligi nazarda tutiladi.

### Yozma mashq

#### 1-topshiriq. Mos so'zlar bilan davom ettiring.

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilardan mashq daftarining 44-betini ochish so'raladi. 1-topshiriqdagi birinchi qatorda shakl mavjud, topshiriq ostida berilgan so'zlardan moslarini tanlab, qatorni davom ettirish kerak. Verguldan so'ng qaysi so'zlarni qo'yish mumkin bo'lsa, shularni ketma-ket yozish lozim (**to'g'ri javob: yuvilmagan qo'l, soch, tish, idish**).

### gan qo'l, soch, tish, idish).

Ikkinchi qator esa *sifati buzilgan* deb boshlanadi. o'quvchilar yuqoridagidek mos so'zlarni topib yozishlari lozim (**to'g'ri javob: taom, sut, meva**).

Mashqni bajarib bo'lishgach, og'zaki tarzda butun sinf bilan birga tekshirib olish mumkin. O'quvchilar daftarlarini almashadilar, o'qituvchi topshiriqni o'qiydi, hamma jo'rovozda to'g'ri javoblarni aytadi, o'quvchilar shu vaqtda partadoshi qanchalik to'g'ri bajarганиni tekshirib oladilar.

O'qituvchi nima uchun "yuvilmagan sut" yoki "taom" deb yozib bo'lmasligini tushuntirib berishi maqsadga muvofiq.

## 2-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Mikroblar qayerlarda yashar edi?  
Mikroblar qanday kasalliklar chaqirishini bilamizmi?*

### Asosiy qism

#### She'rni ifodali o'qing.

O'qituvchi birinchi bo'lib o'zi she'rni yetarlicha baland ovoz, kerakli intonatsiya hamda ravonlik bilan o'qib beradi. Shundan so'ng o'quvchilarning bir nechtasidan she'rni xuddi o'qituvchiga o'xshab o'qib berishini so'raydi. Avval istovchilardan boshlash mumkin.

#### Yozma mashq

#### 2-topshiriq. She'rdagi kasallik nomlarini yozing.

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi (44-bet). O'quvchilar she'r matnidagi kasallik nomlarini daftarlariga yozadilar. O'qituvchi bular qanday kasallik ekani, qanday namoyon bo'lishi, nimalar qilsa tuzalish mumkinligi haqida qo'shimcha savollar bersa ham bo'ladi.

#### Savol-javob

#### Savollarga javob berganingizda she'rdan o'sha joyni ko'rsating.

Ushbu topshiriq boshqa shu kabi savol-javob turlaridan biroz farq qiladi. O'quvchi



she'ning aynan qayeriga asoslanib shunday javob berayotganini ko'rsatib berishi lozim. O'qituvchi birinchi savolga javob berib namuna bo'lishi maqsadga muvofiq. Ushbu topshiriq she'r syujetini tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

• Mikroblar qanday holatda tez yuqar ekan? **(1-to'rtlik)**

• Mikroblar hayvonlarning tanasida ham bo'lishi mumkinmi? **(2-to'rtlik)**

• Mikrob yuqtirib olsak, nima bo'ladi? **(3-4-to'rtlik)**

• She'ning muallifi kim? Buni qanday bildingiz? **(she'r ostida ismi yozilgan)**

**She'rni uyda yod olib kelish topshirig'i beriladi.**

O'quvchilarning javoblari tinglangach, o'qituvchi muallif kim ekani, uni qanday aniqlash mumkinligi haqida ma'lumot beradi. Bir necha misollarni ko'rsatish maqsadga muvofiq. Bir necha o'quvchiga savol berish orqali nazariy ma'lumot tushunilganini aniqlash tavsiya etiladi.

### Yozma mashq

**3-topshiriq. Darslikdagi 4 ta matn (she'r yoki hikoyaning) sarlavhasi hamda muallifini yozing.**

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi (44-bet). O'quvchilar "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligidan shu paytgacha o'qilgan matn, she'r muallifi va sarlavhasini yozib berishlari kerak. O'qituvchi namuna tariqasida xattaxtaga quyidagilarni yozib qo'yishi maqsadga muvofiq:

#### **Mikrob – Ogden Nesh**

O'quvchilar bu topshiriqni yoddan bajarishlari so'ralmaydi, darslikni varaqlashlari mumkin. Bu topshiriq yuqoridagi nazariy ma'lumotda olingan bilimni mustahkamlash maqsadida tanlangan.

3-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

Qo'limizni, idishlarimizni yuvmasak, nima bo'lar edi?

## Asosiy qism

### She'rni so'rash

O'quvchilardan yodlab kelingan she'rni so'rash lozim.

**DIQQAT!** Agar "Mikrob" she'ri o'tilgan soat va undan keyingi soat ketma-ket, bir kunda keladigan bo'lsa, she'rni ertasi kuni darsdan keyin so'rash mumkin.

### Yozma mashq

**4-topshiriq. Sariq ustundagi birliklarni yashil ustundagi birliklar bilan moslashtiring.**

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi (44-45-betlar).

O'quvchilar ushbu topshiriqda she'rdagi qatorlarning ma'nosini tushunishlari kerak. O'quvchilar ikki ustunni o'zaro moslashtiradi. To'g'ri javoblar:



### Yozma mashq

**5-topshiriq. She'r matni asosida mikrobgga xos sifatlarni yozing.**

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi (45-bet). O'quvchilar mikrobgga xos xususiyatlarni yozib berishlari lozim. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga yordam berib yuborishi mumkin (aytib bermaydi, yo'naltiradi). Masalan, "Shoir birinchi to'rtlikda mikrobnini qanday ta'riflagan edi?" kabi savollarni berishi mumkin.

4-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

Bugun sizlarga keyingi darsda o'qiydigan ertagimiz qahramonlarini tanishtiraman. Birgalikda ularni o'rganib chiqamiz.

## Asosiy qism





### **Audiomatn. Ertak qahramonlari bilan tanishish. Savollarga javob bering.**

O'qituvchi o'quvchilarning diqqat qilishini so'rab, mavzuning audiomatnini qo'yib eshittiradi.

**Eslatma:** o'qituvchi taqdim qilingan audiomatnlarni ovoz kuchaytirgich orqali qo'yib eshittirishi lozim. Lekin turli xil texnik sabablar bilan buning imkoni bo'lmaganda o'qituvchining o'zi adabiy til normalariga amal qilgan holda, ravon va yetarlicha baland ovozda matnlarni o'qib berishi ham mumkin.

### **Audiomatn**

Ertaga sizlar bilan mikroob hamda bakteriyalarning odam tanasidagi hayoti haqidagi juda ham qiziq hikoyani o'qiymiz. Bugun o'sha hikoyaning qahramonlari bilan tanishib olishimiz kerak.

Bilamizki, bakteriya va mikroblar zararli. Lekin ularning hammasini ham yomon deb bo'lmaydi. Olimlarning aytishicha, bakteriya va mikroblarning ko'pchiligi odam uchun foydali. Ular bizning salomatligimizni saqlash uchun xizmat qiladi. Ular yomon bakteriyalar bilan jang qiladi. Hikoyadagi Qutlixon hamda Tohir ham ana shunday yaxshi bakteriyalardan hisoblanadi. Ular ichaklarimizda yashaydi. Ovqatni hazm qilishimizda yordam beradi. Odam tanasini bir shaharcha deb hisoblasak. Tohir hamda Qutlixon ana shu shaharning qo'riqchilaridir. Ular o'z shaharlarini yovuzlardan himoya qilishadi. Yomonlarning shaharga kirishlariga yo'l qo'ymaydi. Hozir sizlarga Tohir hamda Qutlixonning qanday kiyinganini aytib beraman:

Tohir oq yaktakning ustidan qizil kamzul kiygan. Shimining rangi esa osmonning rangiga o'xshaydi. Tohirning sochlari qora. Qutlixonning ham sochlari qora. U boshiga doim do'ppi kiyib yuradi. Egnida esa atlas ko'ylak. Qutlixon Tohirga o'xshab shim kiymaydi, u lozim kiyib yuradi.

Hikoyada Yomontoy degani bor. Bu aynan yomon bakteriya hisoblanadi. U og'zimizdan o'tib ichaklarimizga kirmoqchi bo'ladi. Qornimiz og'riyotganda aynan o'sha yomon bakteriya ichaklarimizga kirib olgan bo'ladi. Tohir bilan Qutlixon ham aynan shu Yomontoy bi-

lan kurashadi. Yomontoyning tanasi odamlar-nikidek sariq emas, havorang. Egniga birgina kamzul kiyib yuradi. U jigarrang chamadonini hech qachon qo'lidan qo'ymaydi, doim ko'tarib yuradi, chunki u doimiy ko'chib yuruvchi bakteriyadir. Boshida xuddi kinolardagi kovboylar kiyadigan shlyapasi ham bor.

Hikoyadagi eng yomoni bu Yovuzvoydir. U juda ham kuchli. Tohir hamda Qutlixon ham unga qarshilik qila olmasligi mumkin. Tomog'ingiz og'risa, ovozingiz xirillab qolsa, bilaveringki, Yovuzvoy tanangizga hujum qilgan. U shunchalik ayyorki, butun tanamiz bo'ylab juda tez tarqalgani yetmagandek boshqalarga ham darrov o'tib oladi. Yo'talganimizda og'zimizdan bizga ko'rinmas havo sharchalari o'tilib chiqadi, ana shu sharchalarning ichida Yovuzvoy joylashib olgan bo'ladi. Boshqalar o'sha havodan nafas olsa – tamom. Yovuzvoy ularning tanasiga ham kirib oladi. Uning ko'rinishi ham ancha qo'rqinchli. Yuziga doim qizil niqob taqib yuradi. Tanasi esa binafsharang. Boshidagi qo'rqinchli shlyapasi ham qop-qora. Kinolardagi yovuz afsungarning shlyapasiga o'xshab uchli.

**O'quvchilarga yanada tushunarli bo'lishi uchun matnni ikki marta eshittirgan ma'qul.**

### **Savol-javob**

Matn ikki marta tinglangach, darslikdagi savollar o'quvchilardan navbati bilan so'raladi. Bir savolni bir necha o'quvchidan so'rash tavsiya etiladi.

Har bir savolga javob berilgach, audioning o'sha joyini o'qib berish tavsiya etiladi.

### **Yozma mashq**

**6-topshiriq. Bular kim? Ismlarini yozing.**

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi (45-bet). O'quvchilarga rasmlar taqdim qilingan, ular har bir rasmda qaysi qahramon tasvirlanganini topib, ularning ismlarini yozishlari kerak (audiomatn asosida).

5-soat

**DARS JARAYONI**



## Kirish

*O'tgan darsimizda qanday qahramonlar bilan tanishdik? Ular haqida kim gapirib beradi?*

## Asosiy qism

### O'qib tushunish

#### Hikoyani o'qing. Savollarga javob bering.

Darslikning 72–73-betlaridagi komiksli hikoya o'qiladi. O'quvchilar ushbu hikoyani avval ichlarida o'qib olishlariga vaqt beriladi (7 minut). Keyin o'quvchilar hikoyani navbat bilan ovoz chiqarib o'qiydilar. Sinfidagi hamma ovoz chiqarib o'qish jarayonidan o'tishi lozim.

### Savol-javob

Hikoya o'qib bo'lingach, savol-javoblarga o'tiladi.

#### Hikoya nima haqida?

O'quvchilar bunda hikoyada nimalar haqida gapirilganini bitta gap yoki so'z birikmasi orqali ifodalab berishlari kerak bo'ladi. Masalan, *Bakteriyalarning qayerda yashashi haqida*.

O'quvchilarda ko'plab to'g'ri javoblar bo'lishi mumkin. Odatda bunday savollarga aniq to'g'ri javob bo'lmaydi. O'quvchining javobi matndan uzoqlashmaganmi, matnga begona emasmi – to'g'ri hisoblanaveradi.

Quyidagi savollarga matn asosida javob berishlari lozim.

*Mikrob va bakteriyalar qayerda yashaydi?*

*Bakteriyalar tanamizga qanday yo'llay bilan kirishi mumkin?*

*Bakteriyalar qaysi tana a'zolarimizda yashashi mumkin?*

## Lingvistik ko'nikma

Quyidagi gaplarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini hikoya matni orqali isbotlang. Gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor qarating. Ular gap mazmuniga qanday ta'sir qilayotganini tushuntirishga urinib ko'ring.

O'quvchilar darslikdagi *To'g'ri / Noto'g'ri* topshirig'ini bajarishlari kerak. Ushbu topshirig' *chunki, ammo, lekin* bog'lovchilarining vazifasi haqida dastlabki tasavvurlar paydo

bo'lishiga xizmat qiladi. O'quvchilar ma'lumotning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlash bilan birga ajratib ko'rsatilgan so'zlar gapning ikkinchi qismini birinchi qismiga qanday bog'laganini tushuntirishga urinishlari ham kerak. Bu vaziyatda o'qituvchi yordam berib yuboradi.

*Chunki* degandan keyin oldingi gapning izohi beriladi. Masalan, "Bakteriyalarni mikroscopesiz ko'rish mumkin emas" – bu bitta: ma'lumot, endi keyingi ma'lumotga qarang "Ular uzoqda joylashgan". Shu ikki ma'lumot bir-birini izohlayotgani uchun *chunki* o'rtaga qo'yilgan.

*Ammo* degandan keyin oldingi aytilgan ma'lumotga teskari ma'lumot aytiladi. Masalan, "K vitamini suyaklar uchun foydali" – bu bir ma'lumot, unda vitaminning suyak uchun foydali jihati yoritilgan, endi ikkinchi ma'lumot: "Qon uchun zararli". Endi vitaminning qonga zararli ekani ayon bo'lmoqda, shuning uchun o'rtaga *ammo* qo'yilgan.

*Lekin* degandan keyin oldingi aytilgan ma'lumot rad etiladi. Masalan, "Bakteriyalar inson uchun foydali" – bu bir ma'lumot, ikkinchi ma'lumot: "hammasi ham emas", ya'ni foydali bakteriyalar bor, bu hamma bakteriya foydali degani emas. Shuning uchun o'rtaga *lekin* qo'yilgan.

## Yozma mashq

### 7-topshiriq. Bo'sh o'rinlarni to'ldiring.

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi (45–46-bet).

Mashqqa ko'ra, o'quvchilar bo'sh o'rinlarga *chunki, ammo, lekin* bog'lovchilaridan birini qo'yib ko'chirishlari kerak bo'ladi.

## 6-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*O'tgan darsdagi hikoyadan nimalar esimizda qoldi, nimalarni o'rgandik?*

## Asosiy qism

### O'qib tushunish

#### Hikoyaning davomini rollarga bo'lingan



### holda o'qing.

Darslikning 75–78-betlaridagi hikoyani o'qish topshirig'i. Bunda o'quvchilar roliga kirishib o'qishlarini so'rash lozim. Kerakli ohang, intonatsiya, ifoda bilan o'qish zarurligi tushuntiriladi. Ba'zi o'rinlarda o'qituvchi o'zi o'qib berishi ham mumkin.

### Savol-javob

Matn bir necha marta o'qib bo'lingach, savol-javob qismiga o'tish mumkin.

O'quvchilar bu savollarga matn asosida javob beradilar. O'quvchi xato javob berganda undan matndan ko'rsatib berishini so'rash mumkin.

### Yozma mashq

#### 8-topshiriq. Hikoyaga mos sarlavha toping.

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi (46-bet). O'quvchilar o'qilgan hikoyaga mos sarlavha o'ylab topishlari lozim. Topshiriq bajarilgach, hamma o'z sarlavhasini o'qib berishiga imkon bering. Nega bu sarlavhani tanlaganini aytmog'chi bo'lganlarga imkon bering.

### Yozma mashq

#### 9-topshiriq. Qaysi so'zlar to'g'ri yozilgan? Daftaringizga ko'chirib yozing.

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi (46-bet). O'quvchilar berilgan so'zlardan qaysilari to'g'ri yozilganini topishlari kerak bo'ladi. Topshiriqni bajarish vaqtida nazariy ma'lumot bilan tanishish ham mumkin. Nazariy ma'lumot o'quvchilarga yordam beradi.

O'quvchilarga hamma so'z ham qanday aytilsa shunday yozilmasligi, bunday so'zlar kamligi, shuning uchun ularni eslab qolish kerakligi tushuntiriladi. Berilgan so'zlarni bir necha o'quvchiga talaffuz qildirib ko'rish va yozilishi qanday bo'lishini ko'rsatish orqali nazariy ma'lumotni yanada yaxshiroq tushuntirish mumkin.

7-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Mikroblardan o'zimizni qanday qilib himoya qila olamiz?*

### Asosiy qism

#### Yozma mashq

##### Ozodalik qoidalarini ishlab chiqish.

O'quvchilarni 4 kishilik guruhlariga ajratish mumkin (yakka tartibda bajarish ham mumkin). O'quvchilar mikrobdan himoyalani bo'yicha tartib qoida ishlab chiqadilar. Xonaning turli yerlariga ilib qo'yish uchun ularni turli rangli qog'ozlarga yozish mumkinligi aytiladi. Har bir guruh (o'quvchi) o'z tartib-qoidalarini nima sababdan joriy qilganini tushuntirib berishlari kerak bo'ladi. Masalan, *qo'llarni yuvish kerak, chunki qo'llarimiz kir bo'lsa, mikroblar tirnoqlarimiz orasida yashashi mumkin* kabi.

## FOYDALI NONUSHTA

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning sog'lom turmush tarzi bilan bog'liq tasavvurlarini kengaytirish, ularning mazkur mavzu doirasida ishlatiladigan so'z, so'z bi-

rikmalari va gaplarni to'g'ri tushunishi va to'g'ri qo'llashiga erishish. Og'zaki va yozma nutq, tinglab tushunish va o'qib tushunishga oid nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish.



4-BO'LIM
FOYDALI NONUSHTA

Rasmlarga diqqat bilan qarang.

① Siz qaysi rasmdagi holatga yaqin ovqatlanasiz?  
② Qaysi rasmdagi ovqatlanish sizga yoqmad?  
Nima uchun?  
③ Ovqatlanishdan so'ng qanday minnatdorchilik bildirish mumkin?  
④ Rasmlar haqida gapirish davomida harakatni bildiruvchi qaysi so'zlarni qo'lladingiz?

1.  Ovqatlanish bilan bog'liq harakatni bildiruvchi so'zlarni yozing.  
 Ovqatlangandan so'ng qanday minnatdorchilik bildirish mumkin? Yozing.

81

## 1-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

Quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Siz har kuni soat nechada nonushta qilasiz?
2. Nonushtaga nimalarni yeyish foydali deb hisoblaysiz?
3. Nonushta qilmasdan ham maktabga kelish mumkinmi?

Shundan so'ng o'quvchilarning e'tibori darslikda berilgan rasmlarga qaratiladi.

### Asosiy qism

Darslikda berilgan rangli rasmlar asosida suhbat tashkillashtiriladi.

**Eslatma:** o'quvchilar rasmni diqqat bilan tomosha qiladilar, rasmda nimalar tasvirlanganligini og'zaki tushuntirib beradilar. Suhbat jarayonida nonushta qilish odobi, unda nimalarni tanovul qilish kerakligi, kimlar bilan nonushta qilish kerakligi haqida, taom yeyish jarayonidagi qoidalar haqida ham eslatib o'tiladi. Bolalarning erkin, ijodiy fikrlashlariga, so'zlash jarayonida ularning adabiy talaffuzlariga jiddiy e'tibor qaratiladi.

di, fikrlarini bo'lmagan holda o'qituvchi o'zi uchun gapirayotgan o'quvchining nutqidagi kamchiliklarni qayd etib boradi. Alohida yondashuv orqali darslar davomida ushbu kamchiliklar bartaraf etib boriladi.

### 1. Siz qaysi rasmdagi holatga yaqin ovqatlanasiz?

Berilayotgan javoblar orqali o'qituvchi o'quvchilarga ushbu rasmlarning o'zaro farqi nimada ekanligini, ulardan qaysi biri afzalroq ekanligini, nima uchun afzal ekanligini anglashi uchun yordam berishi kerak.

### 2. Qaysi rasmdagi ovqatlanish sizga yoqmad? Nima uchun?

O'quvchilar o'z javoblari orqali nima uchun rasmda berilgan holat yoqmaganligini tushuntirib berishlari kerak. O'quvchi ushbu holat qaysi jihatdan unga ma'qul kelmaganligini aytadi, aslida qanday bo'lishi kerakligi bo'yicha o'z tavsiyalarini beradi.

### 3. Ovqatlanishdan so'ng qanday minnatdorchilik bildirish mumkin?

Ovqatlanishdan so'ng minnatdorchilikni ifodalaydigan so'zlarga misollar keltirish so'raladi, o'qituvchi dars davomida ushbu so'zlar bilan bog'liq yozma topshiriq bajarilishini eslatib qo'yadi.

### 4. Rasmlar haqida gapirish davomida harakatni bildiruvchi qaysi so'zlarni qo'lladingiz?

Buning uchun o'qituvchi avval harakatni bildiruvchi so'zlarga misollar keltiradi, ular qanday so'roqqa javob bo'lishi mumkinligi haqida aytib, so'ng o'quvchilardan misollar keltirishni so'raydi.

### Yozma mashq

Og'zaki savol-javobdan so'ng daftardagi mashq ustida ishlanadi.

### 1. Ovqatlanish bilan bog'liq harakatni bildiruvchi so'zlarni yozing.

O'quvchilarga harakatni bildiruvchi so'zlar qanday so'roqlarga javob bo'la olishi mumkinligi eslatiladi, ushbu so'roq so'zlar xattaxtaga o'quvchilar tomonidan ham yozib qo'yilishi mumkin. Masalan: *chaynamoq, tozalamoq, o'tirmoq* kabi.

### 2. Ovqatlangandan so'ng qanday minnatdorchilik bildirish mumkin? Yozing.

Minnatdorchilikni bildiruvchi so'zlarga namunalar yozdiriladi.



## 2-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

1. Qanday oshxonaga jihozlarni bilasiz?
2. Ularning vazifasi nimadan iborat?
3. Choynak qanday vazifani bajaradi?

(Audiomatni qo'yib eshittirishning imkoni bo'lmasa, o'qituvchi matni o'zi o'qib beradi).

#### Asosiy qism

##### “Mehnatkash choynak” ertak matni

Oshxonaga keltirilgan yangi temir choynak yaltirab turardi.

– Yaltirashini qara-ya! – havas qilibdi unga eski tunuka patnis. – Biror joyi ko'chmaptiyam. Qani edi men ham shunday yaltirab tur-sam.

– Burni ustidagi nima ekan? – qiziqishibdi likoplar.

– Bu mening hushtagim, – birdan tilga kiribdi choynak.

– Ajabo! Hushtakni nima qilasan? – so'rabdi qozon.

– Bu sehrli hushtak. Ichimdagi suv qay-nashi bilan hushtak chala boshlasam, ovozi-ga odamlar yugurib kelishadi.

Oshxonadagi hamma idishlar choynakdagi suv qaynashini kuta boshlashibdi. Suv vaqir-vuqur qaynay boshlabdi. Shu payt choynak o'pkasini havoga to'ldiribdi va hushtak chala boshlabdi:

– Fshu-u-u-u-uv...

Shunda oshxonaga beka chopib kiribdi va choynakning tagini o'chiribdi. Yaltiroq choynak idishlarga xursand bo'lib qarabdi.

Oradan ancha vaqt o'tibdi. Choynak juda mehnatkash ekan. Ba'zan u kuniga o'n-o'n besh martalab suv qaynatib berarkan. Bir kuni tinmay ishlayvergan choynak betob bo'lib qolibdi. Avvaliga hushtagining ovozi pastroq chiqadigan bo'libdi. Keyinchalik esa ovozi umuman chiqmay qolibdi. E'tiborsiz beka ham ovozi chiqmay qolgan choynakni tez-tez olov ustida qoldiradigan bo'libdi. Bir gal bechora choynak olov ustida uzoq qolib ketibdi. Uning joni qattiq ekan, qorayib ket-sa ham erimasdan oxirigacha chidab erimay

turibdi. Tutunning hidiga beka chopib kelibdi. Ko'p o'ylab o'tirmay, qorayib ketgan choynak-ni omborxonaga olib borishibdi. Ertasiga esa oshxonaga yangi choynak olib kelishibdi.

– Men elektr choynakman, – o'zini tanishtiribdi u. – Menga suvni qizdirib qaynata oladigan temir disk o'rnatilgan. Avvalgi choynaklardan farqim – mustaqilman. Birov meni o'chirib ketishini kutib o'tirmayman.

– Muncha izzattalab bo'lmasa, – idishlarning ensasi qotibdi.

– Ayting-chi, siz hushtak chala olasizmi? – qiziqishibdi piyolalar.

– Ortiqcha shovqinni yoqtirmayman, – mag'rur javob beribdi elektr choynak.

– U hatto yaltiramaydi ham. Yana maqtanishini-chi! – jahli chiqibdi qozonning.

Idish-tovoqlar mehnatkash, tinib-tinchimas eski qadrdonlarini sog'ina boshlabdi. Hushtakli do'stimizni yana ko'rsak edi, deyishibdi ular.

– Bizni top-toza qilib yuvishlari uchun suv qaynatib berardi, – ko'ziga yosh olibdi kosa va likoplar.

Idishlar nima qilib bo'lsa-da eski choynak-ni oshxonaga qaytarish haqida o'ylay boshlashibdi. Non solinadigan tovoqning aytishicha, bir qarg'a tanishi bor ekan. Unga ozroq ushoq berilsa, jo'yali maslahat berishi mumkin emish...

– Biror narsa o'ylab toparman, – non ushoqlarini cho'qib bo'lib va'da beribdi qarg'a.

Shu kuni kechasi xonadonda chiroq o'chib qolibdi. Uzunquloq gaplarga qaraganda, elektr simlarini qushlar cho'qib shikastlagan emish. Uni tuzatishga kamida ikki-uch kun ketadi, deganmish bekaga chiroq ustasi. Shuncha kun choy ichmay bo'larkanmi? Beka omborxonadagi temir choynakni oshxonaga qaytarishga majbur bo'libdi. Choynak ustini yaxshilab yuvgan ekan, u yana avvalgidek yaltiray boshlabdi.

#### Savollar asosida suhbat:

1. Patnis nima uchun temir choynakka havas qildi?

2. Likop va qozon temir choynakning nimasiga qiziqib qolishdi?

3. Temir choynakni nima uchun omborxonaga tashlashdi?

4. Elektr choynakni nima uchun idish-tovoqlar yoqtirishmadi?



1–4-savollar o'quvchining matnini qay darajada tushunganliklarini aniqlashga qaratilgan. Suhbat jarayonida o'quvchilar turli javoblarni berishlari mumkin. Agar o'quvchilar matn mazmunidan chetlashayotgan bo'lsa, "Siz nima uchun shunday o'ylaysiz?", "Bunday bo'lganini qayerdan (nimadan) bildingiz?" kabi qo'shimcha savollar bilan murojaat qilish kerak.

**5. Sizningcha, idish-tovoqlar nima uchun temir choynakni oshxonaga qaytarishdi?**

O'z fikrlarini ifodalashda ertakdan keltirilgan dalillardan foydalanish so'raladi.

**6. Ayting-chi, "uzunquloq" gap qanday bo'ladi?**

So'z ma'nosiga yaqin bo'lgan tushunchalarni aytish orqali uning ma'nosi tushuntirib beriladi. O'quvchilardan ushbu so'zni nutqqa olib kirish uchun berilgan so'z ishtirokida og'zaki gaplar tuzish so'raladi.

**Yozma mashq Topshiriq. Gaplarni o'qing. Yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rilab, daftaringizga ko'chiring.**

Mashqni bir necha o'quvchi ishtirokida yozuv taxtasida bajarish mumkin. O'quvchilar ushbu gaplarni ohangi va mazmuniga ko'ra o'zaro ajratib, ularni *darak gap*, *so'roq gap*, *istak gap* kabi turlarga ajratadilar.

**3-soat**

**DARS JARAYONI**

**Kirish**

Qanday nonushtaga besh baho qo'yish mumkinligi bo'yicha suhbat o'tkaziladi.

1. Ushbu matn nima haqida bo'lishi mumkin?

2. Siz qanday nonushta qilasiz, shu haqida so'zlab bering.

3. Sizningcha, qanday nonushtaga besh baho qo'yish mumkin?

**Asosiy qism**

Darsning asosiy qismida o'quvchilar berilgan matnini qismlarga ajratgan holda ifodali o'qiydilar.

1. Nima uchun ko'pchilik bolalar nonushta qilishni xohlashmaydi?

O'qituvchi qo'shimcha ravishda o'quvchidan "Siz-chi, siz ham ertalab nonushta qilishni xohlamaysizmi?", "Nima uchun?" singari savollar bilan murojaat qiladi.

**2. Erta turishning ishtaha ochilishiga qanday bog'liqligi bor?**

"Nima deb o'ylaysiz, shu gap to'g'rimi? Sizda ham shunday holat kuzatiladimi?" kabi savollarni berish orqali matnda keltirilgan ma'lumotga nisbatan o'quvchining munosabati aniqlab olinadi.

**3. Och qolgan o'quvchining miyasi nima bilan band bo'ladi?**

O'qituvchi o'quvchilarga ushbu ma'lumotni o'z shaxsiy kechinmalari bilan bog'lab ko'rishlarini tavsiya etishi ham mumkin.

**4. Oshqozonni qaysi odat kasal qilar ekan?**

O'quvchi matnda berilgan ma'lumotni qayta ishlagan holda o'qituvchiga tushuntirib berishi kerak bo'ladi.

**5. Nonushtada nimalarni yeyish mumkin?**

**6. Siz berilgan tavsiyalarga amal qilaysizmi?**

5–6-savollarga javob berishda o'quvchilar o'z nonushtalarini berilgan tavsiyalar bilan taqqoslaydilar, ushbu tavsiyalarga qay darajada amal qilish haqida o'ylab ko'radilar.

Suhbat so'ngida har bir o'quvchidan o'z nonushtasini necha baho bilan baholashini so'rab, uni yakunlash mumkin.

**Yozma mashq**

**Topshiriq. Matn qismlarini berilgan tavsiyalar bilan moslashtiring.**

Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilar berilgan tavsiyalarga diqqat qildilar hamda ushbu tavsiyalar qaysi qismga oid ekanligini aniqlaydilar. O'z javobini matnda berilgan gaplar yordamida og'zaki izohlash so'raladi.

**4-soat**

**DARS JARAYONI**

**Kirish**

O'qituvchi dars avvalida o'tgan darsdagi "Nonushtaga 5 baho" matnining mazmunini yodga soladi. O'quvchilardan ayrimlari ush-



bu matnni qismlar asosida so'zlab beradilar. O'quvchining nutqi diqqat bilan kuzatiladi. So'zlash jarayonida o'quvchilar qanday qiyinchilikka uchrayotganligi o'qituvchi tomonidan belgilab boriladi.

### Asosiy qism

**Topshiriq.** "Nonushtaga 5 baho" matnidan olingan quyidagi gapda nima uchun ver-gul ishlatilgan?

*Nonushtada sut mahsulotlari, yong'oq, mayiz va ho'l mevalardan ko'p-ko'p yeyishni odat qiling.*

O'qituvchi o'quvchilarning berayotgan javoblaridan uyushiq bo'laklarning qoidasiga mos keluvchi javoblarni qisqa tarzda xattaxtasiga yozib qo'yadi. Hammaning javobini tinglab bo'lgach, buning sababini xattaxtasidagi javoblar yordamida tushuntirib beradi.

**5-topshiriq.** Sanash ohangi bilan aytiladigan gap tuzib, uni daftarlariga yozadilar.

**Topshiriq.** Quyidagi gaplarni solishtiring.

1. Har ikkala gapni o'qing.

2. Ular qanday farqlanyapti?

3. Ularning mazmunida ham farq bormi?

4. Berilgan gap shakllarining qaysi biri sizga ma'qul? Nima uchun?

5. Gaplar oxirida qo'yilgan tinish belgilariga e'tibor qarating. Nima uchun aynan shu tinish belgilaridan foydalanilgan?

Yuqoridagi savollar bilan murojaat qilingach, o'quvchilarning fikrlari umumlashtiriladi.

Keyingi topshiriqni bajarish uchun o'quvchilar berilgan har bir vositadan foydalanib ko'rishlari kerakligi aytiladi va o'zlarining tanlovini tushuntirib berishlari so'raladi.

Ikki ustundagi gaplarni alohida-alohida o'qiganda mazmun paydo bo'lishi yoki bo'lmasligi haqida suhbat o'tkaziladi. Qo'yish uchun berilgan so'zlarning vazifasi o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

Dars davomida "Ibn Sino ulashar davo" she'ri ifodali o'qiladi.

**1. Sizingcha, "yengil ovqat" qanday bo'ladi?**

Kimlarning nutqida shunday so'zlarni uchratganliklari, ular nimani nazarda tutgan bo'lishi mumkinligi haqida qo'shimcha savollar bilan murojaat etish mumkin. Shundan

so'ng ular yengil deb hisoblaydigan ovqatlar-ga nimalar kirishi haqida gapirib beradilar.

**2. Mevalarning podshohi qaysi ekan?**

"Nima uchun muallif uni "mevalar podshohi" deb atagan?", "Olmaning qanday foydali jihatlari bor?" kabi qo'shimcha savollar beriladi.

**3. Yurakka quvvat beruvchi narsa nima?**

Nima uchun katta yoshdagi insonlar ushbu mevani ko'proq iste'mol qilishlari haqida so'raladi va qisqacha tushuntirib beriladi.

**4. Kasal bo'lmaslik uchun qanday ovqatlanish kerak?**

She'r matnida berilgan tavsiyalar umumlashtiriladi. Buning uchun o'qituvchi qo'shimcha savollarni berish orqali o'quvchilarning xulosalarini aniqlashtirib oladi.

**5. Sifatli ovqatning xususiyatlarini ayting.**

**6. Siz ushbu qoidalarning qaysi birlariga amal qilasiz?**

Savol-javob so'ngida o'quvchilar o'zlari eshitgan tavsiyalarning qaysi birlariga amal qilishlari yoki amal qilmasliklari haqida gapirib beradilar.

**Yozma mashq**

**6-topshiriq.**

**1. Izohlanayotgan so'zni matndan topib daftaringizga yozing.**

**1. Bargak. 2. Xasta. 3. Xum. 4. Sihat. 5. Hikmat. 6. Oshko'kat. 7. Turshak. 8. Gohi.**

Keyingi topshiriqlarda o'quvchilar she'r tarkibida berilgan barcha mahsulotlarning nomini yozib chiqadilar.

Shundan so'ng o'quvchilar do'stining nonushtasi uchun yana qanday mahsulotlarni tavsiya qila olishi mumkinligini qisqacha yozadilar.

Nuqtalar o'rniga qo'ygan so'zlariga so'roq berish orqali ular nimalarni ifodalayotganligini, ya'ni narsa nomlarini aytadilar.

**5-soat**

## DARS JARAYONI

**Kirish**

Tashkiliy qismdan so'ng o'qituvchi darslikda berilgan rangli rasmlarga o'quvchilarning e'tiborini qaratadi. O'quvchilar birma-bir ush-



bu rasmlarda ifodalangan mahsulotlarning nomlarini aytib chiqadi. O'qituvchi ushbu so'zlarning imkon qadar o'zbek tilidagi so'zlar bo'lishiga ahamiyat berishi kerak bo'ladi.

O'tilgan darslarda olingan bilimlar yodga olinadi.

### Asosiy qism

#### Yozma mashq

**O'quvchilar berilgan tavsiyalar asosida o'z nonushtalari uchun taomnoma yozadilar.**

O'qituvchi taomnomani tuzish jarayonida o'quvchilar uchun kerak bo'ladigan til birliklarini yodga soladi. *Afzal ko'raman, foydali deb hisoblayman, tavsiya qilaman* kabi. Shuningdek, taomnomani yozishda tinish belgilaridan o'rinli foydalanish kerakligini eslatib, o'quvchilar yo'l qo'yayotgan xatolarni kuzatib, ularni o'z vaqtida to'g'rilaydi. Ayrim gaplarni xattaxtaga yozib, namuna sifatida ko'rsatishi ham mumkin. Yozilgan taomnomada yuqorida berilgan har bir tavsiyaga alohida e'tibor qaratish kerakligini eslatib turadi.

### 6-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'quvchilarga bugungi darsda bo'lim yuzasidan olingan barcha ma'lumotlar va o'z shaxsiy tajribalari asosida do'stlari uchun tavsiyalar yozish kerakligi aytiladi. Buning uchun o'tilgan mavzu yuzasidan qisqa suhbat quriladi, berilgan bilimlar yodga olinadi.

### Asosiy qism

#### Topshiriq

**Tengdoshingizga ertalabki nonushta uchun tavsiyalar yozing. Tinish belgilarini to'g'ri qo'ying.**

Topshiriqni bajarishda izchillikka rioya qilishni o'rgatish uchun quyidagi tartib tushuntiriladi. Mavzu yuzasidan og'zaki suhbat o'tkazilib, o'quvchilarning fikrlari faollashtiriladi.

1. Siz nonushtadan oldin nimalar qilasiz?

2. Nonushta vaqtida bolalar o'zini qanday tutishi kerak?

3. Nonushtadan keyin nimalar qilish lozim?

**Eslatma!** Tavsiyalarni yozish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni kuzatib boradi, yaxshi fikrlay olmayotgan o'quvchilarni aniqlaydi, ular bilan alohida suhbat o'tkazadi, ayrim o'quvchilarga yo'nalish berib, ularga turtki bo'luvchi fikrlar aytadi. O'quvchilarga yozma nutqda rioya qilinishi kerak bo'lgan qoidalarni eslatib turadi, ularni nazorat qilib boradi.

### 7-dars

## DARS JARAYONI

### Kirish

O'qituvchi bugungi dars bo'lim yuzasidan takrorlash darsi ekanligini o'quvchilarga aytadi. O'tilgan mavzu doirasidagi fikrlarni umumlashtiradi hamda quyidagi topshiriqni bajarish kerakligini aytadi.

### Asosiy qism

Berilgan rasmlarga diqqat qilish so'raladi, har bir rasm, holat haqida o'ylab ko'rish kerakligi aytiladi. O'quvchilarga gap tuzish uchun besh minut vaqt ajratiladi. Vaqt tugagandan so'ng o'quvchilar birin-ketin o'z gaplarini o'qib eshittiradilar. O'qituvchi o'quvchilar tuzgan gaplarni eshitadi, ayrim mulohazali fikrlar bo'lsa, o'quvchilardan ularni izohlashni so'raydi. Ba'zi o'quvchilarning daftarlarini olib, ularning yozma savodxonligini tekshiradi.

Keyingi topshiriqni bajarish uchun avval o'quvchilardan berilgan so'zlarni o'qish so'raladi, ularning ayrimlari izohlanadi. Shundan so'ng berilgan jadval asosida ularni guruhlariga ajratish so'raladi. Ayrim mahsulotlarni ham nonushtada, ham tushlikda, ham kechki ovqatda iste'mol qilish mumkin bo'lsa, ularni har uchala guruhga yozish mumkinligi aytiladi.

Topshiriqni bajarib bo'lgan o'quvchilar o'zlarining fikrlarini izohlaydilar.

Uchinchi topshiriqni bajarish uchun o'quvchilar berilgan qismlarni o'zaro moslashtiradi.






rishlari kerakligi aytiladi. Ushbu misralarni birlashtirishda nimalarga ahamiyat qaratish kerakligi tushuntiriladi. Bunday so'zlar she'riy matnlarda qo'llanishi hamda ular ohangdosh-

likni hosil qilishini tushuntirish kerak bo'ladi. Qofiyadosh so'zlar va ularning ahamiyati haqida ma'lumot beriladi.

## TANAMIZNI O'RGANAMIZ

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** bolalarga tana a'zolarining nomini o'rgatish orqali o'zining holati bilan bog'liq ma'lumotni ona tilida to'g'ri va samarali ifodalash makolasini rivojlantirish.

**diqqat qiling.** Rasmning kattalashtirilgani xattaxtda bo'lsa maqsadga muvofiq. Avval kitobga qaramasdan bolalardan qaysi a'zolarining nomini bilishini so'rab, xattaxtdagi rasmga yozib chiqqan yaxshi. Rasmning kattalashtirilganini topish imkoni bo'lmasa, o'qituvchi o'zidagi a'zolari ko'rsatib, bolalardan so'rashi mumkin. Har bir a'zoni aytgandan keyin xattaxtda biror bola chiqib yozadi. Darslikdagi rasmda qovoq va kiprik so'zlari berilmagan. Ularni ham, albatta, aytib o'tish kerak.



**Inson tanasi qismlarining nomini yozing.**

Bu mashqda "bosh" va "gavda" so'zlari yoziladi. Ularning tana qismi ekanligi aytiladi.

Mashq davomidan 2 qismga ajralgan.

**Bosh qismidagi a'zolarining nomini yozing.**

Bunda ko'z, kiprik, qosh, qovoq, burun, quloq, og'iz, tish, til kabi a'zolarining nomi yoziladi.

**Gavda qismidagi a'zolarining nomini yozing.**

Bunda qo'l, kaft, bilak, barmoq, yelka kabi yoziladi. Mashqni bajarish davomida bola darslikdagi rasmdan bemalol foydalanishi mumkin.

### 1-soat

Bolalarga ushbu darsda yangi nutqiy mavzu boshlanishi aytiladi. Mavzu xattaxtda yoziladi. Mavzu bo'yicha quyidagi savollar beriladi:

Tanamiz qanday qismlardan iborat?  
Qanday a'zolarining nomini bilamiz? Ulardan qanday foydalanamiz?

Inson tanasining ichida qanday a'zolari borligini bilasizmi? Ularning vazifasi nima?

Darslikning 90-betini ochib, rasmga qarash so'raladi.

**Rasmga qarang. So'zlarni o'qing. Ular tananing qaysi qismlarini ifodalashiga**

### 2-soat

**Rasmga qarang. Unda nima tasvirlangan?**



Bolalardan har bir rasmda nima tasvirlangani so'raladi. Bolalar bilganicha javob berishi mumkin.

Oxirida o'qituvchi umumlashtiradi:

1-rasmda insonning qon tomirlari tasvirlangan. Yurak qon aylanishini ta'minlovchi a'zo bo'lgani uchun ham bu yerda berilgan. Ikkinchi rasmda miya va asab tomirlari tasvirlangan. Miya tanamizni shu tomirlar yordamida boshqaradi. 3-rasmda esa insonning suyaklari (skeleti) tasvirlangan. Insonning tanasini tik tutishi va harakatlanishini shu suyak tizimi ta'minlashi aytiladi.

Keyin audiomatn tinglanadi.

### Audiomatni tinglang

Bu darsda audiomatn bilan ishlanadi. Quyidagi matn qo'yib eshittirishga imkon bo'lsa, qo'yib beriladi. Buning imkoni bo'lmasa, o'qituvchi ifodali qilib o'qib eshittiradi. Matn kamida uch marta eshittirilishi kerak.

## TANAMIZ – MO'JIZAMIZ

Hammamiz mo'jizalarni yaxshi ko'ramiz. Qaniydi, biror mo'jiza ko'rsam deb xayol surganimiz-surgan. Biroq, aslida o'zimiz eng katta mo'jiza ekanimizni bilmaymiz. Nima, ishonmaysizmi? Unda hozirning o'zida kaftingizga, barmoqlaringizga qarang. Chiziq-chiziq izlarni ko'ryapsizmi? Bunday izlar faqat sizda bor. Aniqrog'i, dunyodagi hech bir odamning barmoq izlari siznikiga o'xshamaydi.

Xo'sh, siz bularni qanday ko'rdingiz? Albatta, ko'zlar bilan. Hatto eng zamonaviy videokameralar ham narsalarni inson ko'ziday tasvirga ololmaydi.

Quloqlarimiz ham g'aroyib. Uning tuzilishi tovushlarni tutib olishga moslashgan. Tovush havoda ko'rinmas to'lqin bo'lib tarqaladi, qulog'imiz ularni tutib, miyamizga uzatadi. Shuning uchun biz eshitamiz.

Burnimiz-chi?! U bizga narsaning zararli yo foydali ekanligini hid orqali bilishimizga yordam beradi. Masalan, issiq nonning hidi bizga yoqadi. Ovqat achib qolgan bo'lsa, hidi yoqimsiz bo'ladi. Achigan ovqatni yeb odam zaharlanishi mumkin. Shunday qilib, burnimiz bizni zaharlanishdan himoya qiladi. Burning eng muhim vazifasi tanamizga havoni yetkazib berishdir. Biz burun orqali nafas olamiz. Havoda tarkibidagi virus va mikroblarni

burnimizdagi tuklar tutib qoladi. Burnimiz virus va mikroblar o'pkamizga o'tib, bizni kasal qilishidan ham saqlaydi.

Tanamizning yashashi uchun eng zarur narsa – kislorod. U havo tarkibida bo'ladi. Burnimizdan nafas olganimizda, havo o'pkalarimizga boradi. O'pkalarimiz havodan kislorodni ajratib oladi va qon orqali tanamizning hamma a'zolariga yetkazadi. Xuddi shunga o'xshab, suv va oziq-ovqatlardagi kerakli moddalar oshqozon va ichaklarimiz yordamida ajratib olinadi. Ular ham qon orqali boshqa a'zolarimizga yetkaziladi.

Qon aylanishini esa yuragimiz ta'minlaydi. U doimiy urib turadi, buni siz yaxshi bilasiz. Butun tanamizning yaxshi ishlashini bosh miyamiz ta'minlaydi. Bizning nimalarni o'ylashimiz, kayfiyatimiz miyamizning ishlashiga, demak, butun tanamizning salomatligiga ta'sir qiladi. Shuning uchun doim yaxshi kayfiyatda yurish salomatlik uchun muhimdir!

Tanamizdagi turli a'zolarning birgalikda, hamjihatlikda ishlashi sababli biz yashaymiz, o'ynaymiz, o'qiyamiz, o'samiz.

### Savollarga javob bering

*Savollarga audiomatnda berilgan ma'lumotlar asosida javob berilishi kerak.*

1. Ikkita bir-biriga o'xshagan barmoq izini topish mumkinmi?

2. Nimalarni ko'ra olasiz-u, nimalarni ko'ra olmaysiz?

Ko'zingizni yuming, ko'rish qobiliyati sizga qanday yordam berar ekan?

*Bu savolda bolaga tasavvur qilib ko'rishni aytish kerak. Ko'zni yumgan holda yurish, nimanidir olish kabi oddiy harakatlarda ko'rish qanday yordam berishi haqida fikrlashi kerak.*

3. Burun inson tanasida qanday vazifalarni bajarar ekan?

4. Inson kislorodni qayerdan oladi?

5. Nafas olishda qaysi a'zolarimiz ishtirok etadi?

6. Yuragingiz qayerda joylashganini bilasizmi? Qayerdan bilasiz?

7. Yuragimiz qanday vazifa bajaradi?

8. Tanadagi a'zolarning ishlashini qaysi a'zo boshqaradi?

9. Nima uchun doim yaxshi kayfiyatda bo'lish muhim?



### 3-soat

Bolalardan qanday ichki a'zolarni bilishi so'raladi.

1. Ichimizda qanday a'zolar bor va ular qanday vazifani bajaradi?

So'ng darslikning 92-betidagi rasm asosida ichki a'zolar haqida suhbat qilinadi.

**Rasmdagi tana a'zolarini bilasizmi? Ularning nomini ayting.**



Miya tanadagi eng muhim a'zo bo'lib, hamma a'zolarining ishini boshqaradi. Bizning fikrlarimiz va xotiramiz ham miyada hosil bo'ladi.

O'pka yordamida biz nafas olamiz. Organizm yashashi uchun kislorod zarur. Shu kislorod nafas olishimiz orqali a'zolarimizga yetib boradi.

Qovurg'a o'pka va yurakni o'rab turadi va himoya qiladi.

Jigar ovqat hazm bo'lishida ishtirok etadi va hazm qilish jarayonida paydo bo'lgan zaharli moddalarni zararsizlantirib, qonni tozalaydi.

Yurak butun tanada qon aylanishini ta'minlaydi.

Taloq qon hosil bo'lishida ishtirok etadi.

Oshqozonda oziq-ovqatlar maydalanadi va qisman hazm bo'ladi.

Ichakda ovqatni hazm qilish davom etadi, organizmga kerakli oziq-moddalar qonga so'riladi va keraksiz moddalar ajratib chiqariladi,

Buyrak tanadagi ortiqcha suyuqlik, tuzlarni ajratib chiqaradi.


Mashq daftarining 52-betidagi mashqlar bajariladi.

**Tana a'zosi bilan u bajaradigan vazifani moslashtiring.**



### Moslashtiring

Bu mashqda bolalar avval o'ng tomondagi bitta matn parchasini o'qishlari, keyin chap tarafda berilgan birikmalarni o'qib, qaysi biri ekanligini topishlari kerak. Sinfning imkoniyatidan kelib chiqib yo mustaqil, yo butun sinf birgalikda bajarishi mumkin.



### 4-soat

### Matni o'qing

Matnda berilgan har bir jismoniy mashqni o'qib, birga bajarish kerak.

Matn bo'yicha berilgan savollarga javob berishda o'quvchi matnning instruksiya, ya'ni biror narsani qanday bajarishga ko'rsatma sifatida yozilganiga e'tibor qaratishi kerak.

1. Bu matn siz shu vaqtgacha o'qigan matnlarga o'xshaydimi? Nimasi o'xshaydi va nimasi farq qiladi, deb o'ylaysiz?

2. Matnda nechta mashq berilgan? Ularning nechtasi o'tirib bajarishga va nechtasi turib bajarishga mo'ljallangan?

3. Mashqlarda qaysi a'zolar ishtirok etyapti?

**Rasmlarga qarab qaysisida birinchi mashq, qaysilarida ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi mashq tasvirlanganini toping.**

Matndan kelib chiqib javob beriladi.

Mashq daftarining 53-betidagi mashq bajariladi.



## Rasmdagi mashqlarni tasvirlang.

3. Rasmdagi mashqlarni tasvirlang.



Bunda har bir tasvirga mos gapni o'qilgan matndan topib, o'z daftariga yozish kerak.

### 5-soat

Darslikning 94-betidagi she'r avval o'qituvchi, keyin o'quvchilar tomonidan bir necha marta o'qiladi.

#### She'rni o'qing Savollarga javob bering.

1. *Shamol va shamollash* so'zlari bir-biriga bog'liqmi? Nima uchun?

Shamol+la. Shamolladi – sovuqda qoldi degan mazmun bilan bog'liqligiga e'tibor qaratish kerak.

2. Shamollashga oid qanday holatlar she'rda tilga olingan?

3. Siz oxirgi marta qachon shamollagan-siz? Shamollaganingizda tanangizda qanday o'zgarishlarni sezgansiz?

4. Shoir shamol shamollamasligining sababi nimada deb biladi? Sizingcha, shoir haqmi?

5. Shoirning fikricha, odam sog'lom bo'lishi uchun nima qilishi kerak?

Mashq daftarining 53-betidagi 4-mashqqa o'tiladi. Qancha ko'p tovush ikkala so'zda bir xil ketma-ketlikda takrorlangani asos bo'lishini tushuntirish kerak.

Mashq bolalar tomonidan mustaqil bajariladi.

**Quyidagi so'zlarning ohangdoshlik darajasini belgilang. Ohangdoshligi eng yuqori bo'lganiga bir qo'yib, qolganini shu tarzda 2, 3 deb belgilaysiz.**

\_3\_ yo'talmas – ko'tarilmas.

\_2\_ doriga – og'riغان.

\_1\_ shamoldir – barkamoldir.

**Inson shamollaganda tanasida qanday o'zgarishlar bo'lishini yozing. She'rda o'qigan ifodalaringizdan foydalaning.**

Bu mashqda bolalardan matn yozish talab qilinadi. Bola o'z tajribasidagi holatni darsda

o'rgangan bo'lishi va o'zi bilgan ifodalar yordamida yoza olishi kerak.

*Inson shamollaganda burni oqadi, yo'taladi, tomog'i og'riydi. Issig'i ham ko'tarilishi mumkin. Boshi og'riydi.*

### 6-soat

Dars boshida bolalarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Quloq qanday a'zo va uning vazifasi nima iborat?

2. Eshitish bizga nimalarda yordam beradi?

Keyin darslikning 95–96-betlarida berilgan Farid Usmonning “Yo'qolgan quloq” she'ri avval o'qituvchi tomonidan, keyin o'quvchilar tomonidan bir necha marta ifodali o'qiladi. She'r mazmuniga asosan savollarga javob beriladi.

1. She'r qanday voqea haqida?

2. Bola quloq yo'qolganini kimdan eshitdi?

3. Miyig'ida kulish nima degani?

4. Odam qanday vaziyatlarda boshini egib turadi?

5. Nima deb o'ylaysiz, dadasining miyig'ida kulishi va akasining boshini egib turishi nimani bildiradi? Uning quloq yo'qolishiga aloqasi bormi?

6. Kimning qulog'i yo'qolgan?

Savollarga javob berish jarayonida akasining bosh egib turishi ota-onasi aytgan narsani qilmaganligini bildirishini, oyisining “quloq yo'qoldi” deyishi ham aynan shu narsaga, akasining aytilgan narsani qilmaganiga ishora ekaniga e'tibor qaratilishi kerak.

**E'tibor bergan bo'lsangiz, kattalar “qulog'i yo'q”, “quloqsiz”, “ko'zingga qara” degan so'zlarni ko'p ishlatishadi. Bu gaplar qanday vaziyatlarda aytiladi va nimani bildiradi? So'zlab bering.**

Bu topshiriqda bolalarni o'z tajribasidan gapirib berishga undash kerak. Qachon-dir eshitgan “qulog'i yo'q” degan ibora nima uchun ishlatilgani haqida so'rash kerak.

### 7-soat

She'r va odatiy gap o'rtasida qanday farq bo'lishini eslab o'tish kerak. Bolalardan she'r qanaqa bo'lishini so'rash mumkin.

Bu dars she'riy ifodani nasrga aylantirishga qaratilgan. Bu bolalar so'zlarning ma'nosi



va vazifasini yanada yaxshiroq his qilishiga yordam beradi.

Mashq daftarinig 54-betidagi 5-mashq bajariladi.

**“Yo‘qolgan quloq” she‘ridagi voqeani o‘z so‘zlaringiz bilan yozing. She‘rning boshi namuna sifatida oddiy gapga aylantirib yozilgan. Siz davom ettirishingiz kerak.**

“Uyimizda nimagadir  
Bugun quloq yo‘qoldi...”  
Tushunolmay hayron bo‘ldim,  
Oyim shunday deb qoldi.

*Bugun oyim “uyimizda quloq yo‘qoldi” dedilar. Men bu gapga tushunmay hayron bo‘ldim.*

Hech bunaqa gap chiqmagan  
Edi mening oyimdan.  
*Mening oyim avval hech bunaqa demasdi.*

Qulog‘imni ushlab ko‘rsam,  
Xayriyatki, joyida.

*Qulog‘imni ushlab ko‘rsam, joyida ekan, xayriyat.*

Juda qiziq, qulog‘ini  
Yo‘qotgan kim bo‘ldiykin?!

Qiziq, qulog‘ini kim yo‘qotgan bo‘lishi mumkin?

Hammamizning qulog‘imiz  
Joyida edi, lekin...

*Hammamizning qulog‘imiz joyida edi, lekin...*

Dadam menga ko‘zin qisib,  
Miyig‘ida kulardi,  
*Dadam menga ko‘zini qisib, miyig‘ida kulardi.*

Ravshan akam yerga qarab,  
Boshin egib turardi.  
*Ravshan akam yerga qarab, boshini egib turardi.*

Bu mashqni bajarishda bola erkin bo‘lishi kerak, yuqorida berilgan namuna bilan aynan bir xil javobni boladan talab qilmaslik kerak.

Mashqni hamma bajarib bo‘lgach, quyidagi savol muhokama qilinadi:

**Siz yuqoridagi mashqni bajarish davomida nimalarni o‘zgartirdingiz? Nima uchun shunday qildingiz?**

Bir necha o‘quvchi javob bergandan keyin o‘qituvchi she‘rda ohangdosh so‘zlar qo‘llanishi, ta‘rif berish, maqtash uchun ishlatiladigan so‘zlardan foydalanilishi, bo‘g‘inlar soniga e‘tibor qaratilishini aytib, xulosalaydi.

## HUNAR – HUNARDAN UNAR

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o‘quvchilarda hunar, hunarmandchilik turlari haqida tasavvur hosil qilish. Hunarmandchilikka oid audiomatn ustida ishlash, *-chi, -kor, -kash -chilik* kabi qo‘shimchalardan ot yasalişini amaliy tanishtirish. Matn bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish; obrazli tasvirlash usuli,

rivoyat haqida ma‘lumot berish. Matn tarkibida qo‘llangan narsa, shaxs otlari va ularning imlosini o‘rgatish. Hunarmandchilik asbob-uskunalari nomlarining talaffuzi va imlosini o‘rgatish. Izchil ketma-ketlikdagi rasmlar asosida matn yozishni o‘rgatish.



**5-BO'LIM HUNAR – HUNARDAN UNAR**

Rasmlarga qarang. Hunarmandlar nima ish bilan shug'ullanyapti?

Temirchi Kulol Zargar

Duradgor Chevar Gilamdo'z

1. Buyumlarga qarang, ularni kim tayyorlaganini yozing.

98

### 1-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, biz kimni hunarmand deymiz?*

### Asosiy qism

#### 1-topshiriq. Rasmlarga qarang. Hunarmandlar nima ish bilan shug'ullanyapti?

Darslikda turli soha hunarmandlarining ish jarayoni bilan bog'liq 6 xil rasm berilgan. O'quvchining diqqatini rasmlarga qaratgan holda, ularning har biriga alohida to'xtalish lozim.

Agar biror rasmda berilgan tasvirni o'quvchi yetarlicha ochib berolmasa, o'qituvchi uni ochishga xizmat qiladigan qo'shimcha savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Masalan, *“Birinchii rasmda nimani ko'ryapsiz? Undagi detallarni sanang?”*. So'ng ularni bog'lagan holda *“Bu qanday hunar egasi bo'lishi mumkin?”*, *“U nima qilyapti?”*, *“Uni kim deb ataymiz?”* deb so'rash mumkin.

O'quvchilar javobini tinglagach, ularning fikrini to'ldirib, har bir rasmni ko'rsatgan holda, hunarmandlar nima bilan shug'ullanayotgani hamda ularni nima deb atashni aytib

o'tish lozim. So'ng o'quvchilarga darslikdagi savollar beriladi.

#### 6. Hunarning yana qanday turlarini bilasiz?

O'quvchilarning javobi turlicha bo'lishi mumkin. Asosan ularning lug'at boyligi tekshiriladi. O'quvchilar yetarlicha javob berolmasa, boshqa hunar turlarini sanab berish maqsadga muvofiq.

#### 7. Siz yashaydigan mahalla yoki ko'chada hunarmandlar bormi?

O'quvchilar “ha” yoki “yo'q” deb qisqa javob bersa, javoblarni to'ldirish uchun *“Ular qanday hunar egalari?”*, *“Nima bilan shug'ullanishadi?”* kabi qo'shimcha savollar berish lozim.

#### 8. Hunarmandlar yasagan buyumlarining nomini bilasizmi?

O'quvchilar hunarmandlar yasagan buyum nomlarini aytib berishi kerak. Bunda o'quvchi qaysi hunarmand qanday buyum yasashini farqlab berishi kuzatiladi.

#### 9. Uyingizda qanday hunarmandchilik buyumlari bor?

O'quvchilar kuzatishlari asosida, uyida qanday hunarmandchilik buyumlari borligini aytib berishi lozim.

### Yozma mashq

#### 2-topshiriq. Buyumlarga qarang. Ularni kim tayyorlaganini yozing.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar darslikda berilgan buyumlarni kim tayyorlaganini yozishi kerak.

**Javob:** beshik – duradgor, ko'ylak – chevar, gilam – gilamdo'z, taqa – temirchi, do'ppi – do'ppido'z, ko'za – kulol.

### 2-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, O'zbekistonda qanday hunar turlari rivojlangan?*

### Asosiy qism

#### 1-topshiriq. “O'zbek hunarmandlari” audiomatnini tinglang.



**Eslatma:** O'quvchilar "O'zbek hunarmandlari" audiomatnini tinglab, darslikda berilgan rasmni kuzatib borishlari lozim.

## Audiomatn

### O'zbek hunarmandlari

Qo'l mehnati bilan turli buyumlarni yasaydigan ustalarni hunarmand deb ataymiz. Hunarmand yasagan buyumlar ham foydali, ham chiroyli bo'ladi.

Yurtimizda mohir hunarmandlar ko'p. Har bir shahar hunarning biror bir turida yetakchilik qiladi. Masalan, Xiva gilamchilik, Marg'ilon ipakchilik, Buxoro zargarlik, Toshkent duradgorlik, Chust pichoqchilik, Rishton kulolchilik, Andijon tandirchilik, Qarshi so'zanachilik, Termiz kashtachilik, Navoiy sangtaroshlik, Samarqand temirchilik, Nukus ko'nchilik buyumlari bilan mashhur.

Har yili O'zbekistonga millionlab sayyohlar tashrif buyuradi. Ular milliy hunarmandchilik buyumlariga juda qiziqadi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon kabi tarixiy shaharlarda yirik hunarmandchilik markazlari bor. Yurtimizga kelgan mehmonlar hunarmandlar yasagan buyumlarni tomosha qiladi. Sayyohlar shu tariqa O'zbekistonning urf-odatlarini bilan tanishadi.

**Audiomatn eshittirilgach, rasm ostidagi savollar beriladi:**

#### 1. Kimlarni hunarmand deb ataymiz?

Ushbu savolning javobi matnda aks etgan. O'quvchilar aynan shu o'rinni topib javob berishlari lozim.

#### 2. Hunarmand yasagan buyum qanday bo'lishi kerak?

Ushbu savolning javobi ham matnda berilgan, o'quvchilar matndan ushbu o'rinni topib javob berishi hamda o'z fikrini bildirishi mumkin.

#### 3. Shaharlarimiz qanday hunarmandchilik turlari bilan mashhur ekan?

O'qituvchi bolalardan javob olishda darslikda berilgan xaritadan foydalanishi lozim. Ya'ni xaritadan har bir viloyatni ko'rsatgan holda, qaysi hunarmandchilik turlari borligi so'raladi.

#### 4. Qaysi shaharlarda yirik hunarmandchilik markazlari bor?

Ushbu savolning javobi matnda aks etgan.

O'quvchilar aynan shu o'rinni topib javob berishlari lozim.

#### 5. Sayyohlar hunarmandlarning ishiga qarab nimalarni bilib oladi?

Ushbu savolning javobi ham matnda berilgan. O'quvchilar matndan ushbu o'rinni topib javob berishi hamda o'z fikrini bildirishi mumkin.

### Yozma mashq

#### 2-topshiriq. Berilgan so'zlarga mos keluvchi qo'shimchalarni aniqlang. Ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar darslikda aralash holda berilgan so'z va qo'shimchalarni ma'nosiga ko'ra qo'shib, yangi so'z hosil qilib aytishlari lozim. Bunda ikkita so'zga bitta qo'shimcha to'g'ri kelishi yoki qo'shimchalarning bittasi ortib qolishi mumkin, o'quvchilar mantiqan bog'lab javob berishi kerak.

O'quvchilar hosil bo'lgan so'zlarni aytib bo'lgach, o'qituvchi so'zlarga qo'shimcha qo'shish orqali yangi so'z hosil qilish mumkinligini aytib o'tishi maqsadga muvofiq.

**Javob: soatsoz, gilamdo'z, pichoqchilik, gilamdo'z, do'ppido'z.**

So'ng o'quvchilar ushbu so'zlar ishtirokida gaplar tuzib, yozadilar.

O'quvchilarning imlosi, gapni mantiqan to'g'ri shakllantirishi tekshiriladi.

3-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, hunarning odamlarga qanday foydasi bor?*

### Asosiy qism

#### O'qib tushunish.

O'quvchilar darslikda berilgan "Hunarning foydasi" matnini o'qishlari lozim. Bunda o'quvchilar bir yoki ikki gapdan o'qigan holda matnni o'qib chiqishadi. Bir o'quvchi o'qiyotgan vaqtda qolgan hamma matnni kuzatib turishi talab qilinadi.

*"Kuzatib turing, men istagan o'quvchidan*



*davom ettirishini so'rayman*" deb ogohlantirish samara beradi.

Matn 2–3 marta qayta o'qib bo'lingach, matn ostidagi savollar asosida suhbat boshlanadi.

**1. Nima deb o'ylaysiz, savdogar nega farzandini hunarli qildi?**

O'quvchilar matn mazmunini tushungan holda, matndan olgan xulosalariga asoslanib javob berishi lozim.

**2. Savdogarning o'g'li qanday hunar o'rgandi? Bu hunar haqida nimalarni bilasiz?**

Bu savolning javobi matnda aks etgan.

**3. Qaroqchilarning maqsadi nima edi?**

Bu savolning javobi ham matnda aks etgan.

**4. Nega savdogar ikkinchi marta pul to'lashga shoshilmadi?**

Bu savolning javobi ham matnda aks etgan.

**5. Nima deb o'ylaysiz, rivoyatning ertakdan farqi bormi?**

Bu savolning javobi matndan so'ng qoida sifatida berilgan. Biroq o'quvchilar qoida bilan tanishgunga qadar fikr yuritgan holda rivoyat va ertakni farqlab berishi lozim. Bunda oldingi darslarda o'tilgan ertaklarni yodga solish hamda rivoyat bilan taqqoslashni so'rash ham muhim.

O'quvchilar savollarga javob berib bo'lgach, ularning javoblariga munosabat bildiriladi hamda rivoyat haqida ma'lumot beriladi.

**4-soat**

**DARS JARAYONI**

**Kirish**

*Ayting-chi, hunarning qanday foydasi bor?*

**Asosiy qism**

**1-topshiriq. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'z va birikmalarning izohini aniqlang.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda o'quvchilar matn tarkibidan ajratib ko'rsatilgan so'zlarga mos keluvchi birikmalarni topib moslashtiradilar.

Mashqni bajarib bo'lgach, har bir o'quvchi-

ga yozgan so'zlari izohi bilan o'qitiladi.

**2-topshiriq. Bo'sh o'rinlarni mos so'zlar bilan to'ldiring.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda matndan olingan parcha keltirilgan hamda ayrim so'zlari tushirib qoldirilgan. O'quvchilar qo'yish uchun berilgan so'zlardan foydalanib bo'sh o'rinlarni to'ldirishlari lozim.

Har bir o'quvchi mustaqil bajarishi nazorat qilib boriladi.

Mashqni bajarib bo'lgach, parcha o'qitilib, tekshiriladi.

**3-topshiriq. Matn asosida berilgan fikrlar to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda matndan olingan gaplar jadvalda berilgan. O'quvchilar gaplarni o'qib, to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini belgilashlari lozim. Topshiriqni bajarishda matndan foydalanishlari mumkin.

Bu topshiriq orqali o'quvchining matndan foydalana olishi, kerakli o'rinni topib, munosabat bildirishi tekshiriladi.

**Javob:** *to'g'ri, noto'g'ri, to'g'ri, noto'g'ri, to'g'ri, to'g'ri.*

**4-topshiriq. Rivoyatdan olgan xulosangizni qisqacha yozing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar matndan olgan xulosalarini yozib berishlari lozim. Yozishlari uchun vaqt belgilanadi.

O'quvchilar noodatij fikrlashiga imkon bering. Hammaga ko'rinib turgan xulosalardan qochib, qahramonlar xarakteri va voqealar haqida biroz chuqurroq fikrlab ko'rishga undang.

**5-soat**

**DARS JARAYONI**

**Kirish**

*Ayting-chi, hunarmandlar haqida nimalarni bilib oldingiz?*

**Asosiy qism**

**She'ni o'qish.**

Darslikda berilgan "Hunarning hidi qanaqa?" she'ri hamda muallifi tanishtiriladi. O'quvchilarga she'ni mustaqil ovoz chiqar-





may o'qishlari aytiladi.

She'rni o'qib bo'lishgach, o'qituvchi bir marta baland ovozda o'qib eshittiradi.

So'ng quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. **Ayting-chi, hunarning hidi bo'lishi mumkinmi?**

2. **Sizningcha, yana qaysi hunardan qanday hid kelishi mumkin?**

Ushbu savollarga o'quvchilar tafakkur qilib javob berishlari lozim. Ya'ni she'r matn mazmunidan olgan xulosalari hamda hayotiy kuzatishlari asosida javob berishlari nazarda tutilgan.

O'quvchilar javobi eshitilgach, yozma topshiriq sharti tushuntiriladi.

### Yozma mashq

**1-topshiriq. Berilgan rasmlar she'rning qaysi bandiga mos kelishini aniqlang.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda mashq daftarida 6 ta rasm berilgan va ularning har biri raqamlangan. O'quvchilar rasmga mos she'r bandlarini topib, namuna-dagi kabi yozishlari lozim.

Bu topshiriq orqali o'quvchining matn bilan ishlash hamda matn mazmuniga mos tasvirni topish ko'nikmasi shakllantiriladi.

**Javob:** V- 1, I- 2, II-3, III- 4, 6, VI-5.

6-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

- Ko'za nima?
- U qanday tayyorlanadi?
- Uni kimlar yasaydi?

### Asosiy qism

#### Yozma mashq

**Rasmlarga qarab, ko'za yasash jarayoni haqida hikoya yozing. Rasmlardagi ketma-ketlikka e'tibor bering.**

Darslikda ko'za yasash jarayoni bilan bog'liq rasmlar berilgan. Har bir rasm ketma-ketlikda raqamlangan. Dastlab o'quvchilar bilan rasm haqida qisqa suhbat uyushtiriladi. Unda nima tasvirlanganini aniqlashtiruvchi savollar beriladi.

So'ng o'qituvchi xattaxtaga hikoya sarlavhasini yozib qo'yadi: "Ko'za yasash sirlari". Undan so'ng o'quvchilarga rasm ketma-ketligiga rioya qilgan holda hikoya yozishlarini aytadi. O'quvchida voqea-hodisalarni to'g'ri ketma-ketlikda, tartib bilan ifodalab berish ko'nikmasini shakllantirishga e'tibor qaratiladi.

O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lgach, bir necha o'quvchiga yozgani o'qitiriladi, xato va kamchiliklari to'g'rilanadi.

65

## KASBLAR

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning kasblar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. Mavzu bilan bog'liq matn ustida ishlash, matnda ifodalangan asosiy g'oya va xulosani aniqlashni o'rgatish. Matn tarkibida bosh harflar bilan ifodalan-

gan so'zlar va shaxs otlari imlosi, kasbga oid xarakter-xususiyatlarni ifodalovchi so'zlar haqida ma'lumot berish. Eshitib tushunish, yozma matn yaratish malakasini shakllantirish.



5-BO'LIM
KASBLAR

Gaplarni o'qing. Ular qaysi kasb egasi haqida ekanini toping. Rasmlardan mosini tanlang.

U odamlarga shifo ulashadi.

U bolalarni o'qitadi.

U yong'inni o'chiradi.

U shirin ovqatlar pishiradi.

o't o'chiruvchi

shifokor

o'qituvchi

oshpaz

1 Otangizning kasbi nima? U qayerda ishlaydi?

2 Onangizning kasbi nima? U qayerda ishlaydi?

3 Shifokorni yana qanday ataymiz?

4 Tanlanmay qolgan rasmlarda qanday kasb egalari aks etgan?

105

### 1-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, kasb deganda nimani tushanasiz?*

### Asosiy qism

**1-topshiriq. Gaplarni o'qing. Ular qaysi kasb egasi haqida ekanini toping. Rasmlardan mosini tanlang.**

Darslikda turli xil kasb egalarining ish jarayoni bilan bog'liq har xil rasm hamda ushbu rasmlarga mos keladigan nomlar berilgan. O'quvchining diqqatini rasmlarga qaratgan holda berilgan rasmlarning har biriga alohida to'xtalish lozim.

Agar biror rasmda berilgan tasvirni o'quvchi yetarlicha ochib berolmasa, o'qituvchi uni ochishga xizmat qiladigan qo'shimcha savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Masalan, *"Birinchi rasmda nimani ko'ryapsiz? Undagi detallarni sanang?"*, so'ng ularni bog'lagan holda *"Bu qanday kasb egasi bo'lishi mumkin?"*, *"U nima qilyapti?"*, *"Uni kim deb ataymiz?"* deb so'rash mumkin.

O'quvchilar javobini tinglagach, rasm osti-

da berilgan izohlar o'qib beriladi. O'quvchilar izohga mos so'zni aytib, rasmdan shu kasb egasini ko'rsatishi lozim.

Shundan so'ng o'quvchilar bilan 105-sahifadagi savollar asosida suhbat boshlanadi.

Berilgan savollarga o'quvchilarning javoblari har xil bo'lishi mumkin. O'quvchilar hayotiy kuzatishlari orqali hamda tafakkur qilib javob berishlari lozim. Bu jarayonda o'quvchining fikrini dalillar bilan aniq yetkazib berishi hamda og'zaki nutqi tekshiriladi.

### 2-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, non va nonvoy so'zlarini qanday farqi bor?*

### Asosiy qism

#### Yozm mashq

**1-topshiriq. So'zlarda takrorlanayotgan qismlarga e'tibor qarating. Qatorni davom ettiring.**

Darslikda so'zlar berilgan. O'quvchilar shu so'zlarga qo'shimcha qo'shib yangi so'zlar hosil qilishi lozim. Yozishga berishdan oldin xattaxtaga namunadagi so'z yozilib, tushuntirib beriladi.

O'quvchilar lug'at boyligida bor so'zlar asosida qatorni davom ettirishlari mumkin. Bu yerda asosiy e'tibor o'quvchiga bir so'zga qo'shimcha qo'shish orqali yangi ma'noli so'z hosil qilish mumkinligini tushuntirish.

O'quvchilarga yozgan so'zlari o'qitiladi. Javoblar xattaxtaga yozilib, izohlab beriladi.

#### 2-topshiriq. Qismlarni moslashtiring.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda so'zlar ikki ustunga bo'lib berilgan. O'quvchilar birinchi ustundagi so'zlarni -xona, ikkinchi ustundagi so'zlarni -paz qo'shimchasi bilan moslab, yangi so'zlar hosil qilishlari lozim. Ammo berilgan so'zlarning hammasi qo'shimchalarga mos kelmaydi. O'quvchilar bu so'zlarni topib, aniqlashlari lozim.

O'quvchilar bajarib bo'lgach, tekshirib, munosabat bildiriladi.

**3-topshiriq. So'zlarga -uvchi qo'shimchasini qo'shib, kasblar nomini hosil qiling.**



Mazkur topshiriq og'zaki suhbat asosida tashkil qilinadi. So'zlar xattaxtaga yoziladi hamda o'quvchilardan *-uvchi* qo'shimchasini qo'shib, yangi so'zlarni aytish so'raladi.

O'quvchilarning javoblari tinglangach, munosabat bildiriladi hamda qo'shimcha qo'shib yangi so'z hosil qilish mumkinligi haqida ma'lumot beriladi.

### 3-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, qaysi kasb egasi bizni davolaydi?*

### Asosiy qism

**1-topshiriq. "Shifokor o'yini" audiomatnini tinglang.**

**Eslatma:** o'qituvchi taqdim qilingan audiolarni ovoz kuchaytirgich orqali qo'yib eshittirishi lozim. Lekin turli xil texnik sabablar bilan buning imkoni bo'lmaganda o'qituvchining o'zi adabiy til normalariga amal qilgan holda, ravon va yetarlicha baland ovozda matnlarni o'qib berishi ham mumkin.

O'quvchilar "Shifokorning o'yini" audiomatnini tinglab, darslikda berilgan rasmni kuzatib borishlari lozim.

Audiomatn eshittirilgach, rasm ostidagi savollar beriladi:

#### Yozma mashq

**2-topshiriq. "Agar shifokorlar bo'lmasa..." deb boshlanuvchi 6 ta gap tuzing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar hayotiy kuzatishlari hamda eshitgan audiomatn asosida "Agar shifokor bo'lmasa..." deb boshlanuvchi oltita gap tuzib yozishlari lozim. O'qituvchi tomonidan namuna bir marta o'qib beriladi.

O'quvchilarning topshiriqni mustaqil bajarishlari nazorat qilinadi.

Topshiriqni bajarishni yakunlaganlaridan so'ng, har bir o'quvchiga yozgan gaplari o'qitiladi. Ularning imlosi, gapni mantiqan to'g'ri shakllantirishi tekshiriladi.

**3-topshiriq. Qaysi kasb egasi nima ish qiladi?**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajarila-

di. Mashq daftarida kasblar berilgan. O'quvchilar har bir kasb egasining nima ish bilan shug'ullanishini yozishi lozim. Kasblar hamda keltirilgan namuna o'quvchilarga o'qib beriladi.

O'quvchilarning topshiriqni mustaqil bajarishlari nazorat qilinadi.

Topshiriqni bajarishni yakunlaganlaridan so'ng, har bir o'quvchiga yozgan gaplari o'qitiladi. Ularning imlosi, gapni mantiqan to'g'ri shakllantirishi tekshiriladi.

### 4-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, bemor kim? Siz ham bemorlarga yordam berganmisiz?*

### Asosiy qism

#### Yozma mashq

**"Men ishlab chiqaradigan dori" mavzusida kichik matn yozing. Matnda quyidagi ma'lumotlar bo'lishiga ahamiyat bering:**

- ✓ dorining nomi;
- ✓ qanday kasallikka davo bo'lishi;
- ✓ nima uchun bu dori kerak deb o'ylashingiz;
- ✓ u dorini birinchi kimga berishingiz.

O'quvchilarga topshiriq sharti tushuntirilgandan so'ng, yozish uchun ruxsat beriladi hamda mustaqil yozishlari nazorat qilib boriladi.

O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lgach, yozganlari o'qitiriladi, xato va kamchiliklari to'g'rilanadi. Mazmunli matn yozgan o'quvchi rag'batlantiriladi.

### 5-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ikki olganingizni eslay olasizmi? Nima sababdan olgan edingiz?*

### Asosiy qism



### O'qib tushunish

O'quvchilar darslikda berilgan "Kundaligimdagi ikki" matnini o'qishlari lozim. Bunda o'quvchilar bir yoki ikki gapdan o'qigan holda matnni o'qib chiqishadi. Bir o'quvchi o'qiyotgan vaqtda qolgan hamma matnni kuzatib turishi talab qilinadi.

*"Kuzatib turing, men istagan o'quvchidan davom ettirishni so'rayman"* deb ogohlantirish samara beradi.

Matn 2–3 marta qayta o'qib bo'lingach, matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

O'quvchilardan kutiladigan javob turlicha bo'lishi mumkin, o'quvchilarning matn mazmunini tushungan holda, matndan olgan xulosalariga asoslanib javob berishlari nazarda tutilgan.

O'quvchilar savollarga javob berib bo'lgach, ularning javoblariga munosabat bildiriladi.

### Yozma mashq

#### 1-topshiriq. O'zingizdagi 4 ta kamchilikni yozing.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda o'quvchi o'zida uchraydigan kamchiliklarni yozishi lozim. Namuna o'qib beriladi hamda har bir o'quvchining mustaqil yozishi nazorat qilinadi.

Bu savol o'quvchida o'zini taftish qilish, o'z ustida ishlash ko'nikmasini shakllantiradi.

O'quvchilar yozib bo'lgach, har bir o'quvchiga yozgan gaplari o'qitiladi. Ularning imlosi, gapni mantiqan to'g'ri shakllantirishi tekshiriladi.

6-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, o'qituvchilar bilim berish uchun dars jarayonida nimalardan foydalanadi?*

### Asosiy qism

### Yozma mashq

#### 1-topshiriq. "O'qituvchilar borligi uchun..." deb boshlanuvchi 6 ta gap tuzing.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar "Kundaligimdagi 2" matnidan

olgan xulosalari hamda maktab jarayonidagi kuzatishlari asosida "O'qituvchilar borligi uchun..." deb boshlanuvchi gap tuzishlari lozim.

O'qituvchi tomonidan namuna o'qib beriladi hamda mustaqil yozishlari nazorat qilinadi.

O'quvchilar yozib bo'lgach, har bir o'quvchiga yozganlari o'qitiladi. Gaplarning imlosi hamda mantiqan bog'lanishi tekshiriladi, xato va kamchiliklari izohlab beriladi.

#### 1-topshiriq. Bularni kim ishlatadi?

Mazkur topshiriq og'zaki suhbat asosida tashkil qilinadi. Darslikda turli xil kasb egalarining ish-qurollari rasmi berilgan. Ushbu rasm xattaxtada ko'rgazma asosida yoki proyektorda ko'rsatiladi. O'quvchilardan navbatma-navbat so'raladi. O'quvchilar detallarning nomi hamda uni qaysi kasb egalari ishlatishini aytib berishi lozim.

Bu topshiriq orqali o'quvchining og'zaki nutqi hamda lug'at boyligi tekshiriladi. Har bir javobga o'qituvchi tomonidan munosabat bildiriladi.

7-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, siz qaysi kasb egasi bo'lishni xohlaysiz?*

### Asosiy qism

#### 1-topshiriq. "Kelajak me'mori" audiomatnini tinglang.

**Eslatma:** o'qituvchi taqdim qilingan audiolarni ovoz kuchaytirgich orqali qo'yib eshittirishi lozim. Lekin turli xil texnik sabablar bilan buning imkoni bo'lmaganda o'qituvchining o'zi adabiy til normalariga amal qilgan holda, ravon va yetarlicha baland ovozda matnlarni o'qib berishi ham mumkin.

### Audiomatn

#### Kelajak me'mori

Assalomu alaykum! Mening ismim Yorqi-



noy. O'qituvchilik qilishni boshlaganimga 15 yil bo'ldi. Mening otam mamlakatimizning eng mashhur insonlaridan biri. Uni hamma taniydi. Ana shunday mashhur odamning qizi bo'lish men uchun baxt. Buning o'ziga yarasha qiyinchiliklari ham bor. Masalan, odamlar nima gapirsam ham, nima yesam ham, qayerga borsam ham "Otangga loyiq qiz bo'l" deyaverishadi. Meni Yorqinoy emas, kimningdir qizi sifatida ko'rishadi. Dadam aktyor bo'lgani uchun atrofimdagi hamma meni ham aktyor bo'ladi, deb o'yladi. Men esa o'qituvchilikni tanladim. "Men o'qituvchiman" desam, haligacha odamlar hayron qoladi. Men esa har doim "Men o'qituvchiman" deganimda o'zimda g'ururni his qilaman. Axir bu kasb dunyodagi eng zarur, eng muhim, eng faxrli kasblardan biri-da.

Otam ham boshqalar kabi mening san'at sohasini tanlashimni istagan. Yo qo'shiqchi, yo aktyor bo'lishimni kutgan. "Bolalar bilan o'ralashib yurasanmi?" deb tanbeh ham bergan. Lekin hozir unday qilmaydilar.

Shunday qilib, men o'qituvchi bo'ldim. Birinchi ish kunim maktabga borib, sinf eshigini taqillatdim. Eshikni ochib, ichkariga kirdim. Bir bola menga qarab "tssh" dedi. Men nimanidir xato qildimmi, deb qo'rqib ketib, "Nima bo'ldi?" deb so'radim. Bola qo'lidagi qo'g'irchog'ini ko'rsatib "Chaqaloq uxlayapti" dedi. Indamay xonadan chiqib narigi xonaga kirdim. U yerda supermenga o'xshab kiyinib olgan bolakayni ko'rdim. "Nima qilyapsan?" deb so'rasam, "Men supermenman" dedi. "Sen ucha olasanmi?" deb savol berdim. U "Ucha olaman, lekin darrov qo'nib qolaman" deb javob berdi. Qarang, u bola ucholmayman demadi, ucha olaman, lekin uchishim davomli bo'lishi uchun hali yana mehnat qilishim kerak, dedi.

Maktabdagi ba'zi o'qituvchilarimni eslab, men bunday o'qituvchi bo'lishni istamadim. Ulardek dangasa, bolalarning qiziqishlarini hisobga olmaydigan o'qituvchi bo'lishni istamadim. Ulardan qanday o'qituvchi bo'lish kerak emasligini o'rgandim. Bolalarga ijod qilish uchun, fikrlash uchun sharoit yaratib beradigan o'qituvchi bo'lishni istadim. Xato qilgan o'quvchimni urishmaydigan, aksincha, unga xatosini o'nglash uchun vaqt va imkon berishga qodir o'qituvchi bo'lishni istadim.

Men musiqa o'qituvchisiman. Boshlang'ich sinflarga musiqadan dars beraman. Lekin men maktabda bu fandan doim yomon baho olganman. Hatto bir kuni o'qituvchimiz menga 1 baho qo'ygan. Sizningcha, bu yaxshimi? Hech kim musiqadan 1 baho olmaydi, men esa olganman. Meni bu narsa to'xtatib qololmadi. O'zimning ustimda qattiq ishladim, mehnat qilib bu sohani o'rgandim.

O'qituvchilik eng og'ir kasb deb bilaman. Kelajakning qanday bo'lishi o'qituvchilarga bog'liq. Kelajakni uyga, o'quvchilarni quruvchilarga o'xshatsak, o'qituvchilar o'sha uyni me'morlaridir. Me'mor uyni qanday qurishni ko'rsatib beradi. Quruvchilar esa uni quradi. Agar chizmada biror xato bo'lsa, uy tez orada qulab tushadi. O'qituvchi ham o'quvchilar bilan ishlashda xatoga yo'l qo'ysa, kelajakni qulatgan bo'ladi. Siz ham o'qituvchi bo'lishni istasangiz, hozirdan qattiq mehnat qiling. O'qituvchilarni qadrlang!

Audiomatn eshittirilgach, 109-sahifadagi savollar bilan suhbat tashkil qilinadi.

Berilgan savollarga o'quvchilarning javoblari har xil bo'lishi mumkin. O'quvchilar bu savollarga matndagi gaplarni o'zaro integratsiya qilish orqali matn mazmunini tushunib, xulosalari asosida javob berishlari lozim.

Bu jarayonda o'quvchining matnni eshitib tushunish ko'nikmasi hamda fikrini dalillar bilan aniq yetkazib bera olishi tekshiriladi.

### Yozma mashq

**1-topshiriq. Berilgan gaplarning qaysi biri Yorqinoyning aytganlariga mos kelishini toping.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda Yorqinoy haqida gaplar berilgan. O'quvchilar "Kelajak me'mori" matnidan olgan xulosalari asosida *Yorqinoyning aytgan gaplariga mos keladigan gapni topib, "+" belgisini qo'yishlari lozim.* O'qituvchi tomonidan namuna o'qib beriladi hamda mustaqil yozishlari nazorat qilinadi.

O'quvchilar belgilab bo'lgach, har bir o'quvchiga o'qitiladi. Gaplar nima uchun mos kelishi va nima uchun mos kelmasligi o'qituvchi tomonidan izohlab beriladi.



## 8-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Ayting-chi, o'qituvchi kim? U maktabda qanday vazifalar bajaradi?*

#### Asosiy qism

**“Men o'qituvchi bo'lsam, bolalarni qanday o'qitaman?” mavzusida kichik matn yozing.**

## KATTA BO'LSAM, KIM BO'LAMAN?

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning kasblar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. Kasblar, kasb egalariga oid so'z, so'z birikmasi va iboralarni o'rgatish. Tengdoshlarining javoblarini eshitib tushunish va ularga munosabat bildira olish, o'ziga berilgan savollarga javob berish, kasblar haqida gapira olish, informativ matndagi ochiq ifodalangan ma'lumotlarni topish, she'rdagi obrazlarni tahlil qila olish, uch bosqichli ko'rsatmalarni tushunish, hozirgi va kelasi zamon shakllarini farqlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

70

## 1-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Oilangizdagilar nima ish qilishi, qaysi kasb bilan shug'ullanishini ayta olasizmi?*

Bu topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilarning har birini o'qituvchi lavozimiga tayinlang. Ularning familiyalarini o'qib, “Bugundan boshlab o'qituvchi etib saylandingiz, xo'sh, bolalarni qanday o'qitasiz?” deb so'rab chiqiladi.

O'quvchilar javob berib bo'lgach, “Qani kim yaxshi o'qituvchi bo'lar ekan?” deb matn yozishlari uchun ruxsat beriladi.

O'quvchilar yozib bo'lgach, har bir o'quvchiga yozganlari o'qitiladi. Gap tuzishdagi xato va kamchiliklari izohlab beriladi. Eng yaxshi yozilgan matn egasi rag'batlantiriladi.

**5-BO'LIM** **KATTA BO'LSAM, KIM BO'LAMAN?**

**1. Katta bo'lsangiz, kim bo'lmoqchisiz? Yozing.**



① Rasmda qaysi kasb egalari tasvirlangan?  
 ② Ular qayerda ishlaydi?  
 ③ Yana qanday kasblarini bilasiz?  
 ④ Nima uchun aynan shu kasb egasi bo'lmoqchisiz?  
 ⑤ Siz tanlagan kasbning boshqalarga qanday foydasi bor?

**2. Moslashtiring.**

**OLIM BO'LMOQCHIMAN...**

Kim bo'lsam ekan, deb rosa o'yladim. Avvaliga o'qituvchi bo'lmoqchi edim. **Chunki** o'zing egallagan bilimni boshqalarga ham o'rgatish yaxshi-da! **Axir**

111

#### Asosiy qism

#### Yozma mashq

**1-topshiriq. Katta bo'lsangiz kim bo'lmoqchisiz?**

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi (65-bet). O'quvchilar kelajakda qaysi kasb egasi bo'lmoqchi ekanliklarini yozib berishlari kerak bo'ladi. Bir o'quvchi bir necha kasbni yozishi ham mumkin. Yozganini o'qib berishni



istagan o'quvchilarga imkoniyat berish tavsiya etiladi.

### Savol-javob

Darslikning 111-betida turli kasblar tasvirlangan rasmlar berilgan. O'qituvchi o'quvchilarga ushbu rasmlarga diqqat bilan qarashni, keyin savol-javob o'tkazishini aytadi.

**Rasmda qanday kasb egalari tasvirlangan?**

Berilgan 7 ta rasmdagi kasb egalarini aytish lozim. Bir o'quvchi bittasini aytsa ham yetarli.

### Ular qayerda ishlaydi?

Endi o'quvchilar rasmdagi kasb egalarining qayerda ishlashini, nima ish qilishini aytib berishlari kerak bo'ladi.

### Yana qanday kasblarni bilasiz?

O'quvchilardan bu yerda berilmagan kasblardan aytish so'raladi. Har bir o'quvchi bitta kasb aytsa kifoya.

**Nima uchun aynan shu kasb egasi bo'lmoqchisiz?**

O'quvchilar bundan oldin kelajakda kim bo'lmoqchiligi haqida yozdilar. Mana shu savolda nega aynan o'sha kasbni tanlamoqchi ekanlarini aytib beradilar.

**Siz tanlagan kasbning boshqalarga qanday foydasi bor?**

O'quvchilar o'zlari tanlagan kasbning boshqalarga qanday foydasi bor deb o'ylashlari haqida gapiradilar. O'quvchilarning javoblari mantiq doirasidan chiqmagan bo'lsa to'g'ri hisoblanadi.

**Eslatma:** har bir savolni 5–6 o'quvchiga bering. Savol va javobning takror bo'lib qolishi ahamiyatsiz. Bunda o'quvchilarni darsga jalb qilish hamda har birining nutqini nazorat qilish va o'stirish muhimligi nazarda tutiladi.

### Yozma mashq

#### 2-topshiriq. Moslashtiring

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi (65–66-betlar). O'quvchilar kasblar hamda ularga mos qismlarni topib yozishlari kerak bo'ladi.

O'quvchilar mashqni bajarib bo'lgach, daf-tarlarini almashishlari so'raladi. Birgalikda tekshirish jarayoni boshlanadi. O'qituvchi av-

val bir necha o'quvchidan so'raydi, keyin o'zi to'g'ri javobni aytadi.

### 2-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Uchuvchilik qanday kasb? Uchuvchi nimalar qiladi?*

*Nima deb o'ylaysiz, tanlagan kasbimiz faqat o'zimizga foydali bo'lishi kerakmi?*

### Asosiy qism

#### O'qib tushunish

Darslikning 111–112-betidagi "Olim bo'lmoqchiman" matni ustida ishlash. O'qituvchi matnni avval o'zi o'qib beradi. Keyin o'quvchilar oldin ichlarida o'qib oladilar (4 minut). So'ngra navbat bilan ovoz chiqarib o'qiydilar.

#### Savol-javob

O'quvchilar quyidagi savollarga matn asosida javob beradi.

**O'qituvchi bo'lish nimasi bilan yaxshi? Nima uchun qahramonimiz olim bo'lishga qaror qildi?**

**Olim bo'lish uchun yaxshi o'qishning o'zi yetarlimi?**

Quyidagi savolning javobi matnda mavjud emas, lekin o'quvchilar o'zlarining qarashlarini aytishlari mumkin:

**Olim bo'lsangiz, qanday ixtirolar qilardingiz?**

#### Yozma mashq

**3-topshiriq. Quyidagi so'zlar matnda nima maqsadda qo'llangan?**

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi (66–67-betlar). O'quvchilar matnda ajratib ko'rsatilgan so'z nima maqsadda qo'llangani-ni topib, moslashtirishlari kerak bo'ladi.

### 3-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Bo'lib o'tib ketgan biror voqea haqida gapirganimizda va hali bo'lmagan voqea haqida*



gapirganimizda nimalar o'zgarishini bilasizmi? Misollar keltira olasizmi?

### Asosiy qism

#### Yozma mashq

**4-topshiriq. Quyidagi gaplarni o'qing. Bu ishlarni ertaga qilmoqchi bo'lsangiz gaplarni qanday o'zgartirasiz?**

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi (66–67-betlar). O'quvchilar ushbu topshiriqni o'z bilimlariga tayangan holda bajaradi. O'qituvchi bitta gapni misol tariqasida xattaxtaga yozib tushuntirib berishi mumkin.

Ushbu topshiriq bajarilgach, tekshirishdan oldin o'quvchilar darslikning 114-betidagi nazariy ma'lumot bilan tanishtiriladi. Shundan so'ng o'quvchilarga o'z xatolarini to'g'rilab olishlari uchun vaqt beriladi. Keyin o'qituvchi har gapni to'g'rilab o'qib beradi.

#### Yozma mashq

**5-topshiriq. O'rgangan qoidangiz asosida so'zlarni o'zgartirib yozing.**

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi (66–67-betlar). O'quvchilar hozirgina olingan nazariy ma'lumot asosida jadvalning ikkinchi ustunini to'ldiradilar.

### 4-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Duradgor nima ish qilishini kim biladi?*

### Asosiy qism

#### She'rni o'qish

O'qituvchi darslikning 114-betidagi "Kungaboqar va To'lqinjon" she'rini ifodali, ravon, o'zbek adabiy tili normalariga amal qilgan holda, kerakli ohang va yetarlicha baland ovozda o'qib beradi. So'ng o'quvchilar navbat bilan o'qiydilar.

#### Savol-javob

O'quvchilar darslikdagi savollarga javob berishlari lozim.

Bu yerda 5-savolga diqqat qaratish kerak.

Bu savolga o'quvchilar to'g'ri javob bera olish ehtimoli past, lekin o'qituvchi yordami bilan qo'shimcha ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin. Ushbu savolning maqsadi ham shu.

O'qituvchi o'quvchilarga she'rdagi qatorlarning bo'g'ini teng bo'lishi yaxshi ekani, shunda u oson va ravon o'qilishini aytadi. She'rdagi istalgan ikki misrani misol keltirish mumkin. Shunday ekan, agar she'rning oxirgi qatorida "albatta" so'zi qo'llanganda nima bo'lardi? Bo'g'inlar soni 7 ta emas, sakkizta bo'lib qolardi. Shuning uchun "albat" deya qo'llagan. *Albatta* va *albat* so'zlari bir xil ma'noni anglatadi. *Albat* so'zi *albatta* so'zining qisqargan shakli hisoblanadi.

#### Og'zaki nutq

#### Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?

O'quvchilar kelajakda kim bo'lmoqchiliklari haqida nutq tayyorlab, sinfdoshlariga so'zlab beradilar. Ular darslikning 115-betida berilgan ma'lumotlarni qamrab olishi lozim:

- ✓ Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?
- ✓ Nega aynan shu kasbni tanladingiz?
- ✓ Bu kasbning qiyinligi nimada?
- ✓ Bu kasbni egallash uchun nimalar qilish kerak?

O'quvchilarga tayyorlanib olish uchun vaqt berish tavsiya etiladi.

### 5-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Bugun sizlar bilan yondaftar yasab, uni maqsadlarimiz bilan to'ldiramiz.*

### Asosiy qism

#### Qiziqarli mashg'ulot

O'quvchilar darslikning 115-betida tasvirlangani kabi shaxsiy yondaftar yasaydilar (ayan shunday bo'lishi majburiy emas). Ustiga nom qo'yadilar.

Darslikning 115-betidagi ko'rsatma asosida yondaftarni to'ldiradilar.

O'qituvchi o'quvchilarga ushbu yondaftarni uyga olib ketib oiladagilariga ko'rsatishni topshiriq sifatida beradi.





## QUVNOQ FERMA

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning uy hayvonlari va parrandalar, ularning hayot tarzi bilan bog'liq tasavvurlarini kengaytirish, ularning mazkur mavzu doirasida ishlatiladigan so'z, so'z birikmalari, gaplarni to'g'ri tushunish va to'g'ri qo'llashiga erishish. Og'zaki va yozma nutq, tinglab tushunish va o'qib tushunishga oid nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish.

6-BO'LIM
QUVNOQ FERMA

Rasmga diqqat bilan qarang.



- ① Fermada nimalar tasvirlangan?
- ② Fermer kim? U nima bilan shug'ullanadi?
- ③ Fermada parranda va hayvonlarni nima uchun boqamiz?
- ④ Ulardan qanday daromad olish mumkin?
- ⑤ Siz yashab turgan joyda ham ferma bormi? Unda nimalar boqiladi?

1. Rasmdagi hayvon va parrandalarning nomini yozing.

"Sobirjon fermer" matnini tinglang.

5

### 1-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

#### *Iqtisodchi kim?*

Ushbu bo'lim doirasida o'qituvchi bugungi darsda "Quvnoq ferma" mavzusida suhbatlashishni tushuntiradi. Ferma bilan bog'liq mavjud tushunchalarni aniqlashtiruvchi savollar asosida suhbat quriladi. Shundan so'ng o'quvchilarning e'tibori darslikda berilgan rasimga qaratiladi.

### Asosiy qism

Rasmlarni diqqat bilan kuzatish uchun o'ziga vaqt beriladi, o'quvchilar rasmini kuzatib bo'lganidan so'ng, ularga darslikda berilgan savollar bilan murojaat qilinadi.

#### 1. Fermada nimalar tasvirlangan?

Rasmda tasvirlangan har bir narsani alohida o'quvchidan so'ragan ma'qul. Bir o'quvchi darslikda berilgan barcha narsa nomlarini aytishi joiz emas.

#### 2. Fermer kim? U nima bilan shug'ullanadi?

Bir o'quvchi fermer hayvonlarni parvarish qilishini aytsa, keyingi o'quvchi parrandalar uchun oziq tayyorlashini aytadi. Shu tariqa suhbat olib boriladi.

#### 3. Fermada parranda va hayvonlarni nima uchun boqamiz?

O'quvchilardan hayvon va parrandalar haqida alohida so'raladi, ya'ni "Hayvonlarga nimalar misol bo'la oladi? Parranda nomlarini ayting" singari qo'shimcha savollar bilan murojaat qilinadi.

#### 4. Ulardan qanday daromad olish mumkin?

Ba'zi o'quvchilarga kundalik hayotda o'zlari uchratgan vaziyatlar bilan bog'liq holatlarni so'zlab berishlariga ham imkon berish kerak.

#### 5. Siz yashab turgan joyda ferma bormi? Unda nimalar boqiladi?

O'quvchilar o'zlari yashab turgan joydagi fermalar haqida, u yerda nimalar borligi haqida so'zlab berishlari mumkin.

Ushbu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarni yo'naltirib, ularning nutqida uchragan kamchiliklarni kuzatib turadi, ayrim o'quvchilarga so'z tanlashda yordam beradi, og'zaki nutq tuzishda kamchilikka yo'l qo'yayotgan o'quvchilar nutqini tuzatib turishi kerak.

#### Rasmdagi hayvon va parrandalarning nomini yozing.

Ushbu topshiriqni bajarish uchun o'quvchilar o'zlari rasmda kuzatgan hayvon va parranda nomlarini yozadilar, o'qituvchi ushbu jarayonni kuzatib turadi. Yozma nutqda yo'l qo'yilayotgan xatolarni imkon qadar nazorat qiladi. Ayrim o'quvchilar ushbu topshiriqni xattaxtada bajaradilar. Topshiriqni bajarib bo'lgan o'quvchilarning daftarlari olib tekshiriladi.



## 2-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

O'qituvchi bugungi darsda Sobirjon degan bir o'quvchi bolaning qanday qilib fermerlik bilan shug'ullanishni boshlagani haqida aytadi. O'quvchilarga ushbu matnning mazmuniga doir qisqacha qiziqtiruvchi ma'lumotlar berib, ularni matnni tinglashga tayyorlaydi.

#### Asosiy qism

##### SOBIRJON FERMER

Sobirjon qo'shni Rahima xolalarnikiga kirdi-yu, hayron qoldi. Katakdagi besh-oltita tovuq tinmay qaqqag'lardi.

– Ha tinmagurlar-a, – dedi Rahima xola. – Tuxum berganlari yaxshiku-ya, lekin odamni tindirmaydi-da.

– Qancha tuxum beradi, xola? – qiziqsindi Sobirjon.

Rahima xola unga jilmayib qaradi:

– Qancha mehr bersang, qancha don bersang, shuncha ko'p tuxum olasan.

O'sha suhbatdan keyin Sobirjonning fikr-xayoli tovuq boqishda bo'lib qoldi. Bu haqda onasiga aytdi. Onasi uning yelkasiga qoqib:

– To'g'ri o'ylabsan bolam, o'g'il bola biror hunar yoki bir ish bilan shug'ullanishi kerak, – dedi.

Sobirjon velosiped olish uchun yig'ib yurgan pulini chamaladi. Ikki oylik yigirmata jo'jaga yetar ekan. Daftoriga o'zicha tovuqxona-ni o'lchamini chizayotganda xonaga dadasi kirib keldi:

– Ha o'g'lim, geometriyasi? – so'radi dadasi qiziqib.

– Tovuqxona qurmoqchiman. Yig'ib yurgan pulim yigirmata jo'jaga yetar ekan. Agar yaxshilab boqsam, ikki oyda tuxumga kirib qolishadi. O'zimiz yeymiz, ortganini sotamiz. Devorini xom g'ishtdan o'zim ko'taraman, faqat old tarafiga sim to'r kerak bo'ladi.

– Bo'пти, – dedi dadasi nimalarnidir hisoblagach. – Sim to'rni men topib beraman. Bemalol boshlayver.

Maktabdan kelgan Sobirjon omborxonadan g'isht quyadigan qolipni topdi. Akasi g'isht quyganida yordamlashib, ko'zi pishgan.

Terlab-pishib yuz dona g'isht quydi. G'ishtlar qurigach, ularni o'zi chizgan loyiha bo'yicha loy bilan suvab, terib chiqdi. Old tarafini sim to'r bilan mahkamladi. Biroq tomini yopishga kelganda aqli yetmay, shoshib qoldi.

– Ustini qanday yopish kerak? – deb so'radi dadasidan.

Dadasi uch-to'rtta yog'och olib kelib qanday yopish kerakligini o'rgatib, ishiga ketdi. Kun peshindan og'gan payt tog'asi kelib qoldi.

– Hormang, hormang jijan. Nima harakat? Anchagina katta tovuqxona uni ham qiziqtirib qo'ygan edi.

– Endi jijan, tovuqlar kirib-chiqishi va tuxumlarni olish uchun eshik kerak bo'ladi, – tog'asi unga eshikcha qanday yasalishini tushuntirdi. Kechgacha eshikchalar yasab, ikki xonali mo'jazgina tovuqxona tayyor bo'ldi.

Tanishlaridan yigirmata jo'ja olib kelgan Sobirjonning qo'li-qo'luga tegmasdi. Don se-padi, suvini yangilaydi, xilma-xil ko'katlarni maydalab beradi. Orada darslarini qiladi-yu, yana jo'jalari oldiga yuguradi. Doim ko'chada koptok o'ynab, vaqtini o'tkazadigan bola uyga bog'landi-qoldi. Bu orada yozgi ta'tilga chiqishdi. Tomorqaga ekilgan pomidor-bodringlar pisha boshladi. Sobirjon ham ekinlarga qarar, ham jo'jalariga parvona bo'lardi. Jo'jalar ham uning mehrini sezishdimi, kun sayin, hafta sayin o'sib, uch oyda tuxumga kirdi. Ikki kunda bir chelak tuxum tayyor. Sobirjon mahalladagi do'konga ham tuxum topshira boshladi. Olingan daromad, qilingan xarajatlarni erinmay bir daftarga yozib bordi. Tovuqlariga har oyda vetvrach tavsiya qilgan dorilarni berib turdi. Kuzga borib, Sobirjonning boshi qotib qoldi. Sababi uning beshta tovug'i kurk bo'lgan edi. Onasining maslahati bilan ularga alohida joy qilib, tuxum bostirdi. Yigirma bir kun deganda hovlini jo'jalarning "chip-chip"i bosdi. Oq, qora, sariq tusli jo'jachalarning ovqat qidirib yugurishlari, ona tovuqlarning ularga mehribonligini ko'rib, Sobirjon o'zida yo'q xursand edi. Onasi unga ko'makdosh bo'ldi. Kundalik tashvishlar va yugur-yugur bilan uch oy o'tdi. Sobirjonning jo'jalari katta bo'ldi. Ayrim jo'jaxo'rozlar hovlini boshiga ko'tarib qichqira boshladi.

– O'g'lim, – dedi unga bir kuni onasi, – jo'jalarning bir qismini tarqatishing kerak.



– Nima qilamiz? – so'radi Sobirjon.  
– O'zingga o'xshab tovuq boqishga qiziqadigan bolalarga ber. Ular ham ko'paytirishsin. Keyin mahallamizda boquvchisini yo'qotgan oilalar bor, ularga ham ber. Odam saxovatli bo'lishi kerak, bolam.

Sobirjondan jo'ja, tovuq olgan qo'shnilari ham tovuqchilik bilan shug'ullana boshlashdi. Eng qizig'i, ikki oylardan keyin bo'ldi. Bir kuni ularning mahallasiga yopiq kuzovli "Isuzu" mashinasi kelib to'xtadi. Undan tushgan kishilar hokimiyat vakillari ekan. Ular kam daromadli, boquvchisini yo'qotgan oilalarga tovuq tarqatmoqchi ekan. Shunda mahalla oqsoqoli To'xtasin buva:

– Bu ishga sal kechikdinglar. Bizning mahalla bunday yordamga muhtoj emas, – deb Sobirjonning o'nga yaqin xonadonga bepul tovuq tarqatganini aytdi.

Ikki kundan keyin tuman hokimi va o'rinbosarlari Sobirjon bilan tanishish uchun kelishdi.

– Maktab o'quvchisi bo'lsa-da, mahalladoshlariga madadkor bo'lgan yosh tadbirkor Sobirjon Mansurovga maktabni bitirgach, ishlarini yanada kengroq yo'lga qo'yishi uchun kredit berishga qaror qildik, – dedi hokim.

Sobirjon xushxabarni onasiga yetkazish uchun uyga shoshdi. U darvozadan kirishi bilan jo'jaxo'rozlar uni tabriklagandek bir-birlariga jo'r bo'lib qichqirib yuborishdi.

#### ***Boborahmat MUHAMMADIYEV***

Matn tinglab bo'lingach, matn bilan bog'liq savollar asosida suhbat o'tkaziladi.

**Eslatma:** savollarga javob berish jaryonida o'qituvchi o'quvchilarning javoblari asosli ekanligiga, izohli o'rinlarni yoritib berishga alohida ahamiyat berib boradi.

**1. Sobirjonning fikr-xayoli nima uchun tovuq boqishda bo'lib qoldi?**

**2. Sobirjonning g'oyasini birinchi bo'lib kim qo'llab-quvvatladi?**

**3. Sobirjon nima uchun pul yig'ib yurgandi?**

**4. Dadasi qanday munosabat bildirdi?**

**5. Sobirjon tovuqxona eshigini yasashni qanday o'rgandi?**

**6. Doim ko'chada koptok o'ynab, vaqt o'tkazadigan bola nima uchun uyga bog'lanib qoldi?**

**7. Sobirjonga onasi qanday maslahat berdi?**

**8. Mahallaga hokimiyat vakillari qanday taklif bilan kelishdi?**

**9. Oqsoqol hokimiyat vakillariga nima dedi?**

Berilgan savollar o'quvchilarning og'zaki nutqini hamda o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar ushbu savollarga javob berishda o'z fikrlarini darslikda keltirilgan ma'lumotlar yordamida tushuntiradi, ularni izohlaydi.

#### **Yozma topshiriq**

**1. Ushbu hikoyada ishtirok etgan qahramonlarni alohida ajrating.**

Berilgan topshiriqni bajarish uchun o'quvchilar jadval ichida berilgan shaxs nomlarini alohida rangga bo'yashlari kerak.

**2. Hikoyada bo'lib o'tgan voqealar ketma-ketligini aniqlang.**

Ushbu topshiriqni bajarish uchun o'quvchilar matnni qayta xotirlab, ularning ketma-ketligini raqamlar orqali ifodalaydi.

**3. Quyida berilgan ma'lumotlarning qaysi biri to'g'ri, qaysi biri noto'g'ri ekanligini ayting.**

Ushbu topshiriqni bajarishda xatoga yo'l qo'ygan o'quvchilarning javoblari alohida tahlil qilinadi. Qaysi o'rinlarida xatolik borligi tushuntirilishi kerak.

**4. Sobirjon jo'jalarni yaxshigina daromad manbaiga aylantirish uchun ularni qanday parvarishladi? Yozing.**

Audiomatnda Sobirjonning jo'jalarni qanday qilib parvarishlagani haqida alohida ma'lumotlar keltirilgan. O'quvchilar o'z xotiralarida qolgan 3 ta ma'lumotni yozishga harakat qiladilar.

**Maktab o'quvchisi bo'lsa-da, mahalladoshlariga madadkor bo'lgan yosh tadbirkor Sobirjon Mansurovga maktabni bitirgach, ishlarini yanada kengroq yo'lga qo'yishi uchun kredit berishga qaror qilindi. Sizda ham shunday imkoniyat bo'lganida ushbu kreditni nimalar uchun sarflagan bo'lar edingiz?**

Ushbu savolga har bir o'quvchi o'z tasavvurlari va g'oyalari asosida javob berishi kerak. O'qituvchi kredit tushunchasi haqida o'quvchilardan so'raydi, ularning tasavvurlari



rini aniqlashtirib, ushbu soʻzning izohini kel-tirishi kerak. Oʻquvchi oʻz fikrini ifodalash ja-rayonida oʻqituvchi uning fikrini aniqlashtirish uchun qoʻshimcha savollar bilan murojaat qiladi.

### 3-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

Oʻqituvchi darsda chol va nabiraning oʻza-ro suhbat berilgani, ushbu suhbat orqali yangi soʻzlarni oʻrganib olish mumkinligini aytib, oʻquvchilarning diqqatini darslikdagi matnga qaratadi.

### Asosiy qism

“Kuchukmi yoki itcha?” mavzusida berilgan matn qismlarga boʻlingan holda bir necha oʻquvchi tomonidan ifodali oʻqiladi.

#### 1. Jahongir nimadan shunchalik hayratlandi?

Oʻquvchilarning eʼtibori “Jahongirning hayratdan ogʻzi ochilib qoldi” ifodasiga qaratilishi kerak. Ushbu gap berilgan savol uchun kalit vazifasini oʻtashini tushuntirib, keyin savolga javobni tinglashi lozim.

#### 2. Jamol buva nimaga qotib-qotib kuldi?

#### 3. Jahongir jonivorlarning bolasini nima der ekan?

Ushbu savollarga javob berishda oʻquvchilar oʻqib tushunganlari asosida oʻz javoblarini asoslaydilar. Har bir hayvon bolasining nomi alohida taʼkidlanadi.

#### 4. Nima uchun Jahongir jonivorlarning nomini bilmadi?

Shu oʻrinda oʻquvchilarga “Sizlar ham hayvonlarning bolalari qanday atalishini bilarmidingiz?”, “Ular qanday ataladi?” singari savollar beriladi.

#### 5. “Qoʻra” nima ekan?

Beshinchi savolda esa “Qoʻra” soʻzining izohi soʻralgan. Avval oʻquvchilar oʻz tushunchalarini aytadilar, soʻng oʻqituvchi ushbu soʻzning izohini tushuntiradi.

**Qoʻra** – yogʻoch, shox-shabba, panjara va shu singari narsalardan qilingan toʻsiq, gʻov, devor va shunday devor bilan oʻralgan joy.

#### 6. Jahongir bobosini nima derkan? Siz

#### bobongizni qanday ataysiz?

Oltinchi savolga javob berishda oʻquvchilarga bir maʼnoni ifodalaydigan turli shakldagi soʻzlar haqida maʼlumot berilib, ularning qoʻllanish oʻrinlari haqida tushuncha beriladi.

#### 7. Siz yashaydigan joyda jonivorlarni yana qanday atashadi?

Yettinchi savolda esa shevaga oid soʻzlar hamda ularning qoʻllanishi bilan bogʻliq maʼlumotlar sodda koʻrinishda berilishi kerak.

#### Yozma mashq

Berilgan topshiriqni bajarish jarayonida oʻquvchilarga hayotiy tajribalari va matnda berilgan maʼlumotlarga tayanish kerakligi tushuntiriladi.

Katak	Ogʻil	Hovuzcha	Qoʻra
Tovuq	Sigir, buzoq, ot, eshak	Oʻrdak, gʻozlar	Qoʻy, echkilar

Darslikda berilgan keyingi topshiriqni bajarishdan oldin ushbu soʻzlarning maʼnolarini tahlil qiladi va ularning maʼnolari bir-biriga qarama-qarshi ekanligini aytadilar.

### 4-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

Oʻqituvchi bugungi darsning mazmuni haqida maʼlumot beradi, yaʼni bu darsda oʻquvchilar oʻtgan darsda tanishgan “Kuchukmi yoki itcha?” matni bilan bogʻliq topshiriqlar bajarilishini aytadi.

### Asosiy qism

#### 1. Boʻsh oʻrinlarni matn asosida toʻldiring.

Ushbu mashqni bajarish uchun oʻquvchilar soʻz tanlash jarayonida nimalarga eʼtibor berayotganligi, nima uchun aynan shu soʻzni tanlayotganligini tushuntirish soʻraladi. Qoʻyish uchun berilgan boshqa soʻzlar nima uchun ushbu oʻringa mos kelmasligi albatta izohlanishi kerak.

#### 2. Mosini toping.

Berilgan topshiriqni bajarish uchun esa oʻquvchilar matn asosida olgan bilimlarini sinab koʻradilar. Shu asosida hayvon bolalarining qanday atalishini esda saqlab qolishga harakat qiladilar.



### 3. Jahongirning bobosi nimalarni o'rgatdi?

Ushbu test topshirig'ini bajarishda ham o'quvchilar o'z javoblarini izohlaydilar, "B" javobning to'g'riligi aniqlangach, qolgan javoblar ham izohlab beriladi. Ayrim o'quvchilar "D" javobni to'g'ri deb aytishlari ham mumkin. Ushbu javobning noto'g'riligi matnda hayvonlarning yashash joylari haqidagi ma'lumot Jahongirning bobosi tilidan aytilmaganligi, shunchaki ma'lumot sifatida keltirilganligini aytish bilan tushuntiriladi.

Darslikda berilgan jadvalni uy hayvonlariga atalgan nomlar bilan to'ldirish so'ralgan. O'quvchilar jadvalni to'ldirib bo'lgandan so'ng, o'qituvchi ularning javoblari bilan tanishib chiqadi. O'zgacha tanlangan nomlar uchun izoh talab qiladi. Tanlangan nomlar qaysi xususiyatlarga asosanib shunday nomlanganligi (tashqi ko'rinishi, o'zini tutishi, yashash joyi va h.k.) haqida so'raydi va shu orqali nom tanlashning o'ziga xos sifatleri to'g'risida ham ma'lumot berib o'tadi. Shuningdek, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar bosh harflar bilan yozilishini ham eslatadi.

Keyingi topshiriqda **hayvonlarning rangi, hajmini qiyoslovchi qarama-qarshi ma'noli so'zlarni topish** so'ralgan.

**Namuna: oq ot – qora ot; semiz ot – ozg'in ot.**

Bu topshiriq orqali qarama-qarshi ma'noli so'zlar, ularning ma'nolari haqida qo'shimcha ma'lumot beriladi. Hayvonlarning sifatleri keltiriladi, o'quvchilarning lug'at boyligi oshiriladi.

#### 5-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

O'qituvchi darsni hayvonlarning kundalik hayot tarzi bilan bog'liq savollarni berish bilan boshlashi mumkin.

*Uyingizda qanday uy hayvonlari bor?*

*Ularning harakatlarini kuzatganmisiz?*

*Ona bo'lgan hayvonlar o'z bolalariga qanday munosabatda bo'ladilar?*

*Hayvonlarning bolalari qanday ko'rinishda bo'ladi? Ularni tasvirlab bering.*

#### Asosiy qism

##### 1. She'r nima haqida?

##### 2. Sizga she'rning qaysi qismi hammadan ko'ra ko'proq yoqdi? Nima uchun?

Birinchi va ikkinchi savolda o'quvchilarning she'r haqidagi fikrlari tinglanadi. O'quvchilar o'zlariga yoqqan qismni qayta o'qib berishlari mumkin, uning yoqqan tomonlarini tushuntirishga harakat qiladi.

##### 3. Siz she'rga qanday sarlavha qo'ygan bo'lar edingiz?

Sarlavha tanlash bilan bog'liq qoidalar eslatiladi. Sarlavhalar qisqa bo'lishi, juda uzun bo'lmasligi, hammani o'ziga jalb etishi, berilgan matn mazmuni bilan aloqador bo'lishi kerakligi tushuntiriladi.

##### 4. Ayting-chi, bir piyola choyni ho'plash bilan bulutning oyni ho'plashi o'rtasida qanday bog'liqlik bor?

Oxirgi savolga javob berishda ushbu ikkala vaziyatning o'zaro o'xshash tomonlari haqida gapiriladi. O'qituvchi shoir nima uchun aynan ushbu o'xshatishdan foydalanganligini tushuntirib beradi. Hayotdagi yana shunday o'xshatishlarga misollar keltiradi.

#### Yozma mashq

**Berilgan so'zlarga mos izohni aniqlang.** Topshiriq o'quvchilarning berilgan so'zlarga mos keladigan izohlarni tanlashi bilan bajariladi.

#### 6-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

O'qituvchi o'quvchilar bilan tashkiliy qismni o'tkazib bo'lgandan so'ng o'tgan darsda bergan vazifasini o'quvchilarning yodiga soladi. Ulardan ushbu she'rni ifodali yoddan ay-tishga tayyorlanishni so'raydi.

#### Asosiy qism

Har bir o'quvchi she'rni yoddan ifodali ay-tib beradi. Avval o'z xohishlari bilan yod olishni xohlagan o'quvchilardan, keyin esa qolgan o'quvchilardan so'rash mumkin. She'r yod olish jarayonida o'quvchilarning nutqi kuzatiladi, so'zlarni to'g'ri va ifodali talaffuz qilishla-



riga alohida ahamiyat beriladi. Yo'l qo'yilgan kamchiliklar tuzatib boriladi.

Dars so'ngida o'quvchilar ko'proq qaysi so'zni talaffuz qilishga qiynalgan bo'lsalar, ushbu so'zning talaffuzi bilan bog'liq qo'shimcha mashqlar bajariladi.

## 7-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Ayting-chi, Sobirjon qanday bola? U nima ishlar qildi?*

#### Asosiy qism

##### O'qib tushunish

O'quvchilar darslikda berilgan "Sobirjon fermer" matnidan olingan parchani o'qishlari lozim. Bunda o'quvchilar bir yoki ikki gapdan o'qigan holda matnни o'qib chiqishadi. Bir o'quvchi o'qiyotgan vaqtda qolgan hamma matnни kuzatib turishi kerak.

Matn 2–3 marta o'qib bo'lingach, matn ostidagi savollar asosida suhbat o'tkaziladi.

**1-topshiriq. Dialogdagi suhbatdoshlar kimlar? Ular qaysi mavzuda suhbatlashishdi?**

Ushbu topshiriq og'zaki bajariladi. Har bir o'quvchidan dialog nima haqida ekanini aytib berish so'raladi. O'quvchilar matndan olingan parchani mazmunini anglagan holda aytib berishlari kerak.

Bu topshiriq orqali o'quvchining og'zaki nutqi hamda dialogni o'z nutqida ifodalab berishi tekshiriladi.

**2-topshiriq. "Chamaladi" so'zining matndagi ma'nosi qaysi javoblarda noto'g'ri berilgan?**

Mazkur topshiriq og'zaki tarzda bajariladi. O'quvchi matndagi "Chamaladi" so'zining ma'nosini o'quvchilardan so'raydi. Javob uchun taqdim etilgan variantlarni doskaga yozib qo'yadi. Har bir o'quvchidan savolning javobi so'raladi, ular nima uchun bu javobni tanlaganini izohlab berishi kerak.

O'quvchilar javobni aytib bo'lgach, o'qituvchi har bir so'zning ma'nosini izohlab beradi va testning to'g'ri javobini aytadi.

**Yozma mashq. Daftardagi mashqlarni bajarang.**

**1-topshiriq. Xom, old so'zlarining qarama-qarshi ma'nolarini topib yozing.** Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar darslikda berilgan "Sobirjon fermer" matnidan olingan parcha asosida ushbu topshiriqni bajaradilar. Bunda o'quvchilar xom va old so'zlarining ma'nosini tushunishlari va matndan ularning qarama-qarshi ma'nolarini topib, yozishlari zarur.

O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lgach, har bir o'quvchiga yozgan so'zlari o'qitiriladi. So'ng o'qituvchi to'g'ri javobni aytib, izohlab beradi.

**2-topshiriq. Agar yaxshilab boqsam, ikki oyda tuxumga kirib qolishadi. Ushbu gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nosiga yaqin so'zni topib yozing.**

Bunda o'quvchilar berilgan gap tarkibidan ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nosini tushunib, ushbu so'zga ma'nosi yaqin bo'lgan so'zni topib yozishlari lozim.

O'quvchilar yozib bo'lgach, har bir o'quvchiga yozgan gapi o'qitiriladi. Gap mazmuniga mos, ajratib ko'rsatilgan so'zga ma'nodosh so'zni topib, to'g'ri yozgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

So'ng o'qituvchi ushbu so'zning ma'nosini izohlab beradi va mos keladigan so'zlarni aytadi.

## 8-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

O'qituvchi bugungi dars o'zgacha shaklda olib borilishini aytadi, bo'lim yuzasidan bildirilgan barcha fikrlar yodga solinadi. Ushbu darsda "**Mening kichik fermam**" mavzusida loyiha tayyorlash topshiriqini bajarish kerakligini tushuntiradi.

#### Asosiy qism

**"Mening kichik fermam" mavzusida loyiha tuzing.**

Topshiriqni bajarish jarayoniga kirishishdan oldin ferma haqidagi tasavvurlar og'zaki shaklda ifodalanadi, ushbu mavzu to'g'risida suhbat quriladi.

Darslikda berilgan qadamlar asosida top-



shiriqni bajarish kerakligi tushuntiriladi va nazorat qilinadi. O'qituvchi topshiriqni bajarish jarayonida ayrim o'quvchilarga yordam beradi. Masalan, ular bilan alohida suhbat qurishi, ularni yo'naltirishi mumkin. O'quvchilarning og'zaki nutqida yo'l qo'yilayotgan xatolarni kuzatib boradi, ularni to'g'rilashga yordam beradi.

Loyihani tayyorlab bo'lgan o'quvchilar o'z loyihalarini boshqa o'quvchilarga taqdim qiladilar. Boshqa o'quvchilar ushbu loyihaga munosabat bildiradi. O'qituvchi barcha taqdim etilgan loyihalar ichida boshqalarnikidan ajralib turuvchi loyihalarga alohida to'xtalib, ularning o'ziga xos tomonlari haqida gapiradi, ushbu loyiha egalarini rag'batlantiradi. Loyihalar taqdimoti jarayonida og'zaki nutqqa e'tibor qaratiladi, yuzaga kelgan kamchiliklar ustida ish olib boriladi.

### Tuzgan loyihangizni rasm yoki chizma ko'rinishida ifodalang.

Ushbu topshiriq o'quvchilarga yozma nutq orqali ifodalay olmagan fikrlarini tasvirlash orqali ifodalashiga yordam beradi. O'quvchilar o'z tasavvuridagi ferma loyahasini rasm yoki chizma ko'rinishida ifodalaydi. Uni og'zaki tasvirlab beradi.

9-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

O'qituvchi bugun ushbu bo'lim yuzasidan takrorlash darsi ekanligini o'quvchilarga aytadi. O'tilgan mavzu doirasidagi fikrlar umumlashtiriladi hamda topshiriq beriladi.

### Asosiy qism

#### “Mening kichik fermam” mavzusidagi loyihangiz asosida matn yozing.

O'quvchilarga o'zlari tayyorlagan rasm yoki chizma asosida matn yozish topshirig'i beriladi. Tanlov uchun berilgan rasmlar o'quvchilarning fikrlashlari uchun yordam tariqasida ko'rsatiladi. O'quvchilar o'z fikrlarini yozma shaklda ifodalaydi. O'qituvchi o'quvchilarning yozma ishlariga alohida e'tibor qaratadi. Ularga ayrim so'zlarning yozilishini tushuntiradi, tinish belgilari haqidagi qoidalarni eslatib turadi. Yozilgan ijodiy ishlar o'qituvchi va o'quvchilarga taqdim etiladi. Ushbu ijodiy ishlarga baho beriladi, ularning yutuq va kamchiliklari haqida fikrlar so'raladi.

## VAQTNING QADRI

**6-BO'LIM VAQTNING QADRI**

Rasm-larga qarab gaplar tuzing va yozing. Berilgan so'zlardan foydalaning.

hushyor dangasa tartibsiz beparvo mas'uliyatli tartibli

- Ayting-chi, tartibli odam vaqtdan qanday foydalanadi?
- Kimlarni mas'uliyatli deb ataymiz?
- Tartibsiz, dangasa, beparvo odamlarning vaqti qanday o'tadi?

1. Berilgan so'zlarning izohini yozing.

13

Dars boshida o'quvchilarga quyidagi savollarni berish mumkin:

- Vaqt so'zini avval eshitganmisiz? Kimdan eshitgansiz?
- Qanaqa gaplarda ishlatilgan?
- Siz o'zingiz bu so'zni ishlatganmisiz?
- Qanaqa vaziyatda ishlatgansiz?
- Vaqt so'zini qatnashtirib birorta gap ayta olasizmi?

#### Rasm-larga qarab gaplar tuzing va yozing. Berilgan so'zlardan foydalaning.

Darslikning 13-betidagi rasmlar haqida avval og'zaki suhbatlashiladi. Rasmda kim qanday tasvirlangani, u nima qilayotgani haqida so'raladi.

Keyin pastdagi so'zlar oldin o'qituvchi tomonidan, keyin o'quvchilar tomonidan o'qiladi. U so'zlarning nimani anglatishi haqida suhbatlashiladi. O'qituvchi har bir so'zga bit-tadan gap tuzib aytadi.



Masalan:

Odam har doim hushyor bo'lishi kerak, bu atrofidagi narsalarga e'tiborli bo'lish demakdir.

Dangasa bolalar kattalardan tanbeh eshitadi.

Tartibsiz xona odamning ko'nglini xira qiladi. O'z sog'lig'iga beparvo bo'lish yaxshi emas.

O'quvchi mas'uliyatli bo'lib, darslarni o'z vaqtida bajarishi kerak.

Tartibli insonlar iste'dodlilardan ko'ra ko'proq muvaffaqiyatga erishadi.

So'ng o'quvchilardan gap tuzish so'raladi. Ular oldin tuzgan gaplarini og'zaki aytib berishlari kerak. Har bir o'quvchi bittadan o'zi gap tuzib, daftariga yozadi.

Shundan keyin darslikdagi savollarga o'tiladi.

Ayting-chi, tartibli odam vaqtdan qanday foydalanadi?

Tartibli odamlar ko'p ishga ulguradi. Kuni barakali bo'ladi.

Kimlarni mas'uliyatli deb ataymiz?

O'z vazifasini vaqtida yaxshi bajaradiganlar mas'uliyatlidir.

Tartibsiz, dangasa, beparvo odamlarning vaqti qanday o'tadi?

Tartibsiz, dangasa, beparvo odamlar ishlarini pala-partish qilgani uchun muvaffaqiyatga erishmaydilar.

### **Berilgan so'zlarning izohini yozing.**

Bu mashqda o'quvchilar yuqorida gaplashilganlaridan kelib chiqib so'zlarga izoh yozadilar. Mashq sinf bilan birgalikda xattaxtada bajariladi.

### **Qaysi qo'shimcha mos kelishini toping.**

Bu mashqda darslikning 14-betidagi rasmda qaysi qo'chimcha mosligi topiladi. -li va -siz qo'shimchalarining o'zaro zid munosabatli sifatlar hosil qilishiga e'tibor qaratiladi. Boladan zinhor *sifat, zid munosabatli, so'z yasovchi* terminlari so'ralmaydi. Bola qo'shimcha sabab so'z ma'nosida qanday farq yuzaga kelayotganini tushunsa bo'ldi.

## **2-soat**

**“Men vaqtni boshqaraman” audiomatnini tinglang.**

Audiomatn qo'yib eshittirish imkoni bo'lsa, qo'yib beriladi. Aks holda, o'qituvchi o'zi ifodalani qilib o'qib beradi. Matn kamida uch marta eshittirilishi kerak.

## **MEN VAQTNI BOSHQARAMAN**

Vaqtdan unumli foydalanish uchun, albat, kuningizni rejalashtirib olishingiz shart. Buning uchun alohida yondaftar tuting va unga kun davomida qilishingiz zarur bo'lgan ishlarni, ularning vaqtini yozib chiqing.

Reja tuzganda kunni **uch qismga** ajrating. Bular: tong, tush, kech. Rejangizda eng muhim ishlar birinchi o'rinda tursin. Masalan, maktabga borish, to'garaklarga qatnashish va uy vazifalarini qilish sizning eng muhim ishingizdir.

Maktabdan kelgach **bir-bir yarim soat** dam oling. Kunning ikkinchi yarmida televizor ko'rish, kompyuter o'yinlarini o'ynash, sayr qilish yoki ko'chada o'rtoqlar bilan o'ynash mumkin.

Uy ishlarida kattalar va kichiklarga yordam berishni ham unutmang. Demak, kun rejasi-da bunga ham vaqt ajrating.

Kitob o'qish va dars tayyorlashni uyqudan **ikki soat oldin** bajaring. Shunda olingan bilimning deyarli bari xotiraga mustahkam joylashadi. Uyqudan oldin televizor ko'rsangiz, shu **bilimning yarmi** esdan chiqib ketadi.

**Soat to'qqizda** uxlashga taraddud ko'ring. Chunki tanamiz bo'y o'stiradigan somatotropin nomli moddani soat o'ndan keyin ishlab chiqarishni boshlaydi. Bu vaqtda esa siz uyquda bo'lishingiz zarur.

Buyuk va badavlat inson bo'lishni istasangiz, vaqtingizni bugundan boshlab rejalashtirishga kirishing.

**“Jajji akademik” jurnalidan**

Eshirilgan matn asosida savollarga javob beriladi.

1. Vaqtdan unumli foydalanish uchun nima qilish kerak?

2. Reja tuzganda kunni qanday qismlarga ajratamiz?

3. Dam olish uchun qancha vaqt ajratgan ma'qul?

4. Uyqudan oldin televizor ko'rishning zarari nimada?

5. Nega kechki soat to'qqizda uxlashga ta-





raddud ko'rish kerak?

Savol-javobdan so'ng test savolini o'quvchilar bilan birga o'qib, yechiladi.

**Kunni rejalashtirib olish nima uchun kerak?**

- A) vaqtdan unumli foydalanish uchun
- B) maktabga kechikmaslik uchun
- D) ota-onamizni xafa qilmaslik uchun

**Gaplarni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga mos so'roqni ko'rsatib gaplarni ko'chiring.**

Bu mashqda avval gaplarni va pastda berilgan so'zlarni o'qib chiqish zarur. Qaysi gapga qaysi so'roq so'zni qo'yish ham og'zaki so'raladi. Og'zaki bajarib bo'lingach, gaplar daftarga ko'chirib yoziladi. Har bir gapning to'g'risiga mos so'roq so'z yozib qo'yiladi.

1. Reja tuzganda kunni **uch qism**ga ajratib.
2. Maktabdan kelgach, **bir-bir yarim soat** dam oling.
3. Rejangizda eng muhim ishlar **birinchi o'rinda** tursin.
4. Shu **bilimning yarmi** esdan chiqib ketadi.
5. **Soat to'qqizda** uxlashga taraddud ko'ring.

### 3-soat

Matnni o'qishdan oldin bolalardan uylarida qanaqa soatlar borligi, uying qayerida turishi, uydagilari u soatga aynan nimalarning vaqtini bilish uchun qarashi haqida so'raladi.

### DONISHMAND SOAT

Matn avval o'qituvchi tomonidan ifodali qilib o'qib beriladi. Keyin o'quvchilar o'qiydi. Matn bir necha marta o'qib chiqilgach, berilgan savollarga o'tiladi.

1. Soatning qaysi xislatlari uni "donishmand" deb atashga sabab bo'ladi?
2. Soat nega arazlab, ishlamay qoldi?
- 3 Soatning ishlamay qolishi qanday oqibatlariga olib keladi?
- 4 Tartib-intizom deganda nimani tushunasiz?
- 5 Bo'sh vaqtingizda qanday foydali ishlar bilan shug'ullanasiz?

### 4-soat

Matnning 2-qismini o'qishdan oldin uning birinchi qismi haqida o'quvchilardan so'raladi.

### DONISHMAND SOAT

#### 2-qism

Matn avval o'qituvchi tomonidan ifodali qilib o'qib beriladi. Keyin o'quvchilar o'qiydilar. Matn bir necha marta o'qib chiqilgach, berilgan savollarga o'tiladi.

1. Soat qizga nimalarni nasihat qildi?
2. Bo'sh vaqtingizda kitob o'qiydirmi? Qanday kitoblarni o'qimoqchisiz?
3. Vaqtni behuda o'tkazgan odamlarning holi qanday bo'ladi?

**Ajratib ko'rsatilgan o'rinlarning izohini toping.**

**Millarim pichirlab umr oqar daryodek tez** o'tib ketishini eslatib turadi.

Umrini keraksiz o'yin-kulgiga sarflaganlar **afsus qilib qolganini** ko'rdim.

Bu ajratib ko'rsatilgan so'zlarning izohi avval bolalardan so'raladi. Ular bilmagan holda ham taxmin qilib ko'rishlari muhim. Keyin o'qituvchi tushuntirib beradi.

Soat mili (strelkasi)ning "chiq-chiq" degan tovushini muallif pichirlashga o'xshatganini tushuntirish kerak.

Umrning tez o'tishi oqar daryoga o'xshatilgani tushuntirilishi zarur.

Afsus qilib qolish nima ekanligi bolalar hayotiga mos misollar bilan tushuntirilishi kerak. Ota-onasini biror harakati yoki gap-so'zi bilan xafa qilib qo'ygan bo'lsa, o'shanda afsuslangan bo'lishi mumkin. Shuni misol sifatida olish mumkin.

#### 5-soat

Dars boshida "Donishmand soat" matnining mazmuni o'quvchilardan so'raladi. Bir necha o'quvchi tomonidan gapirib berilganidan so'ng, ertakdan qanday xulosa chiqar-ganlari so'raladi.

Keyin darslikning 18-betidagi savol beriladi.

**Donishmand soatning so'zlari, qizchaga nasihati sizga kimni eslatdi? Nima uchun?**

Bunda kimdir bobosini, kimdir buvisini, kimdir otasi yo onasini eslagan bo'lishi mum-



kin. Aynan soat aytgan gaplarning mazmuni ularning gaplariga o'xshash bo'lgani uchun eslatishi mumkin.

### Daftardagi topshiriqlarni bajaring.



Keyin darslikdagi ta'rif o'qiladi: So'z tarkibi ikkita bir xil undosh yonma-yon kelishi mumkin. Bular qo'sh undoshli so'zlardir. Masalan: ikki, amma, gramm, barakalla.

### O'qigan matningizda qo'sh undoshli so'zlardan qaysilarini uchratdingiz?

o'quvchilar ikki undoshli so'zlarni mustaqil o'zlari topgani maqsadga muvofiq. Masalan: *avvalgidek, shug'ullana olasan, millarim, achchiqlanibdi, chopqillab, chiqillashi.*

### 6-soat

Qambar Otaning "Soat" she'ri o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi. Keyin o'quvchilar o'qiydilar. Hamma o'quvchi o'qib bo'lgach, she'r yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. She'ning muallifi kim? Muallifning yana qaysi she'rlari bilan tanishsiz?
2. Ayting-chi, shoir bu she'ni nima uchun yozgan?
3. Bir kun necha soatdan iborat ekan?
4. She'rdagi qaysi gaplar soatning tilidan aytilgan?
5. Nima uchun she'rda vaqt umrga qiyoslangan?
6. "Kim mehnatni sevsa chindan, vaqt qochmaydi aslo undan" deganda nimani tushundingiz?
7. Soat haqida she'r yozsangiz, uni nimalarga o'xshatib ta'riflagan bo'lar edingiz?

### Soat vaqtlarini ayting va yozing.

O'qituvchi bolalarga soatga qarab vaqtni

aytishni tushuntiradi. Keyin mashq bajariladi.




1. Soat o'n birdan qirq besh minut o'tdi / Soat o'n beshta kam o'n ikki.
2. Soat birdan yigirma besh minut o'tdi.
3. Soat sakkizdan o'n sakkiz minut o'tdi.
4. Soat beshdan o'ttiz besh minut o'tdi. / Soat yigirma beshta kam olti.

### 7-soat

### Maqollarni o'qing. Mazmunini sinfda muhokama qiling.

Maqollar avval o'qituvchi tomonidan, keyin o'quvchilar tomonidan ifodali qilib o'qiladi. Ular nimani anglatishi haqida so'raladi. Har bir bola o'z fikri va tushunchasini aytishi qo'lab-quvvatlanadi.



Vaqt tog'ni yemirar, suv toshni kemirar. Bu maqolda vaqt o'tishi bilan hamma narsadan kuch, mustahkamlik ketishi nazarda tutilgani va bu suvning toshga muntazam urilib turganda uni yemirishiga o'xshatilgani tushuntirilishi kerak.

Uch kun barvaqt turgan bir kun yutar. Bu maqolda barvaqt turgan odamning vaqtida baraka bo'lib, ko'p ishlarga ulgurishi, uch kun barvaqt tursa, qilgan ishlari to'rt kunlik ishga to'g'ri keladigan darajada unumli bo'lishi nazarda tutilgan.

Yoqut bilan vaqt topilmas, vaqt bilan yoqut topilar. Bu maqolda vaqtni birorta qimmatbaho narsaga sotib olib bo'lmasligi, ammo vaqtdan unumli foydalangan holda har qanday qimmatbaho narsani topish mumkinligi nazarda tutilgan.

Vaqting ketdi - naqding ketdi. Bu maqolda vaqtning ketishi qo'ldagi bor naqd narsaning ketishiga qiyoslangani aytiladi.

### Maqollarning sharhini yozing.

O'qituvchi bolalardan nimani tushunganla-



rini og'zaki so'rab, keyin xattaxtaga chiqarib yozdiradi. Mashqni butun sinf birgalikda bajaradi.

Keyingi darsda oq qog'oz, karton, sirkul, qistirgich (skrepka), yelim, rangli qalamlar olib kelish tayinlanadi.

### 8-soat

Bu darsda bolalar soat maketini yasaydilar.

Avval darslikda berilgan matnlar o'qilib, bolalar bilan muhokama qilinadi. "Kerak bo'ladi" qismida aytilgan hamma narsa bor-yo'qligi tekshiriladi.

Keyin yasash jarayonini birma-bir o'qib, o'quvchilardan nimani tushungani so'raladi.

Aytilgan tartibda soat maketi yasaladi.

#### Kerak bo'ladi

- ✓ Oq qog'oz
- ✓ Karton qog'oz
- ✓ Sirkul
- ✓ Qistirgich
- ✓ Yelim
- ✓ Rangli qalamlar



#### Yasash jarayoni

1. Kartonga oq qog'ozni yopishtiring.
2. Sirkul bilan doira shaklini chizing.
3. Soat vaqtlarini yozib chiqing.
4. Kartondan soat ko'rsatkichlarini qirqib oling.
5. Ko'rsatkichlarni qistirgich bilan soatga aylanadigan qilib qotiring.

### Partadoshingiz bilan soatdagi vaqtni to'g'ri topish bo'yicha bellashing.

Avval topshiriq sharti bolalarga o'qitiladi va tushunganligiga ishonch hosil qilinadi.

Har bir bola galma-gal bir-biriga soat millarini aylantirib, vaqtni aytish uchun topshiriq berishi va sherigi ko'rsatgan vaqtini aytishi tushuntiriladi.

### 9-soat

### Namuna asosida kun davomida qiladigan ishlaringiz aks etgan hikoya yozing. Unda soat vaqtlarini ko'rsating.

Ertalab soat 7:00 da uyg'onib, tishimni yuvaman.

Bu topshiriqni bajarish uchun bolalarga kun davomida nima ish qilishlarini avval og'zaki gapirtirish kerak. Keyin bevosita yozishga o'tish mumkin.

## ROBOT IXTIRO QILAMAN

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning robot va uning vazifalari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. Matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish. Matnni ravon va ifodali o'qish, o'qish davomida muhim o'rinlarni belgilab ketish, matn tarkibidagi so'zlarga so'roq berish orqali narsa nomlarini bildiruvchi so'zlarni aniqlash, narsa nomlariga mos keluvchi so'zlar qarama-qarshi belgisi: rangi, hajmiga ko'ra


qiyoslanishini o'rgatish. Lug'at boyligini oshirish. Yozma matn yaratish ko'nikmasini shakllantirish.



7-BO'LIM

ROBOT IXTIRO QILAMAN

Rasmga qarang. Robotlar qanday vazifa bajarayotgani haqida so'zlang.



- 1 Siz yaqin kelajakda hammaning uyida robotlar bo'lishiga ishonasizmi?
- 2 Odamning robotdan eng katta farqi nimada deb o'ylaysiz?
- 3 Odamlardagi qaysi xislatlarni robotlarga o'rgatib bo'lmaydi deb hisoblaysiz?
- 4 Robotlar haqida multfilm yoki kino ko'rganmisiz? Ularning mazmunini qisqacha gapirib bering.

1. Multfilm yoki kinoda ko'rgan robotlaringiz qanday ishlar qila olishini yozing.

**Namuna** qutqaradi, ...

22

1-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, robot nima?*

### Asosiy qism

**1-topshiriq. Rasmlarga qarang. Robotlar qanday vazifa bajarayotgani haqida so'zlang.**

Darslikda turli vazifalarni bajarayotgan robotlarning rasmi berilgan. O'quvchining diqqatini rasmlarga qaratgan holda rasmlarning har biriga alohida to'xtalish lozim.

Agar biror rasmda berilgan tasvirni o'quvchi yetarlicha ochib berolmasa, o'qituvchi uni ochishga xizmat qiladigan qo'shimcha savollar bilan murojaat qiladi. Masalan, "Rasm-da nimani ko'ryapsiz? Undagi detallarni sanang?" deb so'rashi mumkin.

O'quvchilar javobini tinglagach, har bir rasmni ko'rsatgan holda, robotlar qanday vazifa bajarayotganini aytib berishi lozim.

Shundan so'ng o'quvchilar bilan 22-sahifadagi savollar asosida suhbat o'tkaziladi.

Berilgan savollarga o'quvchidan mustaqil fikrlab javob berish talab qilinadi. O'quvchilar har bir savolga o'z kuzatishlari asosida tafakkur qilib javob berishi lozim. Javoblar turli xil

bo'lishi mumkin. Asosiy e'tibor o'quvchining fikrni ifodalab berishi, munosabat bildirishiga qaratiladi.

**Eslatma:** har bir savolni 5–6 o'quvchiga bering. Savol va javob takror bo'lib qolishi ahamiyatsiz, bunda o'quvchilarni darsga jalb etish hamda har birining nutqini nazorat qilish va o'stirish muhimligi nazarda tutiladi.

### Yozma mashq

**2-topshiriq. Multfilm yoki kinoda ko'rgan robotlaringiz qanday harakatlar bajarishini yozing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Avval o'quvchilardan robotlar haqida qanday multfilm ko'rganliklari so'raladi. So'ng ular multfilmda kuzatgan robotlarning harakatlarini namuna asosida yozishlari lozim.

Bunda o'quvchining ko'rgan narsasini tasavvur qilishi, uni bir so'z bilan ifodalab berishi hamda lug'at boyligi tekshiriladi.

O'quvchilar yozib bo'lgach, har bir o'quvchiga yozgan so'zlari o'qitiladi hamda imlosi tekshiriladi.

2-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

### Asosiy qism

**1-topshiriq. "Kelajak robotlarnikimi?" audiomatnini tinglang.**

**Eslatma:** o'qituvchi taqdim qilingan audiomatnlarni ovoz kuchaytirgich orqali qo'yib eshittirishi lozim. Lekin turli xil texnik sabablar bilan buning imkoni bo'lmaganda o'qituvchining o'zi adabiy til normalariga amal qilgan holda, ravn va yetarlicha baland ovozda matnlarni o'qib berishi mumkin.

### Audiomatn

#### Kelajak robotlarnikimi?

Biz olamshumul kashfiyotlar asrida yasha-



yapmiz. Haydovchisiz o'ziyurar avtomobillar, og'zaki buyruq bilan yonib-o'chuvchi texnikalar hayotimizga kirib keldi. Masalan, televizorga "Ovozingni balandlat!" desangiz, tovushi baralla yangrab ketadi. Xona sovitkichiga esa "22 darajali haroratda ishla!" desangiz bas, kerakli haroratda sovitishni boshlaydi. Stol va yumshoq mebel ostida "emaklab" gilamni tozalaydigan robot changyutkichga nima deysiz?! Xullas, turmushimizda aqlli qurilmalar kundan kunga ko'payib bormoqda. Bu qurilmalar ichida eng mashhuri, shubhasiz, robotlardir.

Yaponiyadagi ayrim zamonaviy mehmonxonalarda umuman odamlar ishlamas ekan. Barcha xizmatlar robotlarga ishonib topshirilgan emish. Robotlar mehmonlarni kutib oladi, jomadonini ko'tarib xonasiga kuzatib qo'yadi. Kerak bo'lsa, kiyimlarini ham dazmollab beradi.

Bugungi kunda robotlar zavod va fabrikalarda, qishloq xo'jaligida, odamlarning uylarida, suv ostida, hatto fazoda ham turli yumushlarni bajarib kelmoqda. Robot, asosan, odamlar uchun qiyin va xavfli bo'lgan ishlarni bajaradi.

Olimlar kelajakda robotlar hammaning uyida xizmat qiladi deb ishonishadi. Biroq bunga ko'pchilik odamlar qarshi. Robotlarning odamlar orasiga kirib kelishi xavfli, deydigani ham oz emas. Xo'sh, siz bunga qanday qaraysiz?

O'quvchilar "Kelajak robotlarnikimi?" audiomatni tinglab, darslikda berilgan rasmni kuzatib borishlari lozim.

Audiomatn eshittirilgach, 23-sahifadagi savollar asosida suhbat quriladi.

Bu savollar orqali o'quvchilarning eshitib tushunish ko'nikmasi tekshiriladi. O'quvchilar savolni o'qib, eshitgan audiomatnlarini muhohaza qilib javob berishi hamda hayotdagi kuzatishlari asosida tafakkur qilib aytib bera olishi lozim.

### Yozma mashq

**Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.**

**1-topshiriq. Uyingizda qanday "aqlli qurilmalar" bor? Yozing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar matn tarkibida kelgan "aqlli

li qurilma" so'zi nimaga ishora qilayotganini aniqlashi hamda kuzatishlari asosida o'zi bilgan aqlli qurilmalarning nomini yozishi lozim. Bu televizor, kompyuter, telefon bo'lishi mumkin. Bunda o'quvchilarning lug'at boyligi hamda so'zlarning ma'nosini tushunishi tekshiriladi. **2-topshiriq. Matndan olingan ushbu fikrni to'ldiring.**

Topshiriqda matn tarkibidan olingan ikkita jumla berilgan. O'quvchi matnda shu jumla orqali yozuvchi nimaga ishora qilganini topishi hamda fikrlarni to'ldirib, so'zlarni kerakli o'ringa yozishi lozim.

**3-topshiriq. Quyidagi jadvalni to'ldiring.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Matndan olingan ikkita fikr ikki ustunda berilgan. O'quvchilar tafakkur qilgan holda, fikrlarni davom ettirib, o'z tushunchalari bilan ifodalab berishlari lozim.

O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lgach, yozganlari o'qitiladi hamda imlosi, gapni mantiqan to'g'ri shakllantirishi tekshiriladi.

3-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, robotlar qanday ishlarni qiladi?*

### Asosiy qism

#### O'qib tushunish

O'quvchilar darslikda berilgan "Ixtirochilar tanlovi" matnini o'qishlari lozim. Bunda o'quvchilar bir yoki ikki gapdan o'qigan holda matnni o'qib chiqishadi. Bir o'quvchi o'qiyotgan vaqtda qolgan hamma matnni kuzatib turishi talab qilinadi.

*"Kuzatib turing, men istagan o'quvchidan davom ettirishni so'rayman"* deb ogohlantirish samara beradi.

Matn 2–3 marta qayta o'qib bo'lingach, matn ostidagi savollar asosida suhbat boshlanadi.

**1. Ibrohim sahnada o'zini qanday tutdi? Uni tasvirlab bering.**

O'quvchilardan kutiladigan javob turlicha bo'lishi mumkin. O'quvchilar matndan ushbu o'rinni topadilar hamda Ibrohimning holatini



tasvirlab beradilar. Bu yerda asosiy e'tibor o'quvchining "ko'krak kerib", "g'oz turib" birliklarining ma'nosini tushunib, tasvirlab berishlariga qaratiladi. O'quvchi yetarlicha javob berolmasa, o'qituvchi tomonidan ushbu birliklar ma'nosi izohlab beriladi.

### 2. Ibrohim nima maqsadda robot yasagan edi?

Bu savolning javobi matnda aks etgan. O'quvchi matndan shu joyini topib, aytib berishi hamda qo'shimcha fikr bildirishi lozim.

### 3. Bog'bonrobot qanday ishlarni bajara oladi? Birma-bir sanang.

Bu savolning javobi ham matnda aks etgan. O'quvchi ushbu o'rinni topib, bog'bonrobotning vazifalarini ketma-ketlikda aytib berishi lozim.

### 4. Ibrohimning o'rnida bo'lganingizda, siz qanday robot yasagan bo'lar edingiz?

Bu savolning javobi matnda aks etmagan. O'quvchilar tafakkur qilgan holda o'z g'oyalari aytib berishlari lozim.

O'quvchilar savollarga javob berib bo'lgach, ularning javoblariga munosabat bildiriladi.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar matn tarkibidan robotning qiladigan vazifalarini aniqlab, ketma-ketlikda yozib berishlari lozim. Javoblar matnda aks etgan.

### 3-topshiriq. Matn tarkibidan quyidagi tushunchalar nimalarga o'xshatilganini aniqlang.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar berilgan so'zlar izohini yozishi lozim. Bunda matn tarkibida kelgan o'rinni topib, mazmunidan kelib chiqib yozishi maqsadga muvofiq.

#### Javoblar:

1. G'ozning turishiga o'xshatgan.
2. Robotning nomi bog'bonchilik vazifasini bajaradi.
3. Robotning qo'llari belkurak vazifasini ham bajaradi.

### 4-topshiriq. Ushbu gaplarda berilgan xatolarni aniqlang va to'g'rilab ko'chiring.

Mashq daftarida matn tarkibidan olingan gaplar keltirilgan. Ushbu so'zlarning ayrimlarida imlo xatoga yo'l qo'yilgan. O'quvchilar imlo xatolarni topib, to'g'ri variantini yozishi lozim.

### 5-topshiriq. Berilgan jadvallar yordamida matn mazmuniga mos keladigan gaplar hosil qiling.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Uchta jadval berilgan bo'lib, uch xil mazmunni ifodalovchi gaplar qolipi keltirilgan. O'quvchilar jadval bilan tanishib chiqadi. So'ng matn tarkibidan ushbu savollarga javob bo'luvchi gaplarni matn mazmunidan kelib chiqib yozadi.

Bunda asosiy e'tibor o'quvchining matn mazmunini tushunishi, matn tarkibidagi so'zlarga to'g'ri so'roq bera olishi hamda jadvalni to'ldirib, gaplar hosil qilishiga qaratiladi.

#### Javob:

1. Ibrohim robot ixtiro qildi.
2. Naychadan dori purkashda foydalanadi.
3. Tanlovda Ibrohimning roboti g'olib bo'ldi!

### 6-topshiriq. Bog'bonrobotga berilgan ta'riflar asosida uning rasmini chizing, chizgan rasmingizni do'stlaringizniki bilan solishtiring.

O'quvchilar matndan olgan tushunchalari asosida bog'bonrobotning rasmini chizishlari

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Robotni ixtiro qilish jarayonida unga biror vazifani yuklash uchun nima qilish kerak?*

**Javob:** Maxsus dastur o'rnatish kerak.

### Asosiy qism

#### Matn asosida topshiriqlarni bajaring.

##### 1-topshiriq. Jadvalni to'ldiring.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda o'quvchilar "Ixtirochilar tanlovi" matni asosida berilgan jadvalni to'ldirishi lozim. Bu jarayonda o'quvchilar matn mazmunidan xulosa chiqarib, uni jadvalga solish ko'nikmasini o'rganadi.

#### Javob:

*Hikoya qahramoni: Ibrohim.*

*Robotning nomi: bog'bonrobot*

*Robot ishlaydigan soha: bog'bonchilik.*

##### 2-topshiriq. Ixtiro qilingan robotning vazifalari nimalardan iborat edi?



lozim. Bunda o'quvchilarning matnini tushu-  
nishi, uni tasavvur qilishi kuzatiladi.

O'quvchilar bajarib bo'lgach, har bir top-  
shiriqning javobi tekshiriladi hamda munosa-  
bat bildiriladi.

## 5-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Ayting-chi, robotlar hamma ishlarni qila  
oladimi?*

#### Asosiy qism

##### She'rni o'qish.

Darslikda berilgan "Qaltis savol" she'ri  
hamda muallifi tanishtiriladi. O'quvchilarga  
she'rni mustaqil ovoz chiqarmay o'qishlari  
aytiladi.

She'rni o'qib bo'lishgach, o'qituvchi bir  
marta baland ovozda o'qib eshittiradi.

So'ng quyidagi savollar bilan she'r matni  
ustida suhbat qilinadi:

1. She'rning qahramoni kim?
2. U nimalarni xayol qildi? Tartib bilan sa-  
nab bering.
3. Qahramonimiz qaysi fanlarini robot ba-  
jarib berishini o'ylab ko'rdi?
4. "Ikkalamiz ko'rsak baham" deganda  
qahramonimiz nimani nazarda tutgan?
5. Qahramonimiz o'ziga nima deb savol  
berdi?
6. Ayting-chi, sizning hamma ishingizni ro-  
bot bajarsa, siz o'zingiz nima qilasiz?

Ushbu savollarga o'quvchilar tafakkur qi-  
lib javob berishlari lozim. Ya'ni she'r matni  
mazmunidan olgan xulosalari hamda hayotiy  
kuzatishlari asosida javob berishlari nazarda  
tutilgan.

## 6-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Ayting-chi, robotlarning bizga qanday foy-  
dasi tegishi mumkin?*

#### Asosiy qism

#### Yozma mashq

**Rasmga qarab og'zaki hikoya aytib be-  
ring. Hikoyangiz boshqalarnikiga o'xshab  
qolmasin.**

Darslikda robot yasash jarayoni bilan  
bog'liq rasmlar berilgan hamda har bir rasm  
ketma-ketlikda raqamlangan. Dastlab o'quv-  
chilar bilan rasm haqida qisqa suhbat uyush-  
tiriladi. Unda nima tasvirlanganini aniqlashti-  
ruvchi savollar beriladi.

Topshiriq og'zaki tarzda bajariladi. O'quv-  
chilarga jimlikni saqlagan holda o'ylab olish-  
lari uchun quyidagi savollar beriladi:

1. Ixtirochi bolaning ismi nima?
2. U nima uchun robot yasashni istadi?
3. Robotni nimalardan yasadi?
4. Robotga qanday nom qo'ydi?
5. Uning roboti odamlarga qanday foyda  
keltirdi?

O'quvchilar o'ylab bo'lgach, ketma-ketlik-  
da og'zaki hikoya qilib berishlari aytiladi. Gu-  
ruhning har bir o'quvchisidan og'zaki tarzda  
so'raladi. Fikrini aniq ifodalab bergan o'quv-  
chi rag'batlantiriladi.

## 7-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Ayting-chi, qanday robot yasashni xohlay-  
siz? Nima uchun?*

#### Asosiy qism

#### Yozma mashq

**"Robot ixtiro qilaman" mavzusida hiko-  
ya yozing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajarila-  
di. O'quvchilar o'zlari ixtiro qilmoqchi bo'lgan  
robot haqida yozishlari lozim. Avval o'qituvchi  
tomonidan og'zaki tarzda 4–5 bolaning fikri  
tinglanadi. So'ng o'quvchilarga matn maz-  
munida nimalarni aks ettirishi to'g'risida savol  
beriladi:

- Qanday robot yasamoqchisiz?
  - Uni nimadan yasaysiz?
  - U qanday vazifalarni bajara oladi?
  - Unga qanday nom qo'ymoqchisiz?
- O'quvchilarga ovoz chiqarmay ushbu sa-  
vollarining javobini o'ylashlari aytiladi. Ular



yoziqshga tayyor bo'lganlaridan so'ng, xattax-  
taga hikoya sarlavhasi yoziladi.

O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lgach,  
bir necha o'quvchiga yozgani o'qittiriladi, xato

va kamchiliklari to'g'rilanadi.

## G'AROYIB IXTIROLAR

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchi-  
larning ixtirolar, kashfiyotchilik haqidagi  
tasavvurlarini kengaytirish, matndagi kalit  
so'zlarni aniqlash, tinglangan hamda o'qil-  
gan matndagi ochiq va yopiq ifodalangan  
ma'lumotlarni tushunish, ko'p bosqichli  
topshiriq shartini o'qib tushunish, *chunki*  
bog'lovchisini qo'llash, *bo'lishi mumkin*,  
*bo'lsa kerak* birikmalarini qo'llash, o'zlash-  
ma so'zlarni talaffuz qilish ko'nikmalari-  
ni rivojlantirish. Ixtirolarga tanqidiy baho  
bera olish ko'nikmasini shakllantirish.

1-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'quvchilar bo'lim  
hamda yangi mavzu nomi bilan tanishtirila-  
di. Mavzuga kirishib olish uchun o'quvchilar  
bilan og'zaki suhbat, muhokama o'tkaziladi.  
Muhokamada quyidagi savollar o'quvchilarga  
navbati bilan beriladi:

- Qanday muhim ixtirolarni bilasiz?
- Biror narsani ixtiro qilishga odamlarni nima majbur qiladi?
- Ruchkaning ixtiro qilinishi hayotimizga qanday ta'sir o'tkazgan, deb o'ylaysiz?

Savollarni bir necha kishidan so'rash talab etiladi.

#### Asosiy qism

O'qituvchi o'quvchilarga *ixtiro* so'zining ma'nosini tushuntirishdan boshlaydi.

7-BO'LIM

G'AROYIB IXTIROLAR

- 1 Qanday muhim ixtirolarni bilasiz?
- 2 Biror narsani ixtiro qilishga odamlarni nima majbur qiladi?
- 3 Ruchkaning ixtiro qilinishi hayotimizga qanday ta'sir o'tkazgan deb o'ylaysiz?

**Ixtiro** – foyda keltiradigan yangilik, kashfiyot. Odamlar biror nimani o'ylab topib, yangi narsa yasasa, o'sha narsani ixtiro qilgan bo'ladi.

1. Atrofingizga qarang, nimalarni ko'ryapsiz? Siz ko'rib turgan barcha buyumlar qachondir ixtiro qilingan. Ko'rayotgan narsalaringiz nomini ayting. Ularni nima maqsadda ixtiro qilishgan deb o'ylaysiz? Namunaga o'xshatib yozing.

**Namuna** *ruchka* – oson, tez yozish uchun.



#### Yozma mashq

**1-topshiriq.** Atrofingizdagi narsalar nima maqsadda ixtiro qilingan deb o'ylaysiz?

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi.

Darslikning 28-betida xonada bo'lishi mumkin bo'lgan narsalarning rasmi keltirilgan. O'quvchilar ushbu narsalar nima maqsadda ixtiro qilinganini namunadagi kabi yozib berishlari kerak bo'ladi. Bunda o'quvchining javobi ilmiy asos talab qilmaydi. O'quvchi o'z fikrini bildiradi, xolos.

O'quvchilar darslikda tasvirlanmagan narsalarni ham qo'shib yozmoqchi bo'lsa bunga ruxsat beriladi.

Topshiriq bajarilgach, o'quvchilar o'z taxminlarini o'qib beradilar.





## 2-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Biror narsaning ixtiro qilinish tarixini bilasizmi?*

#### Asosiy qism

##### Muhokama

O'quvchilar bilan quyidagi savollar muhokama qilinadi.

*Sizda biror nimani ixtiro qilish fikri paydo bo'lganmi?*

*Ko'rib turgan narsalarimiz qanday yaratilgani haqida qayerdan bilish mumkin deb o'ylaysiz?*

Oxirgi savolning javobi bo'lishi mumkin: *televizordagi ko'rsatuvlar, ixtirolar haqidagi kitoblar, ensiklopediyalar, internet.*

##### O'qib tushunish

O'qituvchi darslikning 29–30-betlaridagi “Kutilmagan ixtiro” matnini ifodali, ravon, o'zbek adabiy tili normalariga amal qilgan holda, kerakli ohang va yetarlicha baland ovozda o'qib beradi. Undan so'ng o'quvchilar ichlarida o'qib olishlari uchun vaqt beriladi (6 minut). Matnni navbat bilan ovoz chiqarib ham o'qiydilar.

##### Savol-javob

Matn yetarlicha miqdorda o'qib bo'lingach savol-javob qismiga o'tiladi.

**Nima uchun “Frenk yaxni tasodifan ixtiro qildi” deyilmoqda?**

O'qituvchi *tasodifan* so'zining ma'nosi qanday ekanini so'raydi. Undan so'ng eng to'g'ri javobni aytib, tushuntiradi hamda Frenk qilgan ixtiro nima uchun tasodifan qilingan deb hisoblanishini so'raydi.

**Frenk ixtiro qilgan yaxning tarkibi qanday?**

O'quvchilar navbat bilan o'z bilganlaricha aytadilar. So'ngida o'qituvchi eng to'g'ri javobni matnga tayangan holda e'lon qiladi.

**Frenkning qaysi harakati yaxni mashhur qilib yubordi?**

O'quvchilar matn asosida javob beradilar. Oxirida o'qituvchi eng to'g'ri javobni matnga

tayangan holda e'lon qiladi.

## 3-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Atrofimizdagi qaysi ixtiro nima sababdan qilingan deb o'ylaysiz?*

#### Asosiy qism

**Leksikologiya. Rasmdagi narsalarning nomini ayting.**

O'quvchilar darslikning 30-betida berilgan narsalar nomini navbat bilan aytadilar. Xor shaklida aytish ham mumkin.

**DIQQAT!** “Ventilyator” emas, “yelparrak” deb o'rgatilsin. “Ventilyator” bu rus tilidagi so'z ekani, uning o'zbekchasi “yelparrak” bo'lishi tushuntirilsin.

##### Yozma mashq

**2-topshiriq. Rasmdagi narsalarning nomini yozing.**

Ushbu topshiriq mashq daftariga bajariladi. Darslikning 30-betida berilgan rasmda nimalar tasvirlanganini yozish kifoya.

##### Muhokama

O'qituvchi o'rta qaydagi savolni tashlaydi: rasmdagi narsalar nimasi bilan o'xshash? Ularning qaysi xususiyatlari biri-biriga o'xshaydi? O'quvchilar bilan shu masalada muhokama tashkil qilinadi.

##### Yozma mashq

**3-topshiriq. O'xshash narsalarning nomini yonma-yon yozing.**

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar muhokamadan chiqargan xulosalari asosida bir-biriga o'xshash jihatga ega narsalarning nomini yonma-yon yozishi kerak bo'ladi.

##### Guruh bo'lib ishlash

O'quvchilar 4 guruhga ajratiladi, har bir guruh quyidagi savollarga javob tayyorlaydi:

1. Bu narsalar nimasi bilan o'xshash?
2. Bu narsalardan qaysi biri birinchi ixtiro qilingan?



3. Ulardan nima maqsadda foydalanamiz?  
4. Qaysi biri ko'proq foydali?

Har bir guruh o'z javobini o'qib, asoslab beradi.

4-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Odamlar nima uchun ixtiro qilishadi?*

### Asosiy qism

#### Yozma mashq

**4-topshiriq. Namunadagi kabi gaplar tuzing.**

O'quvchilar darslikning 31-betida berilgan namuna gaplar shaklida o'zlarining gaplarini tuzishlari kerak bo'ladi. Bunda o'quvchilarga o'tgan darslardagi ma'lumotlardan foydalanish mumkinligi aytiladi.

Ushbu topshiriq o'quvchida tanqidiy baholash ko'nikmasini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan.

#### Muhokama

Darslikning 32-betida berilgan namuna asosida fikr yuritish lozim. Bunda darslikning 30-betidagi rasmlardan foydalanish mumkin.

5-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ixtirolar ba'zan befoyda, ba'zan foydali bo'ladi, shu to'g'rimi? Biror keraksiz ixtiro haqida eshitganmisiz?*

### Asosiy qism

**Audiomatn. G'aroyib ixtirolar haqidagi ma'lumotni tinglang.**

O'qituvchi o'quvchilardan diqqat qilishini so'rab, mavzuning audiomatnini qo'yib eshittiradi.

**Eslatma:** o'qituvchi taqdim qilingan audiolarni ovoz kuchaytirgich orqali qo'yib eshittirishi lozim. Lekin turli xil texnik sabablar bilan buning imkoni bo'lmaganda

*o'qituvchining o'zi adabiy til normalariga amal qilgan holda, ravon va yetarlicha baland ovozda matnlarni o'qib berishi ham mumkin.*

#### Audiomatn

Salom, mening ismim Ketrin. Men o'shanda 10 yosh edim. O'rtoqlarim bilan o'ynashni yoqtirardim, lekin qish kunlari o'ynash menga azob berar edi. Bilaklarim sovuq yeb qattiq og'rirdi. Shunda nima qilsam bilaklarim issiq turishi va maza qilib o'ynashim mumkinligi haqida o'ylay boshladim. Qo'lqopim ostidan bilaklarimni ham yopib turadigan mato o'rab olsam-chi, deb o'ylab qoldim. Oyim bilan maslahatlashdim. Keyin birgalikda bilakka kiyib olinadigan, qo'lqop ostidan kiyish mumkin bo'lgan bilakqop yaratdik. Bu voqeaga 28 yil bo'ldi. Bu narsa hozir ham butun dunyoda sotilayotganidan xursandman.

Salom, men Daniyelman. San'at va qurilish bo'yicha diplom olganimdan keyin odamlarga foyda keltiradigan biror ish bilan shug'ullangim keldi. O'ylab qoldim, odam uchun o'z uyi bo'lishi baxt. Hindistonda yashovchi odamlarning ko'pchiligida esa uy yo'q. Ular daraxt shoxlari va qoplardan uy yasab, o'sha yerda yashashadi. Ularning ham o'z uyi bo'lishini istadim va "WorldHaus" kompaniyasiga asos soldim. Biz Hindiston kabi kambag'allar ko'p yashaydigan davlatlarda kichkina bo'lsa ham barcha qulayliklarga ega uylar qurishni reja qildik. Uylarni elektr bilan ta'minlash uchun quyosh kuchidan foydalandik. Uylarni qurish qimmatga tushmas edi. Lekin men shunda ham tinchimadim, yirik kompaniyalardan xayriya pullarini yig'dim. Hamma pulni uy va maktab qurishga sarfladik. Hozirgacha 150000 dan ortiq odam bizning yordamimiz bilan o'z uyiga ega bo'ldi.

**O'quvchilarga yanada tushunarli bo'lishi uchun matnni ikki marta eshittirgan ma'qul.**

#### Savol-javob

Matn ikki marta tinglangach, darslikdagi savollar o'quvchilardan navbati bilan so'raladi. Bir savolni bir necha o'quvchidan so'rash maqsadga muvofiq.

Har bir savolga javob berilgach, audioning o'sha joyini o'qib berish tavsiya etiladi.



### Yozma mashq

#### 5-topshiriq. Savollarga javob yozing.

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar quyidagi savollarga javoblarini yozib berishlari kerak bo'ladi:

1. *Bilakqopning qo'loqopdan qanday farqi bor?*

2. *Daniyel quradigan uylarning boshqa uylardan nima farqi bor?*

### Muhokama

O'quvchilar bilan Ketrin hamda Daniyelning ixtirolaridan qaysi biri foydali ekanini aniqlash maqsadida muhokama o'tkaziladi. O'qituvchi xattaxtaga ikkita ustun chizadi va biriga Ketrin, biriga Daniyel deb yozadi. O'quvchilarga "Kelinglar, ixtirolarning qaysi biri ko'proq foydali ekanini aniqlaymiz, hozir aytaman sizlar baho qo'yib berasiz. Ketrinning ixtirosi ko'pchilik uchun foydali edimi? 5 balldan nechchi ball beramiz? Qancha ko'p odamga foydali bo'lsa, ball shuncha yuqori bo'lishi kerak" deydi. Keyin o'quvchilardan javob olgach, umumlashtirib Ketrin tomonga kerakli ballni qo'yadi. Daniyelning ixtirosi bilan ham xuddi shu amal bajariladi.

Birinchi talab tugagach, 2- va 3-talablar ham xuddi shu tartibda bajariladi.

### 6-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Siz O'zbekiston uchun nima ixtiro qilar edingiz? Nima uchun?*

### Asosiy qism

### Loyiha

O'quvchilar bilan darslikning 33-betidagi "Yurtim uchun g'oya" loyihaviy o'yini o'tkaziladi.

Ushbu topshiriqda o'quvchilar atrofidagi maummolarga baho beradilar, yechim izlaydilar va o'z yechimlarini ommaga taqdim qiladilar. Dars to'liq muhokama va taqdimot shaklida tashkil etiladi.

O'quvchilar bir-birlarining taqdimotlariga nisbatan munosabat bildirishlari mumkin. Bunda munosabat yaxshi va yomon kabi bir so'z bilan emas, yaxshi bo'lsa, nimasi bilan yaxshi ekanini ham aytish orqali amalga oshirilishi kerak.

### 7-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Xalq ta'limi vaziri nima ish qiladi? Uni ta-niysizmi?*

### Asosiy qism

### Yozma mashq

#### Xalq ta'limi vaziriga xat yozing

Darslikning 33-betida berilgan ko'rsatma asosida o'quvchilar Xalq ta'limi vaziriga xat yozadilar.

Xatni yozib bo'lishgach o'qituvchi hammasini yig'ib oladi hamda o'quvchilar oldida xatjildga joylaydi. Xatjild ustiga ma'lumotlarni yozib, uni Xalq ta'limi vaziriga yuborish uchun tayyorlab qo'yadi.

Ishdan bo'sh vaqtda ushbu xatni sinf o'quvchilari nomidan Xalq ta'limi vaziriga yuboradi.

## QUYOSH – QUVVAT MANBAI

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning fan va texnologiyalar olamiga oid tasavvurlarini kengaytirish, osmon jismlariga oid bo'lgan so'z, so'z birikmalari, ularning qo'llanishiga oid bilim berish, ularni

ta'riflashda faol ishlatiladigan so'zlarni qo'llashga o'rgatish. Talaffuzi, imlosi, bilan mashq va topshiriqlar yordamida og'zaki, yozma, o'qib, tinglab tushunish bilan bog'liq nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish.



**7-BO'LIM QUYOSH – QUVVAT MANBAI**

**Suhbatni o'qing. Rasmlarga diqqat bilan qarang.**

– Hoy Robotjon, quyoshda sarg'ayib nima qilib turibsan?  
– Men shunchaki turganim yo'q. Quyoshdan quvvat olyapman.  
– Bo'lishi mumkin emas, qanday qilib?  
– Bosh qismimga nurni qabul qilib oluvchi uskuna o'rnatilgan. Bu uskuna quyosh nurini elektr energiyasiga aylantirib beradi.

– Qoyil! Demak, quyosh nuridan ham elektr toki olsa bo'lar ekan-da?  
– Albatta. Mana bu rasmga qarab bariga tushunib olasan.  
– Ha, endi tushundim.  
– Aytgancha, quyosh tig'ida ko'p yuraverma. Bu odamlar uchun zararli.

*"Gulxan" jurnalidan*

35

### 1-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

1. Quyoshning tabiatdagi vazifasi nimalardan iborat?
2. Agar quyosh bo'lmasa nima bo'ladi?
3. Quyosh quvvat manbai bo'lishi mumkinmi?
4. Quyoshdan foydalanib energiya olish haqida eshitganmisiz?

### Asosiy qism

O'qituvchi o'quvchilardan darslikda berilgan rasmlarga diqqat qilishni, ularda nimalar tasvirlanganini so'raydi. Rasmlar izohlanib bo'lgach, suhbat matni ifodali o'qiladi. Matn bir necha o'quvchi tomonidan ifodali o'qib bo'lingach, o'qituvchi matnni qayta o'qiydi. Suhbat asosida savollar beriladi.

O'quvchilar savollarga javob berish jarayonida suhbat matniga e'tibor qaratadi. Shuningdek, ushbu savollarga javob berish jarayonida rasmlarga ham murojaat qilish mumkin. Ularni diqqat bilan kuzatish, nimalar tasvirlanganligini tushuntirish lozim bo'ladi.

1. Suhbatdoshlar kimlar?
2. Suhbat nima haqida bo'ldi?
3. Botirning shapkasidagi uskuna nima vazifani bajaradi?

O'quvchilar javoblarni to'liqroq shaklda ifodalashiga alohida ahamiyat berish lozim. Masalan, "Robotlar haqida" deb berilgan javob aniqroq javobni talab qiladi. Shu o'rinda o'qituvchi o'quvchilarning matnni qay darajada tushunganliklarini aniqlab olishi mumkin. Agar o'quvchilar kutilgan javobni bera olishmasa, ularni aniqlashtirish uchun qo'shimcha savollar berib boriladi.

### 4. Quyoshdan tashqari yana nimalardan energiya olish mumkin?

Agar o'quvchilar ushbu savolga javob berishga qiynalsa, o'qituvchi shamol, suv kabilardan ham elektr energiyasi olish mumkinligi, ushbu jarayon haqida qisqa, tushunarli tarzda so'zlab berishi kerak.

### 5. Chizmada nima aks ettirilgan?

Chizmada fotoelektrik modul tasvirlangan bo'lib, quyoshdan energiya olishning usuli ko'rsatilgan. Shu o'rinda o'qituvchi o'quvchilardan elektr energiyasining nima ekanligini, uni nimalar uchun sarflash mumkinligini so'raydi. Chizmadagi elektr energiya olish usulini bolalar tilida tushuntirib berishga harakat qiladi.

### Yozma mashq

**Matn mohiyatini ochib bergan so'zlarni ko'chirib yozing: quyosh.**

Berilgan topshiriqni bajarish uchun o'quvchilarga matn nima haqida ekanligi yana bir bor eslatib o'tiladi. O'quvchilar matn mazmunini ochib beruvchi quyidagi so'zlarni yozishlari mumkin:

*Quyosh, quvvat, elektr energiyasi, robot, quyosh nuri.*

O'quvchilar yozgan so'zlar tekshiriladi va izohlanadi. Ularga oid imlo qoidalari yodga olinadi.

### 2-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

O'qituvchi bugungi dars uchun "Quyosh-



ning “kaltagi” mavzusida audiomatn tayyorlanganligini aytadi. Matnni eshittirishdan oldin “Nima deb o‘ylaysiz, matn nega bunday nomlangan, quyosh insonlarni kaltaklashi mumkinmi?” singari savollar bilan murojaat qiladi. Shundan so‘ng audiomatn qo‘yib eshittiriladi.

## Asosiy qism

### Quyoshning “kaltagi”

Kunning issiq paytida quyosh tig‘i ostida uzoq vaqt yurish oftob urishiga olib keladi. Jazirama issiq kunlarda bejizga oyijoningiz sizni: “Oftobda ko‘p o‘ynama!” deb koyimaydi. Bu gap ko‘proq o‘yinqaroq bolalarga tegishli. Stadionda koptok tepib, tuproq kechib yurganda ultraqizil nurlar boshingizni mo‘ljalga olganini sezmay qolasiz. Qanday qilib deysizmi?

Olimlarning ta’kidlashicha, ultrabinafsha nurlarning A va B turlarini me’yoridan ortiq qabul qilish organizmda salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi. Quyosh issiqligining boshga ta’siri miya faoliyati buzilishiga, qon aylanishining izdan chiqishiga olib keladi.

Uzoq vaqt quyosh tig‘i ostida yurish terimizga nisbatan ko‘zlarimizga ko‘proq zarar yetkazadi. Quyosh nurlarining ortiqchasi ko‘z kasalligini keltirib chiqaradi. Shuning uchun mutaxassislar yoz mavsumida maxsus ko‘zoynaklar taqishgizni tavsiya etadi.

Oftob urganda bosh og‘rib, ko‘ngil ayniydi, harorat ko‘tarilib, burundan qon ketadi. Yurak urishi tezlashib, quloqlar bitib qoladi. O‘z vaqtida chora ko‘rilmasa, oftob urishining og‘ir darajasiga o‘tib ketishi mumkin. Unda muhakmlar tortishib, bosinqirash holati kuzatiladi.

Siz ham oftobning tagida ko‘p qolib ketgan paytingizda o‘zingizni yomon his qila boshlaysizmi? Ana endi buning nima sababdan ro‘y berishini bilib oldingiz.

*“Gulxan” jurnali*

Matn tinglab bo‘lingach, matn haqida savollar beriladi.

Ayrim savollarga javob berish jarayonida o‘qituvchi audiomatnni qayta eshittirishi ham mumkin. Masalan, quyoshning oftob deyilishi bilan bog‘liq o‘rinlar, oftob urishi qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi bilan bog‘liq o‘rinlarni qayta qo‘yib eshittirish ham mumkin.

#### 1. Matn nima haqida ekan?

O‘quvchilar matn nima haqida ekanligini yaxshi tushunmasalar, o‘qituvchi savol berish uslubini o‘zgartirishi mumkin. Masalan, “Matndan nimalarni tushundingiz?”, “Nimalarni bilib oldingiz?” singari savollar bilan murojaat etish ham mumkin.

#### 2. Quyosh nurlari ta’sirida inson salomatligida qanday o‘zgarishlar ro‘y berishi mumkin?

Bunda o‘quvchilar quyosh nurlari ta’sirida inson salomatligida qanday o‘zgarishlar ro‘y berishi haqida gapiradilar, har bir o‘quvchi bir jihatni aytishi mumkin.

#### 3. Matnda “quyosh” so‘zi yana qanday atalgan?

“Quyosh” so‘zini yana qanday atash mumkinligi haqida qisqacha suhbat quriladi.

#### 4. Salbiy oqibat deganda nimani tushunasiz? Oftob urishining salbiy oqibatlarini sanang.

Qisqa savol-javob orqali ushbu tushunchalarning ma’nolari aniqlashtiriladi. Shundan so‘ng oftob urishining salbiy oqibatlari sanaladi.

### Yozma mashq

Birinchi topshiriqni bajarish uchun o‘quvchilar berilgan rasmlarning ketma-ketligini aniqlaydilar. Bunga ularning xotiralarida qolgan ma’lumotlar yordam beradi. Har bir tanlangan rasm izohlanadi. Rasmlarning tartibi aniqlangach, daftardagi topshiriqlar bajariladi.

#### 1. Quyosh tig‘i ostida yurishning qanday zararli tomonlari bor?

Ushbu savolga javob berishda o‘quvchilar matndagi ma’lumotlardan foydalanadi. O‘quvchilar javobni aynan keltirmay, mazmunni shunga yaqin holatda ifodalashlari ham mumkin.

#### 2. Oftob urganda organizmda quyidagi belgilarning qaysilari ro‘y beradi?

Topshiriqda organizmda ro‘y beradigan holatlar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar yodida qolgan ma’lumotlar asosida aylanalarni turli ranglarda bo‘yashlari so‘ralgan.

#### 3. Bo‘sh o‘rinlarni to‘ldiring.

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning mulohaza qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar bo‘sh o‘rinlarni “ko‘zoynak”, “miya” hamda “qon” singari so‘z-



larni qo'yish orqali to'ldirishlari kerak bo'ladi.

**4-topshiriqda** ushbu maslahatlar qaysi mutaxassis tomonidan berilganligi aniqlashtiriladi, qolgan javoblar nima uchun xato ekanligi o'quvchilarning fikrlari yordamida izohlanadi.

**5-topshiriqda** o'quvchilar matn mazmuniga tayangan holda berilgan qoliplarga mos keladigan 3 ta gap yozadilar. O'qituvchi avval gaplar so'ngiga qo'yilgan tinish belgilariga e'tiborni qaratib, zarurat sezilsa, matnni qayta qo'yib eshittirishi ham mumkin.

### 3-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'quvchilarga quyoshdan nima maqsadda foydalanishni bilib olganliklari haqida savol beriladi. O'quvchilar o'tilgan darslar davomida olgan bilimlarini takrorlaydi. O'qituvchi "Yalqov va Qunduz" haqida o'qishni aytadi va matnni o'qish jarayoniga o'quvchilarni tayyorlaydi.

### Asosiy qism

Matn avval o'qituvchi, so'ng o'quvchilar tomonidan ikki marta o'qilishi maqsadga muvofiq. Matn o'qib bo'lingach, berilgan savollar asosida suhbat tashkil etiladi.

Ushbu savollarga imkon qadar ko'proq o'quvchilardan javob olish kerak. Bunda navbat bilan gapirish, bir-birini tinglash, biri boshqasini takrorlamasligiga e'tibor qaratiladi. O'quvchilar har bir ishtirok uchun rag'batlantirib boriladi.

**1. Yalqov Qunduzga qanday shikoyat bilan kelibdi?**

Ushbu savol o'quvchilar matnni o'qib tushunganliklarini aniqlashtirib olishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilar matnda ochiq holatda keltirilgan ma'lumotni aytib berishlari so'ralgan.

**2. Ayting-chi, "qo'li yengil tabib" qanday bo'ladi?**

O'qituvchi ushbu savolga javobni olish maqsadida "yengil" so'zi bilan bog'liq ayrim rangli rasmlarni ekranda namoyish etishi, ushbu so'z o'z ma'nosida qanday so'zlar bi-

lan birlikda qo'llanishi mumkinligi haqida tushuntiradi. Shundan so'ng "qo'li yengil tabib" iborasi ko'chma ma'noda ishlatilayotganligi hamda uning ma'nolari haqida suhbat quriladi.

**3. Qunduzning tabiblarini ayting.**

O'quvchilardan javoblar uchun ortiqcha izoh so'rash shart emas. Ularga qaysi tomondan foydali ekanligi bilan bog'liq savollarga javoblar topib, daftarda berilgan topshiriq yordamida bajarishlari eslatib o'tiladi.

**4. Yalqovning kasalini nima bilan davolash mumkin ekan?**

O'qituvchi ushbu javob uchun izoh so'raydi. Ya'ni qanday shaklda mehnat va harakat yalqovga yordam berishi mumkinligi haqida so'raladi.

### Yozma mashq

**1. Ushbu jadvalni to'ldiring.**

Berilgan jadval matn asosida to'ldiriladi, ushbu jadvalni to'ldirish uchun matnga qayta murojaat qilish so'raladi. O'quvchilar matnning kerakli qismini topishi, uni qayta o'qish orqali ushbu jadvalni to'ldirishlari kerak bo'ladi.

**2. Qunduz qanday kasallikka chalingan edi?** Ushbu savolga "B" javob belgilanadi. Boshqa javobni belgilagan o'quvchilar o'z javoblarini izohlaydi. O'qituvchi ularning javoblarini to'g'rilashga yordam beradi.

**3. Ushbu ma'lumotnomani to'ldiring.** Topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilar matnda berilgan ma'lumotlarga asoslanishi kerak. Ya'ni bemor, yalqov ekanligi, unga qanday tashxis qo'yilgani, alomatlari va Qunduzning bergan tavsiyalari asosida ma'lumotnoma yozishlari kerak bo'ladi.

**4. "Dangasa"ga ma'nosi yaqin so'zlarni bo'yang.** Ushbu topshiriqda o'quvchilar aynan "dangasa" so'ziga ma'nodosh bo'lgan so'zlarni aniqlab, ularni rangli qalam bilan alohida belgilab chiqishlari kerak.

### 4-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

O'qituvchi bugun "Oftob bobo" she'ri bilan tanishishni aytadi. Shu o'rinda o'quvchilardan



nima uchun oftob boboga qiyoslanayotganligini so'raydi. O'quvchilardan turli javoblarni tinglagach, "Ushbu savolga javobni she'rni tinglagach, birgalikda bilib olamiz" deya o'quvchilar e'tiborini darslikdagi she'rga qaratadi.

### Asosiy qism

Darslikda berilgan she'r bir necha marta ifodali o'qib eshittiriladi. Buni o'quvchilar bilan birgalikda bajargan ma'qul. O'quvchilarning bir nechtasi o'z xohishlari bilan ushbu she'rni ifodali o'qiydilar. Xohish bildirgan o'quvchilardan so'ng o'qituvchining o'zi ushbu she'rni ifodali o'qib beradi. Darslikda berilgan savollar asosida suhbat quriladi.

#### 1. She'rdagi oftobga xos qanday sifatlar berilgan?

Har bir o'quvchi she'rning alohida jihatini aytib bera olishiga erishish kerak.

#### 2. Quyosh nuri she'rdagi yana qanday atalgan?

"Mehr nuri", "Shu'la" kabi javoblar berilganda, nima uchun aynan "mehr nuri" deb atalishi haqida qisqa suhbat quriladi, quyosh nurlarini yana nimalarga o'xshatish mumkinligi haqida so'raladi.

#### 3. Nima uchun oftobning joyi yuksakda ekan?

O'qituvchi "yuksak" so'zining ma'nosini izohlab ketishi kerak, shundan so'ng savolga javob berish so'raladi. Javoblarda, birinchidan, Quyosh Yerdan juda uzoqda, bolalar tilida aytganda, "osmonda" joylashganligi aytilsa, bundan tashqari, hamma yaxshi narsalarning o'rni, qiymati yuksak ekanligi ham tushuntirilishi maqsadga muvofiq.

#### 4. "Oftobning umri uzun". Nima uchun?

Oxirgi savolga javobni o'quvchilar o'z muhohazalari asosida berishlari kerak. O'qituvchi nima uchun quyoshning umri uzunligini she'rdagi berilgan ta'riflar asosida tushuntirishga harakat qiladi.

### Yozma mashq

#### 1. Moslashtiring.

*Sob bo'lmoq – tugamoq, saxiy – hech kimdan narsasini ayamaydigan, shu'la – nur, yorug'lik, ziqna – qizg'anchiq, qo'r – cho'g', zarra – kichkina, mayda bo'lak.*

#### 2. Matn asosida oftobga xos sifatlarni

### yoziq: bag'rikeng, mehribon, saxiy.

Ushbu topshiriqlar o'quvchilarga she'r matnini tahlil qilishga, unda qo'llangan so'zlarning ma'nolarini aniqlashtirishga yordam beradi. Ikkinchi topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilar quyoshning she'rdagi berilmagan boshqa sifatlarini yozishlari ham mumkin. Bunday yondashuv o'qituvchi tomonidan qo'shimcha rag'batlantiriladi. O'quvchilar ushbu mashqlarni daftarlarida bajaradilar. O'qituvchi bajarilgan topshiriqlarni ko'zdan kechiradi va ularni baholaydi.

### 5-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

O'qituvchi o'quvchilar bilan tashkiliy qismni o'tkazib bo'lgandan so'ng, o'tgan darsda bergan vazifasini o'quvchilarning yodiga soladi. Ulardan ushbu she'rni ifodali yoddan aytishga tayyorlanishni so'raydi. O'qituvchi ushbu she'rni bir necha marotaba ifodali o'qib yoki yoddan aytib beradi, bu vazifani bir necha o'quvchi she'rni yoddan aytib bo'lganidan so'ng, o'quvchilar she'r aytish jarayonida nimalarga ahamiyat berishi kerakligini tushuntirish uchun qayta takrorlashi ham mumkin.

### Asosiy qism

Har bir o'quvchi she'rni ifodali yodlab beradi. Avval xohish bildirgan o'quvchilardan, keyin qolgan o'quvchilardan so'rash mumkin. She'r yod olish jarayonida o'quvchilarning nutqi kuzatiladi, so'zlarni to'g'ri va ifodali talaffuz qilishlariga alohida ahamiyat beriladi. Yo'l qo'yilgan kamchiliklar tuzatib boriladi.

Shuningdek, she'rni yod olib bo'lgan o'quvchilar qo'shimcha ijodiy topshiriqni bajaradilar. Ularga quyoshcha yasash topshirig'i beriladi. O'quvchilar o'zlari ijodiy yondashgan holda rangli qog'oz, karton, lenta va shunga o'xshash narsalardan quyoshcha tasvirini hosil qiladilar.

Dars so'ngida o'quvchilar ko'proq qaysi so'zni talaffuz qilishga qiynalgan bo'lsalar, o'sha so'zning talaffuzi bilan bog'liq qo'shimcha mashqlar bajariladi.



## 6-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

O'tilgan mavzu doirasidagi fikrlar umumlashtiriladi hamda quyidagi topshiriq beriladi.

#### Asosiy qism

O'qituvchi o'quvchilarga insonlar quyoshni ko'p narsalarga o'xshatishini aytib, ularga misollar keltiradi.

Siz quyoshni nimalarga o'xshatasiz? O'z

tasavvurlaringiz yordamida "Men quyoshni nima(kim)ga o'xshataman?" mavzusida kichik ijodiy matn yozing.

O'quvchilar erkin holda ijodiy matn yozishlari kerak. Hamma o'quvchida matn yaratish qobiliyati har xil bo'lishi mumkin. Asosiy maqsad nutqiy mavzu doirasida egallagan bilim hamda ko'nikmalarini qanday mazmunda ifodalab berishlariga imkoniyat berishdir. O'quvchi nima uchun ushbu o'xshatishni yozganini tushuntirib beradi. O'qituvchi esa o'quvchilarning ijodiy tafakkurini namoyon qila olishi hamda og'zaki nutq malakasini egallashi sari yo'naltirib turuvchi, vazifasini bajaradi.

## SHAXSIY KUTUBXONA

### 1-soat

Dars boshida mavzu haqida tasavvur uyg'otish uchun quyidagicha savollar berish maqsadga muvofiq:

1. Oxirgi marta qanday kitob o'qidingiz? Uni qayerdan oldingiz?
2. Maktab kutubxonasini bilasiz. Undan qanday foydalanamiz?
3. Uyingizda ham kitoblar bormi?

**Suratlarga qarang. Ularda nima tasvirlangan?**

Darslikdagi rasmlarga qo'shimcha ravishda quyidagi kabi fotolarni bolalarga ko'rsatish mumkin. Kitob o'qish uchun har kim o'ziga qulay bo'lgan sharoit to'g'risida o'ylay olsin. Kitobni faqat stulda yoki kresloda o'tirib o'qish shart degan fikr bilan bola cheklanmasin.

Savollarga bolalar javob berishidan oldin o'qituvchi o'zining shaxsiy kutubxonasi, uning qayerda qanday joylashgani, qayerda kitob o'qishi haqida aytib berishi maqsadga muvofiq.



Sizning uyingizda kitob javoni bormi?

Siz qayerda o'tirib kitob o'qiysiz? Uyingizda siz kitob o'qishni yaxshi ko'radigan joy bormi?

Rasmdagi shaxsiy kutubxonalardan qaysi biri sizga ko'proq yoqdi? Nima uchun?

Sizda imkoniyat bo'lganida, shaxsiy kutubxonangizda qanday qulayliklar bo'lar edi?

Shaxsiy kutubxonaning jamoat kutubxonasidan nima farqi bor?





Mashq daftarida shu mavzudagi birinchi mashq bajariladi.

**Quyidagi xususiyatlarning qaysi biri jamoat kutubxonasiga, qaysi biri shaxsiy kutubxonaga oidligini aniqlang.**

1 – jamoat kutubxonasi.

2 – shaxsiy kutubxona.

1\_\_Kitob olish uchun avval u kutubxonaga a'zo bo'lish kerak.

2\_\_Kitob olish uchun kutubxona egasi rozi bo'lsa bo'ldi.

1\_\_Kitoblarni belgilangan vaqtda qaytarish kerak.

2\_\_Kitoblarni kelishilgan vaqtda qaytarish kerak.

1\_\_Bu kutubxona kunning belgilangan vaqtida ochiq bo'ladi.

2\_\_Bu kutubxonadan faqat kutubxona egasi ruxsat berganlar foydalanadi.

## 2-soat

Audiomatnni qo'yib eshittirish imkoni bo'lmasa, o'quvchilarning ichidan tez va xatosiz o'qiy oladiganini tanlab, o'qituvchi birgalikda o'qib eshittirgani ma'qul. Kutubxonachining gaplarini o'qituvchi, bolanikini esa o'quvchi o'qiydi.

**Audiomatnni tinglang.**

Bola: Assalomu alaykum.

Kutubxonachi: Va alaykum assalom.

B: Kutubxonadagi kitoblardan o'qish uchun olsam bo'ladimi?

K: Avval kutubxonaga a'zo bo'lishingiz kerak.

B: Buning uchun nima qilaman?

K: Tug'ilganlik haqida guvohnomaning nusxasi bilan ikkita uchga to'rt o'lchamda rasm olib kelasiz. Sizga kitobxon formulyarini ochaman. Unga siz haqingizda ma'lumotlar yoziladi, rasmingiz yopishtiriladi.

B: Xo'p, rahmat. Ertaga aytganlaringizni olib kelaman unda.

Bir kundan keyin.

B: Assalomu alaykum.

K: Va alaykum assalom.

B: Men kecha kelgandim. Kutubxonaga a'zo bo'lmoqchiman. Tug'ilganlik haqida guvohnomaning nusxasi bilan rasm olib keldim.

K: Yaxshi. Men hozir siz uchun kitobxon daftarchasini (formulyar) ochaman. Familiya va ismingizdan tashqari uy manzilingiz kerak.

Ko'changizning nomi va uyingizning raqamini bilasizmi?

B: Ha, ko'chamizning nomi Beruniy, uyimizning raqami 7.

K: Uy telefoningiz bormi?

B: Ha, 602-47-94.

K: Yaxshi, rahmat. Endi sizni kutubxonadan foydalanish tartib-qoidalarini bilan tanishtiraman.

1. Kutubxonaga a'zo bo'lgan kitobxonlar u yerdagi adabiyotlardan bimalol foydalanishi mumkin.

2. Kitobxonlar kutubxonadagi kitob, jurnal yoki gazetani 10 kunga o'qish uchun olishi mumkin. O'n kundan so'ng kitobni kutubxonaga qaytarish kerak.

3. Foydalanuvchilar kutubxonadan olingan kitoblarni ehtiyot qilishi shart. Kitobning varaqlarini buklash va yirtish, kitobga chizish, yozish mumkin emas.

4. Kitobni yo'qotib qo'ysa, yo bilmay yirtib qo'ysa, o'rniga boshqa shunday kitob topshirishi kerak.

Hamma qoidalar tushunarlimi?

B: Ha, tushunarli.

K: Mana bu yerda kitob javonlari bor. Bu bo'limda badiiy asarlar, bu bo'limda ensiklopediyalar, bunisida esa darsliklar bor. Siz o'zingizni qiziqtirgan kitobni tanlab olib kelsangiz, men kitobxon daftarchangizga yozib qo'yaman. Siz keyin uni uyga olib ketishingiz mumkin bo'ladi.

B: Rahmat!

Audiomatnni bir necha marta tinglagach, darslikdagi savollarga javob beriladi.

1. Kutubxonaga a'zo bo'lish uchun qanday hujjatning nusxasi kerak?

2. Nima deb o'ylaysiz, kitobxonning manzili, telefon raqami kutubxonaga nima uchun kerak?

3. Kutubxonadan foydalanishning qanday qoidalarini bor?

4. Kutubxonadagi kitobni bilmasdan yirtib qo'ysangiz, nima qilishingiz kerak? Yo'qotib qo'ysangiz-chi?

5. Siz kutubxonadan qanday kitob tanlagan bo'lardingiz?

6. Sizningcha, kutubxonalar nega kerak? Daftardagi mashq bajariladi.

**Berilgan gaplarning to'g'ri-noto'g'riligini toping.**



1. Kutubxonaga a'zo bo'lish uchun tug'ilganlik haqida guvohnomaning nusxasi kerak. T / N

2. Kitobxon hamma kitoblardan ham foydalana olmaydi. T / N

3. Kutubxonada kitoblar 10 kunga beriladi. T / N

4. Qaysi betga kelganini unutmaslik uchun kitobning varag'ini buklash mumkin. T / N

5. Kitobni yo'qotib qo'ysa, o'rniga boshqa kitob olib kelib berish kerak. T / N

Agar mashqni bajarish uchun o'quvchilarda audiomatni yana bir marta eshitishga ehtiyoj bo'lsa, eshittirish zarur.

### 3-soat

Abdurahmon Akbarning "Yoshlikda o'qigan kitoblarim" matni avval o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi. Keyin o'quvchilar tomonidan bir necha marta o'qiladi.

1. Biz hayotda qaysi buyumni charxlaymiz? Nima uchun?

Bunda pichoq, tesha, ketmon, o'roq kabi buyumlar yaxshi kesishi, ya'ni o'z vazifasini yaxshi bajarishi uchun charxlanishi haqida aytilishi kerak.

2. Nima deb o'ylaysiz, aqlni charxlash nima degani?

Aqlning yaxshiroq ishlashiga yordam beradigan amallarni bajarish.

3. Inson aqlini qanday charxlashi mumkin ekan?

Har qanday o'ylashga undaydigan mashg'ulot bilan (masalan, o'qish, yozish, topishmoq topish, misol ishlash, boshqa tilni o'rganish kabi) aqlni charxlash mumkinligi aytilishi kerak.

Pichoq, tesha kabi buyumlar charxlanib turmasa, o'tmaslashib qolishi kabi insonning aqli ham yuqoridagi kabi mashg'ulotlar bilan charxlab turilmasa, yaxshi ishlamay qolishi mumkinligi aytilishi kerak.

4. Muallif nimaga kitobni sehri va mo'jizaviy deb aytyapti?

Bunda muallifning kitobni har o'qiganda yangi taassurot olishga urg'u berganiga e'tibor qaratilishi kerak.

5. Abdurahmon Akbar birinchi o'qigan badiiy asarlar qaysilar ekan?

6. Siz u kitoblarning qaysilarini bilasiz?

7. Shoirning shaxsiy kutubxonasida qan-

day kitoblar bor ekan?

8. Nima deb o'ylaysiz, shoir nega sizning ham shaxsiy kutubxonangiz bo'lishini istayapti?

Shoir o'zi kitoblarni yaxshi ko'rgani va ular hayotini mazmunli qilgani uchun shunday yaxshilikni boshqalarga ham ulashishni istayapti.

9. Kitob o'qiganingizda siz ham Abdurahmon Akbar yozganiday ta'sirlanganmisiz?

**Matn mazmuniga ko'ra gaplarni o'zaro moslashtiring.**

Charxlash – o'tkirlash .

Olam-olam – juda ko'p.

Ayni paytda – hozir.

1000 ga yaqin – 1000 tadan kam.

Mablag' – pul.

### 4-soat

**Daftardagi mashqni bajaring.**

**3-soatda o'qigan matningizda bir nechta yozuvchilarning nomi va asarlarning nomi keltirilgan edi. Ularni ikkiga ajratib yozing.**

**Kitoblar:** "Zumrad va Qimmat", "Ur, to'qmoq", "Baliqchi va baliq haqida ertak", "Irkit o'rdakcha", "Tom Soyerning boshidan kechirganlari", "Sariq devni minib"...

**Ijodkorlar:** Pushkin, Gans Xristian Andersen, Mark Tven, Xudoyberdi To'xtaboyev, Rumiy, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Said Ahmad, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov...

**"Sir" va "taassurot" so'zlarini matnda o'qigan edingiz. Ularning ma'nosini yaxshiroq uqib olish uchun matndan olingan parchani va qo'shimcha gaplarni o'qing. Savollarga javob bering.**

Shu tobda sizga bir sirni aytgim keldi. Kitob shunday sehri, mo'jizaviy do'stki, uni necha marta o'qisangiz, shuncha marta ta'sirlanasiz. Bu taassurotlar hech qachon bir-biriga o'xshamaydi.

Yaqinda onalar bayrami. Umarbek oyisiga chiroqli ro'mol oldi, ammo nima olganini hammadan sir tutdi.

Ko'p kitob o'qigan bola o'z aqli va zehni bilan boshqalardan ajralib burishi hech kimga sir emas.

Yozgi oromgohdan qaytgan Diyora o'rtog'lariga taassurotlarini gapirib berdi.

"Zumrad va Qimmat" ertagini o'qidem. Zumrad menda yaxshi taassurot qoldirdi.



Berilgan kichik matnlar o'quvchilarga o'qitiladi. Har bir o'qigan boladan o'qib tushunganini o'z so'zi bilan aytib berishi so'raladi.

Keyin muqobil javobli savollar o'qitilib, butun sinf bilan birgalikda og'zaki ravishda yechiladi.

1. Sir nima?  
A. Hamma biladigan narsa.  
B. **Hech kim bilmaydigan narsa.**  
D. Bu dunyoda yo'q narsa.

2. Taassurot nima?

A. **Biror narsa yo hodisa sabab odamda paydo bo'lgan his, tushuncha.**

- B. Biror hodisa haqidagi fikr.
- D. Biror narsaning xususiyati.

Dars soati "Bugungi dars sizda qanday taassurot qoldirdi?" savoliga har bir o'quvchidan qisqacha javob olish bilan yakunlanadi. Keyingi darsda rasm daftari va rangli qalam kerak bo'lishi bolalarga aytiladi.

### 5-soat

**Rasmlarda dunyoning turli davlatlaridagi kutubxonalar tasvirlangan. Ular bilan tanishib chiqing.**

Har bir rasmni diqqat bilan ko'rib chiqish so'raladi. Keyin o'quvchilar qaysi kutubxonaga unga yoqqani va aynan nimasi bilan yoqqani haqida gapirib berishi kerak.

**Sizning orzungizdagi bolalar kutubxonasi qanday bo'lishi kerak?**

- Undan qanday kitoblar joy oladi?
- Kutubxona binosi qanday ko'rinishda bo'ladi?
- Unda kitobdan boshqa yana nimalar bo'lishi kerak?
- U yerda o'tirib kitob o'qishga qanday qulayliklar yaratiladi?

Mazkur savollarga bolalar og'zaki javob beradilar.

**Orzungizdagi kutubxonaning rasmini chizing va bo'yang.**

Keyingi darsda hamma chizgan rasmini olib kelishi shart ekanligi aytiladi.

### 6-soat

Bu darsda bolalar o'tgan darsda chizgan "Orzumdag kutubxonasi" rasmi bo'yicha ishlanadi. Har bir o'quvchi partadoshi chizgan rasmini ko'radi. Rasm bo'yicha o'zini qiziqirgan savollarni daftarga yozib oladi. Keyin o'rtog'idan so'raydi.

**Do'stingiz chizgan "Orzumdag kutubxonasi" rasmini ko'ring. O'rtog'ingizga chizgan rasmi haqida o'zingizni qiziqirgan savollarni bering. Savollarni daftarga yozib oling.**

Mana shu mashq shartida darslikda "Javoblarni daftarga yozib oling" deb xatoga yo'l qo'yilgan. Topshiriq sharti savollarni yozib olishni talab qiladi.

**Sizga do'stingiz chizgan kutubxonadagi nima ko'proq yoqdi? Nima uchun? Fikringizni 2-3 ta gap bilan yozing.**

Bu mashqda bola o'z fikrini yozma bayon qilishi oson bo'lishi uchun avval bir necha o'quvchidan savolga og'zaki javob olish kerak.

## SO'ZNI TOPIB ISHLATING

### 1-soat

**Rasmlarga qarang. Berilgan gaplarni o'qing. Gaplarning qaysi birini ishlatgan bo'ladingiz?**

Berilgan dialoglar avval o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi.



**8-BO'LIM SO'ZNI TOPIB ISHLATING**

Rasmlarga qarang. Berilgan gaplarni o'qing. Gaplarning qaysi birini ishlatgan bo'lardingiz?

  Qalamingni ber.  
 Qalamingni berib tur, iltimos.

  Oyi, men keldim.  
 Assalomu alaykum, oyijon, men keldim.

  Qornim to'ydi, ketdim.  
 Rahmat, ovqat shirin bo'libdi.

  Tur o'ringdan, maktabga kech qolasan!  
 Bolajonim, turaqol, nonushta qilamiz.

1. Daftardagi mashqni bajaring.

Quyidagi iboralarni eshitganmisiz? Ularni qachon ishlatamiz?

Qo'lingiz dard ko'rmasin  Baraka toping

Ko'rmaganday bo'lib keting

48

- 1) Qalamingni ber.
- 2) Qalamingni berib tur, iltimos.
- 3) Oyi, men keldim.
- 4) Assalomu alaykum, oyijon, men keldim.
- 5) Qornim to'ydi, ketdim.
- 6) Rahmat, ovqat shirin bo'libdi.
- 7) Tur o'ringdan, maktabga kech qolasan!

8) Bolajonim, turaqol, nonushta qilamiz.

Keyin o'quvchilar o'qiydi. Bir necha marta o'qilgach, aytilgan gaplarda qanday farq borligi muhokama qilinadi.

**Quyidagi so'zlar qanday holatlarda ishlatiladi?**

**Bu mashqni avval og'zaki o'qib, mos so'zni topib, o'quvchilar birgalikda xattaxtaga yozib bajarishadi.**

Quyidagi gaplarga yuqoridagi so'zlardan mosini yozing.

\_\_*Iltimos*\_\_, o'chirg'ichingni berib tur.

\_\_*Kechirasiz*\_\_, soat necha bo'lganini bilmaysizmi?

Keling, \_\_*marhamat*\_\_, o'tiring.

Tabrik uchun \_\_*rahmat*!

\_\_*Uzr*\_\_, bezovta qilmadimmi?

**Quyidagi iboralarni eshitganmisiz? Ularni qachon ishlatamiz?**

Qo'lingiz dard ko'rmasin.

Ko'rmaganday bo'lib keting.

Baraka toping!

Bu iboralar qachon ishlatilishi o'quvchi bilan muhokama qilinadi.

## 2-soat

Matn yo qo'yib, yo o'qituvchi tomonidan ifodali qilib o'qib eshittiriladi, kamida uch marta eshittirish zarur.

**“Yaxshilik ortidan yaxshilik keladi” er-tagini tinglang.**

Kunlardan bir kun Xorazm yurtining podshohi mamlakatda eng chiroyli so'z aytish bahsini o'tkazmoqchi bo'libdi. Bir dehqon yigit men ham qatnashay, sovringa ega bo'lsam, qo'sh ho'kiz olardim, deya niyat qilibdi. Saroy darvozasi oldiga kelib, qo'lidagi o'roq, yelkasidagi ketmonni yerga qo'yib, “Bismilloh” deb ichkari kirib, safga qo'shilibdi. Bahs avjiga chiqqan ekan. O'z taxtida bahslarni kuzatib, tantana bilan o'tirgan shohga qo'lini ko'ksiga qo'yib, ta'zim qilib salom yo'llabdi. Bahsni saroy a'yonlari baholab o'tirishar ekan. Shunda bahsda qatnashayotgan bir kishi o'rnidan turib:

– Yomonlik qilma! Yomonlik ketidan yomonlik keladi, – degan gaplarni aytibdi. Qilni qirq yoradigan hakamlar qarsak chalib olqishlashibdi. Shoh ham qarsak chalibdi.

Navbat dehqon yigitga kelibdi.

– Yaxshilik qil! Yaxshilik ketidan yaxshilik keladi, – deb qo'lini ko'ksiga qo'yibdi. Atrofdagilar qarsak chalishibdi. Shoh esa o'rnidan turib qarsak chalibdi.

– Shohanshohim, – deb so'rabdi hakamlardan biri. – Birinchi ishtirokchi o'z so'zini aytganida yengilgina qarsak chalidingiz. Ikkinchi qatnashchi so'zini aytganida esa o'ringizdan turib ketdingiz. Sabab ne? Buni biz – hakamlarga ayting, – debdi.

– Aslida, ikkovlari ham foydali so'zni aytishdi, lekin birinchisi *yomonlik* deyishi bilan negadir qalbim muzlab ketgandek bo'ldi. Ikkinchisi *yaxshilik* degan so'zni aytishi bilan qalbimdagi muz erib ketgandek bo'ldi. Shuning uchun o'rnimdan turib qarsak chaldim. To'g'ri so'zni, chiroyli so'zni yoqimli qilib aytgani uchun birinchi sovrin shu dehqon yigitga berilsin, – deb farmon beribdi.

So'ng matn mazmuni yuzasidan darslikdagi savollar asosida savol-javob qilinadi.

1. Xorazm yurtida qanday tanlov o'tkazishibdi?

2. Dehqon yigit nima uchun tanlovda qatnashishni istabdi?

3. Nima deb o'ylaysiz, dehqon yigit nima



uchun uy, oziq-ovqat, kiyim-kechak yoki otarava emas, aynan qo'sh ho'kiz olishni niyat qildi?

4. Yomonlik haqida aytilgan gap bilan yaxshilik haqida aytilgan gapning mazmuni bitta edimi?

5. Podshoh dehqon yigitni nima uchun taqdirladi?

**Quyidagi so'zlarga mos keluvchi ma'noni topib, moslashtiring.**



Bu mashqda so'zlarning ma'nosini tushunish maqsad qilingan. Agar qo'shimcha izohga ehtiyoj bo'lsa, o'qituvchi albatta tushuntirib ketishi kerak.

### 3-soat

Berilgan matnlarni avval o'qituvchi ifodali qilib o'qib beradi, keyin bolalar tomonidan bir necha marta o'qiladi. So'ng ularning qaysi biri yaxshilik ortidan yaxshilik kelishini, qaysi biri yomonlik ortidan yomonlik kelishini bildirishi muhokama qilinadi.

**Quyidagi ikkita matnni o'qing. Ularning qaysi biri yaxshilik ortidan yaxshilik kelishini, qaysi biri yomonlik ortidan yomonlik kelishini bildiradi?**

(1) Bir yigit yo'lda ketayotib bir bog'chaniq devoriga ko'zi tushdi. Devorning tepa va pastki qismi betondan, o'rtasi esa taxtadan ekan. U "Men shu taxtani tepib sindira olaman, men kuchliman" deb taxtani tepa boshlabdi. Bir necha marta tepganidan keyin taxta rostdan ham sinib, yerga tushibdi. Shunda taxtaning tepasidagi beton tushib ketib, tepag'on bolaning oyog'ini bosib qolibdi. Betonni ko'tarishga kuchi yetmay, u dodlaganicha odamlarni yordamga chaqiribdi.

(2) Bir kishining uyida yeyishga hech narsasi qolmabdi. Xotini va bolasi och ekan. U ko'chaga chiqib, ikkita non olibdi, uyga qaytayotlsa yo'lda bir ayol yosh bolasi bilan sadaqa so'rab o'tirgan ekan. U ayol "Bolamning otasi

yaqinda vafot etdi. Boquvchimiz yo'q. Necha kundan beri hech narsa yemadik, yeyishga biron narsa bering" debdi. U kishining rahmi kelib, ikkala nonni ham yetim bolaga tutqazib ketibdi. Yo'lda "O'zimning bolamni qanday to'ydiraman endi" deb o'ylanibdi. Uyiga borib qarasa, uzoq shahardan bir do'sti mehmon bo'lib kelibdi. Do'sti juda ko'p sovg'alar bilan birga oziq-ovqat ham olib kelgan ekan. Ularning ichida un, guruch, yog', go'sht ham bor ekan.

Quyidagi savollarga javob berishda birinchi matndagi bola devorni tepib, bironing mulkiga zarar keltirgani tushuntirilishi kerak. Ikkinchi hikoyada og'ir ahvolda qolgan kishiga rahmi kelib yordam berish yaxshilik ekanligi va bu yaxshilik albatta odamning o'ziga qaytishi tushuntirilishi kerak.

1. Devorni tepib buzishdan odam qandaydir foyda oladimi?
2. Devorning egalari devor buzilgandan so'ng nima qilishadi deb o'ylaysiz?
3. Bola nima yomonlik qildi va uning ortidan qanday yomonlik keldi?
4. Siz hayotingizda shunga o'xshash holatlarni kuzatganmisiz?
5. Hikoyadagi kishi uyda och bolasi bo'la turib, ikkala nonni ham ko'chadagi begonaga berib to'g'ri qildimi?
6. Nima deb o'ylaysiz, u nima uchun shunday qildi?
7. U kishi qanday yaxshilik qildi va unga qanday yaxshilik keldi?

Darslikdagi savollarga qo'shimcha ravishda quyidagi savolni bolalarga berish zarur. O'ylab ko'ring-chi, ertakdagi shohning qalbi nima uchun *yomonlik* so'zini eshitganda muzlab ketdi? Nima uchun *yaxshilik* so'zini eshitganda u muz eriganday bo'ldi?

Bu savolga javob berishda gap faqat so'zlarda ekanligi, mazmun bir xil bo'lsa-da, yaxshilikni bildirgani uchun so'z odamda *yaxshilik* bilan bog'liq xotiralarini esga solishi, *yomonlik* so'zi yomonlik bilan bog'liq xotiralarini eslatishiga e'tibor berilishi kerak.

**Bo'sh o'rinlarga kerakli so'zni qo'ying.**

*tepag'on, bilag'on, chopag'on, qopag'on*

1. tepag'on bola devorni tepib buzdi.
2. chopag'on ot birpasda manzilga yetdi.
3. bilag'on qiz har kuni "a'lo" baho oladi.
4. Qo'shning darvozasini qopag'on it qo'riqlardi.



#### 4-soat

##### Matnni o'qing

Abdurahmon Akbar qalamiga mansub "So'zning ta'mi" matni avval o'qituvchi tomonidan ifodali o'qiladi. Keyin o'quvchilar matnni o'qiydi. Matn bir necha marta o'qib chiqilgach, savollarga matn asosida javob beriladi.

1. Sarlavhani o'qiganingizda xayolingizga nima keldi?

2. Hayotda nimaning ta'mi bo'ladi-yu, nimaning ta'mi bo'lmaydi?

3. O'ylab ko'ring-chi, qanday ta'm sizni xursand qiladi va aksincha?

4. Nima uchun muallif "she'r" deyish o'rniga "mashq" degan?

5. So'zning ta'mini yaxshiroq sezish uchun nima qilishingiz kerak ekan?

**Birinchi va ikkinchi to'rtlikni yozib, o'zaro solishtiring. Farq qilayotgan so'zlarning tagiga chizing. Ularning har biri nima anglatayotganini izohlang. Qaysi to'rtlik yaxshiroq chiqqan? Buni sinfda muhokama qiling.**

Quyosh osmonga <u>chiqdi</u> , Qushlar <u>sayray</u> boshladi. Teraklar <u>tebra-</u> <u>nishdi</u> , Gullarga <u>shabnam</u> <u>tushdi</u> .	Quyosh <u>kuldi</u> osmonda Qushlar <u>kuylay</u> boshladi. <u>Qarsak chaldi</u> teraklar, Gullar <u>ko'zin yoshladi</u> .
-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Bu to'rtliklarni bolalar daftariga ko'chirib yozadi va farqli so'zlarning tagiga chizadi.

**Oxirgi to'rtlikni o'qing. Nima uchun quyosh gullarning onasi deyilgan? Gullarda quyosh chiqishidan oldin shabnam bo'ladi va u quyosh chiqqach, bug'lanib ketadi. Tabiatda kuzatilgan bu holatni shoir nima-ga o'xshatgan?**

Gullar ona quyoshning  
Zamindagi bolasi.

Yig'lashganin boisi –  
Sog'inishgan onasin.

Buni bolalardan so'rash, har biriga o'zining fikrini aytishga imkon berish kerak.

Bu to'rtlikda gullardagi shabnamning quyosh chiqqach, bug'lanib ketishi onasini sog'inib yig'lagan bolalar onasi kelgach, yig'idan to'xtab, xursand bo'lishiga o'xshatilgan. Quyoshning nurlari, issiq harorati sabab gullar o'sgani uchun quyosh ularning onasiga o'xshatilgan.

#### 5-soat

Darslikdagi she'r avval o'qituvchi tomonidan, keyin o'quvchilar tomonidan ifodali qilib o'qiladi.

Bir necha marta o'qilgach, daftardagi mashq bajariladi. Mashqdagi namuna o'qituvchi tomonidan o'qib, tushuntirib beriladi. O'quvchilar mustaqil bajarishadi.

**She'rda yashiringan qo'shma so'zlarni toping.**

#### SO'ZBOYLOVCHI

Dilshod Rajab

Uchiradi "qovoq"ni  
"Ari" qo'yib yoniga.

qovog'ari

Yurgizadi "oyoq"ni  
Qo'shib "sakkiz" soniga.

sakkizoyoq

Turli gullar ko'p, biroq,  
"Karnay"ni ham "gul" qilar.

karnaygul

Tartib bilan yuring deb,  
"Yo'l"larga, "chiroq" ilar.

yo'lchiroq

So'zboylovchi so'z saylab,  
Ko'ngillarni xushlasin.

Lekin sira ko'z boylab,  
"Nay"ga "rang"ni qo'shmasin.

nayrang

Darslikda berilgan savollarga she'r asosida javob beriladi.

1. Shoir nima uchun "tilchi-sehrgar" deyapti?

2. Ko'zboylovchi kim? U nima uchun ko'zboylovchi deb ataladi?

3. "So'zboylovchi" so'zining "ko'zboylovchiga" qanday o'xshashligi bor?

4. Shoir she'rda qo'llagan qo'shma so'zlar rostdan ham aytib o'tilgan so'zlardan hosil bo'lgan. Masalan, sakkizoyoq, qovog'ari kabi. Lekin bitta so'z unday emas. Undagi qismlarning qo'shma so'z bildiradigan ma'noga umuman aloqasi yo'q. O'xshashlik esa tasodif. Bu qaysi so'z?

Oxirgi savolning javobi – *nayrang* so'zi. Nayrang bu – hiyla, aldov. Shoir esa *nay* – cholg'u asbobi, *rang* – belgi so'zlarini aytib, nayrang so'ziga ishora qilgan. *Nay* va *rang* so'zlari ma'no jihatdan *nayrang* so'ziga umuman aloqador emas.



## 6-soat

Bu darsda shu mavzu doirasida o'tilganlarni amalda qo'llash maqsad qilingan.

**Quyidagi vaziyatlardan birini tanlang.**

Siz qo'lga kiritishni juda ham xohlayotgan narsani olib berishlarni ota-onangizdan iltimos qilmoqchisiz.

Tasavvur qiling, yaqin do'stingiz sizga yolg'on gapirganini bilib qoldingiz. Unga o'z fikringizni bildirmoqchisiz.

Siz bir multfilm, kino yoki kitobdan juda ham ta'sirlandingiz. Uning mualliflariga o'z taassurotlaringizni aytmqchisiz.



Vaziyatlar o'quvchilarga o'qib beriladi. Bu vaziyatlardan biri asosida xat yozishlari kerakligi tushuntiriladi.

# SAMARQAND – TARIX BESHIGI

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning tarix, ajdodlar merosi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. Matn mazmuni va g'oyasini aniqlash, narsa nomlarini ajrata olish, yo'riqnoma va ko'rsatmalarini tushunish, narsa nomlarining ko'plik shaklida qo'llanishi, sayohatnoma matn yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish. So'z oxirida kelib, og'zaki nutqda tushib qoladigan undoshlar imlosi bilan ishlash. Mavzu doirasida so'z boyligini o'stirish.

## Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'quvchilar bo'lim hamda yangi mavzu nomi bilan tanishtiriladi. Quyidagi savol asosida muhokama uyushtiriladi:

*Davlat bilan shaharning nima farqi bor?*

## Asosiy qism

Darslikning 56-betida berilgan ko'rsatmalar asosida "Ajrataimiz" o'yini tashkillashtiriladi.

O'quvchilar o'yin shartlarini o'qib chiqadilar hamda o'qituvchi qayta tushuntirib o'tadi. Shundan keyin o'yinni o'ynash boshlanadi.

O'quvchilarni tanlab olishda o'zi xohish bildirgan va bildirmaganlar orasida balansni saqlashga harakat qiling.

## Savol-javob

**"Davlatlar" deb nomlangan ustunga yozilgan so'zlarga e'tibor qarating. Ularda qanday o'xshashlikni ko'ryapsiz?**

Ushbu savol davlat nomlari *-iston* va *-iya* qo'shimchalari bilan tugashiga o'quvchilarning diqqatini qaratish maqsadida berilgan.

O'quvchilar to'g'ri javobga yetib kela olmasalar, o'qituvchining o'zi buni tushuntirib beradi. Nega davlat nomlari shu shaklda tugashini u yerda shu millat vakillari yashashi bilan bog'lab tushuntirish mumkin.

## Yozma mashq

Rasmi diktant. Ushbu topshiriq mashq daftariga bajariladi. Mashq daftarida *g'isht, musht, daraxt, poyezd, go'sht, past-baland*

## 1-soat

### DARS JARAYONI

#### 9-BO'LIM SAMARQAND – TARIX BESHIGI



"Ajrataimiz" o'yini.

#### O'yin qoidalari

- ✓ Har bir qatordan 5 tadan o'quvchi tanlab olinadi.
- ✓ O'qituvchi doskaga quyidagi so'zlarni yozadi: Samarqand, Buxoro, Toshkent, O'zbekiston, Farg'ona, London, Nyu York, Qozog'iston, Bishkek, Piskent, Turkmaniston, Germaniya, Turkiya, Fransiya, Parij, Berlin, Polsha, Dehli, Hindiston, Mumbay, Parkent.
- ✓ Tanlab olingan o'quvchilar navbat bilan chiqib shu so'zlarni quyidagi jadvalga joylaydi:

DAVLATLAR	SHAHARLAR



- 1 Davlatlar deb nomlangan ustunga yozilgan so'zlarga e'tibor qarating. Ularda qanday o'xshashlikni ko'ryapsiz?
- 2 Shaharlar ustuniga joylashtirilgan so'zlarga e'tibor bering. Aytilishi va yozilishi farq qiladigan so'zlar bormi? Qaysi so'zlar shunday xususiyatga ega?



1. Rasmi diktant.



so'zlariga oid rasmlar berilgan. O'quvchilar shu so'zlarni yozib berishlari kerak. Ushbu topshiriqning maqsadi – so'zlar oxiridagi tovushlar ba'zan aytilmasa ham, yozilishini anglatish. Mashq tugatilgach, so'z oxirida kelib, talaffuzda tushib qoladigan, lekin yozuvda saqlanadigan undoshlar haqida nazariy ma'lumot yetkaziladi.

O'quvchilar ushbu qoidani yod olishlari kerak emas. Umuman olganda, bu qoida ham emas, shunchaki bilim beruvchi ma'lumot sifatida qaralishi lozim.

## 2-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Samarqand shahri haqida nimalarni bilasiz?*

*“Qadimgi” deganda nimani tushunasiz?  
“Qadimgi shahar” deganda-chi?*

#### Asosiy qism

##### O'qib tushunish

O'qituvchi darslikning 57–58-betidagi “Borish kerak bo'lgan shahar” matnini ifodali, ravon, o'zbek adabiy tili normalariga amal qilgan holda, kerakli intonatsiya va yetarlicha baland ovozda o'qib beradi. Undan so'ng o'quvchilar ichlarida o'qib olishlari uchun vaqt beriladi (6 minut). Matnni navbat bilan ovoz chiqarib ham o'qiydilar.

O'quvchilar matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning izohini darslik oxiridagi lug'atdan yoki boshqa lug'atlardan izlab topadilar.

##### O'qib tushunish

Quyidagi gaplar matndagi qaysi gap bilan mos ekanini toping.

Darslikning 58–59-betida 5 ta gap berilgan. Ular matndagi gaplarning o'zgartirilgan shakli bo'lib, o'quvchilar o'sha gaplarni topishlari lozim. Ushbu topshiriqni kim tez bajarish shaklida o'tkazsa ham bo'ladi.

Har bir o'quvchi berilgan gap hamda matndagi gapni qaysi birlik orqali moslashtirganini aytib berishi lozim.

##### Leksikologiya

**So'zlarning kontekstual ma'nosini tu-**

#### shunish.

Darslikning 59-betida uchta gap berilgan. Shu gap tarkibidagi bir so'zning qaysi ma'noda kelganini o'quvchilar topishlari kerak bo'ladi.

Buni guruhga bo'lib yoki kim tez bajarish shaklida o'tkazish mumkin.

Ushbu topshiriq o'quvchilarning leksik boyligini o'stirish maqsadida ishlab chiqilgan.

## 3-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Samarqand haqida nimalarni bilib oldingiz?*

#### Asosiy qism

##### Yozma mashq

Ushbu topshiriq mashq daftariga bajariladi. O'quvchilar berilgan ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini “Borish kerak bo'lgan shahar” matni asosida aniqlashlari lozim.

##### Audiomatn

##### “Amirni yenggan non”

O'quvchilardan diqqat qilishlari so'raladi hamda audiomatn ikki marta eshittiriladi.

##### Savol-javob

Audiomatn ikki marta eshittirilgach, o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilindi:

*Hikoya nima haqida?*

*Amir nima uchun Samarqanddan nonvoy olib keldi?*

*Nima uchun hikoyaga “Amirni yenggan non” deb nom berilgan?*

*Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?*

##### Yozma mashq

**3-topshiriq. Matndagi narsa nomini bildirgan so'zlarni eslab yozing.**

Ushbu topshiriq mashq daftariga bajariladi. O'quvchilarning istagiga ko'ra audiomatn yana bir marta qo'yib berilishi mumkin. Bunda o'quvchilar matn davomida uchraydigan narsa nomlarini yozib borishlari kerak.





### Muhokama

O'quvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qilinadi:

**Sizningcha, "non" so'zida nima uchun -lar qo'shimchasi bor?**

Bir necha o'quvchidan so'ralgach, o'qituvchi umimlashtirib yakuniy xulosani aytadi hamda -lar qo'shimchasi narsalar bittadan ortiqligini ifodalash uchun qo'shilishini tushuntiradi.

### Yozma mashq

**4-topshiriq. Ko'plik qo'shimchasi qo'shilgan narsa nomlari qatnashgan 3 ta gap tuzing.**

Ushbu topshiriq mashq daftariga bajariladi. O'quvchilar o'zlari bilgan narsa nomlariga ko'plik qo'shimchasini qo'shib, ular ishtirokida gaplar tuzish kerak. O'quvchilar topshiriqni bajarayotganda sinfni aylanib yuring, ko'rgan kamchiliklaringizni o'rnida to'g'rilang.

Topshiriq bajarilgach, istagan o'quvchidan tuzgan gapini o'qib berishni so'rash mumkin.

### 4-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*O'zbekistonga sayyohlar nima uchun keladi deb o'ylaysiz?*

### Asosiy qism

### Muhokama

Darslikning 61-betida "Samarqandga xush kelibsiz!" mavzusida ma'lumotlar jamlanmasi mavjud, o'quvchilarga ushbu ma'lumot bilan tanishishlari uchun vaqt beriladi (6 minut). So'ng o'quvchilar Samarqand shahriga kelgan chet ellik mehmonga shahar haqida nimalarni aytib berishini so'zlab beradilar.

### Yozma mashq

#### 5-topshiriq

Ushbu topshiriq mashq daftariga bajariladi. O'quvchilarga "Tasavvur qiling, siz chet eldan kelgan mehmonni Samarqand bo'ylab sayr qildirishingiz kerak. Nimalar qilaysiz? Shularni yozib bering" deya topshiriq beriladi. O'quvchilar mashq daftaridagi shaklni to'ldi-

radilar.

Yozib bo'lishgach, istagan o'quvchi yozganlarini sinfdoshlariga o'qib berishi mumkin.

### 5-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Samarqanddan boshqa qanday qadimiy shaharlarimizni bilasiz?*

### Asosiy qism

### She'rni o'qish

O'qituvchi darslikning 62-betini ochishni hamda she'rni hamma ichida o'qishini aytadi va 6 minut vaqt beradi. O'quvchilarga nuqtalar o'rniga shahar nomi qo'yilishini eslatib o'tish lozim. Qaysi shahar ekanini she'r mazmuni hamda qofiyalari orqali aniqlash mumkinligi aytiladi.

Vaqt tugagach, o'quvchilar navbat bilan she'rni ovoz chiqarib o'qiydilar. Shahar nomi to'g'ri yoki noto'g'ri ekani o'qituvchi va boshqa o'quvchilar tomonidan baholanadi.

### Yozma mashq

#### 6-topshiriq

Ushbu topshiriq mashq daftariga bajariladi. She'r matnida tushirib qoldirilgan shahar va viloyat nomlari aniq bo'ldi. Endi o'quvchilar shu nomlarni qatnashtirib gaplar tuzishlari kerak.

Tuzgan gapini o'qishni istagan o'quvchiga imkoniyat beriladi.

### Yozma mashq

#### 6-topshiriq

Ushbu topshiriq mashq daftariga bajariladi. O'quvchilar she'r matnida uchragan ko'plikda qo'llangan narsa nomlarini yozib chiqishlari kerak bo'ladi.

Yozishga kirishishlaridan oldin ko'plik shakli qanday ekanini so'rab ko'rishingiz mumkin.

### 6-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish



O'tgan darsda o'qilgan she'ri yoddan aytib berish.

### Asosiy qism

#### Moslashtirish

Darslikning 63-betida berilgan rasmlarni hamda so'zlarni o'zaro moslashtirish lozim. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga ko'makchi bo'lishi mumkin. O'quvchilar rasmdagi narsa nima ekanini bilmagan taqdirda, uning nima ekani, nima vazifa bajarishi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tish tavsiya etiladi.

#### Muhokama

"Bu – bizning O'zbekiston" she'ri asosida darslikning 63-betida berilgan jadvalni to'ldirish muhokama qilinadi. Jadvalni xattaxtaga chizib olish ham mumkin. Imkon bo'lsa, proyektor orqali ko'rsatish tavsiya etiladi. Ushbu topshiriq og'zaki tarzda bajariladi. Jadvalning chap ustunidagi fikr-mulohazalarga mos keldigan shahar yoki viloyat nomi o'ng ustunga joylashtiriladi.

#### Yozma mashq

**6-topshiriq. She'rdagi qofiyadosh so'zlarni yozing.**

Ushbu topshiriq mashq daftariga bajariladi. O'quvchilar "Bu – bizning O'zbekiston" she'ridan olingan so'zlarni qofiyadoshlik asosida moslashtirishlari kerak bo'ladi.

### 7-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Boshqa viloyatda yoki uzoqda yashaydigan do'stingiz bormi? U bilan qanday aloqa qilasiz?*

### Asosiy qism

#### Yozma mashq Do'stingiz xat

O'quvchilar darslikning 64-betidagi ko'rsatmalar asosida xat yozishlari kerak bo'ladi. O'qituvchi namuna sifatida o'zi yozgan xatni o'qib berishi ham mumkin. O'quvchilar bunday vaziyatga birinchi marta duch kelayotganlari uchun ularga maksimal darajada yordam berish tavsiya etiladi.

Ushbu topshiriq alohida varaqqa bajariladi.

## YOZUVNI KIM IXTIRO QILGAN

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning yozuv haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. Matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish. Matn tarkibida qo'lingan vaqt va miqdorni bildiruvchi so'zlarning yozuvda harflar va sonlar bilan ifodalanishini, ularning imlosini hamda fikrni davom ettirishni va ikki fikrni bir-biriga bog'lovchi vositalar (*va, shuning uchun, chunki* so'zlari)ni qo'llashni o'rgatish. Tinglangan suhbat yordamida *x* va *h* tovushlarining hosil bo'lishi, ularning so'z tarkibida qo'llanishini farqlashni tushuntirish.

Matnlarni solishtirish. Matnlardagi mazmun, uslub, tuzilish jihatdan o'xshash va farqli tomonlarni topish hamda berilgan ma'lumotlar yordamida yozma matn yaratish ko'nikmasini shakllantirish.

**9-BO'LIM YOZUVNI KIM IXTIRO QILGAN**

Rasmlarda aks etgan so'zlarni toping.

eshik ko'z o'simlik  
? ? ?  
tog' ilon suv

Rasmga diqqat bilan qarang.

Ayting-chi, bu qadimiy rasmni yozuv deyish mumkinmi?  
Yozuv deyish mumkin bo'lsa, unda nimalar haqida yozilgan bo'lishi mumkin? O'ylab ko'ring.

1. Rasmdagi voqealarni yozing.

ovchi uy dengiz sheri orol

2. Daftardagi qadimiy yozuv matnini o'qing. O'z matningiz bilan solishtiring.

66



## 1-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Ayting-chi, rasmlı yozuv qanday bo'ladi?*

#### Asosiy qism

##### 1-topshiriq. Rasmlarda aks etgan so'zlarni toping.

Darslikda turli xil shakllar hamda so'zlar berilgan. Xattaxtaga birinchi qatordagi shakllarni chizib, quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Bu qanday shakl? Uni nimaga o'xshatypasiz?
2. Sizningcha, bu shakl orqali nima ifodalangan?

O'quvchilar javob berib bo'lgach, dastlabki uchta shaklning ostiga u anglatib kelgan so'zlar (eshik, ko'z, o'simlik)ni yozib, izoh beriladi. So'ng ikkinchi qatordagi shakllarni xattaxtaga chizib, ostidagi so'zlardan mosini moslashtirish aytiladi. Bunda asosiy maqsad – o'quvchilarda yozuvni rasm bilan ifodalash, ya'ni rasmlı yozuv haqida tasavvur hosil qilish.

##### 1-topshiriq. Rasmga diqqat bilan qarang.

Darslikda qadimiy yozuv turlaridan biri keltirilgan. Ushbu rasmlı yozuvni o'quvchi tafakkur qilib topishi lozim. Rasmni ko'rsatgan holda ostidagi savollar bilan bolaga murojaat qilinadi. Bunda o'quvchidan aynan rasm orqali nazarda tutilgan so'zni aytib berishi talab etilmaydi, u rasmlı harakatlar orqali tushunchalarni anglashi va og'zaki nutqida ifodalab berishi kerak.

**Eslatma:** har bir savolni 5–6 o'quvchiga bering. Savol va javobning takror bo'lib qolishi ahamiyatsiz, bunda o'quvchilarni darsga jalb etish hamda har birining nutqini nazorat qilish va o'stirish muhimligi nazarda tutiladi.

#### Yozma mashq

##### 3-topshiriq. Rasmdagi voqealarni yozing.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar darslikda berilgan rasmni ku-

zatic, unda qanday voqea aks etganini yozib berishi lozim.

Har bir o'quvchiga yozganlari o'qitiladi.

##### 4-topshiriq. Daftardagi qadimiy yozuv matnini o'qing. O'z matningiz bilan solishtiring.

Mazkur topshiriq mashq daftarida berilgan. Ushbu rasmlı yozuv xattaxtaga ko'rsatiladi va har bir o'quvchiga rasm bilan birga o'qib berishlari aytiladi.

O'quvchilar qadimiy yozuv matni bilan tanishganidan so'ng, o'zlari yozgan matn bilan taqqoslaydi. Bunda asosiy e'tibor matnlarni o'zaro taqqoslash, tushunish hamda munosabat bildirishga qaratiladi.

So'ng savol asosida suhbat tashkil qilinadi:

1. Nima deb o'ylaysiz, belgi va rasmlı yozuvlar hozir ham bormi?
2. Buyumlar solingan qutida, mahsulot qadog'ida, qurilmalarda, yo'l bo'yida, do'konlarda va oshxonada uchraydigan belgilarni eslaysizmi?
3. Ularning ma'nosini bilasizmi?

Bu savollarga o'quvchilar mavzudan olgan xulosalari hamda hayotiy kuzatishlari asosida javob berishi lozim. O'quvchi yetarlicha javob bermasa, yo'l bo'yida, do'konlarda ko'proq uchraydigan va hamma uchun tanish bo'lgan belgilardan namuna keltirib o'tilishi lozim.

## 2-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Ayting-chi, yozuv qanday paydo bo'lgan?*

#### Asosiy qism

##### O'qib tushunish.

O'quvchilar darslikda berilgan "Yozuvning tarixi" matnini o'qiydi. Bunda har bir o'quvchi bir yoki ikki gapdan o'qiydi. Bir o'quvchi o'qiyotgan vaqtda qolgan hamma matnni kuzatib turishi kerak.

"Kuzatib turing, men istagan o'quvchidan davom ettirishni so'rayman" deb ogohlantirish samara beradi.

Matn 2–3 marta qayta o'qib bo'lingach, 68-sahifadagi savollar bilan suhbat boshlanadi.



Ushbu savollarning javobi matnda aks etgan. O'quvchi matndan ushbu o'rinni topib, so'zlar va gaplardan ma'no chiqarib, matn mazmunini ochib bera olishi lozim. Bu savollar orqali o'quvchining o'qib tushunish malakasi tekshiriladi hamda yozuv tarixi haqida ma'lumot egallashlari nazarda tutiladi.

O'quvchilar savollarga javob berib bo'lgach, ularning javoblariga munosabat bildiriladi.

### Yozma mashq

#### 1-topshiriq. Matn qismlarini quyidagi sarlavhalar bilan moslashtiring.

Ushbu mashq daftarda bajariladi. Mashq daftarda qismlar hamda qismlarga mos sarlavhalar tartibsiz holda berilgan. O'quvchilar "Yozuvning tarixi" matnidan olgan xulosasi asosida qismlardan ma'no chiqarib, ularga sarlavha tanlashi lozim.

#### 1-topshiriq. Matndagi barcha gaplarni mazmunan bog'lab turgan so'z qaysi deb o'ylaysiz?

Darslikda 4 ta so'z berilgan. O'quvchilar matni mazmunan bog'lab turgan so'zni aytishlari lozim. Bunda ular matn nima haqidaligini, matn mazmunini ochib berayotgan kalit so'zni topib, izohlab berishi lozim.

### 3-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, buyumlar orqali yozuvni ifodalash mumkinmi?*

### Asosiy qism

#### 1-topshiriq. Buyumli yozuv haqidagi ma'lumotlarni o'qing.

Darslikda buyumli yozuv haqida ma'lumot berilgan. O'quvchilar ma'lumotni ovoz chiqarmay, ichlarida mustaqil ravishda o'qiydi. So'ng o'qituvchi baland ovozda ifodali qilib o'qib beradi.

So'ng keyingi topshiriq sharti bilan tanishtiriladi.

#### 2-topshiriq. Kichik guruhlariga bo'linib, o'qituvchingiz bergan qisqa ma'lumotni buyumlar yordamida ifodalang.

Mazkur topshiriqni o'quvchilar guruh bo'lib bajaradi. Bunda o'quvchilar kichik guruhlar-

ga bo'linib, o'qituvchi aytgan ma'lumotni buyumlar orqali ifodalab berishi lozim. Masalan, "Xattaxtaga yozing" deganda, bir o'quvchi o'rnidan turib, xattaxta va bo'r (marker)ni ko'rsatadi.

#### 3-topshiriq. "Yozuvning tarixi" matni asosida bo'sh o'rinlarni to'ldiring.

Mazkur topshiriq mashq daftarda bajariladi. Bunda matndan olingan gaplar keltirilgan hamda ayrim so'zlari tushirib qoldirilgan. O'quvchilar gaplar mazmuniga mos so'zlarni topib, bo'sh o'rinlarni to'ldirishlari lozim. Bu topshiriqni bajarishda "Yozuvning tarixi" matnini qayta o'qishlari mumkin. Asosiy e'tibor o'quvchilarning matni tushunishi, kerakli o'rinni topib, mazmunga mos so'zlarni tanlashiga qaratiladi.

Har bir o'quvchining mustaqil bajarishi nazorat qilib boriladi.

Mashqni bajarib bo'lgach, parcha o'qitilib, tekshiriladi.

#### 4-topshiriq. So'zlar to'g'ri yoki xato yozilganini matn yordamida tekshiring. Agar so'zlarda xato bo'lsa, ularni to'g'rilab, keyingi katakka yozing.

Mazkur topshiriq mashq daftarda bajariladi. Bunda ikki ustun berilgan bo'lib, birinchi ustunda so'zlar keltirilgan. O'quvchilar so'zlarni o'qiydilar, agar to'g'ri yozilgan bo'lsa "+" ishorasini qo'yadilar, xato yozilgan bo'lsa, to'g'ri variantini ikkinchi ustunga yozishlari lozim.

Bu topshiriq orqali o'quvchining lug'at boyligi hamda yozma savodxonligi tekshiriladi.

### 4-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, "ota" so'zidagi "t" harfi o'rniga "n" harfini qo'ysak, qanday so'z hosil bo'ladi? Ularning farqi bormi?*

### Asosiy qism

#### 1-topshiriq. "Dangasa harflar" audio-matnini tinglang.

**Eslatma:** o'qituvchi taqdim qilingan audiolarni ovoz kuchaytirgich orqali qo'yib



*eshittirishi lozim. Lekin turli xil texnik sabablar bilan buning imkoni bo'lmaganda o'qituvchining o'zi adabiy til normalariga amal qilgan holda, ravon va yetarlicha baland ovozda matnlarni o'qib berishi ham mumkin.*

## Audiomatn

### Dangasa harflar

Kunlarning birida aka-uka katta O va kichik o harfi mehnat qilishdan qochib, raqamlar mamlakatiga ketib qolishibdi. Harflar bu yerda bizni hech kim tanimaydi, chunki nol raqamiga o'xshaymiz, deb o'ylashibdi. Raqamlar esa ularni tanib qolishibdi. Qavs belgilari ke- lib, aka-ukalarni o'rab olibdi.

Bu paytda harflar mamlakatida qirol Ruchka janoblari majlis o'tkazibdi. Ular katta O va kichik o yo'qolib qolganidan qattiq qayg'uribdi.

Shunda A harfi:

– Ruxsat bersangiz, katta O va kichik o harflari o'rniga ukam kichik a ni ishlatsak, – debdi.

– Unda so'zlar noto'g'ri bo'lib qoladi-ku. “Olam” demoqchi bo'lsak, “alam” deb yoza- mizmi? – deya qirolning boshi qotibdi.

– Boshqa ilojimiz yo'q. Bo'lmasa, ham- mamiz ishsiz qolamiz. Bunga esa yo'l qo'yib bo'lmaydi, – debdi katta B harfi.

Shu payt to'rt va besh raqami qavs ichida- gi aka-uka harflarni tutib keltirishibdi. Qochoq harflarning boshi egik turgan ekan.

Qirol Ruchka esa aka-uka “o”ga bu ishlari yaxshi emasligini, agar bir harf yo'qolib yoki almashib qolsa ham, so'zlar noto'g'ri bo'lib qolishini, natijada kishilar bir-birlarini tus- hunmay qolishlari mumkinligini aytib, tanbeh beribdi. Aka-uka “o” esa aybiga iqror bo'lib, hammadan kechirim so'rashibdi.

Audiomatn eshittirilgach, darslikning 70-sahifasidagi savollar beriladi.

Bu savollar orqali o'quvchilarning eshitib tushunish ko'nikmasi tekshiriladi. Savollar- ning javobi audiomatnda berilgan. O'quvchi- lar savolni o'qib, eshitgan audiomatnlarini mulohaza qilib javob berishi lozim.

**1-topshiriq. Jadvalning ikki ustunidagi gap- larni solishtiring. Ulardagi farqni aniqlang.**

Mazkur topshiriq o'g'zaki bajariladi. Dars- likda berilgan so'zlar xattaxtada ko'rsatiladi.

O'quvchilar ikki ustundagi gaplarni navbat- ma-navbat o'qib, ma'nolarini taqqoslab beri- shi lozim.

O'quvchilar fikri eshitilgach, o'qituvchi to- monidan bu gaplardagi ma'no farqlanmasligi, har xil shakldagi gaplar bilan bitta mazmun ifodalash mumkinligi aytiladi.

## Yozma mashq

**2-topshiriq. Ertakdagi o'zingizga yoqqan 3 ta gapni yozing. Har bir gapni bosh harf bilan boshlang.** Mazkur topshi- riq daftarda bajariladi. Bunda har bir o'quvchi “Dangasa harflar” ertagidan o'ziga yoqqan 3 ta gapni ko'chirib yozishi lozim.

O'quvchilar yozib bo'lgach, yozgan gapla- ri o'qitiladi hamda o'qituvchi tomonidan gap haqida ma'lumot beriladi.

## 5-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, “beshik” so'zidan “b”ni olsak, nima bo'ladi?*

### Asosiy qism

#### She'rni o'qish.

Darslikda berilgan “Yozuv yovuz bo'lma- sin” she'ri hamda muallifi tanishtiriladi. O'quv- chilarga she'rni ovoz chiqarmay mustaqil o'qishlari aytiladi.

She'rni o'qib bo'lishgach, o'qituvchi bir marta baland ovozda o'qib eshittiradi.

So'ng quyidagi savollar bilan murojaat qi- linadi:

**1. Shoir nima uchun “qil” bilan “fil” so'zlarini qiyoslagan?**

Ushbu so'zlar xattaxtaga yozib qo'yiladi hamda o'quvchidan shoir she'rda qaysi jihati- ga ko'ra qiyoslagani so'raladi. O'quvchilar bir harfning o'rni almashishi gap ma'nosiga ta'sir qilishini aytib berishi lozim.

**2. “Gado” bilan “ado” so'zlarining ma'nosini bilasizmi?**

Bu savol orqali o'quvchilarning lug'at boy- ligi tekshiriladi. O'quvchilar “gado” va “ado” so'zlarini izohlab berishlari lozim. O'quvchilar yetarlicha javob berolmasa, so'zlar o'qituvchi tomonidan izohlab beriladi.



### 3. Nima uchun bulbulni “g’ulg’ul” demaslik kerak?

Ushbu savolda o’quvchilar “g’ulg’ul” so’zi orqali har xil harflarni tartiblab yozsak ham, ma’no anglatmasligi, harflar so’zlar ma’nosini o’zida aks ettirishini tushunib aytib berishi lozim.

### 4. “Tiniq “soy”ni “loy” qilma” misrasini izohlang.

She’rning bu bandi orqali o’quvchi shoirning nimani nazarda tutayotganini anglab yetishi, she’rda qo’llagan o’xshatishlarini tushunib, so’zlarni izohlab berishi lozim.

### 5. Aslida nima poyma-poy bo’lishi mumkin?

Bu savolga javob she’r matnidan kelib chiqadi. O’quvchi she’rdagi umumiy mazmunni tushunib, she’r orqali shoir aslida nima demoqchi bo’lganini aytib berishi lozim.

### 6. She’r sarlavhasidagi “yovuz” so’zining ma’nosini bilasizmi?

Bu savolga javob matn mazmunidan kelib chiqadi. O’quvchi “yovuz” so’zidagi harflarning o’rni almashib “yovuz” so’zi hosil bo’lishi hamda bu so’zlar ma’nosiga ta’sir qilishini aytib bera olishi lozim.

### 7. Qaysi ertak yoki multfilmda yovuz qahramon haqida eshitgansiz?

### 8. Sizningcha, she’rga yana qanday sarlavha qo’yish mumkin?

Ushbu savollarga o’quvchilar tafakkur qilib javob berishlari lozim. Ya’ni she’r matni mazmunidan olgan xulosalari hamda hayotiy kuzatishlari asosida javob berishlari nazarda tutilgan.

O’quvchilar javobi eshitilgach, yozma topshiriq sharti tushuntiriladi.

#### Yozma mashq

#### 1-topshiriq. She’rdan bitta tovush bilan farqlanayotgan so’zlarni ko’chiring.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda o’quvchilar she’r matnidan bitta tovush bilan farqlanadigan so’zlarni topib ko’chirishlari lozim.

Bu topshiriq orqali o’quvchining matn bilan ishlash ko’nikmasi shakllantiriladi.

6-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, maktabingizda qanday rasmlı belgilar bor?*

### Asosiy qism

#### Yozma mashq Quyidagi belgilarni izohlang va ma’nosini yozing.

Darslikda jamoat joylarida uchraydigan belgilar berilgan. Ushbu belgilarni ko’rsatgan holda har bir o’quvchiga savol bilan murojaat qilinadi:

1. Bu belgi va rasmlı yozuvlarnı qayerlarda uchratgansiz?

2. Nima deb o’ylaysiz, yozuvning bunday turidan nega foydalanamiz?

Ushbu savollarga o’quvchilar mavzu doirasida o’zlashtirgan bilimlari hamda hayotiy kuzatishlari asosida javob berishlari kerak. O’quvchilar yetarlicha ochib berolmasa, o’qituvchi tomonidan har belgiga alohida izoh beriladi. So’ng o’quvchilarga belgilar haqida o’zlashtirgan tushunchalarini yozib berish aytiladi.

#### “Bo’g’in” o’yinini o’ynaymiz.

Ushbu o’yin o’qituvchi tomonidan tashkil qilinadi. O’qituvchi keltirilgan namunani xat-taxtaga yozib, o’yin shartini o’quvchilarga tushuntiradi.

O’quvchilar o’yin shartini tushunganlaridan so’ng, o’yin boshlanadi. Birinchi so’zni o’qituvchi aytib, navbatma-navbat o’quvchilardan so’rashni boshlaydi. So’z topolmagan o’quvchi o’yinni tark etadi, oxirida qolgan o’quvchi rag’batlantiriladi.

Bu o’yin orqali o’quvchining lug’at boyligi, tezkorligi tekshiriladi.

## MO’YQALAM MO’JIZASI

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** tasviriy san’at asarlari bilan bog’liq tasavvurlarini

kengaytirish, ularni ta’riflashda faol ishlatiladigan so’zlarni qo’llashga o’rgatish,



talaffuzi va imlosi bilan mashq va topshiriqlar yordamida og'zaki, yozma, o'qib va tinglab tushunish bilan bog'liq nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish.

## 1-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

1. Mo'yqalam nima?
2. Undan qanday qilib mo'jiza yaratish mumkin?

#### Asosiy qism

**Berilgan rasmni diqqat bilan kuzating, unda kimlarni ko'ryapsiz? Bolalar nimalar bilan shug'ullanyapti?**

10-BO'LIM
MO'YQALAM MO'JIZASI

Rasmga qarang. Berilgan gaplarni o'qing.

Jamila "Kamalak" kuyini chalmoqda.

Ibrohim "Kamalak" nomli rasm chizmoqda.

Zarifa "Kamalak" nomli she'r yozmoqda.

- ① Nima deb o'ylaysiz, musiqa, rasm va she'rning qanday o'xshash jihatlari bor?
- ② Musiqa, rasm va she'rning bir-biridan farqi nimada?
- ③ Kamalakni tasvirlab berishda rasm chizishning qanday ustunligi bor?
- ④ Kamalakdagi eng yoqtirgan rangingiz qaysi?

1. Tasviriy san'at kitobingizda uchratgan rasmlaringizni so'zlar bilan moslashtiring. So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling.

haykaltaroshlik

rangli qalamlar

natyurmort

guash

akvarel

palitra

mo'yqalam

74

O'quvchilar rasmni diqqat bilan kuzatib bo'lganlaridan so'ng, berilgan savollar asosida suhbat boshlanadi.

Ushbu savol-javobda imkon qadar har bir o'quvchi o'z fikrini ifodalashi kerak.

**1. Nima deb o'ylaysiz, musiqa, rasm va she'rning qanday o'xshash jihatlari bor?**

O'quvchilar musiqa, rasm va she'rning o'xshash jihati ular insonning his-tuyg'ulari-

ga ta'sir o'tkaza olishi ekanligini anglashi va tushuntirishi kerak. "Yoqimli musiqani eshit-sangiz, o'zingizni qanday his qilasisiz?", "She'r aytish va tinglash sizga yoqadimi, nima uchun?" singari qo'shimcha savollar beriladi.

**2. Musiqa, rasm va she'rning bir-biridan farqi nimada?**

2-savolga javob berishda o'quvchilar har uchala san'at turining vazifasi insonning his-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish ekanligini, ammo ularni yaratish uchun turli vositalar kerakligini tushunib olishlari zarur.

**3. Kamalakni tasvirlab berishda rasm chizishning qanday ustunligi bor?**

Bir mavzu doirasida holat yoki manzarani turli shaklda ifodalash mumkinligi darslikda berilgan rasm orqali tushuntiriladi. "Jamila, Ibrohim va Oriflar nimalar bilan band? Ular qaysi mavzuda san'at asari tayyorlashmoqda?" kabi qo'shimcha savollar bilan murojaat qilinadi. Uchala bolaning harakatlari o'zaro qiyoslanib, rasm chizishda qanday ustunlik borligi haqida bolalardan so'raladi.

**4. Kamalakdagi eng yoqtirgan rangingiz qaysi?**

O'quvchilar o'z shaxsiy fikrlarini aytib, nima uchun shu rangni tanlaganliklarini imkon qadar tushuntirishga harakat qiladilar.

**1. Tasviriy san'at kitobingizda uchratgan rasmlaringizni so'zlar bilan moslashtiring. So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling.**

Haykaltaroshlik, mo'yqalam, guash, palitra, akvarel, rangli qalamlar, natyurmort.

Ushbu so'zlar qanday so'roqqa javob bo'lishini ham og'zaki ravishda so'rab ketishi mumkin. Topshiriqning eng muhim jihatlardan biri o'qituvchi o'quvchilar bilan ushbu so'zlarni talaffuz etish mashqlarini olib borishida hisoblanadi. O'quvchilar ushbu so'zlarni bir necha marta o'qituvchining yordami bilan talaffuz qiladi, ularni yodda saqlab qolishga harakat qiladi.

#### Yozma mashq

**1. Quyidagi shakllarning nomlarini yozing.**

Aylana va doiraning o'zaro farqi, kvadrat va to'rtburchakning o'zaro farqi haqidagi ma'lumotlar o'quvchilarning yodiga solinadi. Uchburchak, to'rtburchak singari shakllarning nomlari ulardagi burchaklar sonidan kelib chiqqanligi aytiladi.



## 2. Berilgan so'zlarga mos keluvchi ranglar nomini yozing.

Bir rangni darajasiga ko'ra oq, oppoq, oqimtir singari ifodalash mumkinligi o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

*Qo'ng'ir ayiq, sap-sariq jo'ja, moviy osmon, yashil o'rmon, nimpushti, oppoq qor, qora ko'mir.*

### 2-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

O'qituvchi o'quvchilar bilan quyidagi savollarni berish orqali suhbat boshlaydi.

1. *Tasviriy san'at darsi sizga yoqadimi?*
2. *Siz ushbu darsda nimalarni chizishni o'rgandingiz?*
3. *Ustozingiz rasm chizishda qanday qoidalar borligini sizga tushuntirganini eslab, aytib bera olasizmi?*
4. *Orangizda kelajakda rassom bo'lishni xohlaydiganlar bormi?*

### Asosiy qism

O'qituvchi o'quvchilardan matnni avval ichda o'qishni so'raydi. So'ng bir necha o'quvchining yordami bilan matn ifodali o'qiladi. Matnni o'qish jarayonida o'qituvchi o'quvchilar nutqini kuzatadi, ular yo'l qo'yayotgan kamchiliklarni tuzatishga harakat qiladi.

Savollarga javob berishda o'quvchining og'zaki nutqi kuzatiladi, o'quvchiga so'z tanlash uchun yordam beriladi.

1. **Rassomlar qayerlik edi?**
2. **Rassomlar nega bahs boylashadi?**

Ushbu savollarga javob berishda o'quvchilarning matnni o'qib tushunganlik darajasi sinovdan o'tkaziladi. O'quvchilar savollarga javob berish orqali matnning asosiy g'oyasi haqida ham gapirib o'tishlari mumkin. Shu o'rinda matnga yana qanday nom tanlash mumkinligi haqida ham qo'shimcha savollar bilan murojaat qilish mumkin.

3. **Sizningcha, hakam adolatli qaror chiqardimi?**
4. **Siz qaysi suratni yaxshiroq deb hisoblaysiz?**

3–4-savolga javob berish uchun esa o'quvchilar mulohaza qilishi, bo'lib o'tgan voqea-hodisaga nisbatan munosabat bildirishlari kerak bo'ladi. Shu vaziyatda o'qituvchi ikkita bir-biriga qarama-qarshi fikrlayotgan o'quvchini aniqlasa, ular o'rtasida bahs-munozara qilishi uchun sharoit yaratib berishi mumkin.

## 5. Rassomlardan birining o'rnida bo'lsangiz, qanday surat chizar edingiz? Sizningcha, rasm qanday chizilishi kerak?

5-savolga javob berish o'quvchidan ijodiy fikrlashni talab etadi. O'quvchilar o'z tasavvurlaridagi tasvirni so'z orqali ifodalab beradilar.

### 3-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

O'quvchilar bilan berilgan bo'lim mavzusi va o'tilgan dars bilan bog'liq suhbat o'tkaziladi. Bugungi darsning umumiy mazmuni so'zlab beriladi.

### Asosiy qism

Darslikda berilgan quyidagi topshiriqlar bajariladi.

#### Yozma mashq

1. **“Rassomlar bahsi” matnida alohida ko'rsatilgan so'zlarni bo'g'inga ajratib yozing.**

**Namuna:** *so'ng-ra, ya-shar, yax-shi, ki-rit-moq-chi, do-nish-mand, ki-shi-ni, i-chi-da, chi-zi-shib, kel-ti-ri-shib-di, bi-rin-chi, rang-lar-da, tum-shuq, shosh-mab-di, qa-rang-ki, qush-ni, ik-kin-chi-si.*

Jarayonda o'qituvchi so'zlarni bo'g'inlarga ajratish bilan bog'liq qoidalarni eslatishi kerak. Ayniqsa, “ng” harfi ishtirok etgan so'zlar, qator undoshlar ishtirok etgan so'zlarni bog'inlarga ajratish bilan bog'liq qoidalarni alohida ta'kidlab o'tish zarur.

2. **Topishmoqlarni o'qing va javobini toping.**

Bunda o'quvchilar topishmoqlarning tuzi-





lishi bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarga e'tiborini qaratish uchun quyidagi qo'shimcha topshiriqni bajaradilar.

**Rang, hajm va shakl-shamoyilni bildiruvchi so'zlarni ustun shaklida yozing.**

Topshiriqni bajarish uchun o'quvchilar topishmoqda berilgan shunday so'zlarni ajratib yozadilar, o'qituvchi shu o'rinda topishmoqlarni yaratishda narsalarning o'ziga xos belgilari, rangi, hajmi, shakl-shamoyili, vazifalarini tavsiflash, ularni boshqa narsaga o'xshatish muhimligini tushuntiradi. O'quvchilardan biror narsani shunday ta'riflab, topishmoq yaratishini so'raydi.

**Berilgan maqollardan qarama-qarshi ma'noli so'zlarni aniqlab yozing.**

O'qituvchi qarama-qarshi ma'noli so'zlarning nima uchun bir o'rinda qo'llanganligini tushuntiradi. Maqollarda insonlarning hayotiy tajribalari asosida hosil bo'lgan xulosalar ifodalaniishi, ushbu fikrlarni ifodalashda qarama-qarshi ma'noli so'zlardan foydalanish yaxshi natija berishini tushuntirib ketishi mumkin.

#### 4-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

Bugungi darsda Zumrad va Qimmat obrazini haqida gaplashishni aytib, o'quvchilardan darslikda berilgan rasimga diqqat qilishini so'raydi.

#### Asosiy qism

O'quvchilar darslikda berilgan rasmlarni kuzatishadi.

Berilgan savollarga javob berishda o'quvchilarning barchasi fikr aytishiga imkon berish kerak. Savollarga javob topishga qiynalayotgan o'quvchilar uchun qo'shimcha yo'naltiruvchi savollar bilan murojaat qilish lozim.

**1. Rasmlarning qay birida Zumrad, qay birida Qimmat tasvirlangan? Bir qarashdayoq Zumrad va Qimmatni tanidingizmi?**

Ushbu jarayonda Zumrad va Qimmatning o'ziga xos xarakterini ochib beruvchi so'zlardan, so'z birikmalaridan foydalanishga alohida ahamiyat berish lozim bo'ladi.

**2. Rasmdagi qaysi narsalardan Zumradni tanidingiz?**

**3. Rasmdagi qaysi narsalardan Qimmatni tanidingiz?**

2–3-savollarga javob berish barobarida o'quvchilarga insonlarga xos bo'lgan xarakterini, fazilatlarini tasvirlash uchun rassomlar qanday vositalardan foydalanishini tushuntirish kerak. Masalan, *“Qimmat qanday obraz? Zumrad-chi? Qimmatning qoshi, ko'zi, ustki kiyimlariga e'tibor bering. Nima uchun rassom uni shunday shaklda chizishga qaror qilgan? Zumradning ham ustki kiyimlari, sochlariga, yuz ifodasiga qarang. Rassom Zumradni qanday qiz sifatida tasvirlashga uringan? Rassomning mahoratini qanday baholaysiz? Siz Qimmat yoki Zumradni qanday tasvirlagan bo'lar edingiz?”* kabi qo'shimcha savollarga asosida suhbat olib borilsa, yuqoridagi savollarga ko'zlangan maqsad asosida javob olish mumkin bo'ladi.

**4. Qimmatning kiyimlari, yuz ko'rinishi qanday tasvirlangan? Nima uchun bunday?**

**5. Zumradning kiyimlari, yuz ko'rinishi qanday tasvirlangan? Nima uchun bunday?**

Ushbu jarayonda o'qituvchi Qimmatning va Zumradning yuz ifodasi bilan bog'liq bo'lgan ayrim so'zlarni xattaxtaga yozib yoki elektron xattaxta orqali namoyish etib, ular qahramonlardan qaysi biriga tegishli ekanligini aniqlashtiruvchi topshiriqni bajartirishi ham mumkin.

#### Yozma mashq

**1. Zumrad va Qimmatga xos belgi, xususiyatlar asosida jadvalni to'ldiring.**

Berilgan jadvalni to'ldirish uchun o'quvchilar Zumrad va Qimmatga xos bo'lgan belgi va xususiyatlarni aniqlaydilar. Ushbu jadvalni to'ldirishda nafaqat darslikda berilgan rasm, balki ertakning mazmunidan kelib chiqish yoki televizor orqali namoyish etilgan lavhalardan ham fikr olish mumkinligi aytiladi.

**2. Zumrad va Qimmatning qarama-qarshi tomonlari haqida gaplar tuzib yozing. Yuqorida to'ldirgan jadvalingizdan foydalaning.**

**Masalan:** *Zumrad odobli, Qimmat esa odobsiz qiz ekan.*



O'quvchilar yuqorida o'zlari to'ldirgan jadval yordamida ushbu topshiriqni bajaradilar.

## 5-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

1. *Kungaboqar haqida nimalarni bilasiz?*
2. *Nima uchun unga shunday nom tanlangan?*

#### Asosiy qism

O'quvchilar darslikda berilgan rasimga qaraydilar, unda tasvirlangan kungaboqarni og'zaki tasvirlab beradilar. Shundan so'ng berilgan she'rga e'tibor qaratiladi. She'rni bir nechta o'quvchi ifodali o'qib beradi.

**1. Rasm va she'rning o'xshash taraflari bormi? Ular qaysi?**

She'r ham, rasm ham insonning tasavvurlarini yuzaga chiqaruvchi vosita ekanligi tushuntiriladi. Birgina bahor faslining tarovatini ham rasm orqali, ham she'r orqali ifodalash mumkinligi tushuntiriladi. "Rassom nima maqsadda ushbu suratni chizgan?", "Shoirning ushbu she'rni yozishdan maqsadi nima edi?" singari qo'shimcha savollar beriladi.

**2. Rasm va she'rning farqli taraflari bormi? Ular qaysi?**

Ushbu savolga javob berish jarayonida o'quvchilar rasm rangli bo'yoqlar yordamida yaratilishini, she'r uchun esa sehrli so'zlar kerakligini tushunib olishlari kerak.

**3. Tabiatni tasvirlab berishda rasmning kuchli taraflari nimada?**

**4. Tabiatni tasvirlab berishda she'rning kuchli taraflari nimada?**

3- va 4-savollarga javob berishda rasm va she'rning kuchli tomoni nima ekanligi tushuntiriladi. O'quvchilar savollarga javob berish orqali kimda qanday iste'dod bo'lsa, undan foydalanish lozimligini tushunib olishlari kerak. Ulardan qaysi biri yoqqanligi va ushbu tanlovning sababi izohlanadi.

**5. She'rda kungaboqarlar nima uchun askarga o'xshatilgan?**

She'rda kungaboqarning nima uchun askarga o'xshatilganligi o'quvchilar tomonidan izohlanadi.

**6. She'rda quyosh nima uchun generalga o'xshatilgan?**

Javob berishdan avval general o'zi kimligi, uning vazifasi nimalardan iborat ekanligi aytiladi, so'ng berilgan savolning javobi tinglanadi. O'quvchilar general va quyoshning ayni vaziyatdagi holati, askar va kungaboqarning ayni holati qaysi tomondan bir-biriga o'xshash ekanligini tushunib olishlari kerak.

Keyingi topshiriqda o'quvchilar darslikda berilgan she'rni ifodali o'qiydilar.

Shundan so'ng o'quvchilar ushbu she'rda tasvirlangan manzarani chizishlari kerak bo'ladi. O'quvchilar o'zlarida paydo bo'lgan tasavvurlarni aniqlashtirib olishlari uchun quyidagi savollar asosida suhbat olib borilishi kerak.

1. *She'rda qaysi fasl tasvirlangan? Siz buni qayerdan bildingiz?*

2. *Ushbu misralarda qanday ob-havo tasviri bor?*

3. *She'rning qaysi misrasi sizga ko'proq yoqdi?*

4. *She'rda tasvirlangan manzarani chizish uchun sizga qanday rangdagi bo'yoqlar yoki qalamlar kerak bo'ladi?*

## 6-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

O'tilgan mavzu doirasidagi fikrlar umumlashtiriladi hamda quyidagi topshiriq beriladi.

#### Asosiy qism

**"Ketkazyapmiz bo'yoqni" she'rini tinglang.**

O'quvchilarga ushbu she'r audiomatn shaklida taqdim etiladi. O'quvchilar she'rni diqqat bilan tinglaydilar.

#### Ketkazyapmiz bo'yoqni

*Dadamiz turli rangga  
Bo'yaganda ayvonni,  
Biz ham qarab turmadik,  
Bo'yashvordik narvonni.  
Dadam tushlikka chiqib,  
Miriqib dam olganda,  
Cho'tkalar-u bo'yoqlar*



Ayvonchada qolganda  
Bir burda non tishladik,  
Bo'yoqchidek ishladik.  
Gultuvakni bo'yadik,  
So'ng pufakni bo'yadik.  
Keyin ko'zdan kechirib  
Ko'ylagimiz matosin,  
Gullar chizib tuzatdik  
Boshqalarning xatosin.  
Ro'paramizda shu chog'  
Paydo bo'ldi qo'zichoq.  
Avval biroz o'yladik,  
So'ng uni ham bo'yadik.  
Qarab tursak qo'yimiz  
Onalikka yaramas.  
Qo'zichog'i bo'yalgach,  
Bolasiga qaramas.  
Narvonchaga o'tirdik,  
Ayvonchaga suyaldik.  
O'zimiz ham, to'g'risi,  
Turli rangga bo'yaldik.  
Dadam bizni tanidi  
Shiqillatdik tuyoqni.  
Endi so'zdan chiqmasdan  
Ketkazyapmiz bo'yoqni.

Kavsar Turdiyeva

So'ng she'ning mazmuniga oid bo'lgan, o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan topshiriq bajariladi.

**She'rdagi qo'llangan tasviriy san'atga oid so'zlarni yozing.**

**Namuna:** bo'yoq, ...

Ushbu topshiriqni bajarish uchun o'quvchilarga she'rni qayta qo'yib eshittirish kerak bo'ladi. O'quvchilar topshiriq mazmuni bilan tanishgandan so'ng, uni qayta tinglash orqali ushbu topshiriqni bajaradilar.

She'rdagi ba'zi so'zlarning izohi bilan o'quvchilarni tanishtirish uchun berilgan savollar asosida suhbat olib boriladi.

**1. Ayvon uyning qaysi qismi?**

Birinchi savolga o'quvchilar o'z tushunchalari yordamida javob beradilar, o'qituvchi bir tomoni ochiq uyga nisbatan ayvon so'zi ishlatilishini tushuntiradi.

**2. "Shiqillatdik tuyoqni" deganda bolalar qanday harakat qilishgan?**

**3. "So'zdan chiqmaslik" deganda nimani tushunasiz?**

2–3-savollarda o'quvchilar she'r matnida

qo'llangan iboralarning ma'nosini izohlaydilar, ushbu harakatlarni o'z hayotlari bilan bog'liq holatda tasvirlashga harakat qilishadi. Buning uchun o'qituvchi iboralar ma'nosini tushuntirib bo'lgach, "Ushbu iboralarni yana kimning nutqida uchratgansiz?", "Oyingiz yoki yaqinlaringiz qanday vaziyatlarda ushbu iboralardan foydalanadilar?" kabi savollar bilan murojaat qiladi.

**4. Siz she'rga qanday sarlavha qo'ygan bo'lardingiz?**

O'qituvchi sarlavha tanlash qoidalarini, ya'ni sarlavhalar qisqa bo'lishi, juda uzun bo'lmasligi, hammani o'ziga jalb etishi, berilgan matn mazmuni bilan aloqador bo'lishi kerakligini tushuntirishi zarur.

7-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

O'tilgan mavzu doirasidagi fikrlar umumlashtiriladi hamda quyidagi topshiriq beriladi.

### Asosiy qism

**Rasmga qarab she'r yozing.**

1. Partadoshingiz bilan rasmda aks etgan voqea haqida fikr almashing.

2. She'r uchun chiroyli sarlavha o'ylab toping.

3. Yozgan she'ringizni partadoshingizga bering. Partadoshingizning she'ri haqida o'z fikringizni ayting.

Ushbu topshiriqni bajarishdan ko'zlangan asosiy maqsad nutqiy mavzu doirasida egalangan bilim hamda ko'nikmalarni ifodalab berish sanaladi. O'quvchilar topshiriqni bajarish jarayonida ijodiy tafakkurini namoyon qila olishi hamda yozma nutq malakalarini egallashi sari yo'naltirib boriladi. O'qituvchi she'r yozish jarayonida o'quvchilarga she'r yozishga oid ko'rsatmalarni ham eslatib turishi mumkin.

Ijodiy ishlar imkon qadar muhokama qilinadi, ularning yutug'i va kamchiliklari haqida gapiriladi. She'r yozishga qiynalgan o'quvchilar uchun qo'shimcha ko'rsatmalar beriladi.



## BOLALAR QO'SHIQLARI

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning qo'shiq, xalq qo'shiqlari, folklor haqidagi tasvurlarini kengaytirish. Tabiatdagi hodisalar tovushiga taqlid, hayvonlar tovushiga taqlid so'zlar ustida ishlash. Badiiy hamda informativ matnlarda ochiq ifodalangan ma'lumotlar (qahramonlar, faktlar, detallar) yordamida javob berish hamda javobini asoslab bera olish ko'nikmasini rivojlantirish. Mavzu doirasida o'quvchining so'z boyligini o'stirish, yangi so'zlarni nutqida qo'llashi uchun imkoniyat yaratish.

### 1-soat

#### DARS JARAYONI

##### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'quvchilar bo'lim hamda yangi mavzu nomi bilan tanishtiriladi.

*Bolalar qo'shiqlari kattalar qo'shiqlaridan farq qiladimi?*

*Bolalar qo'shiqlari qanaqa bo'ladi?*

##### Asosiy qism

Darslikning 83-betida 6 ta hayvon rasmi berilgan. O'quvchilar shu hayvonlar qanday tovush chiqarishini aytib berishlari kerak bo'ladi. O'quvchilar bilmay qolgan o'rinlarda o'qituvchi yordam berib yuborishi tavsiya etiladi.

##### Qo'shiq

O'qituvchi darslikning 83-betida berilgan "Jo'jalarim" qo'shig'ini kuylab beradi. O'quvchilar avval tinglashadi, keyin birgalikda qayta kuylashadi.

##### Savol-javob

Savol-javob "Jo'jalarim" matni asosida o'tkaziladi.

Ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi savolda xat-taxtaga yozish mumkin.

### 2-soat

#### DARS JARAYONI

##### Kirish

*Qaysi hayvon qanaqa ovoz chiqarar edi?*

##### Asosiy qism

##### Yozma mashq

O'quvchilar darslikning 84-betida berilgan "Ona chumchuq va bola chumchuq" she'rini o'qiydilar. Undagi tovushga taqlid so'zlarni aniqlab, namunadagi kabi yozadilar.

O'qituvchi quyidagi she'rlarni ham o'qib beradi:

*Qushlarda hech insof yo'q,  
Sal narsaga kulishar.  
Meni "burning qizil" deb  
Doim ermak qilishar,  
G'ul-g'ul-g'ul!*

*Shu sababdan oshnavoy,  
Jinim suymas qizilni.  
Qizil shimda yo'liqma,  
Ko'tarmayman hazilni,  
G'ul-g'ul-g'ul! (Anvar Obidjon)*

*"Qand" deb yig'lar buzog'im,  
Hech tinchimas qulog'im,  
Mo'-o!  
Ko'nmayapti u sira,  
Bersam hatto kunjara,  
Mo'-o!*

*Bilmaydiki esi past,  
Ko'k beda ham yomonmas,  
Mo'-o!  
Nima u "qand" degani,  
Arziydimi yegani?  
Mo'-o!(Anvar Obidjon)*

O'quvchilar xattaxta yoniga chiqib, hayvonlar nomini hamda ular chiqaradigan tovushni yozadilar. Avvalo, darslikdagi hamda o'qituvchi o'qib bergan she'rlardagi hayvonlarni yozish tavsiya etiladi, keyinchalik vaqt taqsimoti mos kelsa, boshqa hayvonlarni ham yozish mumkin.

Mana shu topshiriqdan keyin o'quvchilarga taqlid so'z nima ekanligi haqidagi nazariy ma'lumot yetkaziladi.



## Yozma mashq

### 1-topshiriq

O'quvchilar darslikning 85-betida berilgan namuna asosida birikmalar tuzib yozishlari kerak bo'ladi. Ushbu topshiriq mashq dafta- riga bajariladi.

Ushbu topshiriq orqali o'quvchilarga so'z- larga -ulla hamda -illa qo'shimchalarining qo'shilishi bilan bog'liq qoidalarni singdirish maqsad qilingan.

Topshiriqni bajarish jarayonida o'qituvchi aylanib yuradi va xatolarni o'rnida to'g'rilash- ga urinadi.

Topshiriq bajarib bo'lingach, xohlovchilar o'z yozganlarini o'qib berishlari mumkin.

### 3-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Qaysi qo'shiqni yaxshi ko'rib tinglaysiz?*

### Asosiy qism

#### Qo'shiq kuylash

O'quvchilarga "Kulcha" hamda "Kim oladi shuginani?" qo'shiqlari ketma-ket qo'yib be- riladi. O'quvchilar jo'rlukda birga kuylashlari tavsiya etiladi. O'qituvchi yoshlikda shu qo'- shiqlarni aytib katta bo'lgani haqida 2 minut so'zlab berishi ham mumkin.

**Eslatma:** qo'shiqni eshittirish imko- ni bo'lmaganda o'qituvchi o'zi kuylashi mumkin yoki telefondagi ilova orqali qo'- yib eshittirsa ham bo'ladi.

"Oyijon, oyijon-a" qo'shig'ining yarmi she'riy shaklda berilgan. O'quvchilar birinchi qismini eshitib olgach, ikkinchi qismini xud- di birinchi qism ritmiga solgan holda kuylab berishlari kerak bo'ladi. Bunda xor bo'lib kuy- lash usulidan foydalanish tavsiya etiladi.

### 4-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Tabiatda qanday tovushlarni eshitamiz?*

*Shamolning ham tovushi bormi?*

### Asosiy qism

#### O'qib tushunish

Darslikning 86-betida "Arra g'iz-g'iz" she'ri berilgan. O'quvchilar avval bu she'rni ichla- rida o'qib oladilar (2 minut), keyin o'qituvchi o'zi bir marta namuna uchun o'qib beradi. Ana undan keyin o'quvchilar ovoz chiqarib she'rni o'qiydilar va ostidagi savollarga javob beradilar.

**She'rdan nima uchun arra "g'iz-g'iz" de- yilmoqda?**

O'quvchilarning hammasi arrani, arralash jarayonini ko'rmagan bo'lishi mumkin. Shu- ning uchun ularga bu savolga javob berishda ko'maklashib yuborish lozim. Ushbu savolga eng yaxshi javob: chunki arralaganda g'iz- g'iz degan ovoz chiqadi.

**Narsalardan chiqadigan yana qanday tovushlarni bilasiz?**

O'quvchilar o'zlariga tanish bo'lgan nar- salardan chiqadigan tovushlarni o'xshatib berishlari kerak bo'ladi. Og'zaki o'xshatib berishning o'zi yetarli.

#### Yozma mashq

##### 2-topshiriq

Ushbu topshiriq mashq dafta- riga bajarila- di. Darslikning 86-betida turli hodisalar tasvir- langan rasmlar mavjud. O'quvchilar ana shu hodisalarga mos taqlid so'zlarni tanlashlari va yozib berishlari kerak bo'ladi.

Topshiriqni bajarish yanada oson bo'lishi uchun avval og'zaki bajartirib ko'rish ham mumkin.

#### Yozma mashq

O'quvchilarga turli hodisalarning ovozi qo'yib eshittiriladi. O'quvchilar ularni yozuv- da ifodalashlari kerak bo'ladi. Ushbu topshi- riq mashq dafta- riga bajariladi. Har bir tovush alohida-alohida qo'yib beriladi hamda o'quv- chilar yozib olishlari uchun tanaffus qilinadi va keyingi tovushga o'tiladi.

### 5-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish



Qanday so'zlar taqlid so'zlar deyilar edi?

### Asosiy qism

#### Yozma mashq

##### 3-topshiriq

O'quvchilar darslikning 87-betida berilgan namuna asosida birikmalar tuzib yozishlari kerak bo'ladi. Ushbu topshiriq mashq dafta- riga bajariladi.

Mazkur topshiriq orqali o'quvchilarga so'z- larga -ulla, -la hamda -illa qo'shimchalarining qo'shilishi bilan bog'liq qoidalarni tushuntirish maqsad qiligan.

Topshiriqni bajarish jarayonida o'qituvchi aylanib yuradi va xatolarni o'rnida to'g'rilash- ga urinadi.

Topshiriq bajarib bo'lingach, xohlovchilar o'z yozganlarini o'qib berishlari mumkin.

#### Yozma mashq

##### 4-topshiriq

Ushbu topshiriq mashq dafta- riga bajari- ladi. O'quvchilar shu paytgacha o'rgangan taqlid so'zlarini qatnashtirib 6 ta gap tuzib be- rishlari kerak.

Topshiriq bajarib bo'lingach, xohlovchilar o'zlari tuzgan gapni o'qib berishlari mumkin.

#### Yozma mashq

##### 6-topshiriq

Ushbu topshiriq mashq dafta- riga baja- riladi. O'quvchilar she'r matnida uchragan ko'plikda qo'llangan narsa nomlarini yozib chiqishlari kerak bo'ladi.

Yozishga kirishishlaridan oldin ko'plik shakli qanday ekanini so'rab ko'rishingiz mumkin.

#### Qiziqarli o'yin

O'quvchilar bilan darslikning 87-betida berilgan ko'rsatmalar asosida qiziqarli o'yin tashkil etiladi.

### 6-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

Alla qo'shig'ini eshitganmisiz? Uni kimlar aytadi?

Musiqasiz ham qo'shiq bo'lishi mumkinmi?

### Asosiy qism

#### Qo'shiq tinglash

O'quvchilarning diqqat qilishlari so'raladi hamda Gulbahor Erqulova ijrosidagi "Alla" qo'shig'i qo'yib eshittiriladi.

#### O'qib tushunish

Darslikning 87– 89-betlarida berilgan "Alla" matnini o'qish. Matnni birinchi o'qituvchi o'qib beradi. Undan keyin o'quvchilarga matnni ichlarida o'qib olishlari uchun vaqt beriladi (6 minut), shundan so'ng o'quvchilar navbat bilan matnni ovoz chiqarib o'qiy boshlaydilar hamda matn ostidagi savollarga javob bera- dilar.

#### Uyga topshiriq

O'quvchilarga onasi, buvisi, bobosi yoki dadasidan yoshliklarida qanday qo'shiqlarni aytib o'ynashganini so'rab, so'zlarini daftarga yozib kelish topshirig'i beriladi. O'quvchilarga qo'shiqlar o'zbek tilida bo'lishi kerakligini ta- yinlash lozim.

### 7-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

O'quvchilar, kimning oilasidagilar ko'proq qo'shiq bilarkan, hozir aniqlab olamiz-a?

### Asosiy qism

#### Qo'shiq kuylash

O'quvchilar uyda o'rganib kelgan qo'shiq- larini kuylab beradilar. Sinfdozlarining qo'- shiqlarini ham diqqat bilan tinglab, ularni ham o'rganib olishga harakat qilishlari lozim.

Namuna tariqasida o'qituvchining o'zi bitta qo'shiq kuylab berishi maqsadga muvofiq.



## YO'L QOIDASI – UMR FOYDASI

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning yo'l qoidasi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. Mavzu yuzasidan suhbat uyushtirish. Yo'l belgilari va ularning yozuvda aks etishi, shaxs va narsalarning harakat-holatini bildiruvchi so'zlarni belgilashni o'rgatish. Muloqot odobi, kattalar va tengdoshlar bilan muloqotga kirishish, navbatda turish jarayonida qo'llanadigan so'zlar bilan tanishtirish. Berilgan rasmdagi vaziyat asosida o'z fikrini tartibli va to'liq ifodalash bilan bog'liq topshiriqlarni bajarish yordamida og'zaki nutq yaratish. Bu jarayonda nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish, noto'g'ri talaffuz natijasida ma'nosi o'zgaradigan so'zlarni aniqlashni o'rgatish. Matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish. Mavzu yuzasidan matn yaratish, xat yozish ko'nikmasini shakllantirish.

### 1-soat

#### DARS JARAYONI

##### Kirish

*Ayting-chi, yo'ldan o'tishda qanday qoidaga rioya qilasiz?*

##### Asosiy qism

Darslikda mashina yo'lida harakatlanishga doir rasm berilgan. O'quvchilar diqqatini rasimga qaratgan holda rasmdagi detallarga bog'liq savol bilan murojaat qilinadi:

1. Rasmda nimani ko'ryapsiz?
2. Bu qanday yo'l?
3. Yo'lga nega oq chiziqlar chizilgan? Bu nimani bildiradi?
4. Bu nima? Nega uning yashil chirog'i yongan?

O'quvchilar javobi eshitilgach, rasm ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Savollar o'quvchilarni rasmlarni o'zaro taqqoslab, xulosa qilishga yo'naltiradi. Ular ushbu savollarga hayotiy kuzatishlari asosida javob berishi nazarda tutilgan.

O'quvchilar javob berib bo'lgach, ularning javoblariga munosabat bildiriladi hamda rasmdagi har bir holat izohlab beriladi.

##### Yozma mashq

**1-topshiriq. Yo'ldagi harakat va holat bilan bog'liq so'zlarni yozing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar berilgan namuna asosida yo'ldagi harakat va holatni ifodalaydigan so'zlarni yozishlari lozim.

Bu topshiriq orqali o'quvchining lug'at boyligi tekshiriladi. O'quvchilar yozib bo'lgach, yozgan so'zlari o'qitiladi. Xato yozgan bo'lsa, nima uchun xatoligi, to'g'ri yozgan bo'lsa, nima uchun to'g'riligi izohlanadi hamda harakat va holatni ifodalaydigan so'zlar haqida ma'lumot beriladi.

**2-topshiriq. Rasm asosida gaplar tuzing va yozing. Gaplardagi harakat va holatni bildirgan so'zlarni so'roqlar orqali aniqlang.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar A, B, D, E rasmlariga qarab har bir holat yuzasidan gap tuzib yozishlari lozim. O'quvchilar rasmdagi bolalarga ism tanlashi, ko'chaga nom berishi mumkin.

Mashqni yozib bo'lgach, har bir o'quvchiga yozgan gaplari o'qitiladi. Xato va kamchiliklar bo'lsa, birgalikda tuzatiladi.

### 2-soat

#### DARS JARAYONI

##### Kirish

*Ayting-chi, qanday yo'l belgilarini bilasiz?*

##### Asosiy qism

**1-topshiriq. Sizingcha, belgilardagi ranglar nimani bildiradi?**

Darslikning 92-betida turli yo'l belgilari berilgan. Ularning ranglari ham turlicha. O'quvchilar ana shu ranglar nimani anglatishini tushunishga urinadilar. Odatda qizil rang taqiqlovchi belgilarda, havorang ko'rsatuvchi, yo'naltiruvchi belgilarda, sariq rang esa ogohlantiruvchi belgilarda qo'llanadi. O'quvchilarga shu ma'lumotni qo'shimcha bilim sifatida yetkazish tavsiya etiladi.

**Belgilarni so'zlar bilan moslashtiring. Vazifasini muhokama qiling.**

O'quvchilar darslikning 92-betida berilgan yo'l belgilari hamda ularning nomlarini o'zaro moslashtirishlari kerak. Bunda o'qituvchi qi-



Yinlik qilgan belgilarda o'quvchilarga yordam berib turishi mumkin. Har bir yo'l belgisiga alohida to'xtalib, uning vazifasi haqida batafsil muhokama uyushtirish tavsiya etiladi.

### Yozma mashq 3-topshiriq

Ushbu topshiriq mashq daftariga bajariladi. O'quvchilar o'zlariga yoqqan 4 belgini tanlab, ularga darslikning 93-betida berilgan namunadagi kabi izoh yozishlari kerak. Avval o'quvchilar o'z izohlarini og'zaki aytishlariga imkon berishingiz mumkin.

#### 3-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Maktabingiz oldidagi piyodalar o'tish joyini bildiruvchi belgini ko'rganda haydovchi nima qilishi kerak?*

*Siz yo'lni doim belgilangan joydan kesib o'tasizmi? Nega unday qilasiz?*

#### Asosiy qism

#### O'qib tushunish

Darslikning 93–94-betlarida berilgan “Yolg'iz qolgan yo'l belgisi” matnini o'qish.

O'qituvchi avval o'zi o'qib beradi. Keyin o'quvchilarga ichlarida o'qib olishlari uchun vaqt beriladi (7 minut). Shundan keyin o'quvchilar navbat bilan ovoz chiqarib o'qiydilar va savollarga javob bera boshlaydilar.

Darslikdagi 3-savolda “zerika boshladi” hamda “zerikib qoldim” so'zlarining ma'noviy farqi haqida savol berilgan. O'qituvchi o'quvchilarning javobini tinglagach, umumlashtirib yakuniy xulosani aytadi. *Zerika boshladi* degani zerikishni endi boshladi, u hali davom etmoqda degan ma'noni bildiradi. *Zerikib qoldim* esa allaqachon zerikib bo'lganini anglatish uchun ishlatiladi.

#### 4-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*“Gavjum” so'zi qanday ma'no anglatishini bilasizmi?*

*Tushunmagan so'zlarimizning ma'nosini*

*qayerdan topsak bo'ladi?*

#### Asosiy qism

#### Leksikologiya

Darslikning 95-betida so'zlar va ularga mos izohlar ustun shaklida berilgan. So'zlar hamda izohlarni o'zaro moslashtirish lozim. Bunda o'qituvchi avval o'zi xattaxtda bittasini bajarib ko'rsatadi. So'zlarning ma'nosini aniqlashda matndan, lug'atlardan foydalanish o'rgatiladi.

#### Yozma mashq 4-topshiriq

Ushbu topshiriq mashq daftariga bajariladi. Mashq daftarida so'zlar va gaplar berilgan. Gaplarda almashtirish mumkin bo'lgan so'zlar ajratib ko'rsatilgan. O'quvchilar yaqinda o'rgangan so'zlarining ma'nolari asosida ajratib ko'rsatilgan so'z o'rniga tavsiya qilingan so'zlarni qo'yib, gapni qayta yozib berishi lozim. Bu mashqni avval og'zaki bajarib olish tavsiya etiladi, chunki bu ancha qiyin topshiriq.

#### Yozma mashq 5-topshiriq

Darslikning 95-betida rasmlar berilgan. O'quvchilar o'sha rasmlarda qanday harakatlar amalga oshirilayotgani hamda qanday holatlar tasvirlanganiga qarab kerakli fe'llarni tanlashlari va shu fe'llarni qatnashtirib gap tuzishlari kerak. Topshiriqni bajarish osonlashishi uchun o'qituvchi xattaxtda bitta namuna ko'rsatib berishi tavsiya etiladi.

#### 5-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Yo'l harakati qoidalarini bilmaslik nimalarga olib kelishi mumkin?*

*Siz yo'l belgilariga doim amal qilasizmi?*

#### Asosiy qism

#### Audiomatn

O'quvchilardan diqqat qilishlari so'raladi hamda audiomatn qo'yib eshittiriladi:

Yalmog'iz kampir o'rmonda Baroq ismli mushugi bilan yasharkan. Yalmog'iz kampir yo'l qoidalarini hecham o'rganmagan ekan,





chunki bu kerak emas deb o'ylabdi. Axir yalmog'iz kampir bo'lsa, har doim o'z supurgisida uchib yursa. Juda baland uchgani uchun hech kimga xalal bermasa.

Bir kuni yalmog'iz kampir mushugi Baroq bilan maymunjon terish uchun yo'lga chiqdi. Har doimgidek supurgisida uchib yurib maymunjonlar bor joyni qidirdi. Topdi-yu, tezlik bilan pastga sho'ng'idi. Afsuski, bu safargi qo'nish muvaffaqiyatli chiqmadi. Yalmog'iz kampir botqoqlikka tushib ketdi. Baroqvoy hamda o'zini qutqarishga ulgurdi-yu, uchar supurgisi botqoqqa botib ketdi.

Yalmog'iz kampir supurgisiz qoldi. Endi nima qilaman deb turganda xayoliga Bahodir kelib qoldi. U bu masalada yordam berishi mumkin edi. Bahodirning kuchi ko'p, u botqoqdan supurgini olib chiqib bera oladi deb o'yladi. Lekin bir muammo bor edi, uning uyi o'rmonning narigi tomonida. Tavakkal dediyu, kampir va Baroqvoy yo'lga tushdi.

Bahodirning uyiga borish uchun katta yo'l ni kesib o'tish kerak edi. Lekin yalmog'iz kampir ham, mushugi Baroq ham yo'l qoidalarini bilmasdi. Ular qatnov qismiga yaqinlashdilar. Mashinalar tinimsiz shuv-shuv o'tib turardi. Kampir biroz o'ylanib turdi-da, yugurib yo'ldan o'ta boshladi. Birdan mashinalarning chiyillab to'xtashidan, signallarini chalishidan shovqin-suron bo'lib ketdi. Ilgari hecham bunaqasini ko'rmagan yalmog'iz kampir qo'rqib ketdi. Darrov ortiga qaytib oldi. Kampirga ergashib yugurgan Baroqni esa mashina urib yubordi. Yaxshiyamki, atrofdagilar darrov tez yordam chaqirishdi. Tez yordam kelib, Baroqni shifoxonaga olib ketdi. Yalmog'iz kampir ham ortlaridan bormoqchi bo'ldi-yu, yo'ldagi xavflardan qo'rqdi. Avval supurgimni botqoqdan chiqarib olishim kerak deb o'yladi. Keyin bemalol kasalxonaga uchib borishi mumkin edi.

Shu payt Shalpangquloq quyon kelib qoldi. U juda ham aqlli va odobli bo'lib, hamma narsani bilardi. Yalmog'iz uni ko'rib, savolga tutdi: "Shalpangquloqjon, ayt-chi, yo'lning narigi tomoniga qanday qilib o'tib olsam bo'ladi?" Quyon: "Yo'l ni svetofor yashil chirog'ini yoqqanda kesib o'tish mumkin, shunda ham yo'lkesardan kesib o'tish kerak, u xuddi..." yalmog'iz shoshqaloqlik qilib quyonning qolgan gapini eshitmadi, yo'lkesarni qidirib ketdi.

Quyon baqirgancha qoldi: "U xuddi zebra ga o'xshaydi, oq va qora chiziqlari bo'ladi". Yugurib ketayotgan Yalmog'iz kampir zebra degan so'zni eshitib qoldi.

Yalmog'iz kampir yo'lkesarni qidirib ancha uzoq yurdi. Birdan ikki ko'zli g'alati fonus oldida turgan tipratikanga ko'zi tushib qoldi. Ushbu fonusning bir ko'zi yashil bir ko'zi qizil edi hamda ikkalasi navbat bilan porlardi. Yalmog'iz tipratikandan so'radi: "Tikanvoy, siz bu yerda Yo'lkesar zebra ni ko'rmadingizmi?". Tipratikan unga yo'lkesar zebra bu piyodalar o'tish joyi ekanini hamda u umuman zebra emasligini, yo'lga chizilgan oq yo'llar ekanini tushuntirdi. Zebraning terisiga o'xshagani uchun uni zebra ham deyishlarini aytdi. "Ana, yashil chiroq yondi, mana shu yo'lkesardan o'tavering", dedi tipratikan. Yalmog'iz endi bemalol yo'ldan o'tib oldi. Tipratikanga rahmat aytib, Bahodirning uyiga shoshildi.

Bahodir barcha voqeani tinglab turdi-da, darrov yalmog'izga yordam berish uchun yo'lga tushdi. Ular supurgini botqoqdan osongina chiqarib olishdi. Yalmog'iz uni tezda tozaladi va birga kasalxona uchib borishdi.

Shifokorning aytishicha, Baroqvoyning omadi kelibdi, uning hech qayeri sinmabdi, lekin juda qo'rqib ketganidan hushini yo'qotgan ekan. Yalmog'iz kampir Baroq tuzalib ketgach, uyga borishlari bilan yo'l harakati qoidalarini o'rganib olishni ko'ngliga tugib qo'ydi. Men uchib yursam ham, baribir u kerak ekan deb o'yladi.

Audiomatnni o'quvchilarning istaklariga ko'ra ikki marta eshittirish mumkin. Agar o'qituvchi matnni o'zi o'qib bergan bo'lsa unda bir martalik eshituv yetarli.

## Yozma mashq

### 6-topshiriq

Ushbu topshiriq mashq daftariga bajariladi. U ko'ptarkibli topshiriq hisoblanadi. Ya'ni bir necha topshiriqlar jamlanmasi. O'quvchilar eshittirilgan matn asosida topshiriqlarni ketma-ket bajarib boradilar.

#### 6.1-topshiriq. Voqealarni matnga ko'ra tartiblash.

Bunda o'quvchilar eshittirilgan matndagi voqealar ketma-ketligini to'g'ri belgilashlari kerak bo'ladi.

#### 6.2-topshiriq. Muqobil javobli test.



O'quvchilar audiomatn asosida tuzilgan testning javobini topishlari kerak. Bu mashqni avval og'zaki bajarib, keyin hamma daftarga belgilab qo'yishi ham mumkin.

**6.3-topshiriq. Yalmog'iz kampirning holati tasvirlangan o'rinni yozish.** O'quvchilar matn asosida Yalmog'iz kampirning yo'ldan o'tayotgandagi holati tasvirini yozib berishlari kerak bo'ladi.

**6.4-topshiriq. Muqobil javobli test.**

O'quvchilar audiomatn asosida tuzilgan muqobil javobli testni yechishlari kerak bo'ladi. Buni kim birinchi to'g'ri bajarish o'yini sifatida tashkillasa ham bo'ladi.

**6.5-topshiriq. "Ha yoki yo'q".**

O'quvchilar aytilgan hukmgga "Ha" yoki "Yo'q" deb javob berishlari kerak bo'ladi. Bunda o'qituvchi javob to'g'ri bo'lsa ham, noto'g'ri bo'lsa ham, indamay turadi. Sinfdagi bir necha kishidan so'ragach, keyin to'g'ri javobni aytadi. Har bir o'quvchi o'zi aytgan javobni asoslab berishi lozim.

**6.6-topshiriq. Leksikologiya**

Audiomatn tarkibida uchragan so'zlardan 4 tasi chap ustunga yozilgan. O'ng ustunga o'quvchilar o'zlari yozishlari kerak. Ushbu topshiriqni xattaxtada bajartirish samaraliroq.

**6.7-topshiriq. Qahramonlarni yozish**

O'quvchilar audiomatn davomida qatnashgan qahramonlarning ismlarini yozib berishlari kerak bo'ladi.

6-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Piyodalar yo'lagi nima uchun joriy qilingan deb o'ylaysiz?*

*Agar hamma piyoda yursa yoki hamma mashinada yursa, nima bo'ladi?*

### Asosiy qism

#### O'qib tushunish

O'qituvchi darslikning 96-betida berilgan "Piyodalar qo'shig'i" she'rini yetarlicha baland ovoz, kerakli intonatsiya va ravonlik bilan o'qib beradi. O'quvchilar o'qituvchiga o'xshab o'qishga harakat qiladilar. She'rni kamida ikki marta o'qishgach, savol-javobga o'tish mumkin.

Darslikdagi 2-savolda yo'ldan kesib o'tishda nega chap tomonga qarash kerakligi so-

ralgan. O'qituvchi bu qoida hamma davlatda ham bir xil emasligini, ko'p davlatlarda o'ng tomonga qarash zarurligini aytib o'tadi. Bizda chap tomonga qaralishining sababi esa mashinalar odatda chap tomondan keladi.

#### Yozma mashq

**7-topshiriq.** O'quvchilar she'r matnida qo'llangan harakat va holatni ifodalovchi so'zlarni yozishadi. Ushbu topshiriq mashq daftariga bajariladi.

7-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Biror marta hikoya to'qiganmisiz? U nima haqida edi?*

### Asosiy qism

#### Og'zaki nutq

Darslikning 97-betida rasm va ko'rsatmalar mavjud. O'qituvchi o'sha ko'rsatmalarni o'qib beradi va o'quvchilarga tayyorlanish uchun 7 minut vaqt beradi. Bu vaqtda o'quvchilar ko'rsatma asosida nimalarni gapirishini o'zi uchun belgilab oladi.

Vaqt tugagach, navbat bilan chiqib o'z nutqlarini so'zlab beradilar.

#### Baholash

Bir o'quvchi nutq so'zlayotganda boshqalar uning nutqini kuzatib turadi va xatolarini yozib borishga harakat qiladi. Bir o'quvchi so'zini tugatgach, kimdir uning xatosini aytishi mumkin.

8-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Multfilmlardan ham biror nima o'rganish mumkin deb o'ylaysizmi?*

*Siz qaysi multfilmdan yangi bilim o'rganib olgansiz?*

### Asosiy qism

#### Tomosha

O'quvchilarga "Yo'l va bolalar" multfilmi



qo'yib beriladi. Yoki hamma o'z telefonida ko'rishi ham mumkin. O'quvchilar o'sha videodan eslab qolgan qoidalarini yozib beradilar. Ushbu topshiriq mashq daftariga bajariladi.

### Topishmoqlar

Darslikning 98-betida uchta topishmoq berilgan. Topishmoqlarda transport vositalarining nomini yashiringan. O'quvchilar qoidalar asosida shu topishmoqlarni topishlari kerak.

9-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Televizorda yo'l harakati qoidalariga amal*

## NAVBATDA TURISHNI BILASIZMI?

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning navbatda turish haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. Mavzu yuzasidan suhbat uyushtirish, muloqot odobi, kattalar va tengdoshlar bilan muloqotga kirishish, navbatda turish jarayonida qo'llanadigan so'zlar bilan tanishtirish. Matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish. Murojaat va mulozamatni ifodalovchi so'zlar. Tartib sonlarning imlosi. Matnning tuzilishini o'rganish, matn asosida berilgan savol va topshiriqlar ustida ishlash, matn tarkibida qo'llangan so'zlarni so'roq berish orqali guruhlariga ajrata olishni o'rgatish. Rasm asosida hikoya yozish ko'nikmasini shakllantirish.

1-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

*Ayting-chi, navbatda turish deganda nima-ni tushunasiz?*

*qilmay baxtsiz hodisaga uchraganlar haqida lavhalar ko'rganmisiz? Ularga nima degan bo'lardingiz?*

### Asosiy qism

#### Yozma mashq

O'quvchilar darslikning 98-betidagi ko'rsatmalar va namunalar asosida qoidalarni buzuvchi, boshqalarning hayotiga xavf soluvchi haydovchilarga xat yozadilar.

Xat yozishga kirishishdan oldin o'quvchilar bilan qoida buzishning oqibatlarini haqida hayotiy misollarni keltirgan holda kichik munozara o'tkazib olish maqsadga muvofiq.

O'quvchilar yozgan xatlarni o'qituvchi yig'ib oladi hamda Xalq ta'limi vazirligi yoki Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasiga yuboradi.

### Asosiy qism

#### O'qib tushunish

Darslikda "Maktab oshxonasida" nomli ikki xil dialog matni keltirilgan. O'quvchilarga mustaqil ravishda dialog matnini o'qishlari aytiladi. O'quvchilar dialoglar matni bilan tanishib bo'lgach, matn bir marta o'qituvchi tomonidan ifodali qilib o'qib beriladi.

So'ng dialog matni asosidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

**Eslatma:** har bir savolni 5–6 o'quvchiga bering. Savol va javobning takror bo'lib qo'llishi ahamiyatsiz, bunda o'quvchilarni darsga jalb etish hamda har birining nutqini nazorat qilish va o'stirish muhimligi nazarda tutiladi.

#### 1. Odamlar qanday vaziyatlarda navbatda turishadi?

Bu savolning javobi aynan dialogda keltirilmagan. O'quvchilar dialog matnidagi olgan xulosalari hamda hayotiy kuzatishlari asosida tafakkur qilib javob berishlari lozim.

#### 2. Navbatda turishning odobi bormi?

Bu savolga o'quvchilar birinchi dialogdan olgan ma'lumotlari asosida javob beradi, navbatda turishda ketma-ketlikka rioya qilish, bir-birini kutish odoblarini aytib beradi.



### 3. Tartib va tartibsizlik deganda nimani tushunasiz?

Bu savolning javobi aynan matnda keltirilmagan. O'quvchilar hayotiy kuzatishlari asosida "tartib" va "tartibsizlik" ma'nolarini tushuntirib berishlari lozim. Dialoglarni taqqoslagan holda misol keltirishlari mumkin.

### 4. Navbatda turish qoidalariga amal qilmasangiz, nimalar sodir bo'lishi mumkin?

Bu savolga o'quvchi tafakkur qilib, hayotiy misollar bilan munosabat bildirishi maqsadga muvofiq.

### 2-topshiriq. Ushbu gaplardagi farqni toping va izohlang.

Mazkur topshiriq og'zaki bajariladi. O'quvchilar darslikda ikki ustunda berilgan gaplarning ma'nosini o'zaro farqlab, izohlab berishlari lozim.

Bunda o'quvchilar uch kishilik guruhga bo'linadi: birinchi ustundagi bitta so'zni bir o'quvchi, qarama-qarshi keltirilgan ikkinchi ustundagi so'zni ikkinchi o'quvchi o'qiydi. Uchinchi o'quvchidan o'qilgan ikkala gapga munosabat so'raladi.

O'quvchilar javobi tinglangach, ularning fikriga munosabat bildiriladi hamda muloqot odobi, bunda qanday so'zlardan foydalanish kerakligi haqida ma'lumot beriladi.

#### Yozma mashq

### 3-topshiriq. Matndan tartibni ifodalab kelayotgan so'z va birikmalarni aniqlab yozing.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar dialog matnidan tartibni ifodalab kelayotgan so'z va so'z birikmalarini topib yozishlari lozim.

O'quvchilarning mashqni mustaqil bajarishlari nazorat qilinadi.

Mashqni yozib bo'lgach, har bir o'quvchiga yozgan so'zlari o'qitiladi. Xato va kamchiliklar bo'lsa, birgalikda tuzatiladi hamda tartibni ifodalovchi so'zlar xattaxtda yozilib, izohlab beriladi.

## 2-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Ayting-chi, siz ham navbatda turasizmi? Qayerda?*

#### Asosiy qism

### 1-topshiriq. Rasm asosida xaridorlar-

### ning navbatda turish odobi haqida fikr bildiring.

Mazkur topshiriq og'zaki suhbat asosida tashkil qilinadi. O'quvchilar rasm bilan tanishganlaridan so'ng, rasm ko'rsatilgan holda o'qituvchi tomonidan rasmdagi holatlar rolgakirib o'qib beriladi.

So'ng har bir o'quvchidan navbatda turish odobi haqida munosabat so'raladi.

Bu jarayonda o'quvchilarning javobi turli xil bo'lishi mumkin, asosiy e'tibor o'quvchilarning rasm asosida tafakkur qilishi hamda munosabat bildirilishiga qaratiladi.

#### Yozma mashq

**2-topshiriq.** Rasmdagi xaridorlarga mos keladigan so'zlarni yozing. Bitta xaridorga bir nechta so'z to'g'ri kelishi ham mumkin.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda ikki ustun keltirilgan bo'lib, birinchi ustunda sotuvchi va xaridorlar tartiblab berilgan. O'quvchilar rasmda keltirilgan xaridorlar holatiga qarab ularga mos so'zlarni yozishlari lozim. Bitta xaridorga bir nechta so'z ham to'g'ri kelishi mumkin. Yozish uchun so'zlar dan namunalar ham keltirilgan. Bu topshiriq orqali o'quvchining rasmni tasvirlay olishi hamda lug'at boyligi tekshiriladi.

O'quvchilarning imlosi, so'zlarni o'rinli qo'llashi tekshiriladi.

### 3-topshiriq. Ko'cha-ko'yda ishlatadigan murojaat so'zlaringizni yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Mazkur topshiriq daftarda bajariladi. O'qituvchi namunani o'qib beradi. O'quvchilar hayotiy kuzatishlari asosida ko'cha-ko'yda ishlatadigan murojaat so'zlarini yozishlari hamda ular ishtirokida gap tuzishlari lozim.

O'quvchilarning imlosi, gaplarni mantiqan bog'lashi tekshiriladi.

## 3-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Ayting-chi, darsga kech qolsangiz ham, navbat kutasizmi?*

#### Asosiy qism

#### O'qib tushunish

O'quvchilar darslikda berilgan "Ikki yo'l" matnini o'qishlari lozim. Bunda o'quvchilar bir



yoki ikki gapdan o'qigan holda matnni o'qib chiqishadi. Bir o'quvchi o'qiyotgan vaqtda qolgan hamma matnni kuzatib turishi talab qilinadi.

*"Kuzatib turing, men istagan o'quvchidan davom ettirishni so'rayman"* deb ogohlantirish samara beradi.

Matn 2–3 marta qayta o'qib bo'lingach, matn ostidagi savollar bilan suhbat boshlanadi.

Ushbu savollarning javobi matnda keltirilgan. O'quvchilar matndan shu o'rinlarni topib, javob berishlari lozim. Matn qismlarga bo'lib berilgan, o'quvchi matn qismlarini taqqoslab, har bir qismdan olgan xulosalarini birlashtirib, matn mazmunini tushunishi lozim.

O'quvchilar savollarga javob berib bo'lgach, ularning javoblariga munosabat bildiriladi.

### Yozma mashq

**2-topshiriq. "Ikki yo'l" matni asosida chiqargan 3 ta xulosangizni yozing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar matndan olgan xulosalarini yozib berishlari lozim. O'quvchilarning mustaqil yozishlari nazorat qilinadi. Har bir o'quvchiga yozgan xulosalari o'qitiladi. Eng yaxshi yozgan, qisqa va chiroyli xulosa keltirgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

## 4-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Ayting-chi, matnlarga sarlavhani qanday tanlaymiz?*

#### Asosiy qism

##### O'qib tushunish

Darslikda uchta matn va sarlavha keltirilgan. Sarlavhalarning ikkitasi ortiqcha. O'quvchilar matn mazmunidan kelib chiqib matnlarga mos sarlavhalarni tanlashi lozim.

O'quvchilar darslikda berilgan matnlarni o'qishlari kerak. Bunda o'quvchilar bir yoki ikki gapdan o'qigan holda matnni o'qib chiqishadi. Bir o'quvchi o'qiyotgan vaqtda qolgan hamma matnni kuzatib turishi zarur.

Matn 2–3 marta qayta o'qib bo'lingach, har

bir o'quvchiga uchta matnga mos sarlavhani aniqlab yozish topshiriladi.

**1-topshiriq. Dialog matnini tartiblang va o'qing.**

Darslikda dialog matni tartibsiz holda berilgan. O'quvchilar dialogni mazmunan tartiblab o'qib berishlari lozim. O'quvchilar tayyor bo'lgach, har bir o'quvchiga o'qitiladi.

So'ng dialog matnining to'g'ri varianti o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi.

**2-topshiriq. Rasmlar asosida kichik matn yozing. Kalit so'zlardan foydalaning.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Darslikda olmadan qoqi tayyorlash jarayoni tasvirlangan. O'quvchilar berilgan kalit so'zlardan foydalanib, rasm asosida tasviriy matn yaratishlari lozim. Bunda rasmlar ketma-ketligiga rioya qilish zarur.

O'quvchilar matnni yozib bo'lgach, ularning imlosi, gaplarni mantiqan bog'lashi tekshiriladi. Eng yaxshi matn yozgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

## 5-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Ayting-chi, odamlar ko'proq qayerlarda navbat kutishadi?*

#### Asosiy qism

##### She'rni o'qish

Darslikda berilgan she'r hamda muallifi tanishtiriladi. O'quvchilarga she'rni mustaqil, ovoz chiqarmay o'qishlari aytiladi.

She'rni o'qib bo'lishgach, o'qituvchi bir marta baland ovozda o'qib eshittiradi.

So'ng she'r ostidagi savollar asosida suhbat o'tkaziladi.

Ushbu savollarga o'quvchilar tafakkur qilib javob berishi lozim. Ya'ni she'r matni mazmunidan olgan xulosalari hamda hayotiy kuza-tishlari asosida javob berishlari nazarda tutilgan.

O'quvchilar javobi tinglangach, o'qituvchi tomonidan "dakki eshitish" hamda "xudbin" so'zlarining ma'nosi tushuntiriladi.

##### Yozma mashq

**1-topshiriq. She'r matnidagi ketma-ketlikni to'g'ri toping.**



Mazkur topshiriq daftarda bajariladi. Darslikda she'r mazmuni alohida gaplar ko'rinishida berilgan. O'quvchilar she'rning mazmuni-dan kelib chiqib gaplarni tartiblab, bosh harflarini ketma-ketlikda yozishi lozim.

**Javob:** E, A, D, B.

**2-topshiriq. She'rda kim?, nima?, qanday? so'roqlariga javob bo'ladigan hamda harakatni ifodalayotgan so'zlarni jadvalga yozing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar she'r matnidan so'roqlarga javob bo'luvchi so'zlarni topib, ularning har birini alohida ustunlarga yozishi lozim.

Bu topshiriq orqali o'quvchining matn bilan ishlash hamda so'roq berish orqali so'zlarni farqlash ko'nikmasi shakllantiriladi.

## 6-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Ayting-chi, maktabda o'qituvchilarni ko'rganingizda nima deysiz?*

#### Asosiy qism

**1-topshiriq. Berilgan so'zlarni izohlang. Ularni qaysi holatlarda ishlatishimizni ayting.**

Mazkur topshiriq og'zaki bajariladi. Darslikda muomala odobiga oid, har xil vaziyatlarda ishlatiladigan so'zlar berilgan. O'quvchilarga ushbu so'zlarni mustaqil o'qib chiqishlari aytiladi.

So'ng o'qituvchi har bir so'zni ko'rsatib, unga alohida to'xtaladi. Ushbu so'zlarning qayerda ishlatilishi, kimlar o'rtasida qo'llanishini so'raydi.

O'quvchilar javob berib bo'lgach, o'qituvchi muomala odobiga doir so'zlar haqida ma'lumot beradi.

**2-topshiriq. Rasmlarga qarang. Berilgan holatlarda qanday gaplashish kerakligini ayting.**

Mazkur topshiriq og'zaki bajariladi. Darslikda uch xil holatdagi rasm keltirilgan. O'quvchilar o'z partadoshlari bilan birgalikda holatlarga mos suhbat tuzib, aytib berishi lozim.

Mashqni bajarib bo'lgach, suhbatlar o'qiti-

lib, tekshiriladi.

Bunda o'quvchilarning muomala odobiga doir so'zlarni to'g'ri qo'llashi, gaplarni mantiqan bog'lashi hamda har bir suhbatni olga kirib aytib berishi tekshiriladi.

**3-topshiriq. Rasmlarga qarang. Rasm-dagi odamlarning suhbatini yozing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Darslikdagi rasmlar o'quvchiga ko'rsatilgan holda savol bilan murojaat qilinadi:

1. Bu qayer?
2. Bular kimlar?
3. Odamlar nimalarni gaplashishyapti?

O'quvchilar javob berib bo'lgach, rasmlarga mos suhbat yozishlari aytiladi. Har bir o'quvchining mashqni mustaqil ravishda bajarishi nazorat qilinadi.

O'quvchilar yozib bo'lgach, yozgan matnlari o'qitiladi. Matnning imlosi, gaplarni mazmunan bog'lashi tekshiriladi.

## 7-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Ayting-chi, Dilorom kim? Uni qaysi matnda uchratdik?*

#### Asosiy qism

**1-topshiriq. "Ikki yo'l" hikoyasini tinglang.**

**Eslatma:** o'qituvchi taqdim qilingan audiolarni ovoz kuchaytirgich orqali qo'yib eshittirishi lozim. Lekin turli xil texnik sabablar bilan buning imkoni bo'lmaganda o'qituvchining o'zi adabiy til normalariga amal qilgan holda, ravon va yetarlicha baland ovozda matnlarni o'qib berishi ham mumkin.

Audiomatn (darslikning 102-sahifasida keltirilgan).

Audiomatn eshittirilgach, quyidagi topshiriqlar bajariladi:

#### Yozma mashq

**1-topshiriq. Bir-biriga bog'liq gaplarni to'g'ri belgilang.**

Mazkur topshiriq daftarda bajariladi. Dars-



likda audiomatndagi voqealar ikki ustunga ajratib berilgan. Birinchi ustundagi gaplarni mazmunan to'ldiradigan gaplarni o'quvchi ikkinchi ustundagi gaplar orasidan topib belgilashi lozim.

Bu topshiriq orqali o'quvchining eshitib tushunish ko'nikmasi tekshiriladi.

**Javob:** 1 – E, 2 – A, 3 – B, 4 – D.

**1-topshiriq. Gaplarni o'zaro bog'lab yozing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bu 1-topshiriqning davomi bo'lib, o'quvchilar yuqorida gaplarni bir-biriga birlashtirgan bo'lsa, endi bu jarayonda bu so'zlarni qo'shib yozishlari lozim. Mashq daftarida gaplarning boshi boshlab berilgan. O'quvchilar gaplarni davom ettirib yozishlari kerak.

Mashqni yozib bo'lgach, har bir o'quvchining imlosi, gaplarni mantiqan bog'lashi tekshiriladi hamda o'qituvchi tomonidan ikkita mustaqil gapni bog'laganda ishlatiladigan so'zlar haqida ma'lumot beriladi.

## 8-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Ayting-chi, kim navbatga qat'iy amal qiladi?*

#### Asosiy qism

##### “Navbat bilan javob ber” o'yini

Darslikda o'yin shartlari va jarimalar berilgan. O'qituvchi o'yin shartlari bilan bolalarni tanishtiradi. Jarimalar bo'yicha ogohlantiriladi. O'quvchilar tayyor bo'lishgach, o'yin boshlanadi.

Bu o'yindan asosiy maqsad o'quvchilarga navbatga rioya qilishni amaliy ko'rsatish, ularning so'z boyligini tekshirishdir.

##### Yozma mashq

**1-topshiriq. Rasmi diktant. So'roq bering va javobini yozing: kimlar?, nima?, qanday?, nechta?, nima qilyapti? Masalan: bola (kim?).**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar darslikda berilgan har bir rasimga savol berib, javobini ham o'zlari tekshirishlari lozim. Bunda o'quvchining rasmdagi tasvirni tushunishi, unga savol bera oli-

shi tekshiriladi.

O'quvchilar yozib bo'lgach, yozganlari o'qitiladi hamda o'qituvchi tomonidan imlosi tekshirilib, munosabat bildiriladi.

Bu mashq orqali o'quvchilarda savol berish ko'nikmasi shakllantiriladi.

## 9-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

*Ayting-chi, siz savdo qilayotganda qanday tartiblarga amal qilasiz?*

#### Asosiy qism

##### Yozma mashq

##### Rasmga qarab hikoya yozing.

Darslikda rasm berilgan. O'quvchi rasimga qarab hikoya yozishi lozim. Yozishni boshlashdan avval ularga savol bilan murojaat qilinadi:

1. Bular kimlar?
2. Ular qayerda?
3. Ular nima haqida suhbatlashyapti?

O'quvchilar javob berib bo'lgach, hikoya yozishni boshlaydi. O'quvchilarga hikoya yozish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish aytiladi:

- Partadoshingiz bilan rasmda tasvirlangan voqea haqida fikr almashing.
- Hikoya uchun chiroyli sarlavha o'ylab toping.
- Yozgan hikoyangizni partadoshingizga bering. Partadoshingizning hikoyasi haqida o'z fikringizni ayting.

O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lgach, bir necha o'quvchiga yozgani o'qitiriladi, xato va kamchiliklari to'g'rilanadi. Eng yaxshi sarlavha tanlangan va mazmunli matn yozgan o'quvchi rag'batlantiriladi.



# ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI

## 2

### O'QITUVCHILAR UCHUN METODIK QO'LLANMA

Muharrir *Orifjon Madvaliyev*  
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*  
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*  
Musahhah *Xurshid Ibrohimov*  
Dizayner *Dilmurod Mulla-Axunov*  
Sahifalovchi *Alimardon Aqilov*

Bosishga \_\_.\_\_.2021-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84  $\frac{1}{8}$ .  
Arial garniturasini. Kegli 14 shponli. Ofset bosma.  
Shartli bosma tabog'i \_\_\_\_. Nashriyot-hisob tabog'i \_\_\_\_.  
Adadi \_\_\_\_\_ nusxa. Buyurtma № \_\_\_\_.

“\_\_\_\_\_” MCHJ nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
100011. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.  
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.  
e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)  
[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)